

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I YA

O‘ZBEKISTON TARIXI

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I YA

O‘ZBEKISTON TARIXI

Ma’ruzalar kursi

Toshkent 2005

63.3 (20‘)
O‘-33

O‘-33 O‘zbekiston tarixi: Ma’ruzalar kursi / Hasanov B. V. va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 251 b.

Ushbu ma’ruzalar kursi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiya qilgan O‘zbekiston tarixi namunaviy dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda tariximizni hozirgi kun nuqtai nazaridan o‘rganish, unga xolisona munosabatda bo‘lish prinsiplari bayon etilgan.

Mualliflar jamoasining ayrim olingan davr, voqelik, ya’ni tarixiy jarayonlarga oid yozilgan ma’ruzalari “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish, uni o‘zlashtirib olishda qo‘llaniladi.

Oliy o‘quv yurtlarining o‘qituvchilari, tinglovchilari hamda keng qiziquvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

BBK 63.3 (20‘)

Taqrizchilar: tarix fanlari doktori,
professor **S. S. A’zamxo‘jayev;**
tarix fanlari doktori **R. M. Abdullayev**

KIRISH

O'zbekiston tarixida 1991 yil 31 avgustdan boshlab yangi, mustaqillik davri boshlandi. Xalqimiz o'zi tanlagan yo'ldan borib, huquqiy demokratik davlat qurish, mamlakatimizni rivojlangan buyuk davlatlar darajasiga ko'tarishdek murakkab, oliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun sobitqadamlik bilan mehnat qilmoqda.

Mustaqillik ruhi mamlakatimiz miqyosida davlatchilik, iqtisodiyot, siyosat sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy qarashlar, ma'naviyatni shakllantirish masalalariga yangicha yondashishni talab qilmoqda. Sanab o'tilgan muammolarning yechimini topishda tarix fanining ahamiyati kattadir. Tarix faniga, xususan, O'zbekiston tarixiga nisbatan turli yondashuvlar ko'zga tashlanmoqda. Buning bir qancha sabablari bor. 74 yillik sobiq sovetlar davrida kommunistik mafkuraning tazyiqi ostida juda ko'p tarixiy jarayonlar siyosiy maqsadda buzib ko'rsatilgan yoki xaspo'shlab o'tilgan. Natijada haqiqatga putur yetgan. Bundan tashqari, unchalik uzoq davr bo'lmasa ham mustaqillik yillarida nafaqat tarixchilar, balki faylasuf, siyosatchi, tilshunos, iqtisodchi olimlar, shuningdek, jurnalistlar, publitsistlar tomonidan juda katta ishlar olib borildi. Yangi tarixiy faktlar ochildi, arxiv hujjatlari matbuot yuzini ko'rdi, ilmiy, obyektiv xulosalar shakllandi. Bularning barchasi Vatanimizning yangicha, haqiqiy tarixini yaratishga imkon tug'dirdi.

Bayon qilingan vaziyatni hisobga olib, O'zbekistonning tarixini yaratishga yangicha yondashuvga alohida ahamiyat berib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996 yil 16 dekabrda O'zbekiston tarixining yangicha talqinini tayyorlash va nashrdan chiqarish haqida maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorda tarixiy jarayonlarni va shaxslarni talqin qilishning, baholashning metodologik yo'nalishlari belgilab berildi.

Mazkur taqdim qilinayotgan ma'ruzalar to'plamini yuqorida qo'yilayotgan talablarni ro'yobga chiqarish yo'lidagi bir tajriba deyish mumkin. Ma'ruzalar so'nggi bir necha yillar davomida IIV Akademiyasida O'zbekiston tarixi kafedrasini tomonidan tinglovchilarga ta'lim berish jarayonida sinovdan o'tdi va muayyan mazmun va shaklga ega bo'ldi.

Haqiqatan ham, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda unga xolisona yondashish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri, desak yangilishmaymiz. Tarixiy haqiqatni tinglovchilarga o'z holicha yetkazish uchun esa biz, murabbiylardan, ozgina jonbozlik, fidoyilik talab etiladi.

Hukmingizga havola etilayotgan ma'ruzalar to'plami V 380200 «Huquqni muhofaza qilish faoliyati» ta'lim yo'nalishi bo'yicha «O'zbekiston tarixi» fani namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Bu Siz, aziz kitobxonlarga ona Vatanimiz tarixini o'rganish yo'lida hadya etilayotgan bir debocha, kichik bir tuhfadir. Albatta, ushbu ma'ruzalar mukammal, kamchiliklardan xoli deyishdan yiroqmiz, unga Siz, aziz o'quvchilar, tegishli baho berasiz degan umiddamiz.

Ma'ruzalarni yozishda mualliflar **B. V. Hasanov** (2, 3, 16, 17-ma'ruzalar), **SH. Q. Alimov** (6, 7, 14, 15-ma'ruzalar), **E. Q. Arifdjanov** (1, 8, 9, 10, 11, 12-ma'ruzalar, xulosa), **B. A. Irmuhamedov** (4, 5, 13-ma'ruzalar), qatnashdilar. To'plam haqidagi fikr va mulohazalaringizni bajonidil qabul qilamiz.

1- ma'ruza
**O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING MAZMUNI, NAZARIY-
METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI O‘RGANISHNING
AHAMIYATI**

1. O‘zbekiston tarixini o‘rganish – muhim siyosiy vazifa

O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o‘tmishga borib taqaladi. Yashab turgan hududimiz tarixiy manbalari, arxeologik qazilmalari, xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun olam tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk zaminda buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, siyosatchilar, buyuk sarkardalar yashab o‘tganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu yerda yaratilgan, sayqal topgan. Milodgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, osori atiqalar dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me‘morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Topilgan ko‘plab qadimgi toshyozuvlar, bitiklar, kutubxonalarda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozmalar, ijtimoiy hayotning turli sohalariga doir o‘n minglab qimmatbaho asarlar o‘lka xalqlari ma’naviyatining yuksakligini namoyon qilib turibdi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini sinchiklab o‘rganish, ulardan O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizni buyuk davlatlar qatoriga ko‘tarishda, xalq farovonligini yuksaltirishda foydalanish muqaddas vazifadir. Chunki O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov ta’kidlaganidek, “...kim bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”¹. Demak, o‘zligini tanigan, tarixiy tajribadan chuqur saboq olgan fuqarolariga ega bo‘lgan davlatni tanlagan yo‘lidan qaytarib bo‘lmaydi. Bunday davlatda tinchlik, taraqqiyot, farovonlik barqaror bo‘ladi.

O‘zbekiston tarixining bog‘chadan boshlab barcha turdagi o‘quv yurtlarida o‘qitilishi yuqoridagi g‘oyadan kelib chiqadi. Fanni o‘qitilishining ahamiyati uning oldiga qo‘yilayotgan vazifalar va maqsadlardan kelib chiqishi tabiiydir. Bizningcha, O‘zbekiston tarixini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadni quyidagi uch jihat bilan izohlash mumkin:

*Birinchi*dan, O‘zbekiston tarixini fan sifatida o‘qitish bilan ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishga, ularning rivojlanish qonuniyatlari, sabab va oqibatlarini aniqlash va tushuntirib berish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga, intellektual qobiliyatini yuksaltirishga erishiladi. Tarixiy jarayonlar tasodifiy, o‘zaro bog‘lanmagan voqealar emas,

¹ *Каримов И. А.* Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Т., 1998. – 3–4-б.

balki muayyan qonuniyatga, mantiqqa ega bo'lgan hodisalar ekanligini tushungan, ongli, bilimli odamni aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql va mantiq tarozisiga solib ko'radi va to'g'ri xulosalar chiqara oladi.

Ikkinchidan, hech qaysi ijtimoiy fan O'zbekiston tarixi kabi millatimizning o'zligini bilishiga salmoqli hissa qo'shmaydi. Aynan shu sababli O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida millatimizning o'zini o'zi anglash ehtiyoji to'laroq qondiriladi. Boshqacha aytganda, tarix xalqning ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi milliy tuyg'udir.

Milliy tuyg'u – insonning o'zi mansub bo'lgan millatning tarixi, xususiyatlari, ruhiyati, hozirgi ahvoli va qadriyatlarini tug'ma, hissiy anglashidir. Insonda milliy ong, tuyg'u va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, bunday inson o'zga millatlarning ham qadr-qimmatini anglab yetmaydi, unda tarbiyaning vatanparvarlik, jasorat, ishonch kabi shakllarini qaror toptirish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas.

I. Karimovning ta'biri bilan aytganda, “Xalqimizning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishda hal qiluvchi..., belgilovchi ahamiyatga ega”¹.

Shuningdek, O'zbekiston tarixini o'rganish davlatimiz fuqarolarini vatanparvarlik, baynalmilallik ruhida tarbiyalash, xalqimizning milliy xudbinlik, maqtanchoqlik, milliy mahdudlikka botib ketmasligining oldini olish kabi bir qator tarixiy vazifalarni ado etadi.

Uchinchidan, mustaqil davlatimizning kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotidagi insonparvar demokratik rivojlanish yo'lini tanlaganligi bu davrda turli xil partiyalar, siyosiy harakatlar va birlashmalarda ishtirok etayotgan fuqarolardan davlatimizning iqtisodiy rivojlanishi uchun siyosiy barqarorlikni ta'minlashlarini talab etadi. Bu talab fuqarolarimizda siyosiy ong va siyosiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishini taqozo etadi. O'zbekiston tarixi fani esa jahondagi ilg'or demokratik kuchlar, davlatlarning tajribalarini umumlashtirish asosida fuqarolarimizda yangicha siyosiy madaniyatni shakllantirish, ularning davlatimizni boshqarish ishlaridagi qatnashuvida siyosiy kaltabinlikka yo'l qo'ymasliklarining yo'l-yo'riqlarini ko'rsatish kabi amaliy-siyosiy vazifalarni ham bajaradi.

Xullas, o'tmishimizni chuqur tahlil etsak, undagi boy tajribani to'laligicha egallasak, undan saboq olsak, eski xatolarga yo'l qo'ymasak, bugungi kunimiz va kelajagimizni to'g'ri belgilab olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tarixsiz kelajak, milliy g'urursiz mustaqillik bo'lishi mumkin emas. Shunday ekan, endilikda biz istiqloлга erishgan vatanimizning turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lgan ilmiy siyosiy tafakkurini

¹ *Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – 273-б.*

shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan yangicha tarixiy tafakkurning mahsuli sifatida o'rganishimiz kerak. Uni mustaqillikni mustahkamlash, millatimizning o'zligini anglash, milliy g'ururni shakllantirish, yoshlarimizni mustaqil Vatanimizga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga xizmat qildirmog'imiz darkor.

2. O'zbekiston tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari

“Tarix” so‘zi aslida arabcha bo‘lib, o‘zbek tilida “voqealar haqida hikoya”, “o‘tmish haqida hikoya” ma‘nolarini anglatadi. Lekin bu tarix faniga berilgan ta‘rif emas. Tarix fani o‘tmishni o‘rganadi. Masalan, har bir sohaning, jumladan, texnika, tibbiyot, matematika, dehqonchilik kabi behisob sohalarning o‘z tarixi bor. Bu – tabiiy hol. Tarixga turli qarashlar ham mavjud, kimlardir tarixni fan emas, balki bo‘lib o‘tgan voqealarning sarhisobi, kimlardir uni buyuk o‘tmishdoshlarimizning faoliyati deb biladi va hokazo. Bu ularning vijdoniga, dunyoqarashiga havola. Bizga ko‘proq mashhur tarixchi, buyuk vatandoshimiz Amir Temurning faoliyatiga bag‘ishlangan “Zafarnoma”ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiyning tarixga munosabati yaqinroq tuyuladi. Uning ta‘biricha, tarix fani mamlakat hamda davlatlar o‘tmishida yuz bergan holatlarning sabablarini o‘rganadi: qaysi tadbir va choralar tufayli mamlakatda osoyishtalik bo‘lganligini, qanday sharoitlarda mamlakat tanazzul, halokat yo‘liga tushib qolganligini, shuningdek uni bu yo‘ldan chiqarish, taraqqiyotga yo‘l ochish uchun qaysi ishlarni qilish yoki qilmaslik kerakligini ko‘rsatib beradi¹.

Sharafiddin Ali Yazdiyning bu fikrlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston tarixini biz, asosan, hududimizdagi ko‘p ming yillik ijtimoiy hayotni o‘rganadigan fan deb tushunamiz. Ana shu fikrga asoslanib, O‘zbekiston tarixi fanining mazmun doirasini belgilashga harakat qilamiz.

Bizningcha, O‘zbekiston tarixi fanining mazmuniga muayyan hududda hodisa va voqealarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozga uchrash sabablari, turli siyosiy kuchlar, tabaqalar, sinflar, tarixiy shaxslar orasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini tarixiylik nuqtai nazaridan o‘rganish kiradi. Shu bilan birga, bu fan o‘rganilgan qonuniyatlarga tayanib, O‘zbekiston Respublikasi doirasida rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurish uchun o‘zining tarixiy tajribaga asoslangan ilmiy xulosalarini ishlab chiqadi.

O‘zbekiston tarixining o‘rganish obyektlariga siyosiy jarayonlar, milliy ozodlik harakatlari, ishlab chiqarish kuchlari, ilm-fan va madaniyatdagi o‘zgarishlar, ma‘naviyatga aloqador bo‘lgan din, mafkura va turli g‘oyalar, buyuk shaxslar faoliyati hamda shu kabilar kiradi.

O‘zbekiston tarixini ilmiy asosda o‘rganish borasida, ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, salmoqli ishlar amalga

¹ *Муминов И.* Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т., 1993. – 17-б.

oshirildi. Fanni o'rganishning dolzarb muammolari, asosiy g'oyalari Prezident I. Karimovning tarixchi olimlar bilan uchrashuv chog'idagi nutqida belgilab berildi. Bu g'oyalar O'zbekiston tarixini o'rganishning asosiy konsepsiyasini ishlab chiqishda o'z aksini topdi. Bugungi kunda mazkur konsepsiyaning asosiy g'oyalari shakllantirildi. Ular quyidagicha:

– O'zbekiston hududida tub aholi va uning ajdodlarining ko'p ming yillar davomida o'troq yashab kelganligi hamda mahalliy madaniyatning boy qadimiy ildizi va o'tmishi bo'lganligini qayd etish;

– O'zbekistonda davlatchilikning paydo bo'lishi va o'zbek xalqining shakllanishi jarayonida tub o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan aholining o'zni hal qiluvchi omil ekanligini nazarda tutish. Bugungi o'zbek xalqi tarixan shu zaminda yashagan xalq shajarasining davomi va shu yerda shakllangan turmush tarzi hamda madaniyatining vorisi ekanligining tan olinishi;

– mil. av. III-II ming yilliklarda shakllangan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligi, hunarmandchilik va mahsulot almashish O'zbekistonda davlatchilikning kelib chiqishidagi asosiy omil ekanligini tushunish;

– O'zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida tub aholining urf-odatlarini, an'analari va ma'naviyati, azaliy ijtimoiylashuv birlashtiruvchi omil bo'lganligining tan olinishi;

– O'zbekistonda ijtimoiy hayotning shakllanishi, butun O'rta Osiyo miqyosidagi qadimiy madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni qamrab olgan siyosiy-ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilishi;

– O'zbekistonda ijtimoiy hayotning shakllanishi va rivojlanishi unga xos xususiyatlar va qonuniyatlarga, jahon sivilizatsiyasi rivoji, dunyo xalqlari tarixida muhim o'ringa ega ekanligining qayd etilishi.

Agar konsepsiyaning mohiyatini chuqur talqin va idrok qiladigan bo'lsak, bir qancha yangicha muammolar mavjud ekanligi ko'rinib turibdi. Jumladan O'zbekistondagi ijtimoiy hayotning o'ziga xosligi, uning shakllanishida o'troq o'zbek aholisining yetakchi o'rin tutganligi, o'zbeklarning o'zi esa shu yerda yashagan o'troq xalqning qonuniy vorislari ekanligi kabi ilmiy asoslangan g'oyalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston tarixi davrlarga bo'lib o'rganiladi. Bugungi kunda ular shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Davlatchilikka o'tish davri (mil. av. II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmi).

2. Ilk davlat uyushmalari (mil. av. I ming yillikning birinchi yarmi).

3. Qadimgi davr ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixi (mil. av. IV asrning oxiri – milodning IV asri).

4. Ilk o'rta asr davlatchiligi tarixi (V–VIII asrlarning o'rtalari).

5. Rivojlangan o'rta asrlar davlatchiligi (IX–XIII asrlarning boshlari).

6. Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi (XIV asrning ikkinchi yarmi – XVI asrning boshlari).

7. XVI–XIX asrlarning birinchi yarmi davlatchiligi tarixi.

8. O'zbekiston XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrdagi mustamlakachilik davrida.

9. Mustaqil O'zbekiston tarixi.

Ushbu davlatlashtirish bosqichlari muayyan kamchilikdan ham mustasno emas, lekin keltirgan bu usulimiz yetarli darajada o'zini oqlamagan tarixiy jarayonlarni formatsion usulda tahlil qilishdan voz kechilganidan dalolat berib turibdi. Buni ilgariyiga nisbatan biroz bo'lsa-da, olg'a siljish deyish mumkin.

O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlar kabi o'zining muayyan qonun-qoidalariga ega. Ular umumiy va xususiy usullarga bo'linadi. Umumiylariga, jumladan obyektivlik (holislik), tarixiylik qoidalarini keltirish mumkin. Tarixiy hodisalarni chuqurroq o'rganish uchun xususiy usullar qo'llanishi mumkin. Ularga, masalan, statistika, matematika, sotsiologik tadqiqot usullari kiradi. Bu usullar tarixiy hodisalarning miqdoriy va sifat o'zgarishlarini tahlil qilish asosida chuqur tarixiy-ilmiy xulosalarni shakllantirishga yordam beradi. Ulardan qaysi birini qo'llash tadqiqotchining o'z oldiga qanday maqsad qo'yganligi bilan belgilanadi.

Endi asosiy qoidalarni izohlab berishga harakat qilamiz.

Obyektivlik qoidasi. Tarixiy voqealarni o'rganishning ushbu asosiy qoidasi butun borliqning, har bir tarixiy hodisaning inson xohish-irodasiga bog'liq emasligini ta'kidlab, ular qanday bo'lsa shundayligicha, holisona, hech qanday o'zgartirishlarsiz, aniq hujjatlar, ishonchli dalillar asosida, ularning barcha ko'p qirrali, qarama-qarshi salbiy va ijobiy tomonlarini bir butun yaxlit holda, o'rganish demakdir. Obyektivlik tarixiy hodisalar va shaxslarni siyosiy va mafkuraviy qarashlardan mustasno tahlil qilishni taqozo etadi. Bu qoidaning buzilishi ijtimoiy hayotni boshqarish konsepsiyalarini ishlab chiqishda noto'g'ri, noilmiy, xato xulosalarga olib kelishi mumkin. Masalan, bolshevik siyosatdonlarning real vaziyatni hisobga olmasdan taraqqiyotdan bir oz orqada qolgan xalqlarning taraqqiy etgan mamlakat yordamida ijtimoiy hayotning muayyan bosqichlaridan sakrab o'tishlari mumkinligi haqidagi xulosalarini ana shunday xato sifatida misol qilib keltirish mumkin. Natijada ijtimoiy hayotning rivojlanishi buzilganligi sababli O'zbekiston buhronlar girdobiga duchor bo'ldi, millionlab begunoq insonlar qurbon bo'ldi, uzoq vaqtga qadar iqtisodiy rivojlanish izdan chiqdi, mahalliy turmush darajasi pasayib ketdi, madaniyat va ma'naviyatga putur yetkazildi. Ularning ba'zi bir salbiy oqibatlari shu bugungi kungacha sezilib turibdi. Va aksincha, mustaqillikka erishgan Respublikamiz rahbariyatining tashabbusi bilan o'tmishni va bugungi kundagi ijtimoiy jarayonlarning obyektiv, holisona tahlil qilinishi orqali mamlakatimiz o'zining ilmiy va mantiqiy asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi va shu yo'ldan og'ishmay bormoqda. Mustaqillikka erishilganidan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlarning natijalari tanlangan yo'lning qanchalik to'g'riligidan dalolat berib turibdi.

Tarixiylik qoidasi. Tarixiy voqealarni o'rganishning bu asosiy qoidasi har bir yuz bergan hodisani aniq bir tarixiy vaqt ichida birin-ketin paydo bo'lgan tarixiy jarayon deb qarashni taqozo etadi va ularning bir zaruriy bosqichdan ikkinchi zaruriy bosqichga o'tishining tarixiy izchilligini ochib beruvchi kalit hisoblanadi. Bu qoida har bir hodisani, eng avvalo, uning kelib chiqishidagi

tarixiy shart-sharoitlarni o'rganishni, so'ngra jahondagi boshqa voqealar rivojiga qanday ta'sir o'tkazganligini, ular bilan aloqasini tahlil etib, ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini e'tirof etadi. Boshqacharoq aytganda, tarixiy hodisalarni, shaxslar faoliyatini tahlil qilishda har bir davrning o'z mantig'idan kelib chiqish lozim. Aks holda, bu noto'g'ri xulosalarga olib kelishi muqarrar. Fikrimizning isboti uchun Amir Temurning faoliyati bilan bog'liq bir misol keltiramiz. Ma'lumki, yadro qurollari mavjud bo'lgan hozirgi sharoitda har qanday urush axloqiy, mantiqiy nuqtai nazardan inkor qilinishi tabiiy. Lekin bu mantiqni Amir Temur faoliyatiga qo'llash mumkinmikin? Bizningcha, yo'q. Ana shu qoidani buzib sobiq sovet tarixchilari Temurni qonxo'r va vahshiylar qatoriga qo'shish bilan siyosiy maqsadda haqiqatni buzdilar va uning asosiy xizmatlarini ko'rsatmasdan, o'z xalqi, Vatani uchun xizmat qilgan qahramonni xalqning ongidan sug'urib tashlamoqchi bo'ldilar.

Milliy va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish. Tarixiy jarayonlarni o'rganishning bu asosiy qoidasi har bir millat teng huquqli bo'lib, o'z taqdirini o'zi hal qilishi kerak, har bir tarixiy voqea va hodisani o'rganishda milliy hamda mahalliy xususiyatlarni, ya'ni har bir millat va elatning tilini, dinini, yashash hududini, ishlab chiqarishni tashkil qilish usulini, ruhiyatini, urf-odatlarini, rasm-rusmlarini, an'analarini, marosimlarini to'lig'icha, har tomonlama hisobga olgan holda o'rganishi kerak, degan fikrga asoslanadi.

Ushbu qoidaga rioya qilish ilgaridagidek ba'zi bir qabih niyatlarda mustamlakachilik siyosatining ijobiyligi haqidagi haqiqatga mutlaqo zid xayoliy xulosalar chiqarishga imkon bermaydi.

Chor Rossiyasining siyosatini faqat O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatining mahsuli sifatida qurilgan temir yo'l, telegraf, ba'zi korxonalariga qarab baholashimiz to'g'ri bo'larmikan? Siyosatga, uning oqibatiga baho berishda mahalliy xalqning (ular 1917 yilgacha O'rta Osiyoda umumiy aholining 95 foizdan ortiqrog'ini tashkil qilar edi) turmush darajasi qanday o'zgarganligi, siyosiy, iqtisodiy huquqlari qanday amalga oshirilganligi, mahalliy va ma'naviy ehtiyojlari qay darajada qondirilganligi, turmush tarzi, e'tiqodining ixtiyoriy yoki majburlab o'zgartirilganiga qarab baholanishi shart. Muayyan xalqning taraqqiyot darajasi "past" bo'lsa – bu uning hayoti, ichki ishi. Uni har qanday "olijanob" maqsadda hech kimning tashqaridan kelib o'zgartirishga haqqi yo'q.

Ijodiy yondashuv qoidasi. Obyektivlik va tarixiylikni to'ldiruvchi omillardan biridir. Fan bir joyda qotib qolmaydi, ya'ni yangi manbalar ochiladi, izlanishlar orqali yangi xulosalar ishlab chiqiladi. Ulardan tarixiy jarayonlarni, shaxslarni baholashda foydalanish obyektiv haqiqatni tiklashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ijodiy yondashish har bir manbaning asl nusxa yoki soxta ekanligini qayta-qayta tekshirib ko'rishni, qiyoslashni taqozo etadi. Shuningdek, o'tmishda mafkuraviy va ba'zi bir siyosiy maqsadlarda shakllangan xulosalar vaqt va tarixiy sharoit o'zgarishi bilan o'zining ahamiyatini yo'qotadi yoki tarix sinovidan o'tmaganligi ma'lum bo'ladi.

Masalan, sovetlar davrini o'rganayotgan tadqiqotchi, albatta, partiya va sovet tashkilotlari hujjatlariga murojaat qilishi aniq. Lekin ularning ayni haqiqat deb qabul qilinishi mushkul. Haqiqatni aniqlash uchun esa mavjud hujjatlarga kommunistik mafkuraning ta'siri bo'lganligi ham hisobga olinishi kerak.

Tarixiy hodisalarni ma'lum davr, vaqt o'lchovlari asosida o'rganadigan usullar ham mavjud. Ularga bir vaqtda, bir yo'la, baravariga sodir bo'lgan tarixiy voqealarning vaqtini ketma-ket hisobga olib borish, tarixiy tadrijiylik, davrlarga ajratish usullarini kiritish mumkin. Shulardan birinchisi – bir vaqtda, bir yo'la sodir bo'lgan bir nechta tarixiy voqealar o'rtasida aloqadorlik borligini ochsa, ikkinchisi – tarixiy voqealarning kelib chiqishidagi genetik aloqalarning mohiyatini tushuntiradi, uchinchi – ularning rivojida yangi sifat o'zgarishlariga o'tish imkoniyatlarining borligini ko'rsatib beradi.

Yana shu guruhga kiruvchi usullar: tarixiy qiyoslash, tuzilish tartibi bo'yicha yondashish usullari ham mavjud bo'lib, ulardan birinchisi tarixda yuz bergan bir xil turdagi voqealarni qiyoslash (taqqoslash) orqali ularning taraqqiy etishidagi umumiy yo'nalishlarni aniqlab bersa, ikkinchisi bo'lib o'tgan tarixiy hodisalarning ba'zi muhim tomonlarini qaytadan hosil qilib, ular o'rtasidagi aloqalarning qonuniyatlarini aniqlab beradi, uchinchi esa jamiyatni ko'p qirrali murakkab tartibli jism deb bilgani holda, ularning "gorizontal", ya'ni yon tomonlama aloqalarini tahlil qilib beradi. Tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadlariga qarab uslub ham belgilanadi.

O'zbekiston tarixi jahon xalqlari tarixidan alohida, yangi tarixiy fan bo'lmay, balki jahon tarixi fanining tarkibiy qismi, uning qonuniy davomi bo'lgan, o'zining yutuqlari bilan jahon tarixi fanini boyitadigan va ularning yutuqlaridan o'zbek xalqini bahramand qiladigan fandır. Bu fanni jahon xalqlari tarixi faniga qarama-qarshi qo'yish, ulardan ajratish yoki ular bilan aynanlashtirish mumkin emas.

O'zbekiston tarixi boshqa ijtimoiy fanlar – falsafa, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, iqtisodiyot, huquqshunoslik fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, falsafa fanining qonun va kategoriyalari O'zbekiston tarixi uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qilsa, siyosatshunoslik esa bevosita siyosiy tarix fanining davomi sifatida uning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Iqtisodiy fanlar esa tarixda yuz bergan siyosiy munosabatlar qaysi iqtisodiy bazisning in'ikosi ekanligini ko'rsatib beradi. O'zbekiston tarixi davlat va huquq tarixi fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardan birinchisi ko'proq siyosiy munosabatlar tarixini o'rgansa, ikkinchisi davlat va huquqning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini to'liq, xronologik (birin-ketin yuz berishi) tarzda o'rganadi. Ular o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik har ikkala fanning ham siyosiy munosabatlarni o'rganishi va shu asosda huquqiy munosabatlar tarixini tahlil qilishi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixi fani oldida quyidagi *vazifalar* turibdi:

- O‘zbekistonda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va eng qadimgi davlatchilikning kelib chiqishida azaliy o‘troq aholining madaniyati hal qiluvchi omil bo‘lganini ko‘rsatib berish;
- miloddan avvalgi IX–VIII va VII–VI asrlarda ilk davlatchiligimiz taraqqiyoti jarayonini chuqur va izchil tadqiq etish;
- ahamoniylar bosqini, Iskandar Zulqarnayn va uning vorislari davridagi qadimiy davlatchiligimizni tiklash uchun kurashning mohiyatini ochib berish; Kushonlar sulolasi davri tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi asosida chuqur tadqiq qilish;
- Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va uning ichki, tashqi savdo, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarda tutgan o‘rnini yoritib berish;
- ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligining barcha bosqichlari tarixini yaxlit tizim sifatida o‘rganish va uning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish;
- XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda markazlashgan o‘zbek davlatchiligi rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatlari va xususiyatlarini, Amir Temurning yirik davlat arbobi, madaniyat va fan xomiysi sifatida jahon tarixida tutgan o‘rnini chuqur yoritish;
- XVI–XIX asrning birinchi yarmida o‘zbek davlatchiligining xususiyatlarini, siyosiy tarqoqlik sharoitida boshqarish usullaridagi nuqsonlarni, madaniyat, fan, san‘at sohalaridagi tanazzul alomatlarini o‘rganish;
- o‘zbek xalqining Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sho‘rolar istibdodi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma‘naviy ahvoriga xolisona baho berish;
- o‘zbek davlatchiligi tarixining istiqbol qo‘lga kiritilgandan keyingi eng yangi davrini har taraflama, keng yoritish.

3. O‘zbekiston tarixining asosiy manbalari

Tarixni o‘rganishda manbalarning ahamiyati o‘ta muhim. Manbalar shartli ravishda ikkiga bo‘linadi. Birinchisi – arxeologik izlanishlarning natijalari. Bunday manbalar ayniqsa, yozuv paydo bo‘lguncha o‘tgan davrni o‘rganishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Olimlarning fikricha, yer yuzida insoniyat paydo bo‘lganiga million yildan ortiqroq vaqt o‘tgan. Yozuv esa atigi 6 ming yil ilgari yuzaga kelgan. O‘zbekistonning tarixi bilan bog‘liq, saqlanib qolgan ilk yozma manba “Avesto” taxminan 3 ming yil oldin yaratilgan deb hisoblanadi. Demak, undan oldingi tarixning qiyofasi hozircha asosan arxeologik izlanishlar orqaligina tiklanishi mumkin.

Arxeologiya mutaxassisligiga aloqador bo‘lmagan oliy o‘quv yurtlarining talabalari, jumladan IIV Akademiyasi tinglovchilari izlanishlarda bevosita ishtirok etmasalar-da, biroq matbuotda e‘lon qilingan ma‘lumotlardan to‘laroq bahramand bo‘lishlari mumkin.

Yozma yodgorliklar O‘zbekiston tarixining asosiy manbai hisoblanishi lozim. Lekin qadimdagi mahalliy: Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d yozuvlaridan

namunalar saqlanib qolmagan. Buning asosiy sabablari arab bosqinchilarining faoliyati bilan bog'liq. O'lkada e'tiqod qilinadigan zardo'shtiylik va buddaviylikni tag-tomiri bilan yo'q qilish uchun yozma manbalar gulxanda yondirildi, savodli bo'lgan din targ'ibotchilari jismonan yo'q qilindi. Shuning uchun eng qadimgi tarixning tiklanishida yunon, rim (Gerodot, Strabon va h. k.), xitoy, arab, fors manbalaridan foydalanilgan. Keyingi davr – o'rta asrlarga taalluqli bo'lgan juda ko'plab arab, fors, turkiy tillarda yozilgan manbalar bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda O'zbekiston kutubxonalarining o'zida tarix va ijtimoiy hayotning o'zga sohalariga oid 20 mingdan ortiq nodir qo'lyozmalar saqlanmoqda.

Respublika kutubxonalarida tarixning turli jabhalari yoritilgan minglab ilmiy, publitsistik, badiiy adabiyotlar, davriy matbuot materiallari borki, o'quvchi bularni o'rganish bilan O'zbekiston tarixi haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Akademiya tinglovchilari O'zbekiston tarixini o'quv dasturi doirasida bilishlari shart. Buning uchun Vatanimiz tarixiga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari yetarli.

Talabalar uchun asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlisning umumiy va oliy ta'limga oid boshqa qonunlari, hukumat qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishlari xizmat qiladi. Bu borada Prezident I. A. Karimovning asarlarini alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Ularda o'tmishni o'rganishning mohiyati va metodologiyasi, yuksak ma'naviyatni shakllantirish, o'zlikni anglashning ahamiyati, tarixiy, milliy qadriyatlar, diniy e'tiqodlarni tiklash va boshqa masalalar yoritilganki, ularni bilish va amal qilish voyaga yetayotgan yoshlarimiz uchun o'ta muhimdir. Bundan tashqari, Prezident asarlari o'tmishga va bugungi kunimizga taalluqli boy tarixiy ma'lumotlar keltirilgan yagona manba hisoblanadi.

Tarixni o'rganuvchi har bir inson zamon bilan hamnafas bo'lishi, ya'ni tinglovchi davriy matbuot bilan muntazam tanishib borishi, radioeshittirish va televideniye ko'rsatuvlaridan boxabar bo'lib, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni o'zlashtirib borishi kerak. Shundagina o'quvchining fikri asoslangan, mukammal bo'ladi, u mustaqil ravishda jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning kelib chiqish sabablarini tushunib, ularga obyektiv baho bera olish darajasiga yetadi. Shu tariqa o'quvchi O'zbekiston davlatining yetuk fuqarosi bo'lib shakllanadi.

2-ma'ruza

O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

1. O'zbek xalqining etnogenezi: tarixiy xususiyati va mohiyati

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgani shu o'lkada ming yillar mobaynida yashab kelgan ajdodlarimiz tarixini qaytadan o'rganishni taqozo etadi, chunki yetmish uch yil hukmronlik qilgan kommunistik partiya tomonidan ota-bobolarimiz yozuvlarining tez-tez almashtirilib turilgani, ko'pgina tarixiy adabiyotlarning mafkuramizga to'g'ri kelmaydi, deb yo'q qilinishi, yuqori darajadagi ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan tarixiy asarlarning markazga tashib ketilgani, hujjatlarning o'ta maxfiy saqlangani o'lkamizda yashagan xalqlar, ayniqsa, o'zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanishi tarixini to'lig'icha xolisona, ilmiy dalillar asosida yoritishga imkon bermadi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib o'sgan qishloq, shahar, xullas, Vatanining tarixini bilishni istaydi¹.

Bugungi kunda istiqlolimiz o'zbek xalqining jahon xalqlari orasida teng bo'lib yashashdek azaliy orzusini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratish bilan birga, “o'zbek xalqining izzatini joyiga qo'yishni”² oliy maqsad sifatida talab qilmoqda. Mazkur ma'ruzadan ko'zda tutilgan maqsad, birinchidan, o'zbek xalqining qachon kelib chiqqani, qaysi elat va qabilalarning ta'sirida shakllanganini yoritish, ikkinchidan, tarixiy adolatni tiklash, uchinchidan, tinglovchilarning milliy ongini shakllantirish asosida ularni ichki ishlar organlarining ona Vatanga sadoqatli, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun kuch-quvvatini va aql-zakovatini ayamaydigan xodimlari qilib yetishtirishdir.

Yer yuzida yashayotgan barcha xalqlar to'satdan yoki tasodifan paydo bo'lgan emas, ular turli nomlar bilan hayot so'qmoqlarini bosib o'tgan. Bir guruh xalqlar o'zlarining etnik nomlarini asrlar osha saqlab kelgan, boshqalari esa o'zga qavmlar tarkibida hayot kechirgan. Ba'zi elatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy munosabatlar tufayli hamda ayrim etnik guruhlarning nufuzli ta'sirida boshqa qavmlarga singib ketganlar. Xuddi shuningdek, turkiy elatlar ham o'z nomlariga ega bo'lgunga qadar turli etnik nomlarga ega bo'lib, boshqa elatlar bilan birga yashaganlar³.

Xalqlarning kelib chiqish tarixini (etnogenezi) va shakllanish jarayonini o'rganishda ijtimoiy fanda “etnos” (yunoncha «xalq») va “etnik birlik” iboralari qo'llaniladi. «Etnos» atamasi juda keng va tor ma'nolarda

¹Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., 1998. – 3-б.

²Каримов И. А. Ўзбекистон – келажак буюк давлат – Т., 1993. – 8-б.

³Махмудов Қ. Туркий қавмлар тақдири // Фан ва турмуш. – 1991. – №2.

ishlatiladi. Masalan, Amerika xalqi, Rossiya xalqi, O‘zbekiston xalqi, viloyat xalqi yoki boshqa kichik bir guruh kishilariga nisbatan ham “xalq” iborasi qo‘llanilgan. Shuning uchun ham ma’lum bir ijtimoiy tuzumda vujudga kelgan etnik uyushmaga “Etnik birlik” iborasi ishlatiladi. «Etnik birlik» ma’no jihatidan “xalq” atamasiga nisbatan aniq tushunchadir. Etnik birlik – aniq sharoitda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy uyushma. Fanda etnik birlik bosqichining uch turi mavjud: qabila, elat va millat¹.

O‘zbek xalqining kelib chiqishi to‘g‘risida tarixchi va qadimshunos olimlar o‘rtasida hozirgi kunga qadar turli fikrlar mavjud. Ba’zi olimlar o‘zbek xalqi kelib chiqishining tarixini XVI asrda O‘rta Osiyoga Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbeklarning bostirib kirishi bilan bog‘laydilar.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar turkiy tilda so‘zlashuvchi aholi tarkibiga keyinroq kelib qo‘shilib, ularga o‘z nomlarini berganlar. Bundan o‘zbek degan nomning o‘zi ham XVI asrda paydo bo‘lgan ekan-da, degan fikr yuzaga kelishi mumkin. Albatta, yo‘q. «O‘zbek» so‘zi XIII–XIV asrlarda yashagan Juvayniy va Rashididdinlarning asarlaridan ham bizga ma’lum. Jumladan, Eron tarixchisi va geografi Hamidulloh Qazviniy “Tarixi Guzida” nomli tarixiy asarida 1335 yilda Ozarbayjonga yurish qilgan askarlarni “o‘zbeklar” degan etnik nom bilan ataydi. Oltin O‘rdaning sharqiy qismida yashagan va Oltin O‘rda xoni (1312–1342 yy.) O‘zbekxon qo‘shini tarkibiga kirgan ko‘chmanchi xalq ham «o‘zbek» etnik termini bilan atalgan.

Tarixchi Hamidulloh Qazviniy yuqoridagi tarixiy asarida Oltin O‘rdani “Mamlakati o‘zbekiy” deb ataydi. Nizomiddin Shomiy bilan Sharafiddin Ali Yazdiy ham Temurning Oltin O‘rdaga qilgan yurishini tasvirlaganlarida, o‘zbek atamasini shu ma’noda qo‘llaydilar².

Biz yuqorida keltirilgan manbalarga tayanib, “o‘zbek” degan atama XVI asrda emas, balki undan ham avval paydo bo‘lgan, deb ayta olamiz.

Birinchiidan, bu masalalar yuzasidan mulohaza yuritayotganda xalqning kelib chiqishi bilan nomning kelib chiqishini ajrata bilishimiz kerak. Albatta, avval xalq kelib chiqadi, so‘ng o‘z nomiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham, biz, bu fikrlarni davom ettirib, O‘zbekiston hududida yashagan ajdodlarimiz kimlar bo‘lgan va qaysi qabilalarning ta’sirida o‘zbek xalqi shakllangan, degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

O‘zbek xalqining kelib chiqishi chuqur qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ko‘rinishlari asosan ikki guruhda, birinchisi – Amudaryoning quyi oqimi havzasi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Sirdaryo havzalarida, ikkinchisi esa – Toshkent vohasining keng hududlarini o‘z ichiga qamrab olgan, Sirdaryoning qirg‘oqlaridan to Talas, Chu daryolari havzalarigacha, Farg‘ona vodiysidan O‘sh, O‘zgan, Sig‘noqqacha bo‘lgan viloyatlarda ko‘p asrlar mobaynida yuzaga kelgan.

¹Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг этногенезига оид баъзи назарий масалалар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1998. – №6. – 31–32-б.

²Qarang: Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Т., – 1941.

Oʻrta Osiyo xalqlari kabi oʻzbek xalqi ajdodlarining ham etnik guruhlarini paydo boʻlishi miloddan avvalgi uchinchi va ikkinchi ming yilliklarga toʻgʻri keladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi, koʻchmanchi chorvadorlik bilan shugʻullanuvchi aholi, Amudaryoning quyi oqimi havzalaridagi xorazmkanguy va massaget qabilalari, Soʻgʻdiyoning soʻgʻd va sak qabilalari aholisi, shu jumladan Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon havzalaridagi, Sirdaryoning oʻrta oqimi Chirchiq, Norin, Qoradaryo, Talas, Chu, Toshkent vohasi va Fargʻona vodiylarida yashagan qangʻa, day va sak qabilalari oʻzbek xalqi etnik guruhlarining dastlabki namoyandalari hisoblanadi¹.

Turkiston tarixiga oid oʻnlab tadqiqotlari bilan jahon ilm-fanida eʼtirof etilgan mashhur Ahmad Zaki Validiyning “Umumturk tarixiga kirish” (Istanbul, 1881, 3-nashr) kitobidan ayrim dalillar keltiramiz. Tarix ilmining asoschilaridan biri boʻlgan mashhur Gerodot miloddan avvalgi VII asrda hozirgi Oʻrta Osiyo deb ataladigan mintaqamizda “Argʻippay” nomi bilan qudratli bir davlat qurilganini maʼlum qiladi. Uni saqalar qurganlar. Saqa Ovrupoda “skif” nomi bilan mashhur boʻlgan. Hech kim bularga daxl qila olmaydi, chunki ular ilohiy sanaladilar, – deb yozadi argʻippaylar haqida Gerodot, – ular qurol taqmaydilar, lekin insonlar orasidagi ixtiloflarni hal qilib beradilar. Bularga sigʻingan insonlarga hech kim tega olmaydi. Gerodot ularning raislari hamisha sochini oldirib yurishini, koʻp tillarni bilishini, madaniyatda boshqalardan ilgarilab ketganini yozadi. “Argʻippay” yoki boshqa bir manbaga koʻra “Argʻimbay” yangi zamon tarixchisi V. Tomachekning fikriga koʻra, “Argʻinbay” soʻzidan olingan. Argʻin esa bugungi kunda oʻzbek, qozoq, qirgʻiz millati tarkibiga singib ketgan “argʻin” urugʻining nomidir. Darhaqiqat bugungi Toshkent va Fargʻona vodiysini aylansangiz yoxud Qarshi – Buxoro vohasiga oʻtsangiz, “Argʻin” nomli jugʻrofiy atamalarga, mahalla-qishloq nomlariga duch kelishingizga shubha yoʻq².

Ammo, yuqorida keltirilgan vohalarda va dashtlarda yashagan aholi haqida ilk maʼlumot bergan yunon tarixchilari (avvalo, Gerodot) bu xalqlarni kelib chiqishi jihatdan yunonlarga mansub boʻlmasa-da, skiflar deb ataganlar.

Haqiqatan ham, oʻzbek xalqining ajdodlari boʻlmish turkiy xalqlarning Oltoy davridan keyingi rivojlanish jarayoni aynan skiflar faoliyati bilan uzviy bogʻlangan. Shuni aytib oʻtish joizki, skiflar murakkab qabilalar birikmasidan iborat boʻlib, ularga oid maʼlumotlar yoʻq, faqat skiflar davlatiga asos solgan podshoh – Targʻitoy nomigina saqlanib qolgan. Uning oʻgʻillari nomi, jumladan Yorgʻitoy ismi maʼno jihatidan turkiy atamalarga mos keladi³.

Dashti Qipchoq, Oʻrta Osiyo, Oltoy, Markaziy Osiyoda yashagan va bundan uch ming yil avval skif deb atalgan xalqlar – hunnlar nomi bilan mashhur boʻlganlar. Skiflarning etnografik, antropologik xususiyatlari

¹Эрматов М. Этногенез и формирования узбекского народа. – Т., 1968.

²Qarang: Қосимов Б. Тарихимиз нега сохталаштирилди? // Ёзувчи. – 1999. – 24 февр.

³Маҳмудов Қ. Туркий қавмлар тақдири // Фан ва турмуш. – 1992. – №2.

xunlarga yoki turkiy xalqlarga o'xshashdir. Mahmud Qoshg'ariyning ta'kidlashicha, Iskandar Zulqarnayn O'rta Osiyoni bosib olayotganida turklar o'q-yoyni old tomonga qanday otsa, orqa tarafga ham shunday mahorat bilan otganlar. Bu etnografik xususiyalar xunlar yoki turkiy xalqlarning udumlari skiflarnikiga o'xshash deb qarashga asos beradi.

Qadimgi yunon olimlari ham skiflarning yetakchi qabilalari nomi – gunlar (xunlar) ekanligini ta'kidlashgan. Hatto IX asr allomasi Muhammad al Xorazmiy arab muarrixlari turkiy xalqlarni yoki VII–IX asrlarda siyosiy hayot maydonida ko'ringan turkiy qavm to'qqiz o'g'izlarni skif so'zi oldiga “i” tovushini qo'shib “iskif” deyishini aytgan. Skiflar tarkibidagi xalqlarga yunonlar, xitoyliklar, eroniylar o'z tillariga moslab nom qo'yganlar. Shuning uchun ham yuqorida aytganimizdek, yunonlar miloddan avvalgi V asrdan milodning boshlariga qadar O'rta Osiyoda yashagan xalqlarni umumiy etnik nom bilan skif deb atashgan. Eron Behistun, Nahshi Rustam va Persopol degan joylardagi Ahamoniy Eroniy podsholarning qabr toshlarida va yodgorlik lavhalarida, qoyatoshlarga o'yib yozilgan zafarnomalarda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar sanab ko'rsatiladi va shu bilan bir qatorda saklarning uchta qabila guruhi eslatiladi¹.

Bulardan:

1) “saka-xaumavorka” – tekshiruvchilar bu guruhni Gerodotning “Skif-amyurgiya”lari, Ktesiy Knidskiyning (Gerodotning kenja zamondoshi) “Shoh Omargning skiflari” va keyingi davr mualliflarining sakaravalari bilan aynan bir deb hisoblaydilar;

2) “saka-tigraxauda” – bu nom, odatda “tepasi uchli telpak kiygan saklar” deb tarjima qilinadi. Bu yunoncha matnlardagi “ortokoribantlar” degan terminga to'g'ri keladi;

3) “saka-tiay-tara-darayya” – “dengiz ortidagi” yoki “daryo ortidagi saklar”. Mualliflar yaqin vaqtlarga qadar ularni Yevropa skiflari bilan aynan bir deb hisoblab kelganlar. Ammo so'nggi yillarda, ayniqsa, Behistun yozuvlarining V ustuni tadqiq etilishi munosabati bilan olimlar (xususan, akademik V. V. Struve) bu o'rinda gap O'rta Osiyolik «daryo ortidagi saklar» haqida bormoqda, degan fikrga kela boshladilar.

Yozuvning V ustunidagi matnga qaraganda, saka-tigra-xaudalar” “daryo ortidagi saklar” bilan qo'shni bo'lib yashaganlar. Ba'zi mualliflar saka-xaumovarkalar Murg'obda, ba'zilar Pomirda (R. Gerrman, A. N. Bernshtam) yoki qisman Pomir va Farg'onada (K. V. Trever) yashaganlar degan fikrni ilgari suradilar. Saka-xaumovarkalar Xorazm-massaget harbiy ittifoqining asosini tashkil etgan, degan nuqtai nazar ham bor. Bu ittifoq Qoraqumni, Xorazm vohasini va Sirdaryoning quyi oqimini egallagan (S. P. Tolstov, YA. G'.G'ulomov) Saka-tigra-xaudalar, saka-xaumovarkalarning sharq tomonida, ya'ni Toshkent viloyatida, Sirdaryoning o'rta oqimida va janubiy Qozog'istonda, “saka-tiay-tara-darayya”lar esa O'rta Osiyoning janubida,

¹Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 1. – Т., 1970. – 69-б.

Amudaryoning o'ng sohilidagi tog'li va dasht viloyatlarda so'g'dlar bilan yonma-yon yashaganlar deb hisoblashadi¹.

Keyingi davrlardagi yunon-rim mualliflarining (Polibiy, Pliniy, Ptolemey va boshqalar) asarlarida ayrim sak va massaget qabilalarining juda ko'p nomlari berilgan. Ular yashagan joylarning aniq chegarasini belgilash masalasi o'nlab yillar davomida munozaralarga sabab bo'ldi. Ya'ni keng hududlarda, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida yashagan va uning tub aholisi bo'lgan saklar, bizningcha, turkiy tilda so'zlashuvchilar bo'lib, faqat ma'lum qismigina eroniy – so'g'd tillarida so'zlashuvchilar bo'lgan. Antik mualliflar forsiy yozuvlar, eron xalqining kelib chiqishini sharhlab, saklar madaniyatini, urf-odatlarini, tilini va turmush tarzlarini tasvirlaganlar. O'zbekistonning hozirgi hududida yashagan saklar o'zbek xalqining dastlabki ajdodlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Biz bu ma'lumotlardan o'zbek xalqining va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning shakllanishida madaniy o'troq vohalar – Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent vohasida, shuningdek, Farg'ona vodiysida yashagan mahalliy saklar muhim o'rin tutganlar, degan xulosaga kelamiz. Yana shunday taxmin qilish mumkinki, cho'ldagi ko'chmanchi qabilalar massagetlar, daylar va boshqalar, hatto saklardan ham oldin paydo bo'lganlar, ammo ularning kelib chiqishi bir bo'lgan. Bu haqida qadimgi antik mualliflar xabar berib o'tganlar.

So'nggi yillarda yangi arxeologik materiallar topilganligi tufayli bu qabilalardan ko'pchiligining yashagan hududi yetarli darajada aniqlandi. Bulardan yana biri massagetlar (mil. av. VII–V asrlar) qabilalarining yirik ittifoqi bo'lib, uning tarkibiga bir necha asl sak qabilalari kirar edi.

Ularining ko'pchiligi frako-kimmeriy qabilalariga mansub bo'lgan. Ular nomining o'ziyiq maza-geta, ya'ni “ulug' getlar” shundan guvohlik beradi. Getlar degan etnik nom frako-kimmeriy qabilalari yashagan viloyatning g'arbida juda katta hududga tarqalgan edi. Boshqa bir gipotezaga ko'ra, massagetlar so'zi “mas-saka-ta”dan iborat bo'lib, “katta saklar o'rdasi” demakdir.

Zarafshon havzasida saklar tiliga yaqin turuvchi qadimgi so'g'd tilida gapirgan so'g'dlar ham yashar edilar. Ular shimoli-g'arbiy tomondan saka-xaumavarkalar bilan g'arbda dirbeklar bilan chegaradosh bo'lganlar. So'g'd tilida so'zlashuvchi qabilalar yashagan So'g'diyona bilan Baqtriya o'rtasidagi chegara Hisor tizma tog'lari bo'ylab o'tar edi. Shunday qilib, tarixiy rivojlanishning ilk bosqichida o'zbek xalqi qadimgi ajdodlarining etnik-til munosabatlari shakllangan. Bu bosqich juda ko'p asrlarni, jumladan, miloddan avvalgi minginchi yillarning boshidan, taxminan miloddan avvalgi II asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oldi.

Ikki daryo oralig'idagi xalqlarning yerlari doimo ajnabiy bosqinchilarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Qadimdan ona yurtimiz hududlariga bostirib kirgan xalqlar, albatta, o'zbek xalqining shakllanishiga ta'sir o'tkazmasdan qolmagan.

¹O'sha manba. – 65-b.

Miloddan avvalgi 550 yilda Ahamoniylar boshliq forslar midiyaliklar hukmronligiga chek qo‘yganlaridan so‘ng, hokimiyatni o‘z qo‘llariga oladilar, so‘ng O‘rta Osiyo yerlarini bo‘ysundirish uchun kurash olib boradilar.

Gerodot Kirning Midiya va Bobilni bo‘ysundirgandan keyin o‘z kuchlarini Kaspiy dengizining sharqiy tomonidagi massagetlar yashaydigan tekisliklar sari yo‘naltirgani to‘g‘risida xabar beradi¹.

Ahamoniylarning O‘rta Osiyodagi bir qancha viloyatlar ustidan hukmronligi ikki yuz yildan ortiqroq davom etdi. Albatta, Ahamoniylarning O‘rta Osiyodagi hukmronligi, bu yerda yashovchi xalqlarning tiliga va tashqi ko‘rinishiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Tarix ilmi Turon yerida va Turon davlatlarida faqat turklar emas, balki hozirgi kunda tojik deb nomlangan xalqlarning ota-bobolari ham yashaganligini ko‘rsatadi.

Bundan bilishimiz mumkinki, Turon zamini qadimdan turkiylar va tojiklar yeri edi. O‘rta Osiyoda azaldan so‘g‘dlar, xorazmliklar hamda turkiy elatlar aralash bo‘lib yashab kelganliklari ma‘lum. So‘g‘dlar o‘troq hayot kechirib, asosan, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullanishgan, turklar va so‘g‘dlarning sak qabilalari esa ko‘chmanchi hayot kechirib, asosan, chorvachilik va askarlik bilan shug‘ullanganlar. Tili har xil, lekin tarixda doimo bir davlat doirasida yashagan bu ikki elatni bir-birisiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun o‘zbek xalqining shakllanishida bu xalqning ham ta‘siri bo‘lganligini aytmasdan ilojimiz yo‘q.

Uzoq davr mobaynida Iskandar Zulqarnayn yurishidan (miloddan avvalgi 329–327-yillar) VI asrning o‘rtalarigacha, ya‘ni Yettisuv tuprog‘ida Garbiy turk xoqonligi yuzaga kelgan vaqtga qadar, hozirgi O‘zbekiston hududiga juda ko‘p istilochilar kelib ketdi. Ular bu yerda o‘zlarining chuqur siyosiy, madaniy va etnik izlarini qoldirdilar. Iskandar Zulqarnaynning yurishlari natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi vujudga keldi, miloddan avvalgi III–II asrlarda mavjud bo‘lgan So‘g‘d o‘lkasi shu podsholik tarkibiga kirgan va u zamonlar mahalliy so‘g‘d madaniyati ellinizm elementlari bilan boyigan edi.

Biroq mahalliy aristokratik guruhlar bilan bog‘langan yunon-makedoniyaliklar Yunon-Baqtriya o‘lkasida kichik bir qatlamni tashkil etganliklaridan, dehqonchilik qiluvchi aholining etnik tarkibiga, xususan, so‘g‘dlar tiliga jiddiy o‘zgartirishlar kiritmadilar².

O‘rta Osiyo xalqlari tarixida, jumladan o‘zbek xalqining shakllanishida Qang‘ davlatining ahamiyati juda katta bo‘lgan. Miloddan avvalgi III asrda bu davlat Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi tub aholini va bir qancha ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi qabilalarni hamda o‘lkalarni birlashtiradi. Ishlab chiqarish kuchlarining tobora o‘sib borishi bilan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat taraqqiy etadi, yirik shaharlar va qishloqlar vujudga keladi. Qang‘ davlatining chegarasida qadimiy eron tilida so‘zlashuvchi xalqlar Markaziy Osiyo, Janubiy Sibir va Yettisuvning shimoliy tumanlarida yashovchi turkiy tilda so‘zlashuvchi qabilalar bilan

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 1. – Т., 1970. – 71-б.

² Qarang: Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Т., 1941.

yaqinlashib, o'zaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikda bo'lib keladilar. Ana shu aloqalar natijasida bu ikkala til guruhida xalqlar qisman aralashib boradilar va bularning qo'shilishidan miloddan oldingi II–I asrlarda Sirdaryoning o'rta oqimlarida turkiy tilda so'zlashuvchi yangi etnos vujudga kela boshlaydi. Xuddi shu xildagi jarayon keyinroq Farg'ona va Zarafshon vohasida ham yuz berdi. Milodiy I–II asrlarda yangi etnos son jihatdan birmuncha ko'payadi va alohida elat bo'lib shakllanadi. Shu asrlarga kelib Sirdaryoning o'rta qismida yashovchi xalqning alohida elat bo'lib shakllanishi uchun asosiy omillar mavjud edi: iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayot birligi, umumiy hudud va etnik nom (qandar, qang'ar) vujudga kelgan. Ammo bu elat antik bosqichda vujudga kelgan bo'lib, o'z davriga xos siyosiy va etnik birlik edi. Qang' davlati yemirilishi bilan (milodiy V asr o'rtalarida) uning tarkibidagi elat va qabilalar tarqalib ketadi, yangi siyosiy uyushmalar va etnik birliklar vujudga keladi.

Qang' davlati inqirozga uchragandan so'ng, uning tarkibidagi salmoqli bir qismi ilk o'rta asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yangi qabila ittifoqini tashkil etadi, bular qadimiy etnik nomlari bilan qang'ar deb atala boshlaydi. Ammo bu yangi qabila ittifoqi ikki asr mobaynida saqlanib, keyin tarqalib ketadi¹.

Qadimgi davrda o'zbek xalqi rivojlanishining keyingi ikkinchi bosqichi massaget-kushonlar davriga to'g'ri keladi va bu bosqich milodning II asridan III asrlarigacha davom etadi. Bu davrda etnik til ko'rinishlarining shakllanishi mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida yanada rivojlanib, turkiy tilda so'zlashuvchilarning etnik til tarkibi yanada kengayadi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, turkiy xalqlarning shakllanishida juda katta o'rin tutgan massaget-yuyechji-kushon qabilalari turkiy aholiga mansub edi. Bu haqida Xitoy yozma manbalari, shuningdek arxeologiya-numizmatik topilmalari ma'lumot beradi. Shuning uchun o'zbek xalqi shakllanishining ikkinchi bosqichini tashkil qilgan kushonlar, ya'ni oq xunnlarning qay tarzda bizning xududimizga kirib kelganliklari haqida to'xtalib o'tamiz.

Miloddan avvalgi III asrda Oq xunlar (kushonlar) xunnlarning bir tarmog'i sifatida Markaziy Osiyoning Gansu viloyatida yashagan. Oq xunlar Ulug' xunnlarning ittifoqchisi hisoblangan hamda ularga qarindosh bo'lgan.

Oq xunlar bilan Xunn imperiyasining ittifoqchisi uysunlar (uysunlar, xunnlarning bir tarmog'i) orasida nizo kelib chiqadi va bu kurashda yengilgan Oq xunlar o'z hukmdori – xonning xotini boshchiligida g'arb tomonga ko'chadilar. Dastlab Ko'char o'lkasiga, so'ngra Ili vodiysiga joylashadilar, uysunlar miloddan 150 yil avval Ulug' xunn davlatidan yordam olib, Oq xunnlarni bu vodiyan ham siqib chiqaradilar.

Oq xunlar avval Qashqar vodiysiga, so'ngra Baqriyaga ko'chib keladilar, Amudaryoning o'ng qirg'og'iga (Surxondaryo va Qashqadaryo vohasiga) o'rnashadilar, yunon-makedon (Ellin) davlatiga zarba beradilar va ular hukmronligini yemirib tashlaydilar. Ular miloddan avvalgi ikkinchi

¹Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т., 1990.

asrda Ulug' Kushon davlatini tuzadilar. Bichurinning bergan ma'lumotlariga qaraganda, ular bir yuz yigirma ming oiladan iborat, har qaysi oila bir harbiy kishi berishga qodir bo'lgan, bu davlat aholisi tarkibini kushonlar tashkil etib, ma'lum qismi juan-juanlar (mo'g'ullar) edi.

Shuningdek, kushonlar, qang'a (qang'alilar), qanlar, usunlar, tyukyu kabi xalqlar bir-biriga yaqin lahjada so'zlashgan hamda qonunlari (tuzuklari), udumlari bir-biriga o'xshash bo'lgan. Bunga misol qilib, shuni ayta olamizki, kushonlar va eftalitlar davriga oid ellin-baqtriya xatida beshinchi asrda turkiy tilda bitilgan jumlar saqlanib qolgan: «Kuysan (Kushon) tilintin to'g'ri tilincha yaratmish, anatkak (sanskrit) tilintin to'xri tilincha yaratmish»¹. Bu misol O'rta Osiyo xududiga kirib kelgan kushon va eftalitlar ham turkiy xalqlar avlodi ekanligini, ular qatori xunlar ham qadimgi turkiy qavmlar bilan qarindoshligini ko'rsatadi.

O'zbek xalqi ajdodlari shakllanishining eng asosiy uchinchi va to'rtinchi bosqichlari esa Eftalitlar davlati va Garbiy turk xoqonligining vujudga kelishi davriga to'g'ri keladi. Ayniqsa, bu paytga kelib turkiy tilda so'zlashuvchi o'zbek xalqi ajdodlarining bir-birlari bilan qo'shilishi va shakllanishi uchun qulay sharoit yetiladi.

Eftalitlar davlati va g'arbiy turkiy xalqlar hukmronligi davrida turkiy tilda so'zlashuvchi mahalliy aholi va eroniy aholi, shu jumladan so'g'diy aholining hozirgi O'zbekiston tuprog'ida, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi va Qozog'iston viloyatlari, Qirg'iziston va Yettisuvdagi qardosh turkiy qabilalar bilan aralashuvi, qo'shilishi yuz bergan. Bunday qiyin jarayon tufayli mahalliy qabilalarning etnik til tarkibi kengaydi va natijada turkiy xalqlarning monolit etnik til birikmalari paydo bo'ldi, ular Eftalitlar davlati va Garbiy Turk xoqonligining asosiy tayanchi bo'lib qoldilar.

Eftalitlar haqidagi ma'lumotlar milodning IV asriga taalluqlidir. Xitoy manbalarida eftalitlar Jujonlar tarkibiga kiritilib, "yeda" nomi bilan atalgan. Keyinchalik Vizantiya manbalarida eftalitlarni oq xunlar deb nomlaganlar. IX–XII asrlarda fors va arab tilida yozilgan Sharqiy Osiyo manbalarida eftalitlar tilga olinib, ular "xaytal" yoki "xeptal" deb atalgan. Ular o'troq hayot kechirishga o'tib, dehqonchilik va hunarmandchilik, ko'chmanchilar esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Sobiq sovet olimlaridan S. P. Tolstov va A. YU. Yakubovskiyning shahodat berishlaricha, eftalitlarning hokimiyatga kelishlari massaget qabilasi boshliqlari tomonidan amalga oshirilgan to'ntarish oqibatida ro'y bergan. Eftalitlar davlati IV asrda paydo bo'lgan, uning gullab-yashnagan davri V asrga to'g'ri keladi va Kushon davlatining davomi hisoblanadi.

Turkiy xalqlar asrlar osha Osiyo qit'asining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida yetakchi guruhlardan biri hisoblanib kelgan. O'rta Osiyo hayotida yuqorida aytib o'tilgan Turk xoqonligi juda katta o'rin tutgan, u milodning 552 yilida katta ko'chmanchi davlatga aylangan. Xoqonlikning markazi Yettisuv bo'lgan g'arbiy qismi o'z davrining birinchi o'n yilidayoq mustaqil davlatga aylangan.

¹ Махмудов Қ. Туркий қавмлар тақдири // Фан ва турмуш. – 1992. – №2.

Bu davlat tarixda Garbiy Turk xoqonligi nomi bilan mashhurdir. Eftalitlar tor-mor etilgach (563–567 yillar orasida), turklar asta-sekin Oʻrta Osiyo viloyatlariga kira boshlaydilar. Shunisi eʼtiborliki, VI asrning 70-yillarida turklar Amudaryoga yaqinlashadilar. Biroq ular harbiy oʻtradar boʻlib, bu yerda vaqtincha turar edilar va shuning uchun ular oʻzlaridan keyin mahalliy aholi tarkibida ahamiyatliroq bir iz qoldirmaganlar.

Yana bir qiziqarli maʼlumot, mashhur Sosoniy hukmdori Xisrav Anushirvon (531–579 y.) turk malikasiga uylangan boʻlib, Anushirvonning oʻgʻillaridan boʻlgan Xoʻrmuzning onasi shu malika edi. Shunday boʻlsa-da, oʻsha VI asrning ikkinchi yarmida gʻarbiy turk hoqonligida turklarning maʼlum qismi Zarafshonning quyi oqimi taraflariga borishiga va Buxoro hududida joylashib qolishlariga sababchi boʻlgan voqealar roʻy beradi¹.

Makvart va S. Tolstovning aniqlashlaricha, Hoqon Mugʻan bilan kanizakdan tugʻilgan turk shahzodasi Abo (forsiycha transkripsiyada Abroʻy) farosatsizroq boʻlib, VI asrning 80-yillarida qoʻzgʻolon koʻtaradi va koʻpchiligi kambagʻallashgan aholidan tashkil topgan bir talay turklar bilan Buxoroga joʻnab ketadi, bu yerda dehqonchilik qiluvchi aholining mulksiz qismi bilan birlashib, mahalliy aristokratiyani haydab yuboradi, Poykent shahrini qoʻlga olib, unda davlat taʼsis etadi. Bu orada Buxoro tumanlariga bir talay turklar kirib keladilar. Keyinchalik, turklarning yangidan-yangi guruhlari shimoldan kelib Sirdaryo va Amudaryo oraligʻidagi yerlarga asta-sekin oʻrnasha boshladilar. Demak, bu fikrlardan shu narsa yaqqol boʻladiki, bu yerda yashovchi soʻgʻdiylar bilan turkiylarning aralashuvi keyinchalik ham davom etagan.

Turk hoqonligida soʻgʻdlar qishloq xoʻjalik mahsulotlari, hunarmandchilik uchun masʼul boʻlsalar, turklar chorva mahsulotlari va davlat mudofaasi – urush vazifasi uchun masʼul boʻlganlar. Na Xitoy, na Eron va na Arab manbalarida soʻgʻd-turk nizosi haqida biror gap yoʻq. Bu manbalarning barchasida “turk” soʻzi yonida “soʻgʻd” kalimasi ishlatilmagan oʻrinlarni topish mushkul. Bu tarixiy-ijtimoiy yaxlitlik xatto hozirgi zamon tilshunoslik, tarix fanlarida ham oʻz aksini topgan².

Afsuski, VI–VII asrlarda, yaʼni arab istilosidan avvalgi davrlarda turkiy elatlarning Vatanimiz hududiga kelib oʻrnatishlari qanchalik va qaysi tartibda sodir boʻlganligi haqida yetarli maʼlumotlar saqlanib qolmagan. Arab bosqinchilari Oʻrta Osiyo hududiga bostirib kirganlaridan soʻng, turk tilida bitilgan yozuvlarni, madaniy va moddiy yodgorliklarning hammasini yoʻq qildilar. Manbalarning yoʻqligi tufayli ham bu davrni oʻrganish ancha qiyin kechadi.

Arab istilosiga qarshi kurashda ham turk-soʻgʻd lashkarlari birgalikda mudofaa uyushtirganlar. Mahmud Koshgʻariyning “Devon ul lugʻatit-turk” asarida ham Turon shaharlarida soʻgʻdiy til bilan birga turkiy tillar koʻp qoʻllangani qayd qilingan. Demak, arab istilosigacha hozirgi Oʻzbekiston aholisi ikki asosiy etnik qatlam soʻgʻd va turkiylardan iborat boʻlgan. Arab

¹ Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Т., 1941.

² Бахтиёр Иsobек. Ўзбек туркийми ёки турк-сўғдимми? // Саодат. – 1992. – №9.

istilosidan keyin, xususan, Somoniylar davriga kelib so‘g‘d qatlamining o‘z tilini yo‘qotish jarayoni kuchaygan.

Tabiiyki, bu ikki qatlam – so‘g‘d va turkiy qatlamdan so‘g‘d tilining yo‘qolib borishi turkiy tilning to‘liq hukmronligiga olib kelishi kerak edi. Biroq bunday bo‘lmadi. Aholining, jumladan so‘g‘dlar bir qismining tili turkiy bo‘lib qoladi. So‘g‘dlarning mana shu qismida miloddan ham avval boshlangan jarayon – turkiylashtirish jarayoni poyoniga yeta boshladi. Natijada turkiy va so‘g‘diylarning bir necha asrlik aralashish jarayoni hosilasi – hozir o‘zbek deb nom olgan turkiy xalqqa asos solinadi¹.

So‘g‘dlar va turklarning aralashuvidan vujudga kelgan yana bir etnosning tili turkiy ham, so‘g‘diy ham bo‘lmadi. Ularning tili Erondagi hukmron til – fors tili bo‘lib qoldi. Bu chigal muammoni soddaroq bayon qilishga urinib ko‘ramiz.

Arab istilosi davrida, arablar bilan birga forslarning ham Turonga bostirib kirgani ayon. Arab lashkarlarining taxminan ikkidan bir qismi forslar bo‘lgan. Tub aholisi islom dinini qabul qilishi qiyin kechganligi bois, arab sarkardalari mahalliy aholining (asosan, shahar va unga yaqin qishloqlarning) xonadonlariga musulmonchilik odatlariga rioya etilishini nazorat qiluvchilarni joylashtirganlar. Forslar Turonning xususiyatlarini arablarga nisbatan yaxshi bilganliklari uchun mahalliy oilalarga arablar nomidan forslarning joylashtirilishi ma‘qul hisoblangan. Hokim va g‘oliblar tiliga moslashish ruhi hukmron bo‘lganligi tufayli ko‘pgina shaharlarda so‘g‘d-turklar fors tilini uylaridagi qorovullardan o‘rgana boshlaganlar².

Tarixdan ma‘lumki, arablarning o‘zlari ham Eron madaniyati ta‘siriga uchraganlar. Mahalliy aholi – so‘g‘d-turkiylar uchun bosqinchi arabmi, forsmi, baribir edi. Shuning uchun o‘sha paytgacha arablar uchun qo‘llanilgan atama “tazik” ularni umumlashtiruvchi nom bo‘lib qolgan (qiyos qiling: ruslar tatarlar bilan birga bostirib kelgan turkiylarni ham “tatar” deb nomlaganlar yoki hozir bizda odamlar ukrain, polyak, yahudiylarni ham o‘ris deyishadi)³.

Somoniylar sulolasi o‘rnatilgach, fors tili davlat tili darajasiga ko‘tarildi va bu davrga kelib fors tilida badiiy, ilmiy adabiyotlarning yaratilishi bu tilning O‘rta Osiyo mintaqasida keng tarqalishini tezlashtirdi. U davrda boshqaruv tizimida va adabiyotda fors tilini qo‘llash rag‘batlantirilgan. Keyinroq ularning o‘rniga kelgan turkiy sulolalar ham shu yo‘sinda ish tutadilar.

Turkiy tilni fors tili kabi keng ko‘lamda qo‘llashga ham ahamiyat berildi. Mahalliy aholi uzoq paytgacha, ba‘zi joylarda hozirgacha bu tilni tojik tili deb nomlashga ko‘nikmadi, uning asli fors tili ekanligini ta‘kidlab keldi. Masalan, Pomir aholisi hali ham tojik tilini “pors” tili deb ataydi. Ya‘ni bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, so‘g‘dlar bir paytning o‘zida ham o‘zbeklarning, ham tojiklarning ajdodi hisoblanadi.

¹O‘sha manba.

²O‘sha manba.

³O‘sha manba.

Somoniylar zamonida turkiylashish jarayoni Shosh viloyatida ildamroq bordi. X asrning ikkinchi yarmida yashagan arab geografi Ibn Xavqalning ko'rsatishicha, islom dinini qabul qilgan minglarcha turkiy oilalar sharqdan Forob, Kandij va Shosh o'rtasidagi tumanlarga, ya'ni Chimkentdan g'arbga va janubi-g'arbga ko'chib borganlar. Bu ko'chmanchilar, bundan avval Sirdaryoning sharq tomonida, keyinroq uning o'ng qirg'og'iga yaqin joylarda yashagan o'g'izlar edilar.

X asr oxirida Movarounnahrni Qoraxoniylar istilo qila boshlaydilar. Ularning bu viloyatlarga kirish jarayoni tadrijiy, lekin davomli tayyorgarlik bilan boradi. Qoraxoniylarning istilochilik harakatlari Yettisuv va Sharqiy Turkistonning unga qo'shni bo'lgan viloyatlaridan boshlanadi, bu yerlarda esa X asrning ikkinchi yarmida harbiy jihatdan kuchli, dastlabki feodal tipida bo'lgan yarim ko'chmanchi, yarim o'troq turkiy davlat vujudga kelgan edi¹.

Yettisuvdagi turkiylar birlashmasiga bir qancha qabila va xalqlar – arg'u, tuxsi, qorliq, chigillar va yag'molar kirgan edi. Shu sanalgan xalqlardan dastlabki to'rttasi madaniy jihatdan yuqori bosqichda turar edi, ular o'rtasida faqat ovchi, chorvadorlar emas, balki oz bo'lsa ham dehqonlar bor edi. Shunisi e'tiborliki, xuddi shu vaqtlarda bu yerdagi hamma so'g'd mustamlakalarida va shahar aholisining so'g'dlar o'rnashgan qismida turkiylashish jarayoni tezlik bilan boradi.

Turkiylashish hammadan burun turkiy tili va nutqning g'alaba qozonishida ifodalanadi. Buni X asrning mashhur olimi Mahmud Qoshg'ariy ham qayd etib o'tadi. Ma'lumki, Movarounnahr viloyatlarining Qoraxoniylar tomonidan istilo qilinishi jadallik bilan o'n yillar mobaynida amalga oshdi.

Hayotning hamma sohalarida katta o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlar va siyosiy tuzumda bo'lganidek, dehqonchilik bilan tirikchilik qiluvchi tumanlardagi aholi tarkibida ham yuz berdi. Albatta, faqat so'nggi masala hozir bizning diqqat markazimizda turadi. Agar Qoraxoniylardan avvalgi davrlarda, turkiylarning O'zbekiston tuprog'iga kirishlari mamlakatdagi ko'chmanchilar ko'chib yuradigan maydonlarni to'ldirish hisobiga bo'lsa, qoraxoniylar zamonida bu hodisa yanada boshqacharoq tus olganligini, ya'ni turkiylar dehqonchilik tumanlarida o'troq hayotga, mehnatga asta-sekinlik bilan o'ta boshlaganliklarini ham ko'rsatadi.

Fikrimizcha, bu har ikki jarayon tezlik bilan borgan, mo'g'ullar hujumi davri, ya'ni XIII asrning 20 yillariga kelib, ko'pgina qishloq joylarida so'g'd tili turkiy til bilan almashgan. Modomiki, butun hayot so'g'diylik asosiga qurilgan So'g'd o'lkasida shunday hodisa yuz bergan ekan, Shosh bilan Farg'ona to'g'risida nima deyish mumkin? Bu yerda turkiy aholining hukmron bo'lganligi haqida shubha yo'q. Bizdagi dalillarga ko'ra, O'rta Osiyoning ba'zi bir shaharlarida turkiy aholi mo'g'ullar zamonidayoq hukmronlik mavqeini qo'lga olganlar.

Masalan, buni Urganch shahri misolida ham ko'rishimiz mumkin. 1333 yilda bu yerda bo'lgan arab sayyohi Ibn Batutaning ma'lumotiga ko'ra, "Urganch katta, chiroyli va ahamiyatli turk shaharlaridan" biri edi².

¹ Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Т., 1941.

² O'sha manba.

XIII asrning 20-yillarida Oʻrta Osiyoda moʻgʻullar istilosi tugatilgan bir qancha joylarda, hozirgi Oʻzbekiston aholisi tarkibiga moʻgʻullar hokim element sifatida kirgan vaqtlarda, ular hech qayerda tojik tili taʼsiriga yoʻliqmagani, hamma yerda turkiy til va nutqqa duch kelganlar.

Maʼlumki, XIII asrda moʻgʻul Chigʻatoy ulusining qarorgohi Ili daryosining vodiysiga qurilgan edi. Yana oʻsha XIII asrda qarorgohning gʻarbga koʻchganligi haqida maʼlumotlar bor, ammo chigʻatoylarning bir qismi Movarounnahr tuprogʻiga ketgan. Shunisi qiziqarliki, XIII asrning 60-yillarida chigʻatoy xoni Muborakshohning taxtga oʻtirish marosimi Ohangaronda oʻtkaziladi. Chigʻatoy urugʻlaridan biri boʻlgan jaloyirlar taxminan shu yillarda Ohangaronda turib qolgan, ikkinchi bir yirik chigʻatoy urugʻi – barloslar yana oʻsha vaqt yoki undan sal keyinroq Qashqadaryo vodiysiga, Kesh (Shahrisabz)ga borib joylashgan¹.

Yettisuvdagi chigʻatoylar til jihatidan turkiylashgan bir zamonda bu jarayon Ohangaron bilan Qashqadaryoda endigina tugagan edi. Bu har ikki joyda ham turkiy aholi asosiy ommani tashkil etganligi uchun, bu jarayon tezroq roʻyobga chiqqan oldi. XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib, jaloyirlar bilan barloslarni sira moʻgʻul deb aytib boʻlmas edi. Ular oʻzlarini turk deb tasavvur etib moʻgʻullarga yoki Yettisuv moʻgʻullariga qarshi edilar.

Jaloyir va barlos urugʻlari bilan moʻgʻullar bir-birlariga yomon koʻz bilan qarardilar. Ular bir-birlarini yarim masʼhara, yarim haqoratli laqablar bilan chaqirishlari ham tasodif emas edi. Yettisuv moʻgʻullari chigʻatoylarni “karavnos”, yaʼni duragay, chigʻatoylar esa moʻgʻullarni “jate”, yaʼni ashaddiy qarogʻchi deb ataganlar².

Barlos urugʻidan chiqqan Amir Temur (1336–1405) moʻgʻulchani bilmas, ikki til – ona tili boʻlgan turkiy va shahar tili boʻlgan tojik tillarida gaplashar edi³.

Amir Temur oʻzini moʻgʻul deb tan olmaganidek, uning Movarounnahrdagi zamondoshlari ham uni moʻgʻul deb oʻylamaydilar. Biz uning markazlashtirish maqsadida qoʻshni mamlakatlarga qilgan yurishlariga qanchalik salbiy nazar bilan qaramaylik, baribir, uning Movarounnahrni sevishini va mamlakatni markazlashtirish uchun jonini jabborga berganini, shahar hayotini va dehqonchilik ekinlarini rivojlantirishga intilganligini eʼtirof qilishimiz zarur.

Uning tugʻilgan yurti Kesh (Shahrisabz) va Qashqadaryo vodiysi edi, oʻz nasli-nasabini mahalliy turkiy aholiga qarshi qoʻymasdi. Baʼzi kishilar “chigʻatoy” terminiga va chigʻatoylarning urugʻlarga boʻlinishiga hanuzgacha rasmiyatchilik nazari bilan yondashadilar. Bu termining kelib chiqishidan boshlab oʻtgan bir yarim asr mobaynida bu termin oʻz maʼnosini oʻzgartirdi, Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli Chigʻatoy nomi bilan bogʻliq bu termin dastlab, Chingiz qoʻshinini tashkil etgan moʻgʻul qabilalariga nisbatan ishlatilgan edi⁴.

¹ Oʻsha manba.

² Oʻsha manba.

³ Oʻsha manba.

⁴ Oʻsha manba.

XIII asrning 30- va 40-yillarida ushbu qabilalar haqiqatan mo'g'ul edilar, biroq XIV asrning 60–70-yillarida jaloyirlar ham, barloslar ham mo'g'ullikdan chiqib qoladilar. Hatto Temurning chig'atoylardan kelib chiqqan, turkiy aholi odatiga xilof ravishda kokil qo'ygan eng imtiyozli askarlari ham endi faqat turkiy zabonda gapira boshlaydilar.

Agar XIV asrda chig'atoylar deganda ularning faqat to'rt urug'i – barlos, jaloyir, kauchiy va orlotlarni tushungan bo'lsalar, XV asrda bu termin yanada kengroq ma'noga ega bo'ladi. Bu vaqtda Movarounnahrda barcha turkiy aholini «chig'atoylar» deb atay boshlaydilar. Zarafshon vohasi va Farg'onaning ba'zi bir shaharlarini hisobga olmaganda Movarounnahrning dehqon va ko'chmanchi aholisi Temur davriga kelib asosan turkiylardan yoki turkiy tilda so'zlashuvchilardan iborat bo'lib qoladi.

Demak, XIV asrda yoki XIV asrning ikkinchi yarmida ahvol shunday ekan, XV asrga nisbatan nima deyish mumkin? Ajabo, temuriylar o'zlarini mo'g'ul yoki loqal turk-mo'g'ul deb e'tirof qilar edilmidi? Yo'q, ular o'zlarini turkiylar deb bilar edilar. XV asrda barlos va jaloyirlarga turkiy urug'lar deb qarar edilar, vaholanki, bu turkiy urug'larning xoh nomlari, xoh qisman ota-bobolari jihatidan mo'g'ullarga borib chatishishlari zamondoshlariga, ayniqsa, tarixchilarga yaxshi ma'lumdir, Biz “qisman” deb gapirayotirmiz, chunki XV asr “barloslari” faqat mo'g'ullarning avlodlarigina emas, balki Qashqadaryo vohasiga barloslar kelmasdan avval, bu yerda yashagan turkiy aholining ham avlodlaridandir¹. XV asr oxiri XIV asr boshlarida ular Shayboniyxon boshchiligida Movarounnahrda bostirib kiradilar va hokimiyatni Temuriylar qo'ldan tortib oladilar. 1500 yilda poytaxt Samarqandning so'nggi hukmdori temuriy Sultonali ham o'ldiriladi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan Toshkent, Buxoro va Farg'ona shaharlari zabt etiladi. O'rta Osiyoda hukmronlikni Temuriylardan tortib olgan Shayboniylar mamlakatni xarob qilib tashlamaydi, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilikni rivojlantirishga harakat qilganlar. Temuriylar xonadoni va ularga yaqin bo'lgan feodal aslzodalargagina zarar yetadi, ularning yer-suvlari va mol-mulklari musodara qilinadi, tirik namoyandalari o'ldiriladi.

Ana shu vaqtdan boshlab, O'rta Osiyoda o'zbek xonlarining hokimlik davri boshlanadi. Ko'chmanchi o'zbeklar dehqonchilikning yuksak madaniyatini egallagan urug'larga aralashib, ularning ko'plari asta-sekin dehqonchilik mehnatiga o'ta boradilar va shu zayilda O'rta Osiyoning turkiy aholisiga yangi bir muhim qatlam bo'lib qo'shiladilar.

Ko'chmanchi o'zbeklar keyinchalik barcha turkiy aholiga o'z nomlarini berdilar. Ularga qadar bu aholi O'zbekiston tuprog'ida yashagan turkiy aholidan juda katta farq qilar edilmidi, degan savol tug'iladi. O'zbeklar kelmasdan ilgari Movarounnahrda yashagan turkiy aholi, biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Sirdaryo va Yettisuv tomonlaridan Movarounnahrda kelgan turklar bilan turkiy bo'lmagan mahalliy aholining qo'shilishidan vujudga kelgan edi.

Demak, Abulxayrxon bilan Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklarga kelsak, bularning qabilaviy tarkibida Movarounnahrda Yettisuv

¹ O'sha manba.

va Sirdaryo tomonlaridan kelib oʻrnashgan qabilalarga urugʻdosh boʻlgan qabila va qavmlar ham oz emas edi.

Bu qavmlar 92 urugʻ-qabiladan iborat boʻlgan, deb aytiladi. Masalan, shayboniy hukmdorlaridan boʻlmish Abdullaxon II (1583–98) Hindiston podshosi boburiy Jaloliddin Akbar (1556–1605)ga yuborgan maktubida: “Biz toʻqson ikki oʻzbek qavmi ustidan hukm yurgizib turibmiz”, – deb yozgan¹.

Yakka oʻzbek xalqi asosida davlat tuzish hech kimning xayoliga ham kelmagan. Bunday fikr birinchi marta 1920 yilda Lenin tomonidan ilgari suriladi. U Turkistonni Oʻzbekiston (aslida Uzbekiya), Qirgʻiziston (Qozogʻiston nazarda tutilayapti) va Turkmanistonga boʻlib yuborish masalasini koʻrib chiqishga topshiriq beradi². Bu gʻoya 1924 yilda amalga oshirildi. Buxoro va Xorazm respublikalari bolsheviklar tomonidan majburiy ravishda yoʻq qilinib, uchta – Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Turkmaniston sovet sotsialistik respublikalari tuzildi. Sovet rahbariyatining maqsadi aniq – doimo birga yashagan qon-qardosh xalqlarni boʻlib tashlab, ular oʻrtasida milliy nizo kelib chiqishi uchun sharoit yaratish edi. Ushbu tadbirning salbiy oqibatlarini bugungi kunda ham oʻzini namoyon qilib turibdi.

Oʻzbekiston SSRning tashkil qilinishi munosabati bilan bu yerda istiqomat qiladigan aholining turkiy tilda soʻzlashadigan asosiy qismi “oʻzbeklar” deb qonun bilan sunʼiy ravishda mustahkamlandi. Gap amalga oshirilgan tadbirning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligida emas: tarixni oʻzgartirib boʻlmaydi. Xullas, “oʻzbek”, “oʻzbeklar” atamaları shunday murakkab tarixiy jarayonlarni boshidan kechirdi. Mustaqillikka erishganimizdan soʻng xalqning milliy rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga sharoit yaratildi. Shu xususda Prezident I. A. Karimovning soʻzlarini eslatib oʻtmoqchimiz. U shunday degan edi: “Bizning oliy maqsadimiz – mustaqillik edi. Bunga erishdik. Mustaqillikning oliy maqsadi – oʻzbek xalqining izzatini joyiga qoʻyish”³.

Masalani bunday qoʻyishning oʻz mantigʻi bor: respublika aholisining aksariyat qismi oʻzbeklardir. Shu bois, birinchi navbatda, mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikning kafolatchisi aynan shu xalqdir. Lekin bu fikr davlatimizda oʻzbeklarning manfaati bu yerdagi 100 dan ortiq millatlar manfaatlarining kamsitilishi hisobiga hal qilinishini bildirmaydi. Bunday boʻlishi ham mumkin emas. Respublikada istiqomat qiladigan barcha xalqlarning teng huquqliligi qonun bilan mustahkamlangan. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: “Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, qonun oldida tengdirlar”,⁴ – deb belgilab qoʻyilgan.

Quyida biz oʻzbek xalqining milliy ongini yuksaltirish, uning qadriyatini, milliy, tarixiy, diniy qadriyatlarini tiklash, urf-odatlarini hurmat

¹ Аҳмедов Б. Ўзбек қавмлари // Сирли олам. – 1992. – №10.

² Ленин В. И. ТАТ. Т. 41. – 492-б.

³ Каримов И. А. Ўзбекистон – келажак буюк давлат. – Т., 1992. – 8-б.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2003. – 6-б.

qilish, erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratilayotganligi xususida soʻz yuritish ekanmiz, ushbu tadbirlar respublikada yashaydigan barcha millat vakillariga ham toʻgʻridan-toʻgʻri aloqadorligini doimo yodda tutamiz. Chunki, I. A. Karimovning soʻzlari bilan aytganda: “Oʻzbekiston aholisining koʻp millatliligi oʻzbek xalqining milliy oʻzligini anglashi va maʼnaviy qayta tiklanishining oʻsishi bilan chambarchas bogʻliq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zoʻr kuch boʻlib xizmat qilmoqda”¹.

2. Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasida etnosiyosat masalalarining dolzarbligi

Respublika mustaqillikka erishgandan buyon oʻzbeklarning oʻzligini tanish jarayoni juda tezlashib ketdi. Bunga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

– mustaqillik tufayli oʻzbeklarning oʻtmishi haqida holisona, adolatli fikr yuritish uchun imkoniyat tugʻildi. Natijada milliy madaniyatimizning shakllanishiga ulkan hissa qoʻshgan va uni jahonga tanitgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Amir Temur va boshqa koʻplab buyuk ajdodlarimizning faoliyati va ijodiga alohida eʼtibor qaratilishi, ular tavallud topgan kunlarning bayram qilinishi, maqbaralarining tiklanishi natijasida ular xalqimizning tom maʼnodagi milliy iftixori boʻlib qoldilar;

– oʻzbek tiliga qonuniy davlat tili maqomi berilishi oʻzbek xalqi ruhining tiklanishiga, millat maʼnaviy-axloqiy ideallarining toʻla shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi;

– respublika taʼlim tizimi bir tomondan, milliy anʼanalarga moslashtirish, ikkinchi tomondan, jahon andazalari darajasiga koʻtarish maqsadida tubdan isloh qilindi;

– xalqning maʼnaviyatini yuksaltirish yoʻlidagi ishlarni muvofiqlashtirish va ilmiy asosda tashkil qilish maqsadida maʼrifiy-maʼnaviy tarbiya, targʻibot bilan bogʻliq davlat va nodavlat tashkilotlarining Respublika maʼnaviyat va maʼrifat kengashi taʼsis etildi. Uning asosiy vazifalaridan biri etib milliy qadriyatlarimiz va ulugʻ mutaffakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan yoshlarimizning ham bahramand boʻlishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, gʻoyalari yosh avlod qalbidan joy olishiga koʻmaklashish belgilandi²;

– milliy ruhiyatni tarbiyalashning asosi boʻlgan Vatanimizning haqqoniy tarixini yaratishga va uni barcha oʻquv maskanlarida oʻqitish masalalariga alohida eʼtibor berildi va boshqa bir qancha chora-tadbirlar belgilandi. Endilikda ular oʻz natijasini bermoqda. Lekin respublikada yagona

¹Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 72-б.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг Республика Маънавият ва маърифат кенгашини қўллаб-қувватлаш тўғрисидаги фармони // Халқ сўзи. – 1997. – 1 сент.

millatning birligini shakllantirish borasidagi muammolar oxirigacha hal bo'lgani yo'q.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi milliy va etnik muammolarni o'z-o'zidan hal qilmaydi, bunga davlatning ushbu masalada faqat turli manfaatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan oqilona siyosatining oqibati sifatida qarash mumkin. Shuning uchun davlatning xalq ma'naviyatini yuksaltirishga, o'zligini tanishga qaratilgan chora-tadbirlari nafaqat o'zbeklarning ruhiyatiga, balki ba'zi bir etnik guruhlariga – mintaqaviy va urug'-aymoqchilik birlashmalariga ta'sir qilishini hisobga olishi lozim. Bu muammolarning respublikada mavjudligi, ularning ba'zi mintaqalarda salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi haqida I. A. Karimov Samarqand va Navoiy viloyatlari xalq deputatlari navbatdan tashqari kengashida batafsil gapirib o'tdi. Mazkur viloyatlarda mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik shu darajaga yetdiki, birinchi rahbarlar "daromad" keltiradigan joylarga o'z odamlarini qo'ydilar, o'zlarining va hamtovoqlarining hamyonini to'ldirishga kirishdilar. Natijada mahalliychilik, oshna-og'aynigarchilik ijtimoiy hayotga va taraqqiyotga tahdid soluvchi omilga aylanadi, chunki bunda talon-taroj uchun sharoit yaratiladi, jamiyatda adolat yo'qoladi. I. A. Karimov bu salbiy hodisalarning oldini olish choralari ham belgilab berdi. Bu:

“– eski asoratlardan xalos bo'lgan, zamon talabiga javob beradigan yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

– ko'ppartiyaviylik asosidagi jamoatchilik nazoratining kuchayishi, jamiyatda demokratik tamoyillarni mustahkamlash;

– mulkchilik masalasini yechish;

– sog'lom kuchlarni birlashtirish va yangi harakat, siyosiy kuchlar faoliyatiga yo'l ochib berish”¹.

Belgilangan tadbirlar ikki narsani hal qiladi, ya'ni birinchidan, har qanday sharoitda xalqlarning barcha sohada tengligini ta'minlaydi, ikkinchidan, tenglik, adolatlilikning ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatadi va ana shu vosita orqali xalqlarni birlashtiradi, yakqadam qiladi.

Mustaqillik tufayli xalqning ma'naviyatini shakllantirish borasida yangi-yangi talablar qo'yilayapti. Ular I. A. Karimovning “Turkiston” gazetasi muxbiri savollariga bergan quyidagi javoblarida ham aniq belgilab berilgan: “Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir”². Albatta, bu vazifani amalga oshirish faqat o'zbeklarga emas, balki O'zbekistonning barcha aholisiga taalluqlidir. Uni hayotga tatbiq qilish, agar xalq 130 yillik mustamlakachilik davrida tobelikni o'z boshidan kechirgan bo'lsa, osonlikcha kechmasa kerak. Yana

¹Каримов И. А. Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуғ. – Т., 1998. – 37-б.

²Каримов И. А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз // Халқ сўзи. – 1999. – 3 фев.

shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, agar xalq o'z qobig'iga o'ralib, jahon tajribasidan ajralib qolsa, bu jarayon yanada og'irroq kechib, cho'zilib ketadi.

Demak, har qanday xalq yuksak ma'naviyatga ega bo'lishi uchun milliy o'ziga xosligini, asrlar davomida sinovdan o'tgan, iymon-e'tiqod bilan yashash kabi an'analarini saqlab qolish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zlashtirib borishi lozim. Lekin biz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi, ijtimoiy va iqtisodiy raqobat, o'zaro murosa, o'zgalarning fikrlarini hurmat qilish, ular bilan hisoblashish kabi demokratik qadriyatlar biz uchun yangilik. Bu sohadagi ehtiyotsizlik kutilmagan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, ma'rifatdan yiroq bo'lgan siyosiy raqobat ekstremizmga, ijtimoiy yo'naltirilmagan bozor munosabatlari iqtisodiy tanglikka olib kelishi mumkin. Ana shunday noxush hodisalarning oldini olish maqsadida o'z rivojlanish yo'lini aniqlab olgan respublika rahbariyati o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozimligi haqidagi qoidaga amal qilishni o'zining muhim burchi deb hisoblab kelmoqda va unga to'la-to'kis amal qilmoqda. Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yuqoridagi qoidaga izchillik bilan amal qilinayotganligidan dalolat berib turibdi.

Mustaqillik sharoitida mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni ta'minlash respublika aholisining farovonligini oshirish, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tobora to'laroq qondirishdek murakkab vazifani so'zsiz bajarishning kafolatidir. O'z navbatida, barqarorlikning negizi O'zbekiston aholisining milliy va etnik yakdilligini ta'minlashga bog'liq. Buning uchun respublika rahbariyati mustaqillikning birinchi kunlaridanoq O'zbekiston barcha xalqlari uchun "Umumiy uy" shiori asosida o'z faoliyatini ko'p elatli birlikni vujudga keltirishga qaratib kelmoqda. I. A. Karimovning ta'kidlashicha: "O'zbek madaniyatining umuminsoniy mohiyati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarning va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi bu birlikning negizini tashkil etdi"¹.

Bizningcha, bu birlik murakkab jarayonning boshlanishidir. O'zbekiston aholisini tashkil qilgan barcha millat vakillari "men rus, qozoq, tojik, qirg'iz yoki turkmanman" deyish o'rniga g'urur bilan "men O'zbekistonlikman", desin. Kelajakda shunday bo'ladi ham, chunki respublikada milliy masalada o'rnatilgan tartib bo'yicha hech qaysi millat vakili kamsitilmaydi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Respublikaning eng yuqori organlaridan tortib viloyat, shahar, tuman, qishloqlar boshqaruvida istisnosiz barcha millat vakillari bab-baravar ishtirok etmoqdalar. U yoki bu millat vakillari uyushibroq yashagan hududlarda ular o'z ona tillarida bilim olish imkoniyatiga egalar. Televideniya maxsus xalqaro telekanal tashkil qilingan. Shuningdek, radioda rus, qozoq, tojik va boshqa tillarda eshittirishlar olib boriladi. O'z milliy ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun turli milliy markazlar tashkil qilingan va h.k.

¹Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 143-б.

Shunday qilib, bu omillar hozirgi o‘zbek xalqining tarixi faqat XV–XVI asrlardan boshlanadi, deb o‘ylashimiz to‘g‘ri emasligini asoslaydi. O‘zbek xalqining tarkibiga “ko‘chmanchi o‘zbeklar” so‘nggi qo‘shilma sifatidagina kirdi.

O‘zbek xalqining asosini uzoq asrlar mobaynida murakkab etnogenez jarayoni orqali shakllangan barcha turkiy aholi tashkil etadi.

Vatanimiz O‘zbekistonning uzoq davom etib kelgan, uzluksiz taraqqiyot yo‘li, tarixi bor. Shuningdek, biz xalq tarixini uning nomi tarixi bilan aralashtirish mumkin emasligini ham ko‘rdik. Garchi, u «o‘zbek» nomini hayot kechirib kelgan zamonlardan ancha keyin olgan bo‘lsa-da, lekin bu uning qadimgi tarixini sira yo‘qqa chiqara olmaydi.

Uzoq yillar davomida o‘zbek xalqi o‘zining eng buyuk qadriyatlarini asrab-avaylab saqlab qolish bilan birga, o‘zga xalqlarning ilg‘or madaniyatini ham o‘ziga singdirib, ma’naviyatini boyitib bordi. Shuningdek, o‘zbek xalqining yuksak madaniyatidan boshqa xalqlar ham bahramand bo‘ldilar.

Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining madaniyati va ma’naviyatining yuksalishi, turmush tarzining boyishi uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Uning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ma’naviyatining hosilalari O‘zbekiston xalqining yakdilligi, tabiiy birligi va davlat miqyosida tili va etnosidan qat’i nazar yagona millat sifatida shakllanishiga asos bo‘lmoqda.

3-ma'ruza

MARKAZIY OSIYODAGI DASTLABKI DAVLAT TUZILMALARI, ULARDAGI IJTIMOIIY HAYOTNING O'ZIGA XOSLIGI

1. «Osiyocha ishlab chiqarish» usulining o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik tufayli o'zbek davlatchiligi o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. So'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida Markaziy Osiyoda o'ziga xos davlatchilik tizimining paydo bo'lganligi ma'lum bo'lmoqda.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida o'tmishning tarixiy tajribasi, o'zbek xalqining qadimiy davlatchilik an'analari beqiyos ahamiyat kasb etishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlarida o'z aksini topdi.

Davlatlarning paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Zero, har bir xalqning o'z sivilizatsiya bosqichini o'tgan yoki o'tmaganligi uning o'z davlatchilik tizimiga egaligi yoki ega emasligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, xalqimizning o'z davlatchilik tizimiga qachon ega bo'lganligini bilish tarix fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Davlatlar kelib chiqishiga ko'ra, birlamchi yoki ikkilamchi davlatlarga bo'linadi. Birlamchi davlatlar deb, o'zga davlatlarning ta'sirisiz, mustaqil tarzda yuzaga kelgan davlatlarga aytiladi. Ikkilamchi davlatlar o'zga davlatlarning ta'siri ostida yuzaga kelgan davlatlar hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi masalasida tarixchi olimlarning qarashlari mavjud. Bir guruh olimlar bizning hududimizdagi ilk davlatlar er. av. I ming yillik boshlarida, Qadimgi Sharq davlatlari ta'sirida paydo bo'lgan, degan fikrni bildiradilar (masalan, Masson). Ikkinchi guruh olimlar Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlar mil. av. II ming yillikning birinchi asrlarida paydo bo'lgan degan fikrdalar (masalan, Zeymal). Olimlar bu masalani yechishda tashqi omillarga berilib, Markaziy Osiyo xalqlarining asrlar davomida qo'lga kiritgan an'ana va tajribalariga yetarli e'tibor bermadilar¹.

Fikrimizcha, Markaziy Osiyoning qulay jug'rofiy o'rni, tabiati, unumdor yerlari ushbu hududda ham davlatchilik juda erta paydo bo'lganidan dalolat beradi.

Sobiq sovet davri tarix fanida davlatlarning kelib chiqishiga biryoqlama, tor sinfiy yondashuv mavjud edi. Shuningdek, davlatchilik rivoji bosqichlarini to'g'ri tushunmaslik, yozma manbalarning yo'qligi ham bu masalada xato fikrlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Masalaning mohiyati shundaki, Qadimgi Sharq mamlakatlarida ilk davlatlar shahar-davlatlar ko'rinishida paydo bo'lgan. Bu jarayon sug'orishga asoslangan barcha

¹Қудратов С. С. Марказий Осиё хуудидида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. – Гулистон, 1998.

dehqonchilik hududlari – oʻrta va Yaqin Sharq, shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan. Dastlab, Markaziy Osiyodagi ilk davlatlar deyilganda, yaqin yillargacha miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda vujudga kelgan “Katta Xorazm” va “Qadimgi Baqtriya” podshohliklari tushunilib kelingan. Ular davlatchiligimiz rivojining ikkinchi bosqichiga tegishli davlatlardir. Soʻnggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar shahar-davlatlar koʻrinishida boʻlib, ular miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida paydo boʻlganligidan guvohlik beradi¹.

Shu davrda Markaziy Osiyoning Qizilqum, Qoraqum choʻllarining ichkarilari, Pomir va Oloy togʻlarining yuqori qismidagi yerlar ajdodlarimiz tomonidan oʻzlashtirilgan. Andronova, Tozabogʻyob, Zamonbobo, Qayroqqum madaniyatlari shundan dalolat beradi. Markaziy Osiyoning janubiy qismida aholi oʻtroq holda, dehqonchilik bilan shugʻullangan. Bu yerda Nomozgoh, Sopolli, Dashtli kabi oʻtroq dehqonchilik madaniyatlari qaror topgan. Markaziy Osiyoning janubida qadimda Baqtriya, Margʻiyona, Parfiya, Areya va Girkaniya singari tarixiy-madaniy hududlar boʻlgan. Oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullangan aholi qadimda vodiylarda yashagan. Kezi kelganda shuni taʼkidlash lozimki, aholining bunday joylashishi suv manbalari birmuncha cheklangan oʻrta Yaqin Sharq mamlakatlariga xos xususiyatdir.

Vohalarda ishlab chiqaruvchi xoʻjalik, ayniqsa, sugʻorma dehqonchilikning yuksalishi jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish jarayonini yuzaga keltiradi. Ushbu jarayon uzoq davom etib, uning natijasida davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi.

Jamiyatda sodir boʻlgan iqtisodiy siljishlar Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi III–II ming yilliklardan boshlab ilk shaharlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Umuman olganda, shaharlarning paydo boʻlishi jarayonini oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Zero, koʻpchilik mutaxassislarining fikrlaricha, shaharlar va davlatlarning paydo boʻlish jarayoni uzviy bogʻliq holda kechgan².

Bu davrlarga kelib dehqonchilik vohalarida aholining alohida-alohida joylashish tizimi shakllangan. Aynan shu narsa shahar tipidagi aholi manzilgohlarining shakllanishiga shart-sharoitlarni yaratib beradi. Tarixni oʻrganishda shaharlarni yuzaga keltirgan omillarni bilish ham muhim ahamiyatga egadir.

Birinchi omil – aholining nihoyatda zichligi, uning bu yerda toʻplanishiga imkon yaratadigan oziq-ovqat olish yoʻli, yaʼni oʻtroq dehqonchilikning paydo boʻlishi. Aholi zichligi oʻtroq dehqonchilik jamiyatlarida oldingi terimchilik, ovchilik bilan shugʻullangan davrga nisbatan 100 barobar oshadi.

¹Аскарлов А., Ширинов Т. III. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд. 1993. – С. 137.

²Массон В. Алтын-Тепе. Тр. ЮТАКЭ. Т. XVIII. – Л., 1981. – С. 122–123.

Masalan, janubiy Turkmanistonda IV–III ming yillik boshlarida 1000–2000 kishilik aholi manzilgohlari yuzaga kelgan¹.

Ikkinchi omil – hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi. Buning natijasida ayrim aholi manzilgohlarida, asosan, maxsus ishlab chiqarish (hunarmandchilik) bilan shug‘ullanadigan aholi to‘plana boshlaydi. Umuman olganda, hunarmandchilikning ajralish jarayoni bilan shaharlarning paydo bo‘lish jarayoni bir vaqtda kechgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, dastlab shahar tipidagi manzilgohlarda aholi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Shaharlarning asta-sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida tobora muhim mavqeni egallagan. Hunarmandchilikning yangi tarmoqlari paydo bo‘lgan. Ayniqsa, uning temirchilik va kulolchilik kabi tarmoqlarining yuksalishi shaharlarning shakllanish jarayonini tezlashtirgan.

Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish hamda boshqaruv tizimining tobora murakkablashib borishi ham shaharlarning shakllanishini yuzaga keltirgan omillardan hisoblanadi. Chunki, aynan yirik aholi manzilgohlarida boshqaruv tizimlari vujudga kelgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shaharlarning shakllanishida aloqa munosabatlari va savdo-sotiq rivoji ham muhim omillardan hisoblanadi. Masalan, Janubiy Turkmanistonda mil. av. IV–III ming yilliklardayoq loydan yasalgan dastlabki g‘ildiraklar paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi III ming yillik o‘rtalarida tuyaga, ba’zan ho‘kizga qo‘shiladigan to‘rt g‘ildirakli aravalar yasalgan². Transportning rivoji shaharlarga qishloq xo‘jaligi rayoni markazi, shuningdek, zaruriy hamda qo‘shimcha mahsulotni taqsimlovchi manzilgoh funksiyasini bajarish imkonini bergan.

Shaharlarning shakllanishiga diniy qarashlar ham sabab bo‘ladi. “Iloh”ga yoki “ilohlar”ga sig‘inishning paydo bo‘lishi natijasida shaharlar nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga, diniy markaz vazifasini ham bajargan.

Nihoyat, o‘sha davrdagi harbiy siyosiy vaziyat ma’lum bir vohalarda shaharlar bo‘lishini taqozo etgan. Chunki, shaharlar o‘sha joy aholisini dushman hujumidan saqlaydigan joy vazifasini ham bajargan. Shahar va yaqin atrofdagi qishloqlar aholisini bosqinchilardan himoya qilish maqsadida shaharlarda mudofaa inshootlari qurilgani fikrimizning dalili bo‘la oladi.

Yuqoridagi shart-sharoit va omillar Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda shahar tipidagi aholi manzilgohlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Aynan shaharlarda jamiyat tomonidan olingan qo‘shimcha mahsulot monumental ibodatxonalar va boshqa qurilishlar ko‘rinishida o‘z aksini topadi. Shaharlardagi ko‘plab ustaxonalarda mohir hunarmandlar ishlaganlar. Shaharlardagi bozor maydonlarida oldi-sotdi munosabatlari olib borilgan. Ilk shaharlar aholi sonining birmuncha ko‘pligi, monumental inshootlar (saroy, ibodatxona), hunarmandchilik mahallalarining mavjudligi bilan qishloqlardan ajralib turgan. Shaharlarning devor bilan

¹Массон В. Экономика и социальный строй древних обществ. – Л., 1976. – С. 142–143.

²Лисицина Г. И. История орошаемого земледелия в Южной Туркмении. – М., 1972. – С. 14–15.

o‘rab olinishi ko‘proq keyingi, ya’ni podshohliklar va imperiyalar davriga xos bo‘lib, bu ilk shaharlarda doimo ham uchrayvermaydi¹.

Insoniyat tarixida shaharlarning yuzaga kelishi bosqinchilikdan sivilizatsiyaga, urug‘chilik tuzumidan davlatchilikka o‘tishning asosiy belgisidir. Ma’lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyati rivojining ma’lum davrida paydo bo‘ladi. Sivilizatsiyaning yuzaga kelishida shaharlar yetakchi o‘rin tutadi. Sababi, aynan shaharlar sivilizatsiya paydo bo‘lishi va rivojlanishini ta’minlagan, markaz o‘rnini bajargan. Umuman, sivilizatsiya va ilk davlatlarning paydo bo‘lish jarayoni ilk shaharlar tashkil topishi va rivojlanish jarayoni bilan birga kechgan.

Markaziy Osiyo hududida ilk shaharlarning tashkil topishi bilan ushbu hududda eng qadimgi sivilizatsiya qaror topdi. Bu Qadimgi Sharq tipidagi mahalliy sivilizatsiya bo‘lib, miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda rivojlanishning ilk bosqichlariga to‘g‘ri keladi. Bu sivilizatsiya Mesopotamiya hamda qadimgi Hindistonning Xarappi madaniyati bilan uzviy aloqada shakllangan va rivojlangan, chunki ilk davlatlarning shakllanishida savdo-sotiq muhim o‘rin tutgan.

Markaziy Osiyoda qazib olingan qimmatbaho Badaxshon lazuritiga bo‘lgan talab miloddan avvalgi III ming yillikda yurtimizning Qadimgi Mesopotamiya, Misr shaharlari bilan savdo munosabatlarining o‘rnatilishiga sabab bo‘ldi². Shuningdek, Qadimgi Mesopotamiya madaniyatiga xos silindrsimon muhrlarning Markaziy Osiyo hududidagi yodgorliklardan topilishi³, Qadimgi Hindistondagi Xarappa sivilizatsiyasiga xos me’morchilik an‘analarining ko‘hna yodgorliklarimizda qo‘llanilishi hamda Farg‘onadan topilgan Haq va Aflotun xazinalaridagi buyumlarning Eron madaniyatiga yaqinligi⁴ o‘lkamiz xalqlarining qadimda Sharq xalqlari bilan savdo aloqalarini olib borganligidan dalolat beradi.

Savdo munosabatlarida pul vazifasini qimmatbaho toshlar (lazurit), fil suyaklari, metall, zargarlik buyumlari, chorva, don mahsulotlari va boshqalar o‘tagan⁵. Demak, ikki muhim sivilizatsiya oralig‘ida joylashgan Markaziy Osiyo qadimgi Sharq xalqlarini yagona tizimga birlashtirgan. Bu sivilizatsiyani mutaxassislar “Turon sivilizatsiyasi” deb atamoqdalar.

Ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy mavqei bilan emas, siyosiy mavqei bilan ajralib turgan va ular aksariyat hollarda aholi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan vohalarda, ayrim hollarda esa savdo yo‘llari bo‘yida yoki ibodatxonalar atrofida paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri – II ming yillikda Markaziy Osiyoda Oltintepa,

¹Қудратов С. С. Марказий Осиё худудида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. – Гулистон, 1998. – 18-б.

²Сарианиди В. И. О великом лазуритовом пути на Древнем Востоке. КСИА, вып. 3. – М., 1968. – С. 3–9.

³Мейтерциян М. В. Амулет эпохи бронзы с поселения Джаркутан. ИМКУ, вып. 19. – Т., 1984. – С. 42.

⁴Заднепровский Д. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – 1962. – № 118. М. – Л.

⁵Ширинов Т. Ш. Древнейшие торговые пути Средней Азии (III–II тыс. до н. э.). Материалы меж. семинара ЮНЕСКО. – Т., 1990.

Namozgohtepa, Ulug‘tepa, Sopollitepa, Jarqo‘ton kabi shahar-davlatlar vujudga kelgan.

Bunday shaharlarda oziq-ovqat hamda qurol-yarog‘ omborlari ham joylashgan. Ularning atrofida markazga bo‘ysunuvchi bir nechta, ba‘zan 10 tagacha qishloqlar joylashgan bo‘lib, ular birgalikda davlatchiligimizning ilk ko‘rinishi – shahar-davlatlarni tashkil qilgan¹.

Mintaqa rivojlanishining o‘ziga xosligi Osiyocha ishlab chiqarish bilan bog‘liq.

Yerga xususiy mulkchilikning bo‘lmaganligi O‘rta Osiyo sotsial-iqtisodiy tarixidagi asosiy omil edi. O‘rta Osiyo xalqlari yerga bo‘lgan xususiy mulkchilikka, hatto feodal mulkchiligiga yetib bormadilar.

Albatta, biz bu masalani hal qilayotganimizda quldorlik tuzumi va uning asosiy belgilari nimalardan iborat, umuman olganda, O‘rta Osiyodagi quldorlik tuzumi Gretsiya va Rimdagi quldorlik tuzumlaridan qaysi tomonlari bilan farq qilgan, degan masalalarni hal qilib olishimiz lozim.

Quyida quldorlik tuzumining asosiy belgilarini ko‘rishimiz mumkin:

1) metall pullarni, shu bilan birga, pul kapitali, protsent va sudxo‘rlikni joriy etish;

2) ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi vositachi sinf bo‘lgan savdogarlarning paydo bo‘lishi;

3) yerga xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi;

4) ishlab chiqarishning hukmron shakli bo‘lgan qo‘l mehnatining paydo bo‘lishi.

Keltirgan ushbu dalillarimiz asosan quldorlik davlatlari bo‘lmish qadimgi Gretsiya va Rim kabi davlatlarga xosdir. O‘rta Osiyo quldorlik ishlab chiqarish usulini chetlab o‘tgan. Bu yerda feodal munosabatlar qaror topguniga qadar, ya‘ni milodning VII asrigacha bo‘lgan ishlab chiqarish usulining asosini: yerga davlat mulkchiligi, qishloq jamoasining hukmronligi, urug‘, qabila tuzumining saqlanganligi, ko‘chmanchi qabilalar bilan hamkorlik va o‘zaro munosabat hamda Buyuk Ipak yo‘lidagi qizg‘in savdosotiq tashkil etgan. Bu holatlar quldorlik munosabatlarning shakllanishiga xalaqit berdi va muqobil ishlab chiqarish usuli – «osiyocha ishlab chiqarish usuli»ning qaror topishiga yordam berdi.

Ushbu masalalarni biz yanada muayyanlashtiradigan bo‘lsak, birinchidan, O‘rta Osiyoda yer unumdorligini oshirish, asosan sun‘iy va tabiiy sug‘orish kanallari orqaligina amalga oshirilar edi. Qazilgan kanallarni qum bosib ketmasligi va yaroqsiz holga kelib qolmasligi uchun ularni puxta hamda muttasil tozalab turish talab qilinardi. Kanallarni tozalash irrigatsiya inshootlarini ta‘mirlash yoki yangi kanallar qazish ishlarida har yili minglab kishilar qatnashardi. Sug‘orish tizimlarining yaroqsiz holga kelib qolishi uchun vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi birgina urush yoki beparvo podshohning xatosi kifoya edi. Shuning uchun sharqdagi barcha mustabid davlatlarda irrigatsiya tarmoqlarini kuzatib turish va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga alohida ahamiyat berilardi.

¹Кудратов С. С. Марказий Осиё худудида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. – Гулистон, 1998. – 21-б.

Joylarda suv inshootlari butligini jamoalar kuzatib turardi. Irrigatsiya ishlariga, suvni taqsimlashga, kanallar va to'g'onlarni tartibli saqlashga har yili yuz minglab kishilarni safarbar etib turish faqat jamoaning qo'lidan kelar edi.

Shu tufayli O'rta Osiyoda shunday bir ijtimoiy-siyosiy sistema tarkib topdiki, bunda podsho yerning oliy darajadagi egasi hisoblanib, u yerni har qanday formatsiyada ham hech kim bilan baham ko'rmasdi, jamoa esa yerga bo'lgan huquqni an'ana yoki urf-odatlar, yo bo'lmasa hukmdor farmoyishiga ko'ra olardi.

Ikkinchidan, iqlim sharoitlari ham qul mehnatining kengayishiga muayyan to'siq bo'ldi. Yil bo'yi issiq ob-havo sharoitida qul kiyim-kechak o'rnida lungi bilan kifoyalanadigan o'rta dengiz sohilidan farqli o'laroq, qishi qattiq, bahor va kuzi sovuq keladigan O'rta Osiyoda qulni kiyintirish, uy-joy bilan ta'minlash kerak bo'lardiki, buni qul mehnati qoplay olmas edi. Aksincha, quldorlik jamiyatining klassik namunalarilari bo'lgan Afina va Rimda yerga bo'lgan xususiy mulkchilik urug'chilik tuzumiga hal qiluvchi zarba berdi. Yer tovarga aylandi, odamni urug'chilik bilan bog'lab turgan barcha rishtalar uzildi. Haqiqatan ham, osiyocha ishlab chiqarish usuli hozirda ham bizning rivojlanish taraqqiyotimizda saqlanib qolganmi yoki yo'qmi, degan tabiiy savol kelib chiqadi.

Prezidentimiz I. Karimov dastlab yangisini qurish, uni amalda sinab ko'rish, so'ngra eskini barbod qilmasdan, sinab ko'rilganlarni yangicha qo'llash lozimligini, bizda o'zimizga yarasha "Osiyo madaniy dunyosining ishlab chiqarish tajribasi" borligini ta'kidlaydi¹. Haqiqatan ham, chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir.

Bizning millatda, birinchidan, o'z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog'langanlik, ko'chib yurishga moyillikning yo'qligi; ikkinchidan, qishloq xo'jaligining aksariyat sun'iy sug'orishga va sug'orma dehqonchilikka asoslangan bo'lsa-da, suv imkoniyatlarini juda cheklanganligi xos bo'lib, ular agrar siyosatimizda yerga egalik qilish, ya'ni xususiylashtirish masalalarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Agar yer hammaga barobar taqsimlanadigan bo'lsa, yetmaydi. Ayrim odamlarga yer xususiy mulk qilib berilsa, bo'linmas fondga aylanib qolishi mumkin. Xo'sh, bu vaziyatdan qanday qilib chiqish mumkin?

Bizda dehqonchilik ekin maydonlarining katta qismida texnika ekinlari yetishtiriladi va bu ekin maydonlari qudratli davlatimizning irrigatsiya tizimi xizmat ko'rsatadigan sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi. Respublikamiz aholisi zich yashaydi. Aholi zichligi va suv tanqisligi muammosi respublikamiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Kelajakda, aholi tez ko'payib borayotgan sharoitda bu muammo, ayniqsa, keskinlashadi.

Yerni tovarga aylantirish aholining hayotiy tayanchiga putur yetkazadi, yer uchastkalari bilan chayqovchilik qilishni keltirib chiqaradi, dehqonni

¹Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т., 1997. – 81-б.

ertangi kunga ishonchidan mahrum qiladi. Xususiy mulk bo'lgan yerga egalik qilish uchun asrlar mobaynida hukm surib kelgan ayovsiz kurash xalqqa behad qiyinchilik keltirgani yaxshi ma'lum. Hozirgi bosqichda yerga davlat egaligini saqlab qolish, uni talon-taroj qilishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu sug'orish tizimiga ham taalluqlidir.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, hozirgi jamiyatimizda ham davlatning mavqei, uning o'rni doimo saqlanib qoladi.

2. Miloddan avvalgi VIII–VII asrlardan to milodiy VII asrgacha o'lkamizda davlatchilik taraqqiyotining xususiyatlari

Xorazm Markaziy Osiyodagi eng qadimgi davlatlardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik tarixchi olimlarning fikriga ko'ra, Amudaryo quyi oqimida uzil-kesil tarkib topgan qadim Xorazm elatining shakllanishida asosan vohaning tub aholisi qatnashgan. Ba'zi bir manbalarda esa xorazmliklarni Janubiy Turkmaniston yoki Shimoliy Eron yerlaridan tarqalgan elatlar deb ko'rsatiladi.

Xorazm sulolasini barpo etgan afsonaviy qahramon – qadimgi Eron dostonining qahramoni Siyovush janubdan kelgan degan fikrlar ham mavjud. Siyovush qadimgi fors tilida “qorabosh”, qadimiy turkiy tilda “qorasoch” “xorasmiy” degan ma'nolarni bildiradi, aftidan “xorazm” so'zi ham shundan kelib chiqqan. Bu to'g'rida, albatta, boshqa taxminlar ham bor.

Gerodotning xorazmiylar to'g'risida bergan ma'lumotlariga ko'ra, “Osiyoda bir tekislik bor. Uning atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Bir vaqtlar bu yerlar xorazmiylarga qarar edi, chunki u yer xorazmiylar, girkaniyaliklar, parfiyaliklar va boshqa xalqlar yerining chegarasidadir. Bu yerni o'ragan tog'lardan “Anes” nomli bir daryo oqib chiqadi. Dastlab bu daryo besh tarmoqqa ajralar edi, har qaysi tarmoq mazkur xalqlardan birining yerini sug'orar edi,”¹ deb yozgan bo'lsa, Strabon: “xorazmiylar sak va massagetlar tarkibiga kiruvchi xalq bo'lgan”², degan fikrni ilgari surgan.

Qadimgi Xorazmning mohir bilimdoni va tadqiqotchisi akademik S. P. Tolstov: “Xorazmiylarni alohida qabila bo'lgan deb hisoblash unchalik to'g'ri emas. Ular har xil massaget qabilalari qo'shiluvining, birinchi navbatda, sakarovakalarning, ya'ni Xorazm davlatchiligi tarkibiga kiruvchi sakarovakalarning hosilasi bo'lsa kerak”, deb yozadi³.

Xorazm so'zining ma'nosiga kelsak, olimlar uzoq tortishuvlardan so'ng bu so'z “baliq yeyuvchilar mamlakati” ma'nosini bildiradi, degan xulosaga kelganlar. Haqiqatan ham, Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan beri baliqchilik va baliqxo'rlikda xorazmiylarga teng keladigan xalq bo'lmagan. Lekin bu ma'lumotlar ham aniq emas. Ba'zi bir manbalarga qaraganda, massagetlar ittifoqi tarkibiga kirgan xorazmiylar mamlakatining nomi

¹Бартольд В. В. К истории орошения Туркестана. – М., 1965. – С. 25–26.

²Эрматов М. Этногенез и формирование узбекского народа. – Т., 1968. – С. 54.

³O'sha manba.

“Xvayrizem” bo‘lganligi to‘g‘risida ham Strabon ma‘lumot beradi. “Xvayrizem” degan so‘z “quyoshli yer” yoki “quyosh mamlakati” degan ma‘noni bildiradi (xvar – quyosh, zem – yer). Garchand qo‘limizda bulardan ortiqroq ma‘lumotlar bo‘lmas-da, biz mantiqan shuni aytishimiz mumkinki, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, Kaspiy dengizining sharqidagi tekisliklarda, Janubiy Turkmaniston vohalarida yashovchi bir necha sak va massaget qabilalarini o‘zida birlashtirgan qadimgi qabilaviy Katta Xorazm davlati mavjud bo‘lgan.

Bu qabilaviy birlashmalardan iborat bo‘lgan davlat miloddan avvalgi VIII asrlarda, hali forslarning “Ahmoniyalar” davlati maydonga kelmasdan burun Midiya davlatining tashkil topishiga yordam berganliklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ham egamiz¹.

Xorazmiylar va barcha sak xalqlarining kiyimlari ham deyarli bir xil – yoqasiz jun chakmon bo‘lgan. Uning yumaloq etagi yuqorida va quyida ayrilib ketgan. Etakka nimadandir jiyak tikilgan (mo‘yna yoki hoshiya), uzun va tor ishtonlar. Xorazmiylar va sak-xaumvarkalarning boshida iyagi ostidan tang‘ib qo‘yilgan quloqchiga o‘xshagan ko‘loh bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda bellarida doimo uzun xanjarlar osib yurganlar². Xorazmliklarning diniga keladigan bo‘lsak, ularning dini, asosan, zardushtiylik bo‘lgan. Xorazmda, Jonbosqal’ada olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olov ibodatxonalari topilgan.

Ilmiy adabiyotda Zardushtraning birinchi qadamlarini Xorazm bilan bog‘lovchi nazariyaning juda ko‘p tarafdorlari bor, chunki tarixiy an‘analar Xorazm haqida zardushtiylikning muqaddas olovi azira-xo‘rra birinchi marta yoqilgan mamlakat, Axuramazda Zardushtraga namoyon bo‘lgan, shuning uchun ham hamma borib ko‘rishni orzu qilgan muqaddas mamlakat – «Eronvedj» (Avestoga muvofiq Ayriana-vaedja) sifatida gapiradi. Xorazmning geografik va iqlim sharoitlariga mos keluvchi Eronvedjning tasviri Avestoda berilgan. Katta Xorazm davlatining poytaxti qaysi shahar bo‘lgan, degan savolga javob berish juda mushkul. Chunki o‘sha davrlarda har qaysi qabila yoki qabilalarning birlashmasi o‘zlarini tashqi dushmandan himoya qilish uchun mayda yoki katta qal’alar qurganlar, bu qal’alar bir butun urug‘, qabilaning yashash joyi bo‘lgan. Shunday qal’alarga Eresqal’a, Angqal’a, Yonboshqal’a va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning hammasi o‘z vaqtida, sharoit hamda vaziyatga qarab “Katta Xorazm” davlatining poytaxti vazifasini bajargan. Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy jihatdan eng yirik markazlaridan biri – Xorazm miloddan avvalgi IV asrda Ahamoniylardan ozod bo‘ldi.

Miloddan avvalgi IV asrga kelganda Amudaryoning quyi havzasidagi hududida Qadimgi Xorazm davlati tashkil topdi. Farasman ismli shaxs uning podshosi sifatida tilga olingan. Iskandar Zulqarnayn Hindiqush orqali Baqtriyaga, undan So‘g‘diyona qo‘shin tortib kelganida, Xorazm podshosi Farasman uning huzuriga sovg‘a-salomlar bilan kelgan va shimol tomonlarga yurish qilsa, o‘z qo‘shini bilan yordamga tayyor ekanligini bildirgan.

¹Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 1. – Т., 1970.

²О‘sha manba.

Umuman olganda, qadimgi Xorazm haqidagi ma'lumotlar bor-yo'g'i ana shu qisqa materiallardan iborat.

Baqtriya podsholigi mamlakatimizning janubida miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda vujudga kelgan eng qadimgi davlat tuzilmalaridan biri bo'lib, joylashishiga qarab Baqtriya yoki yunonlarning aytishicha, Baxriana qadimgi fors tilida Baxtrish nomlari bilan atalgan, uning poytaxti hozirgi Mozori Sharif (Shimoliy Afg'oniston) yaqinidagi Balx shahrida joylashgan edi.

Qadimgi Baqtriya podsholigining mavjud bo'lganligi, eng avvalo, zardo'shtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da Baxdi viloyati nomi bilan qayd etilgan. Shuningdek, qadimgi yunon va rim tarixchilari, geograflari ham Baqtriyaning hududi butun Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan bo'lib, shimoldagi chegara Oks (Amudaryo) daryosigacha cho'zilgan, undan shimoldagi yerlar esa So'g'diyonaga qarardi, deb yozib qoldirganlar.

O'rta asrlarda yashagan taniqli avstriyalik olim V. Tomoshek o'zining "Baqtra, Baqtriana, Baqtrish" nomli kitobida Baqtriya podsholigining shimoliy chegaralari Amudaryogacha emas, balki Hisor tog' tizmalarigacha tarqalganligini aytib, hozirgi Surxondaryo viloyati ham qadimgi Baqtriya podsholigi tarkibiga kirganligini ta'kidlaydi¹.

Bulardan tashqari, qadimgi Baqtriya davlatining mavjudligini yunon tarixchisi Ktesiyning Ossuriya podshosi Ninaning Baqtriyaga qilgan yurishi, Baqtriyaning nihoyatda ko'p aholisi va shaharlari, mustahkam qal'alari bo'lganligi, unda Oksiart ismli shoh bo'lib, uning boyligi nihoyatda ko'p bo'lganligi to'g'risidagi hikoyalaridan anglash mumkin. Shuningdek, tarixchi Strabonning "Baqtriyaning bir qismi Ariyadan shimol tomonga, katta qismi esa sharq tomonga cho'zilgan edi. Baqtriya keng o'lka, bu yerda zaytun daraxti mevasidan boshqa hamma hosil yetishtiriladi" degan tarixiy ma'lumotlari ham yo'q emas. Yana u – baqtriyaliklarning asosiy shahri Baqtra bo'lib, u Zarkasnoy deb ham atalgan. Bu shahar orqali o'tgan daryo Oksga borib qo'shiladi, ikki daryoning quyilish joyida Adransa va boshqa ko'pgina shaharlar bor edi", degan nihoyatda qimmatli fikrlarni ham yozib qoldirgan. Arxeolog olimlarimiz A. Sa'dullayev, E. Rtveladze va Z. A. Hakimovning Surxondaryo viloyatidagi Bandixontepa va Qiziltepada olib borgan arxeologik qidiruv-qazish ishlaridan miloddan avvalgi VIII–VI asrlardagi Baqtriya podsholigi hayotiga oid yodgorliklari topildiki, bularning barchasi haqiqatan ham Shimoliy Afg'oniston hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlari bilan Tojikiston hududining katta qismini o'z ichiga olgan, poytaxti Balx shahri bo'lgan qadimgi Baqtriya podsholigi o'tganligini isbotlaydi.

Qadimgi Baqtriya podsholigining tabiiy boyluklari juda ko'p bo'lgan, ayniqsa, badaxshon yoqutining shuhrati Old Osiyo mamlakatlarigacha yetib borgan. Qadimgi Baqtriya aholisining tarkibi, asosan, boxtalardan iborat bo'lgan. Hukumati va huquqiy tuzilishiga ko'ra esa, haqiqiy davlat bo'lish bo'sag'asida turgan qabilaviy birlashmani tashkil etgan.

Bu birlashmaning tepasida qabilalararo ittifoq kengashining ustidagi o'zining ijtimoiy-siyosiy hokimiyatini o'rnatib olgan harbiy lashkarboshi –

¹Ўзбекистон ССР тарихи. – Т., 1970.

podsho turgan. Shuning uchun ham olimlarimiz bu davlatni qadimgi Baqtriya podsholigi deb atashgan¹.

Qadimgi So‘g‘diyona o‘lkamizdagi eng qadimgi davlat tuzilmalaridan biri bo‘lib, u to‘g‘ridagi dastlabki ma‘lumotlar “Avesto”da “daryo Marv, Xorayza, Gavalardan So‘g‘dga, undan Xorazmga qarab mavjlanib oqardi”, deb tilga olingan bo‘lsa, yunon tarixchisi Gerodot ular shimoli-sharq tomondan Baqtriyani So‘g‘ddan ajratib turuvchi Oks (Amudaryo), So‘g‘dni komadovlardan ajratib turuvchi Yaksar (Sirdaryo) daryolari oralig‘iga joylashgan So‘g‘diyoni ham egallab olishadi. Qadimgi So‘g‘diyona va baqtriyaliklarning turmush tarzi va ular odati komadovlarnikidan (ko‘chmanchilardan) farq qilmasligini yozgan edi. Qadimgi so‘g‘dionaliklarning tarkibiga kelsak, Ptolemeyning ko‘rsatishicha, so‘g‘dlar bir necha qabilalardan, xususan, so‘g‘d tog‘larining orqasida joylashgan oksidranlar, xorazmiylar bilan qo‘shni bo‘lgan oksianlar hamda aripan yoki ariaklardan tashkil topgan bo‘lib, nihoyatda jangovar (urushqoq) xalq bo‘lgan.

Umuman olganda, so‘g‘dlarning tog‘ va dashtlarda yashaganlari ko‘chmanchilarcha, sug‘oriladigan vohalarda yashaganlari esa o‘troq tarzda turmush kechirganlar.

So‘g‘dlar o‘z mamlakatini qadim zamonlarda So‘g‘d deb ataganlar va bu mamlakatning poytaxti hozirgi Samarqand shahri yaqinida joylashgan Marokanda shahri bo‘lgan.

Marokanda shahri miloddan avvalgi VII–VI asrlarda (taxminan 2500–2600 yillar oldin) Markaziy Osiyodagi eng muhim shaharlardan biri bo‘lib, bu yerda savdo-sotiq, hunarmandchilik, ayniqsa, mato to‘qish, shisha ishlab chiqarish, sopol idishlar yasash, qurolsozlik va boshqa ishlar taraqqiy etgan. Bu yerlik aholi esa bevosita Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Bu ma‘lumotlar hozirgi kunda Samarqanddagi Afrosiyob xarobalarini tekshirayotgan olimlarimiz tomonidan o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Shunday qilib, biz haqli ravishda aytishimiz mumkinki, miloddan oldingi VIII asrning oxiri VII asrning boshlarida hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan, poytaxti Marokanda bo‘lgan qadimgi qabilaviy davlat – So‘g‘diyona mavjud bo‘lgan. Xuddi shuningdek mamlakatimizning boshqa joylarida, masalan, Choch va Parkanada ham qabilaviy davlatlar vujudga kela boshlagan.

Umuman olganda, Baqtriya – So‘g‘d – Xorazm davlatlarining siyosiy va xo‘jalik hayotiga yakun yasab quyidagi xulosalarimizni beramiz: Markaziy Osiyoni Ahamoniylar saltanati bosib olgunga qadar (bu voqealar miloddan avvalgi VI–IV asrlarda sodir bo‘lgan edi) bu ona zaminda harbiy demokratiya prinsiplari asosida tarkib topgan davlatlar mavjud bo‘lgan. Ularning hududiy doirasi, ichki davlat tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalari haqida hali olimlar o‘rtasida ko‘p ilmiy munozaralar

¹Худоятов Г. А. Менинг жонажон тарихим. – Т., 1992.

bo‘ladi, chunki bu davr ham chuqur o‘rganilmagan, bular borasida ham ko‘plab maxsus ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi lozim¹.

¹Ўзбекистон тарихи. – Т., 1994.

4-ma'ruza

BUYUK IPAK YO'LI: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1. Buyuk Ipak yo'li: vujudga kelishi va rivojlanishi

Insoniyat rivojlanishi tarixida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi turli siyosiy, diniy va etnik an'analarga ega bo'lgan, uzoq davom etgan o'zaro manfaatli madaniy va iqtisodiy hamkorlik misollari ko'p. Misol uchun, mashhur "varyagdan yunonkacha" yo'l o'tgan bo'lib, uzoq vaqtgacha Rus davlati bilan Skandinaviya davlatlarini (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) bog'lab turgan. Tarixda tuz yo'li ma'lum bo'lib, u Afrika qit'asi, asosan, Sahroi Kabir cho'li orqali o'tgan.

Lekin eng asosiy, dunyoga mashhur yo'l Buyuk Ipak yo'lidir. U Atlantika okeani qirg'oqlaridan Tinch okeani qirg'oqlarigacha cho'zilib, butun Osiyo qit'asi bo'ylab O'rta yer dengizi davlatlarini Uzoq Sharq davlatlari bilan birlashtirgan. Bu oddiygina yo'l yoki okeandan okeangacha bo'lgan yo'llar tizimi bo'lib qolmay, balki tinchlik va hamkorlikka intilgan xalqlarni birlashtiruvchi, Sharq va G'arb o'rtasidagi murakkab madaniy-iqtisodiy ko'pri bo'lgan.

Taraqqiyotning omili ishlab chiqarish deyiladi, lekin savdosiz, madaniyatlarning almashuviziz taraqqiyot bo'lmaydi? Savdo esa yo'lsiz bo'lmaydi. Prezidentimiz I. A. Karimov yo'llar qurish, savdo-sotiq masalasida juda ko'p ishlarni amalga oshirish kerakligiga e'tibor berib, shunday deganlar: "... qit'alararo magistrallarni vujudga keltirish va ularning texnikaviy holatini mustahkamlash nihoyasiga yetgach, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi... Bundan tashqari, amalda Buyuk Ipak yo'lining yo'nalishlariga mos bo'lgan shunday kommunikatsiyalar orqali dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan muntazam madaniy sayyohlik va amaliy aloqalarni yo'lga qo'ysa bo'ladi"¹.

Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi miloddan avvalgi II asrga borib taqaladi. "Buyuk Ipak yo'li" talqini esa tarix faniga XIX asrda nemis sayyohi va tarixchisi K. Rixtgofen tomonidan 1877 yilda, uning "Xitoy" kitobida Sharq davlatlaridan o'tuvchi bu yo'lni birinchi marta "Ipak yo'li" deb nomlanganidan so'ng kiritilgan.

Aytib o'tish kerakki, Buyuk Ipak yo'lining qaror topishidan ancha ilgari O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida urush va tinchlik maqsadlariga xizmat qiluvchi yo'llar mavjud bo'lgan. Urush vaqtida ulardan katta armiyalar, kichik otradlar o'tar, qonli janglar kuchayar, yo'l yoqasida joylashgan shaharlar talanar edi. Tinchlik davrida esa bu yo'llar siyosiy,

¹*Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – 224-б.*

savdo-sotiq va madaniy hayotni bog'lovchi omil bo'lgan. Ular turlicha atalgan.

Eng qadimiy "lazurit" yo'li miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda vujudga kelgan. U Pomir tog'laridan boshlanib, Eron orqali Old Osiyogacha va Misrgacha o'tgan. Bu nom yuqori Amudaryo tumanlarida va Pomirda qazib olinuvchi yarim qimmatbaho tosh lazuritni (lyapis-lazur), qadimgi sharq davlatlari, jumladan Shumer (ikki daryo oralig'i) va Misr zargarlariga yetkazib berish bilan bog'liq. Arxeologik qazilmalar davomida, qablardan badaxshon lazuriti topilgan.

Tarixdan ma'lumki, miloddan avvalgi VI–V asrlarda Eron ahamoniylari saltanati davrida uning hududi bo'ylab "shoh yo'li" o'tgan. U O'rta yer dengizi qirg'oqlarida Efes va Sardog shaharlarini Eron poytaxtlaridan biri va Suzi shahri bilan bog'lagan. Yana bir yo'l Erondan Baqtriya, So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududi orqali Oltoygacha olib borgan.

Miloddan avvalgi IV asrda Iskandar Zulqarnayn Ahamoniylarning so'nggi podshosi Doroini yengib, 329 yilning bahorida O'rta Osiyo chegarasiga yetib keladi. Kuchli qarshilikka duch kelishiga qaramay, u bu yerda o'z hukmronligini o'rnatdi. Marg'iyona, Baqtriya, So'g'd davlatlarining yunon bosqinchilariga siyosiy bo'ysunishi uzoqqa cho'zilmagan bo'lsa-da, yunon va O'rta Osiyo madaniyatining qo'shilishi ma'naviy va moddiy madaniyatning jadal ko'tarilishiga sharoit yaratdi. Shu vaqt davomida O'rta Osiyo, Hindiston va Sharqiy O'rta yer dengizi madaniyatlari o'rtasida aloqalar saqlanib qolgan.

Miloddan avvalgi III asrga kelib Xitoy bilan aloqalar o'rnatila boshlagan. Ma'lumki, Xitoy imperatori Vu Di miloddan avvalgi 138 yilda o'z elchisi Chjan Syanni ko'chmanchi qabila xunnlarga qarshi kurashda ittifoqchi izlash uchun jo'natadi. Sayohat qilib yurib, elchi xunlar qo'lga asir tushadi va 10 yil shu yerda qolib ketadi. U qochib, Markaziy Tyanshan tog'laridan o'tib, Issiqko'lga chiqishga muvaffaq bo'ladi. Norin daryosi sohili bo'ylab o'tib, Farg'ona vodiysiga yetadi. Vodiya shaharlarning ko'pligi, ular bitta davlatga birlashganligi uning uchun kutilmagan hol edi. U Farg'ona vodiysi hukmdori bilan kelishishga harakat qilib ko'radi, lekin hukmdor faqat savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yishga rozilik bildirgani uchun, Chjan Syan janub tomonga yo'l oladi. Sayohatdan qaytayotib u yana xunlar qo'lga asir tushib qoladi, lekin bu safar ikki yil o'tgach, qochib ketadi. Chjan Syan o'zining O'rta Osiyoda bo'lgani haqida imperator nomiga batafsil yozilgan bayonnoma taqdim etib, unda savdo-sotiq uchun qulay yo'llarni ko'rsatadi, bu esa keyinchalik Buyuk Ipak yo'lga asos soladi. Imperator unga "Buyuk sayohatchi" unvonini beradi.

Xitoy va O'rta Osiyo o'rtasidagi mol ayriboshlashlar haqidagi ma'lumotlar miloddan avval I asrdan boshlab milodning VII–VIII asrlarigacha ko'rsatiladi. Eng birinchi ko'rsatmalar sovg'a-salomlar keltirish haqida bo'lib, ular xon saroyiga O'rta Osiyo davlatlaridan olib borilgan. Xitoy ham biron-bir davlat hukmdorini o'z tomoniga jalb qilmoqchi bo'lsa, albatta sovg'a-salom yuborgan. O'rta Osiyo tortiqlaridan, ayniqsa, mashhur "Davani" otlari juda qadrlangan, chaqqon ayg'ir bo'lgani uchun xitoylar

ularni “qanotli” deb ataganlar. Xitoy afsonasiga ko‘ra, imperator xudo darajasiga ko‘tarilishi, mangulikka erishishi uchun samoviy otlarda osmonga ko‘tarilishi kerak bo‘lgan. Shuning uchun ular qadrlangan. Xuddi o‘sha Chjan Syan Xitoyga “samoviy” otlarni olib ketgan. Bu tadbirkor sayohatchi O‘rta Osiyodan faqatgina otlarni emas, balki ular uchun yemish – suli urug‘ini ham olib chiqib ketgan. Qisqa vaqt ichida suli ekinlari butun Xitoy bo‘ylab yoyilib ketgan.

O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasida aloqalar mustahkamlanib borgan. Har yili imperator saroyi G‘arbga bir necha yuz qo‘riqchilari bo‘lgan kamida beshta missiya yuborgan. Ular o‘zlari bilan ipak, metall buyumlar olib borib, u yerda otlar, nefrit va O‘rta Osiyoning boshqa tovarlariga ayirboshlashgan.

Xitoy buyumlari faqatgina O‘rta Osiyo uchun mo‘ljallanmagan. Ipak matolariga talab Eronda va undan g‘arbda joylashgan davlatlarda birmuncha katta bo‘lgan.

Yevropada ipak daraxtda o‘sadi, faqat xitoyliklarga bu o‘simlikning sirini biladilar, deb hisoblangan. Avgust hukmdorligi davrida Rim Xitoy ipaklariga jun mahsulotlari, ziravorlar va shisha buyumlarni almashgan. Ipak matolariga oid afsonalar xitoyliklarga juda qo‘l kelgan, shu orqali ular o‘zlariga monopoliya yaratib, qimmatbaho mato eksportini tashkil qilishga muvaffaq bo‘lganlar. Hududlari orqali qilingan savdo-sotiq ishi ma‘lum miqdorda foyda keltirgan sababli parfiyaliklar ham, yerlaridan Ipak yo‘li o‘tgan keyingi avlodlar ham ipak tayyorlash sirlarini oshkor etishdan manfaatdor bo‘lmaganlar. Rimliklar bu matoni birinchi bor ko‘rganlarida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan. Triumvirat a‘zosi, konsul va Suriyaning Rimdagi elchisi Mark Mitsiniy Krass Iskandar Zulqarnayn izidan borishni, uning Sharqdagi g‘alabalarini takrorlashni orzu qilardi. Miloddan avvalgi 53 yilda, u parfiyaliklarga qarshi jangga otlanib, yettita legionni boshlab borgan. Biroq Rimni g‘alaba yoki mag‘lubiyat haqidagi xabar emas, balki tasodifiy hol – ipakning kashf etilishi lol qoldirgan. Bu esa legionlarning mag‘lubiyati bilan bog‘liq edi.

Parfiyaliklar jang vaqtida dushmanni aldash maqsadida chekinganlar va kutilmaganda orqaga qaytib, legionlar ustiga shiddat bilan o‘q yomg‘iri yog‘dirganlar, bu – mashhur parfiyancha o‘q otish edi. Bir vaqtning o‘zida ular quyoshda jilvalanib nur sochuvchi katta bayroqlarini yoyib, askarlarni shunchalik qo‘rqitib yuborganlarki, sarosimaga tushgan dushman yengilgan. Bu Rimning eng og‘ir mag‘lubiyatlaridan biri bo‘lgan. Oltinsimon jilvalanuvchi ip bilan tikilgan bayroqlar esa, rimliklar birinchi marta ko‘rgan ipak matolari edi. Bu mato keyingi yuz yilliklarda Rimni haqiqiy “Ipak tutqanog‘i”ga duchor qiladi. Bu bahavo, “bulutdek yengil” va “muz kabi musaffo” matoni rimliklar “xitoy nozigi” deb ataganlar.

Xitoydan chiqqan karvonlar shimoliy Tyanshan tog‘laridan oshib o‘tib, O‘rta Osiyo hududini kesib o‘tgan, Xuroson orqali (Amudaryo g‘arbi) Mesopotamiya va O‘rta yer dengizi yerlariga yetib borgan.

Buyuk Ipak yo‘lining uzunligi 12 ming kilometrni tashkil qilgani sababli, savdogarlarning juda ozchiligi ipak yo‘lini to‘liq bosib o‘tgan. Ular asosan

navbatma-navbat sayohat qilganlar, baʼzida tovarlarini yarim yoʻlda ayirboshlash bilan cheklanganlar.

Buyuk Ipak yoʻli boʻylab karvonlar oʻtuvchi shahar va qishloqlarda karvonsaroylar joylashgan. Ularda savdogarlar, karvon xizmatchilari uchun hujralar, tuyalar, yilqi, qoramol va eshaklar uchun xonalar, zarur oziq-ovqat va yem-xashak mavjud boʻlgan.

Karvonsaroylarda savdogarlar oʻzlarini qiziqtirgan tovarlarni koʻtarasiga sotishlari yoki sotib olishlari, soʻnggi tijorat yangiliklari, avvalo, narx-navolarni bilib olishlari mumkin boʻlgan.

Xorazm, Soʻgʻd va Fargʻona savdo-sotiq markaziga aylana borgan. Ipak yoʻli Oʻrta Osiyo tovarlari, otlar, don mahsulotlari, shuningdek uzum va paxtaga talabni kuchaytirgan. Oʻrta Osiyo shaharlarida hunarmandlar yangi hunar turlarini – Sharqdan metall buyumlar, Gʻarbdan shisha idishlar ishlab chiqarishni oʻrganganlar.

Oʻrta Osiyo hududida miloddan avvalgi I asrda Kushon davlati yuzaga kelib, uning birinchi hukmdori Kudzulla Kadfiz boʻlgan. Davlatning poytaxti Surxondaryo vohasidagi Dalvarzintepa oʻrnida joylashgan shahar boʻlgan. Kudzulla Kadfiz hukmronligi davrida Kushon davlati tarkibiga Oʻzbekiston va Tojikistonning janubiy tumanlari bilan birga, Qozogʻiston va Kashmir ham kirgan. Kanishka hukmronligi davrida (78–123) mamlakat tobora kengayib borgan. Kanishka istiloni kuchaytiradi: Hindistondagi yerlarini mustahkamlaydi, mamlakat poytaxti Baqtriyadan Peshovarga koʻchiriladi. Kushon davlati esa Hindistondan Xoʻtangacha, hozirgi Oʻzbekiston janubigacha choʻzilib, Afgʻoniston hududini oʻz ichiga olgan juda katta imperiyaga aylanadi. Yangi shaharlar qurilib, hunarmandchilik rivojlanib boradi va Hindiston, Xitoy, Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari oʻrnatiladi, savdo-sotiqda, ayniqsa, Fargʻona otlari yuqori baholangan.

Aynan Kushon davrida Buyuk ipak yoʻlini mustahkamlashga zamin yaratgan xalqaro savdo-sotiq keng yoyila borgan. Savdo aloqalari yoʻnalishi quyidagicha aniqlangan: Xitoyga Oʻrta Osiyodan jun matolar, gilamlar, taqinchoqlar, lazurit va zotdor otlarni, Xitoydan esa ipak matolar, temir, nikel, choy, porox yetkazib berilgan; Janubda Hindistondan shirinliklar va atir-upa olib kelingan. Hindistonga olib boradigan yoʻl tor, katta balandliklarda, togʻlar orasidan oʻtgani uchun “osilib turuvchi” deb nomlangan.

Bosh yoʻl Dunxuan, Xami, Turfan, Kashmir, Oʻzgan, Oʻsh, Quva, Andijon, Qoʻqon, Samarqand, Buxoro va Marv orqali oʻtgan. Marvda (Turkmanistonning hozirgi Mari shahri) Buyuk Ipak yoʻli tarmoqlarga boʻlinib ketadi. Shoh yoʻllardan biri Xorazm orqali Volgaga, Sharqiy Yevropaga olib borgan. Shunday qilib, Xitoy, Hindiston, Oʻrta Osiyo tovarlari Kiyev Russi, Novgorod, keyinchalik Moskvaga yetib borgan. Moskva bozorlarida asosan Sharq, hind savdogarlari savdo qiluvchi qatorlar mavjud boʻlib, ular “hind qatorlari” deb nomlangan.

Boshqa bir shoh yoʻl Balx va hozirgi Afgʻoniston yerlari orqali Hindistonga olib borgan. Uchinchi Bagʻdod tomonga, undan Oʻrta yer

dengiziga o'tgan. Bu yerda tovarlar kemalarga orilib, Misr, Vizantiya, Italiyaga olib ketilgan.

Qizig'i shundaki, Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'llaridan tashqari, ularga tutashib ketuvchi kichik shahobchalari ham mavjud bo'lgan. Hattoki, "oltin" yo'li ham mavjud bo'lgan. A. Sa'dullayev, V. Kostetskiy, N. Norqulovning fikricha, bu yo'l Qurama va Oltoy tog'larining hamda Zarafshon daryosining afsonaviy boyliklari sababli shunday deb atalgan va kon qazuvchilar, ko'chmanchilar turar joylari tomon, Pop yo'nalishida Zarkentga olib borgan. A. Asqarovning fikricha, bu – Sibir yo'li bo'lib, undan Dovon (Farg'ona) orqali Issiqko'l qirg'oqlari bo'ylab shimoliy hududlarga oltin olib o'tilgan. Bu yo'llarning ikkalasi ham mavjud bo'lganlik ehtimoldan xoli emas. Yana "kumush" yo'li ham mavjud bo'lib, undan Markaziy Osiyo kumushi ortilgan karvonlar shu metall yetishmaydigan davlatlar – Bolgariya, Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga olib o'tilgan.

Rossiya, Germaniya va Boltiqbo'yi davlatlari hududlaridagi kumush tangalar – dirhamlar topilmalariga qaraganda, ular ham pul, ham tovar sifatida olib ketilgan. Savdo-sotiq, asosan, ayirboshlashdan iborat bo'lib, pul hisob birligi sifatida ishlatilgan. Savdogarlar o'z tovarlarini ma'lum bir miqdorda baholab, xuddi shu miqdordagi boshqa bir tovarga almashtirganlar.

Buyuk Ipak yo'li orqali janub tomonga karvon bilan birga savdogarlar, elchilar, boylik orttirish maqsadidagilar, sarguzasht izlovchilar, oddiy mehnatkashlar – hunarmandlar va dehqonlar hamda haj qiluvchilar o'tganlar. Ayniqsa, karvon yo'llaridan Budda diniga sig'inuvchilar va Budda ruhoniylari ko'plab yurganlar. Ular, asosan, dinni yoyish bilan mashg'ul bo'lganlar. Asta-sekin buddizm Hindistondan Buyuk Ipak yo'li o'tgan boshqa davlatlarga ham yoyila borgan. O'rta Osiyoga buddizmning jadal kirib kelish vaqtini budda muqaddasgohi Ayritom (Shimoliy Baqtriya, mil. av. II asr) bildirib turadi.

Buddizmning markazi bo'lgan joy – arxeologlar tomonidan Termiz yaqinida olib borilgan qazilmalarda, Dalvarzintepada topilgan. Bu yerda Buddaga bag'ishlangan butun boshli ibodatxonalar, machitlar topilgan. Qazilmalarga qaraganda, u uzoq vaqtgacha O'rta Osiyo janubidagi kuchli buddizm markazi bo'lib kelgan, bu yerdan butun O'rta Osiyoga tarqalib, Kushon imperiyasining davlat diniga aylangan.

Keyinchalik, karvon yo'li orqali buddizm sekin-asta Xitoygacha yoyilgan, Yaponiyaga, Janubi-Sharqiy Osiyo va Hindixitoyga kirib borgan. Bugungi kunda biz ushbu davlatlarda, ayniqsa, Xitoy va Yaponiyada buddizmning qanchalik chuqur o'rnashib qolganligini bilamiz. Shunday qilib, buddizmning keng tarqalishida Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan.

G'arbdan O'rta Osiyo va Xitoyga kirib kelgan din faqatgina buddizm bo'lmagan. Zardo'shtiylik bilan birga, bu yerda xristianlik va moniylik ham bo'lgan.

Nasroniylar O'rta Osiyo, Xitoy va Misrga, ularning xristiancha fikr-mulohazalari pravoslav cherkovi tomonidan kofirlik deb e'lon qilingach, quvg'indan qochib o'tganlar.

Xitoyda xristianlikni “yorug‘likni o‘qitish” deb ataganlar, bu “olovni o‘qitish” deb nomlangan zardo‘shiylikdan farq qilgan. Xitoyda zardo‘shiylik o‘zga yerliklarning dini hisoblanib, keng tarqalmagan. Moniylik (“ikkita qarash haqida o‘qitish”) aksincha, katta yutuqqa erishgan. U o‘zida zardo‘shiylik va xristianlik diniy tasavvurlari elementlarini mujassamlashtirgan.

III asrda Eronda taqiqlangan moniylik So‘g‘dda mustahkam o‘rnashib oladi, VIII asrdan boshlab, O‘rta Osiyoda uyg‘urlar orasida uning ko‘p sonli tarafdorlarini topadi. Uning taraqqiy etish davri V asrgacha cho‘zilgan. X asrga kelib, moniylik Markaziy Osiyoning g‘arbida islom dini, sharqida esa buddizm tomonidan uzil-kesil siqib chiqarilgan. Lekin bu ko‘p davlatlarni birlashtiruvchi yo‘l din migratsiyasiga ta’sir ko‘rsatdi, u bilan bir yo‘nalishda, faol madaniy almashinuv, jumladan yozuv va musiqa almashinuvi borgan.

O‘rta Osiyo doimo musiqa san’atining o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Buyuk Ipak yo‘lining shakllanishi davridagi qulay geografik joylashuvi musiqiy hayotning jonlanishiga imkoniyat yaratdi. O‘rta Osiyo faqatgina vositachi bo‘lib qolmay, balki xalqlarning musiqiy o‘zaro boyish jarayoni ishtirokchisi ham bo‘ldi. Siyosiy shart-sharoitlar natijasida O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindistonning Kushon davlati tarkibiga (mil. av. I–IV asr), eftalitlar davlatining (mil. av. V asr o‘rtalari – VI asr), Turk hoqonligi tarkibiga kirishi, Sharq davlatlari bilan uzviy aloqalar o‘rnatilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrga kelib ularning etnik va madaniy birligi, Xitoy bilan aloqalari kuchaydi.

E. Shefer “Samarqandning oltin shaftolilari” monografiyasida podsho saroyiga qilingan turli-tuman tortiqlar hamda keng miqyosdagi savdo-sotiqqa oid ma’lumotlar keltirilgan. Bu o‘rinda mashhur O‘rta Osiyo otlari va saroy ahli orasida talab katta bo‘lgan ovchi itlar xususida so‘z boradi. Xitoydan keltirilgan ovchi qirg‘iylar va qoplon ovdagi ko‘ngilxushliklar uchun zarur bo‘lgan. Xorazmdan mo‘ynali hayvonlar – olmaxon, tulki, quyon, qunduz hamda oshlangan qo‘zi terilari, turk davlatlaridan esa ot terisidan ishlangan aslahalar keltirilgan. Xitoyda o‘zga yer sharobi (vino) qadrlangan, VIII asrda bu yerda uni tayyorlash jarayoni o‘zlashtirilganiga qaramay, Chochdan (Toshkent vohasi) bu vaqtda eroncha usulda tayyorlangan sharob keltirilgan. Toharistondan dorivor o‘tlardan tayyorlangan, yaralarni tuzatishda foydalaniladigan, qon oqishini to‘xtatuvchi “chitragandxa” dorisi keltirilgan. Sharbati davolash xususiyatiga ega bo‘lgan yantoq hammaga ma’lum dorivor giyoh sifatida eslatib o‘tiladi.

Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati, savdo aloqalari va uning yon-atroflarida u yoki bu buyumlarning elchilar sovg‘a-salomlari sifatida o‘rnashib qolishi bilan yakunlanmaydi. Ipak yo‘li erishilgan texnologiya yutuqlarining tarqalishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shunday qilib, uzoq yillar davomida Xitoy monopoliyasi hisoblangan ipakchilik va ipak to‘qish V–VI asrlarga kelib O‘rta Osiyo, Eron va Vizantiyaga tarqaldi. O‘rta Yer dengizi mamlakatlaridan keltiriluvchi shisha buyumlarni tayyorlash texnologiyasi Eron va O‘rta Osiyoga kirib kelgan, V asrda esa Xitoyda o‘zlashtirib olingan.

Ipak tayyorlash ilmining G'arb dunyosida o'zlashtirishi haqida afsona mavjud. Bu hozirgi zamon tilida aytganda, sanoat ayg'oqchiligi tufayli sodir bo'lgan. 420 yoki 440 yilda, Xitoy malikasi Xo'tan hukmdoriga turmushga chiqishi lozim bo'lgan va vatanidan uzoqda ipakdan ajralishni istamagan. Shuning uchun sochlari orasiga ipak qurtini yashirib «kontrabanda» yo'li bilan Xo'tanga olib o'tgan. Shu yo'sinda, Xitoydan tashqarida kam hajmda bo'lsa-da, ipak ishlab chiqarish boshlangan. O'rta Osiyodan Vizantiyaga ipak qurti, u bilan birga ipak tayyorlash texnologiyasi nasroniy ruhoniysi tomonidan tayoqchaga yashirib olib o'tilgan. Shunday qilib, ipak ishlab chiqarishning Xitoy monopoliyasi barham topgan.

Milodning VII asrida Arabiston yarim orolida yangi davlat – Arab xalifaligi tashkil topib, o'zining bosqinchilik harakatlari tufayli milodning VIII asriga kelib, Atlantika sohillaridan O'rta Osiyogacha bo'lgan hududni egallagan. Budda ibodatxonalari O'rta Osiyoda machitlarga aylantirilgan. Arab tili davlat va adabiy til deb belgilangan. Har bir musulmonning hayoti davomida muqaddas shahar – Makkaga haj qilish majburiyati piyodalar va savdo yo'llarini rivojlantirishga imkon yaratgan. Avval Damashqda, keyinchalik Bag'dodda joylashgan yangi imperiya, bir tomondan, Hindiston va Xitoy, boshqa tomondan esa Vizantiya va Yevropa, slavyan davlatlari bilan savdo munosabatlarining yuqori darajada rivojlanishiga erishgan. Musulmon savdogarlari karvon yo'llarida faol harakat qilib, o'z imperiyalaridan ancha yiroqda, savdo markazlarida joylashib olishga muvaffaq bo'lganlar. Musulmon tijorat birlashmalarini Ispaniyadan Xitoygacha ko'rish mumkin bo'lgan, Xitoy va Mongoliya o'rtasidagi savdo-sotiq esa to'la-to'kis ular qo'lida bo'lgan.

Arab xalifaligining O'rta Osiyodagi hukmronligi to'qqizinchi asrlarning nihoyasida tugallandi. IX–XII asrlar O'rta Osiyoda siyosiy jihatdan bir necha markazlashgan davlatlar – Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar hukmronligi davri bo'lgan.

Bu davrdagi osoyishtalik mintaqada iqtisodiy va madaniy rivojlanishga asos bo'lgan. Sharq va G'arb mamlakatlari bilan birga, Xorazm orqali Volga hududlarida ham jadal savdo-sotiq olib borilgan.

Samarqand O'rta Osiyoning muhim shahriga aylangan. Bozorlar dunyoning turli chekkalaridan Eron, Hindiston, Xitoydan keltirilgan tovarlar bilan to'lib-toshgan. Zarafshon vohasining ipak va paxtadan qilingan matolari juda katta talabga ega bo'lgan. Misgarlar esa o'zlarining mis chiroqlari va mis qozonlari bilan mashhur bo'lganlar. Shu bilan birga, Samarqanddan ro'mol, yong'oq, kamar olib chiqib ketilgan. Ayniqsa, tayyorlanish jarayoni ilgari sir saqlanib, faqat Xitoydagina ma'lum bo'lgan, qog'oz tayyorlash usuli katta ahamiyat kasb etgan. Qog'oz tayyorlash sirini xitoylik qog'ozfurushlarning o'zlari Talas jangida (751 y.) asir olinib, Samarqandga keltirilgach ochib berganlar. Samarqand qog'ozfurush ustalari bu hunarni avloddan-avlodga o'rgatib kelganlar. X asrning oxiriga kelib, qog'oz tayyorlash Sharq mamlakatlarida, hatto G'arb mamlakatlarida keng yoyilganda ham Samarqand qog'oziga teng keladigani bo'lmagan.

Buxoro zargarlik ustalari bilan mashhur bo'lgan. Uning eksportida sezilarli o'rinni gilamlar, paxta va jun matolar, charm, egar-jabduqlar, yog', oltinugurt, yong'oq va albatta, mashhur Buxoro qovun-tarvuzlari egallagan.

Shosh viloyati o'sha davrda charm buyumlari bilan mashhur bo'lgan, bu esa cho'lga yaqin joylashganligi, ko'chmanchi aholiga yaqin bo'lganligi bilan asoslanadi. Shoshdan ot terisidan tayyorlangan baland egarlar, o'tovlar, bundan tashqari, kamzullar, joynamozlar, kamonlar, igna va qaychilar olib ketilgan.

X–XII asrlarda savdo aloqalarining faolligi ayniqsa Xorazm uchun qo'l kelgan. Amudaryoning quyi oqimi, Orol dengizining janubrog'idagi bu voha Volgabo'yi ko'chmanchilari o'rtasidagi savdo munosabatlarida vositachilik vazifasini o'tagan. Xorazmning yirik shahri bo'lgan Urganchdan o'tgan karvon yo'li O'trogacha, undan Xitoyga, so'ng Buxoro va janub tomonga olib borgan. Bu yo'l shu yo'nalishda Sharqqa, Xitoy yoki Hindikush orqali Hindiston tomonga cho'zilib ketgan. Ma'lumki, Xorazmda bodomdan tayyorlangan qandolat mahsulotlari va ajoyib qovunlar serob bo'lib, ularni chetga chiqarish uchun qor yoki muz parchalari bilan birga idishlarga joylashtirilgan.

Bundan tashqari, Xorazm vohasi kamonlari, qayiqdari, baliq yelimlari, baliq tishlari hamda Amudaryodan tutilib, dudlab tayyorlanadigan baliq mahsulotlari bilan qadrlangan.

X asrda muayyan savdo operatsiyalarida chek ishlatilgan ("chek" – forsha so'z bo'lib, hujjat ma'nosini anglatgan). Savdogar o'zi bilan ko'p miqdorda pul olib yurishi shart bo'lmagan, u biron shaharda tijorat ishlarida ishonch bildirilgan sarroflardan biriga pulini topshirib, undan tegishli hujjat – chekni olishi va boshqa shaharda uning keragicha qiymatini qaytib olishi mumkin bo'lgan.

Aytib o'tish kerakki, siyosiy nizolar vaqtida Buyuk Ipak yo'li birmuncha noxush yana bir vazifani o'tagan. Masalan, XIII asrda Chingizxon xuddi mana shu Buyuk Ipak yo'lidan o'z bosqinchilik maqsadida foydalangan.

Chingizxon O'rta Osiyoni bosib olganida Xorazm ikki qismga bo'lingan: shimoliy Xorazm poytaxti Urganch bilan Jo'ji ulusiga (Chingizxonning katta o'g'li yerlari) kiritilgan va keyinchalik Oltin O'rdaning bir qismiga aylangan. Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy O'rta Osiyo hududiga egalik qilgan.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida Xitoy va O'rta yer dengizi davlatlari o'rtasida savdo-sotiq aloqalari vujudga kelgan. Lekin bu savdo-sotiqdan tushgan foyda ichki kelishmovchiliklar oqibatida O'rta Osiyoga emas, balki Oltin O'rdaga tushgan. Karvonlarning ko'plari Movarounnahrni aylanib o'tib, to'g'ri Volgaga, undan Qora dengizga chiqqanlar. Xorazm bu shimoliy yo'lining bir bo'lakchasi bo'lib, u hududlararo va qit'atlararo savdo munosabatlarini bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajargan. Bozorlari to'lib-toshgan, Urganch yirik savdo markaziga aylangan.

Movarounnahrni tashqi dunyo bilan bog'lovchi karvon yo'llarini asosan ikki guruhga ajratish mumkin bo'lgan. Birinchisi – shimolga va ikkinchisi – janubga olib boruvchi yo'llar XIV asrda Movarounnahrning shimol

tomondagi yirik iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'shnisi Oltin O'rda edi. U juda keng hududni Prut-Dnestr va Dnestr-Dnepr daryolari oralig'i, Dnepr, Don va Volganing chap qirg'oq havzalarini, Shimoliy Kavkaz, Volga-Ural daryolari oralig'ini, Xorazmning katta qismi, Shimoliy va Janubiy Qozog'iston, G'arbiy Sibirdagi ko'plab shahar hamda qishloqlarni birlashtirib turgan¹. Movarounnahr markazlari muayyan davrlarda Oltin O'rda tarkibiga kiruvchi yirik markazlar bilan mustahkam savdo-iqtisodiy aloqalari olib borgan. O'sha markazlar tarkibiga, jumladan Saroy, Saroychik, Eski Qozon, Hoji Tarxon, Tyumen (Chingi ko'ra), Sig'noq, Sabron, Yassi, O'tror va boshqalar kirganligini ta'kidlash lozim².

1370 yilda Movarounnahr hukmdori bo'lgan Amir Temur xalqaro savdo-sotiqqa alohida xayrixohlik bildirgan. U Buyuk Ipak yo'lini saqlab qolish va Movarounnahr hududidan o'tuvchi yo'llarni tiklashga intilgan.

Xorazmning qo'shilishi bilan savdo-sotiq yana qaytadan Urganch bozorlari orqali Amir Temur imperiyasining poytaxti – Samarqand orqali o'tadigan bo'ldi.

XIV asrning 70-yillari oxiriga kelib, Amir Temur Xurosonga yurish qiladi. Xuroson orqali Movarounnahr, Xitoydan Hindiston yerlarini birlashtiruvchi magistral yo'llar o'tgan. Bu yo'llar yoqasida boy bozorlar mavjud bo'lib, ayniqsa, Hirotida O'rta yer dengizi va Xuroson tovarlari: ipak va paxta matolarini, parcha va ro'mollar, gilamlar, Nishopurdan ajoyib firuzalar, mushku-anbarlar, uzum, bodom, xandonpista hamda Xirotida tayyorlangan po'lat, Xuroson tillasi va kumushi, Movarounnahr yoqutini uchratish mumkin bo'lgan. Bu bozorlarda yilqi, qoramol, qo'y va tuyalarni sotib olish mumkin bo'lgan.

XIV asrning 80-yillarida Xuroson va Hirot Amir Temur imperiyasi tarkibiga kirgan. 1389 yildan 1395 yilgacha esa, Temur Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi uch bor yurish qilgan, buning natijasida Oltin O'rda poytaxti – Saroy Berke (Volganing quyi qismidagi shahar) parchalangan, uning hududidan o'tuvchi karvon yo'llari esa faoliyatini to'xtatgan. Saroy Berke tor-mor etilgach, qit'alararo shimoliy yo'l e'tiborsiz tashlab qo'yilgan. Saroy, Urganch va O'tror orqali o'tuvchi yo'llar o'rniga karvonlar yana Hirot, Balx va Samarqand orqali o'tadigan bo'lgan.

Amir Temurning Eron, Kavkaz, Hindiston va Turkiyaga qilgan keyingi barcha yurishlari Buyuk Ipak yo'lining mo'g'ullar, ya'ni Chingizxon istilosigacha mavjud bo'lgan savdo shoh yo'llarini tiklashga qaratilgan.

Amir Temur hukmronligi yillarida Xirot bilan savdo aloqalari mustahkamlandi. O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi karvon aloqalari yangi asosga ega bo'ldi. "Min Shu Li" (Min imperatorlari hukmdorligi yillaridagi voqealar haqida yozilmalar) manbalariga qaraganda, 1368–1398 yillar orasida Amir Temurdan Xitoyga to'qqiz marta elchi borgan. Sovg'a-salomlar sifatida Xitoyga otlar, tuyalar, duxoba, qilichlar, aslahalar jo'natilgan. Xitoy imperatori, o'z navbatida, qimmatbaho toshlarni sovg'a qilib yuborgan.

¹Егоров В. Л. Историческая география Золотой Орды в XIV–XV вв. – М., 1985. – С. 79–140.

²Асқаров А. А. Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Т., 1996. – 154-б.

Shuningdek, Amir Temur ham Xitoy imperatoriga yaxshi niyatlar bildirilgan maktub yo‘llab, “sovg‘a” sifatida 200 ta otni qo‘shib yuborgan.

1404–1405 yillarda Temur Xitoyga yurish qilishga uringanida ahvol birmuncha keskinlashgan. Biroq uning vorislari Shohrux va Ulug‘bek davridayoq diplomatik aloqalarning tiklanishi va rivojlanishi ko‘zda tutilgan. Hukmronlar bir-birlariga yo‘llagan maktublarida, do‘stona aloqalarni mustahkamlash, ikki tomonlama foyda keltiruvchi savdo aloqalarini rivojlantirish va savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlash zarurligini uqtirib o‘tganlar. 1403–1449 yillarda Xitoyga Samarqanddan 33 nafar va Xirotdan 14 nafar elchi kelgan.

Xitoyga kelgan turli davlatlarning elchilari boj to‘lovlaridan ozod qilinganlar. Bundan tashqari, ularga yotoqxonalar berilib, zarur xizmatlar ko‘rsatilgan, turli ko‘ngilxushliklar uchun imkon yaratib berilgan.

Dengiz yo‘llarining ochilishi natijasida Xitoy va Hindistondan tovarlar dengiz orqali olib kelinganida ham, Uzoq Sharq va Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo aloqalarida O‘rta Osiyo savdogarlarining ishtiroki davom etgan. O‘rta Osiyoga XVI–XIX asrlarda ham Xitoy ipaklari, ipak keyim-kechaklar va chinni buyumlari kelib turgan.

Ayrim olimlarning ma‘lumotlariga qaraganda, o‘sha davrda Buyuk Ipak yo‘li orqali O‘rta Osiyodan eksport qilinuvchi tovarlardan biri – zandanachi matosi bo‘lib, u Buxoro yaqinida joylashgan Zanadana qishlog‘i ustaxonasining mahsuloti bo‘lgan. Ishlab chiqarilgan joyi nomini olgan bu mato Buxoro orqali bir qancha davlatlarga, jumladan Kavkazga va Rossiyaga yetkazib berilgan.

XVI asrda O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik aloqalar susayib borgan. Bunga sabab dengiz yo‘llarining ochilishi, feodallar urushining avj olishi, O‘rta Osiyoda Shayboniylar, Eronda Sefevedlar davlatlari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning keskinlashuvidir. O‘rta Osiyo shaharlarining boshqa davlatlar savdo markazlaridan ajralib qolishi karvon yo‘llari orqali amalga oshiriladigan savdo-sotiqning anchayin pasayib ketishiga sabab bo‘ldi.

XIX asrda, butun Yevropaning e‘tibori Turkistonga qaratilgan bir vaqtda, Buyuk Ipak yo‘li allaqachon afsonaga aylangan edi. Uning “qayta ochilishi” siyosiy sharoitlarning tasodifiy natijalari edi. Bu safar sirli yo‘llanma bilan Angliya qirolichasining topshirig‘iga binoan, Qoraqumning qorli tog‘lari orqali O‘rta Osiyoga hindistonlik Muhammadi Hamid yuborilgan. U Takla Makan vohalarini o‘rganishi kerak edi. Bu mustamlaka mamlakatlar bo‘yicha Rossiya va Angliya manfaatlari to‘qnashgan bir davr bo‘lib, ular Osiyoda mustahkamlanib olish va unga o‘zlarining ta‘sirini kuchaytirishi borasida raqobatlashganlar. Birinchi masala joyni razvedka qilish va xarita tuzishdan iborat bo‘lgan. Inglizlarda hindistonlik fuqarolardan razvedka maqsadida foydalanish fikri tug‘ilgan: ular Turkistonga olib boruvchi yo‘llar orqali savdogar ko‘rinishida chegaralardan ortiqcha qiyinchiliksiz o‘tishlari mumkin bo‘lgan.

Shunday qilib, Muhammadi Hamid topshiriq olgach, Yorkentga yo‘l oladi va u yerda vazifasini nihoyasiga yetkaza olmaydi, chunki yo‘lda kasalga

chalilib, vafot etadi. Lekin u ba'zi bir narsalar – afsonaga aylangan Takla Makan orqali o'tuvchi yo'nalish, Xo'tan yaqinidagi cho'llarda qum uyumlari bilan ko'milgan shaharlar haqida yozib qoldirishga ulgurgan.

Bu ma'lumotlarga tuzukroq ahamiyat berilgunicha yana o'ttiz yil o'tishi kerak bo'ldi. 1900 yildan boshlab Ipak yo'lida arxeologik izlanishlar boshlanadi (Xo'tandagi "Janubiy Ipak yo'lida"). Unda ingliz, nemis, fransuz, rus va yapon olimlari ishtirok etgan. Ko'pdan-ko'p san'at durdonalari topilgan, bu qo'lyozmalar o'n yetti tilda va yigirma to'rt harfli alifboda yozilgan bo'lib, hozirda dunyoning mashhur muzeylarida saqlanmoqda. Birinchi jahon urushining boshlanishi to'satdan bu tadqiqotlarni uzib qo'ydi.

2. Insonparvarlikning qaror topishi va turli xalqlar madaniyatining uyg'unlashuvida Buyuk Ipak yo'lining tarixiy ahamiyati

XX asrning oxiri jahonda sodir bo'lgan ulkan siyosiy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Butun dunyo bir butun va o'zaro bog'liq tizimga aylandi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining zarur shartlaridan biri xalqlarning o'zaro axborot almashinuvidir. Madaniyatda erishilgan yutuq va natijalar xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar – savdo-sotiq, bosib olish va ko'chib o'tish orqali keng tarqaldi. Unumdor, sug'oriladigan yerlarda butun bir madaniyat o'choqlari vujudga keldi.

Tarixiy jarayonda karvon yo'llari asosiy o'rin tutgan, jumladan Buyuk Ipak yo'li qadimgi va o'rta asrlarda Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, O'rta yer dengizini birlashtirgan.

Buyuk Ipak yo'lining tiklanishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Ipak yo'lining insoniyat taraqqiyoti tarixidagi ahamiyatini hisobga olib, xalqaro YUNESKO tashkiloti 1987 yilda "Ipak Yo'li" dasturini qabul qildi.

Dasturning asosiy g'oyasi asrlar davomida urushlar bilan birga, xalqlar va davlatlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning qanday kechganini ko'rsatish edi. Bu jarayonning bosh ko'rsatkichlari bo'lib Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshiriluvchi savdo-sotiq aloqalari va madaniy almashinuvlar xizmat qilgan. Turli mutaxassislardan tuzilgan xalqaro guruhlar uni amalga oshirishga kirishdilar. Madaniy yodgorliklarda ham mahalliy, ham o'zga yerlar an'analari jiplashib ketgan Markaziy Osiyo respublikalariga bu dasturda alohida o'rin ajratilgan.

"Buyuk Ipak yo'li" dasturining yakuniy konferensiyasi 1997 yilda Parijda bo'lib o'tdi. O'sha yerning o'zida katta e'tiborga loyiq ko'rgazma tashkil etilib, unda Osiyo xalqlarining asrlar davomida erishgan madaniy yutuqlari namoyish etildi.

Ikki yil o'tgach, 1995 yilda, avval Shtutgart "Linden-Museum"da, keyinchalik Berlinda va Rotterdanda "Ipak yo'lining vorisi – O'zbekiston" nomli ko'rgazma namoyish etilib, u O'zbekistonning tarixi va urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

1998 yilning noyabrida Toshkentda YUNESKO ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisi bo'lib o'tdi. Unda respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov so'zga chiqib, tarixni tiklashda ko'rsatgan yordamlari va ishtiroki uchun YUNESKO rahbariyatiga o'zining minnatdorchiligini bildirdi.

Buyuk Ipak yo'li Osiyo va Yevropa xalqlari iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. U xalqlarning ham savdo, ham madaniy sohada o'zaro hamkorlik aloqalarini olib boruvchi, Sharq va G'arb o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tagan. U yana xalqlar o'rtasidagi muloqotning eng yangi usuli – savdo-sotiq, madaniy va ilmiy aloqalar yo'li bo'lgani haqida dalolat beradi. Xuddi shuning uchun ham hozirgi davrda Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklash dolzarb masalaga aylandi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu jarayonni amalga oshirishda bizning respublikamiz bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston BMTning "Tranzit tashish hamkorligini rivojlantirish orqali savdo-sotiqni kengaytirish dasturi"da ishtirok etmoqda. Bu dasturga asosan Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida amalga oshirilib, ularning dengiz portlariga chiqishlariga imkon beruvchi va Buyuk Ipak yo'lining tiklanishiga asos bo'luvchi tranzit transport yo'lagi yaratish sohasidagi o'zaro hamkorlik yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda.

1993 yilning mayida Bryusselda Yevropa komissiyasi tomonidan Markaziy Osiyo, Kavkaz hamda Yevropa Ittifoqi davlatlari vakillarining uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuvdan maqsad – jahon iqtisodiyotiga yangi mustaqil davlatlar, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarini jalb qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish edi. Bu masala, avvalo, transport va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan. Bryussel uchrashuvida TRASEKA Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport yo'lagini tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi. Bu uchrashuv Buyuk Ipak yo'lini tiklash sari qo'yilgan birinchi qadam bo'ldi. Unda Markaziy Osiyo davlatlari va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) davlatlarining hukumatlararo shartnomasi tuzildi. Shartnomaga asosan, Pekin bilan Istambulni birlashtiruvchi, Transosiy magistralining asosiy qismi bo'lgan Tadjan-Saraxs-Mashhad temir yo'l tarmog'i qurilishi amalga oshiriladi. 1996 yilda Saraxsda Markaziy Osiyo va Eron temir yo'l magistralining birlashuvi bu maqsadda qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Qurilishni yakunlash rejalashtirilgan. Bu transport yo'lagining ochilishi bilan O'zbekiston Sharqda Osiyo, Tinch okeani, undan Yevropa bilan tashqi savdo aloqalarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1998 yil 8 sentabrda respublikamiz Prezidenti Islom Karimov Ozarbayjon poytaxtida o'tkazilgan Buyuk Ipak yo'lining tiklanishiga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. Bu konferensiyada 32 mamlakat vakillari, BMT, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki vakillari qatnashdilar. Boku konferensiyasi ishtirokchilari TRASEKA loyihasini amalga oshirish komissiyasini tashkil etish, Boku shahrida rezidensiyasini joylashtirish va doimiy kotibiyatini ta'sis etish taklifini ma'qulladi.

O'zbekiston temir yo'l qurilishi bilan birga, Andijon-O'sh-Irkashtom-Qashqar avtomobil yo'llari qurilishi va rekonstruksiyasida ishtirok etadi. Bu yo'llar Xitoy va Pokistonga hamda Buxoro-Saraxs-Mashhad-Tehron va Termiz-Hirot-Qandaxor-Karochi orqali Hind okeaniga chiqishga imkon beradi.

Ushbu transmintaqaviy magistrallarning faoliyat ko'rsatishi O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarga, Osiyo-Tinch okeani hududi, Hindiston va Xitoy, Yaqin Sharq mamlakatlari, Turkiya hamda Yevropadan tranzit tashishni kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Uchinchi ming yillik bo'sag'asida insoniyat hamkorlikning yangi yo'llarini izlashga yoki davrlar o'tishi bilan unutilgan karvon yo'llarini tiklash zaruratiga duch keldi. Buyuk Ipak yo'lining tiklanishi va har tomonlama o'rganilishi bu zaruratga to'la-to'kis javob beradi.

Buyuk Ipak yo'li bir necha asrlar davomida turli xalqlarni yaqinlashtirishga, fikrlar va bilimlar almashinuviga, tillarni va madaniyatlarni o'zaro boyitishga xizmat qilib kelgan.

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb halqlari o'rtasidagi keng madaniy aloqalar va o'zaro hamkorliklar tarixidir. Bu esa tinchlik va insoniyat taraqqiyoti uchun madaniy hamkorlik qilishning nechog'lik zarurligini tasdiqlaydi.

Asrlar mobaynida o'zaro manfaatli aloqalar va farovon turmush darajasiga intilish siyosiy va diniy nizolar, kelishmovchiliklardan ustun kelgan. Kelajakda xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari modelini tuzishda shu kabi ishonarli misollardan foydalanish zarur.

5-ma'ruza
**MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDAGI UYG'ONISH
(RENESSANS) DAVRI. AJDODLARIMIZNING JAHON
SIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSALARI
(IX–XII, XIV–XV asrlar)**

1. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi buyuk Uyg'onish davrining zaruriyati

Markaziy Osiyo insoniyat olamida juda qadimdan madaniyati rivojlangan, tarixi boy mintaqalardan biri bo'lgan. Sharq xalqlarining o'rta asrlardagi ilg'or madaniyati, dunyoviy turmush tarzi va qadriyatlarining ravnaqi Markaziy Osiyoning Uyg'onish davriga asos soldi. Bu davrda (IX–XV asrlar) vujudga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy vaziyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

Arablar istilosi O'rta Osiyoning shahar va qishloqlarini vayron etib, zulmni kuchaytirish bilangina cheklanmay, mahalliy xalqlarning avvalgi dinini yo'qotdi va o'rniga yangi – islom dinini majburan joriy etdi. Abu Rayhon Beruniy “Osuriya boqiya” asarida shunday yozadi: “Qutayba xorazm yozuvini, rivoyatlarini yaxshi bilgan, xorazmliklardagi mavjud ilmlarni o'rgatuvchi kishilarni qiyratgan va ularga turli yo'sinda azob bergan”. Beruniy yana yozadi: “Qutayba xorazm xattotlarini yo'qotdi, ruhoniylarni qirdi, ularning kitoblarini va o'rama xat yozuvlarini o'tda kuydirdi”¹. Arablar istilosi 671 yildanoq boshlangan bo'lib, Qutaybaning harbiy yurishlari (705–715 yillar) arablar tomonidan Markaziy Osiyoning istilo qilinishida katta ahamiyat kasb etdi. U qariyb butun Movarounnahrni – Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Xorazmni zabt etdi.

Bosib olish jarayonida har bir mintaqa (masalan, biz uchun Turkiston o'lkasi) xalqlarining o'ziga xos davlatchilik shakllari vujudga keldi. Bu davlatlar arab halifaligiga nomigagina qaram bo'lib, aslida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda mustaqil faoliyat olib bordilar. Shu bilan birga, yagona umumiy makonning vujudga kelganligi umumiy taraqqiyotni tezlashtirdi. Mahalliy davlatlar o'z chegaralarida pul muomalasi, savdo-sotiq, madaniy, siyosiy va tashqi aloqa muammolarini hal qilib, xavfsizlik va moliyaviy ta'minot kafolatini yaratib, avvalo, o'z davlatlari, qolaversa, butun arab musulmon dunyosining gullab-yashnashi, taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirdilar. Natijada VIII–XIII asrlarda butun Markaziy Osiyo o'lkasida iqtisodiy va siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha yo'nalishlarida keskin ko'tarilish, jonlanish ro'y berdi.

Ma'lumki, qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lgan Markaziy Osiyoning qulay geografik joylashishi, tabiati, iqlimi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning avvalroq boshlanishini ta'minladi, Sharq bilan G'arb, Mesopotamiya, Eron, Misr, keyinchalik Yunoniston va Rimni Xitoy hamda

¹Ўзбекистон халқлари тарихи. Т. 1. – Т., 1992. – 99-б.

Hindiston bilan bog'lovchi, turli xalqlar madaniyatining chatishuvini ta'minlovchi halqa vazifasini o'tadi. Markaziy Osiyoga xos bo'lgan ana shu xususiyat ayni vaqtda ko'plab xalqlar diqqatini o'ziga jalb qildi hamda qayta-qayta zabt etilishiga sabab bo'ldi. Shu o'rinda, arxeolog olim B. Staviskiyning "Qadimgi yunon va O'rta Osiyo xalqlari madaniyati o'rtasidagi o'xshashlikka O'rta Osiyo xalqlari bilan ellinlarning uzoq ajdodlari birligi sabab bo'lgan deb tushunish kerak"¹ yoki sharqshunos olim F. Sulaymonovanning "Markaziy Osiyo xalqlarida ham yunonlardagidek qora ot ilohiylashtiriladi, unga bag'ishlangan marosimlar ham bir xil, har ikkala mintaqada marosimlar qishki va bahorgi quyosh turishi bilan bog'liq, qishda – aza, yozda – bayram"² degan fikrlariga qo'shilish mumkin, shu asosda turli xalqlar madaniyati chatishuvining yuz berishi Turkiston o'lkasidagi taraqqiyotning asosi hamda sabablaridan biri ekanligiga dalildir.

Somoniylar hukmronligi davriga kelib Xuroson va Movarounnahrda madaniy hayotning yuksalishi kuzatildi. Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'z davrining madaniy markazi sifatida dong taratdi.

Arab istilosi davrida zo'rlab islomlashtirish arab tilining joriy etilishiga olib keldi. Arab tili faqat musulmon aqidlarida, rasmiy idoralar doirasidagina emas, balki fors, xorazm, so'g'd aslzodalari muhitida ham qo'llanila boshladi. Barcha aqid va shariat qoidalari (fikh) arab tilida yoziladigan bo'ldi. Barcha rasmiy qog'ozlar shu tilda yozildi. Arab tilini bilmagan odam amaldor bo'la olmas edi. Barcha ilmiy asarlar arab tilida bitildi. X asr o'rtalaridagina Movarounnahr aholisi fors-tojik tilida arab imlosi bilan yoza boshladiki, bunday yozuvlar bizning kunlarga saqlanib qolgan.

IX–XI asrlarda Markaziy Osiyoda arab tilida nodir ilmiy asarlar yozgan olimlar yetishib chiqdilar. Masalan, buyuk matematiklar Abu Ja'far ibn Muso Al-Xorazmiy (763–850 yillar) va Ahmad Al-Farg'oniyy (861 yilda vafot etgan) shular jumlasidan bo'lib, ular Xalifa Al-Ma'mun (813–833 yillar) rasadxonasida ilmiy ish olib borganlar. Aljabrga doir asarlarning lotin tiliga tarjima qilinishi bilan Al-Xorazmiy dunyo fani tarixida tong taratgan. Yevropada Al-Xorazmiy nomi "algoritm" va "algorifm" atamasi sifatida "Kitob ul-jabr val muqobala" nomli asaridan algebra fanining nomi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Olimning "Kitob at-tarix" (Tarix kitobi) da Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII–IX asrlardagi tarixiga oid qisqa va aniq ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Ahmad Farg'oniyy ilmiy kashfiyotlari bilan jahon fani, madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib hissa qo'shdi. Xususan, uning 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilishi, yerning dumaloq shaklda ekanligini aniqlaganligi e'tiborga molikdir. Farg'oniyy Misrda yashagan chog'ida Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob (tutash idishlar qoidasiga asoslangan) yasagan va u hozirgacha saqlanadi. Olimning "Al-Farg'oniyy jadvallari" (qo'lyozma), "Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob"

¹ *Ставиский Б. Я.* Античный миф, его традиции и элементы в истории культуры и искусства Средней Азии. – М., 1978. – С. 203.

² *Сулаймонова Ф.* Илк маълумотлар // Ижтимоий фикр. – 1998. – №1. – 20-б.

asarining qo‘lyozmalari Hindistonda, “Oy, yerning ustida va ostida bo‘lgan vaqtni aniqlash risolasi”ning qo‘lyozmasi Qohirada, “Yetti iqlim ilmi” asarining qo‘lyozmasi Olmoniyada, “Usturlob yasash haqida kitob” qo‘lyozmasining to‘rtta nusxasi Berlin va Parijda saqlanmoqda. Yevropada uni “Al-Farganus” deb ataganlar. Ilk uyg‘onish davri adabiyotining yirik vakili Aligyeri Dante o‘zining “Bazm” va “Ilohiy komediya” asarlarida falakning tuzilishi tartibini tasvirlaganda Ahmad Al-Farg‘oniyga suyanadi. 1998 yilda Ahmad Farg‘oniyning 1200 yillik yubileyi katta tantana bilan nishonlandi.

Sharq allomalarining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abu Nasr Forobiy (873–950 yillar) Forob (O‘tror) shahrida tavallud topgan. U fanning deyarli barcha sohalarini mukammal o‘rganib, 160 dan ortiq asarlar yozgan. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid buyuk asarlar, risolalar yaratib, jahonga mashhur bo‘ldi. U yozgan “Aristotel” (Arastu)ning “Metafizika” asari maqsadlari haqida”, “Tirik mavjudot a‘zolari haqida”, “Musiqa kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Siyosat al-Madaniya” (Shaharlar ustida siyosat yurgizish), “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Falsafaning mohiyati haqida kitob” va boshqalar buyuk olimning ilmiy dunyoqarashining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Umuman, Forobiy ilmlarning beshta asosiy turkumini ko‘rsatadi¹:

1. Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, to‘g‘ri yozuv va boshqalar) jami yettita bo‘limdan iborat.

2. Mantiq, sakkiz bo‘limdan iborat.

3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og‘irlik mexanikasi.

4. Ilm at-tarkibiy va ilm al-ilohiy – tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.

5. Siyosat ilmi (ilm al-madaniy – shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), fikh (yurisprudensiya) va kalom (musulmon teologiyasi).

Abu Ali ibn Sino, ayniqsa, tibbiyot ilmiga alohida mehr qo‘ygandi. Uning ilmiy qarashlari ikki yo‘nalishda: tibbiyot va falsafiy sohalarda rivojlandi. 17 yoshidayoq olim sifatida shakllandi, katta nufuzli shifokor bo‘lib yetishdi.

Ibn Sino Qoraxoniylarning Somoniylarga yetkazgan talofatlarining (992 yil va 999 yil) va Buxoroni ikki marta qarshiliksiz zabt etganligining shohidi bo‘ldi. Yangi sulola hokimiyatining birinchi yiliyoq boshlangan tartibsizliklar sababli, u 1002 yilda ko‘plab buyuk olimlar yig‘ilgan Urganchga, Xorazmshoh saroyiga ketdi. Agar xuddi shunday muhit davlatlarda va mamlakatlarda vujudga kelsa, albatta, shu yerda madaniy hayot inqirozga yuz tutgan. Xorazmni Mahmud G‘aznaviy egallagach, Ibn Sino Gurgon amirligiga, u yerdan Hamadonga – buvayxiylar hukmdori Shams ad-Davla (997–1021 yillar) huzuriga ketadi.

Buyuk qomusiy olimdan juda katta meros qolgan, umuman, turli fan sohalariga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlari qayd etilgan. Biroq, bizgacha Ibn Sinoning faqat 242 ta asari yetib kelgan, xolos. Ularning 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi

¹Qarang: *Karimov III., Shamсутдинов P.* Vatan tarixi. – T., 1997. – 239-б.

ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo‘lgan yozishmalarga tegishlidir¹. Ulug‘ hakimning tabobatga oid shoh asari, albatta, “Kitob al-Qonun fi-t-tib” (“Tib qonunlari kitobi”) dir. Ibn Sino “Tib qonunlari”ni besh kitobga bo‘lgan, bu kitobning jahonshumul ahamiyati shundaki, u XVIII asrning oxirlariga qadar Yevropaning tibbiyot o‘quv yurtlarida asosiy o‘quv qo‘llanmasi bo‘lgan.

Ibn Sino Sharqda “Shayxur-rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Jahon ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ilmiy markazlardan biri 1010–1017 yillarda faoliyat ko‘rsatgan Ma‘mun Akademiyasi (Donishmandlar uyi) dir. Xorazm shohi Ma‘mun II ilm-fan ravnaqi uchun kurashgan ma‘rifatparvar, ilm-fanga qiziqqan komil inson bo‘lgan. Uning davrida Markaziy Osiyoning ilm-fan markazi Xorazm bo‘lib, Turkistonning ko‘zga ko‘ringan ilm ahli ana shu ilmiy markazga to‘plangan.

Xorazm shohi Ma‘mun II Akademiyada Abu Rayhon Beruniy boshliq olimlarga hamma imkoniyatlarni yaratib beradi. Abu Rayhon Beruniy (973–1048 yillar) Qiyot shahrida tavallud topdi. U qadimgi yunon fani bilimdonlarining merosini egalladi, til, falsafa, falakiyot, riyoziyotni o‘rgandi, botanika, minerologiya, geografiya, tarix kabi ko‘pgina fanlarga qiziqdi. Beruniy Abu Nasr Mansur ibn Iroq rahbarligida riyoziyot va falakiyotni yoshligidayoq o‘rganib, quyoshning choshgohdagi balandligini armila asbobi yordamida yarim darajagacha aniqlikda o‘lchagan. U 21 yoshida ekliptika tekisligining ekvatorga og‘ishi burchagining g‘oyat aniq o‘lchovini topadi. 22 yoshida Beruniy Markaziy Osiyoda birinchi bor yer globusini yaratadi². Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Minerologiya”, “Geodeziya” kabi yirik asarlari olimga jahonshumul shuhrat va obro‘ keltirdi.

Buyuk mutaffakkir o‘z asarlarida Xristofor Kolumbdan 460 yil avval Amerika qit‘asi borligini bashorat qilgan. U bu haqida: “Bizning tekshirishimizcha, yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo‘lganligidan, uning hamhurt (diametral qarama-qarshisidagi) chorak qismi ham bo‘lishini taxmin qilamiz”³, – degan edi.

Beruniyning eng yirik shoh asari “Hindiston”dir. Bu kitob uning 13 yil davomida olib borgan ilmiy qidiruv ishlari natijasida yozilgan bo‘lib, u sakson bobdan iborat. Bu asar hindlarning tarixi, fani, urf-odati, ularning o‘sha davrdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahvoliga bag‘ishlangan bebaho asardir. Nemis olimi Edvard Zaxaunning ta’kidlashicha, “Hindshunoslikda Beruniyga teng keladigan biror olimning undan oldin ham, keyin ham bo‘lganini bilmaymiz”⁴. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari klassik

¹Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. 3 жилдли сайланма. 1-жилд. – Т., 1992. – 3-б.

²Ўзбекистон халқлари тарихи. – Т., 1992. – 107-б.

³Соатов А. Колумбда бор аламиним маним // Фан ва турмуш. – 1992. – №9–10.

⁴Ёш ленинчи. – 1991. – 14 авг.

namuna bo‘lib qolishi bilan birga, o‘z muallifining qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig‘idan iboratdir”¹.

Beruniyning yana bir qimmatbaho asari “Kitobul shamohir-fi ma’rifatil javohir” (“Qimmatbaho toshlarni bilish kitobi”) dir. Unda olim Markaziy Osiyodagi minerallar, ularning joylari haqida juda zarur ma’lumotlarni beradi.

Turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarining bilimdoni, butun Markaziy Osiyoni kezib, xalqlar jonli tilidagi so‘z va iboralarni, maqollarni qunt bilan o‘rgangan olim Mahmud Koshg‘ariydir (XI asrda yashagan). Uning bizgacha yetib kelgan asari “Devonu lug‘otit-turk”dir, “Turk tilining lug‘ati” 1070–1083 yillarda yozilgan bu nodir asarning qo‘lyozmasi 1914 yilda Turkiyaning Diyobakir shahrida topilgan va hozir Istambul shahrida saqlanadi. 1960–63 yillarda tilshunos olim S. Mutallibov bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Asar 1928 yilda nemis tilida, 1941 yilda usmonli turk tilida nashr qilingan. Asarda dunyo xaritasi ham ilova qilinib, juda katta hududlarga tarqalib ketgan holda, unda turkiy xalqlarning qavm-urug‘lari – qipchoq, o‘g‘iz, yamak, boshqird, basmil, qay, yaboku, tatar, qirg‘iz, chigil, yag‘mo, tuxsi, ichroq, jaru, jamil, uyg‘ur, tangut, tabkochlardan tashqari, yana fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma’lumotlar bor.

Mahmud Qoshg‘ariyning asarida Turkistondagi ba’zi shaharlarning nomlari, sharh-izohlari ham berib o‘tilgan. Masalan, unda Toshkent “Tarken” tarzida ko‘rsatiladi va “Tarken” Shoshning ismi, asli Toshkent, Tosh shahri demakdir, deb izohlanadi. Samarqandning asli nomi “Samiz qand” – katta shahar deb ta’riflanadi.

XI asrda yashab, ijod etgan yana bir olim, adib Yusuf Xos Hojibdir (1019–1020 yillarda tug‘ilgan). U Bolasog‘unda (Qirg‘izistonning hozirga To‘qmoq shahri) ziyoli oilada tug‘ilgan bo‘lib, Qoshg‘arda o‘zining mashhur asari “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asarini yozgan. Kitobni Qoraxoniylar xoni Tavg‘och Bug‘roxonga tortiq qilishi evaziga xon o‘z saroyida xos hojiblik (saroyning xos noziri) lavozimini bergan va shundan so‘ng bu nom bilan mashhur bo‘lgan.

Yusuf mukammal bilim olgan, arab, fors, tojik tillarini o‘rgangan, falsafa, tarix, geografiya, mantiq, matematika va boshqa fanlarni egallagan. U davlat va idora ishlari bilan qiziqqan. Turkiy tilda yozilgan “Qutadg‘u bilig” asari 73 bobdan iborat bo‘lib, axloq-odob, ilm-ma’rifat, farzand tarbiyasi, jamoat joylarida o‘zni tuta bilish, so‘zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi va inson ma’naviy olamining yana ko‘pgina qirralari qalamga olingan. U markazlashgan kuchli davlat barpo etish uchun kurashuvchi donishmand, adolatli hukmdor muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Xalq va davlat, davlat boshlig‘i va fuqaro, olim va hokim, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida g‘oyatda zarur fikrlarni ilgari suradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari to‘rt tayanch unsur asosiga qurilgan:

¹Ирисов А. Абу Райхон Беруний. – Т., 1960. – 20-б.

Biri to‘g‘rilikka tayanch – Adolat,
Biri Davlat erur, u qutli g‘oyat.
Uchinchi – ulug‘lik Aql va Zako,
To‘rtinchi – Qanoat erur bebaho.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini chinlilar (xitoyliklar) “Adabul muluk”, mochinlilar (turkistonliklar) “Zaynatul umaro”, eronliklar “Shohnomai turkiy”, turonlar “Qutadg‘u bilig”, ba‘zilar “Pandomai muluk”¹ deb bejiz aytmaganlar. Dunyodagi juda ko‘p xalqlarning tillariga tarjima qilingan “Qutadg‘u bilig” dostoni xalqimiz ma‘naviy boyligining eng muhim durdonalaridan hisoblanadi.

Turkiy adabiyotning yana bir yirik va zabardast vakili Ahmad Yugnakiydir (XII asrning ikkinchi yarmi XIII asrning boshi). Uning hayoti va ijodiy yo‘li to‘g‘risida hech qanday ma‘lumot saqlanib qolmagan.

Adibning bizgacha yetib kelgan yagona merosi “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar armug‘oni”) dir. Ana shu asarning faqat bir joyida shoir o‘z nomini tilga olgan. Bu asar Alisher Navoiy ijodidan ham munosib o‘rin oldi. Doston dunyo xalqlarining bir necha tillariga tarjima qilingan bo‘lib, 1480 yilda ko‘chirilgan nusxasida uning 254 bayt va bir bobdan iborat ekanligi aytiladi. Doston turli boblarda payg‘ambar va to‘rt halifaga, sipohlarga bag‘ishlangan va ular xalqparvar, zakovatli va adolatli ulug‘lar deb hisoblangan.

Somoniylar hukmronligi davrida eng yirik madaniy shaharlardan biri Buxoro edi, zero, bu yerda saroy va davlatning markaziy idorasi joylashgan edi.

Buxoroda O‘sha davrda Rudakiy va Firdavsiylar yashab ajoyib she‘rlar yaratishgan. Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda, Rudakiy Rudak qishlog‘ida (Samarqand hududida) tug‘ilgan. Boshqa bir ma‘lumotlarga ko‘ra, Rudakiy nomi shoirning o‘zi mukammal egallagan musiqa asbobi – “rud” nomidan olingan. U musiqa asbobi chalishni va ashula aytishni juda erta o‘rgangan. Uning shuhrati Buxoro amiri Nasr ibn Ahmadga (914–943 yillar) yetib boradi va amir uni saroyiga taklif qiladi. Rudakiy tojik she‘riyatining asoschisi hisoblanadi.

Eron va Markaziy Osiyoning arablar istilosigacha bo‘lgan tarixi aks etgan “Shohnoma” asarini buyuk Firdavsiy XI asr boshlarida Mahmud G‘aznaviy podsholik qilgan davrda (998–1030) yozib nihoyasiga yetkazdi. Abulqosim Firdavsiy 934 yilda tavallud topgan. “Shohnoma”ni xalq og‘zaki ijodidan mohirona foydalanib yozgan.

Firdavsiy umrining so‘nggi davrini Bog‘dod shahrida o‘tkazgan va u yerda “Yusuf va Zulayho” dostonini yozgan.

XI–XII asrlarda Markaziy Osiyoda fanning deyarli barcha sohalari, jumladan tarix ilmi sohasida ham ijod qilgan olimlar juda ko‘p bo‘lgan. Bu borada Abu Bakr Muhammad Narshaxiy alohida o‘rin tutadi. Uning hayoti va faoliyati to‘g‘risida deyarli hech qanday ma‘lumot saqlanmagan. Faqat Somoniylar davriga oid “Kitob ul-Asab” asarida olimning to‘la nomi Abu Bakir Muhammad ibn Ja‘far ibn Zakariyo ibn Hattob ibn Sharik ekanligi

¹Qarang: Ўзбек адабиёти тарихи. Т. I. – Т., 1977. – 107–108-б.

va u Buxoro ahlidan bo‘lib, 899–960 yillarda yashaganligi bayon qilingan. Narshaxiydan meros asar – “Buxoro tarixi” bizgacha yetib kelgan. Qariyb ming yil ilgari yozilgan Narshaxiyning ushbu asari so‘zsiz xalqimiz tarixchiligining nodir manbai sifatida g‘oyat qimmatlidir. Unda Movarounnahr va Xorazm yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi, mahalliy xalq qo‘zg‘olonlari, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid voqealar to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi.

XI–XII asrlarda Markaziy Osiyoda islom madaniyati ham rivojlandi. Jamiyatda mahalliy dinlar zardushtiylik, buddizm va boshqalar surib chiqarildi. Islom ta‘limoti Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar hukmdorlarining ichki va tashqi siyosatida bosh, yo‘naltiruvchi g‘oyaviy kuch bo‘lib xizmat qildi. Jamiyatda islom diniga, Qur‘oni Karimga ehtiyoj kuchaydi. Ammo hamma ham Qur‘oni Karimni o‘qiy olmas, uning mazmunini chaqa olmas edi. Bu esa Qur‘onning mazmunini sharhlash va tafsiriga talabni oshirdi. Natijada o‘lkamizda Qur‘oni Karimni sharhlovchi va uning tafsirini bayon qiluvchi asarlar yozgan ulug‘ islomshunos allomalar yetishib chiqdi. Imom Abu Mansur Moturidiy, Imom Abu Lays ibn Muhammad Samarqandiy, Imom Zamahshariy, shayx Najmiddin Kubro, Imom Nasafiylar ana shular jumlasidandir.

Islom madaniyatining Qur‘oni Karimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan nodir manbalaridan biri – Hadis, ya‘ni Muhammad alayhissalomning diniy va axloqiy ko‘rsatmalari, hikmatli so‘zlaridir. Hadislar Rasulilloh hayotlik chog‘larida asosan, yodda saqlangan, uni kitob holida jamlab tuzishga ijozat bermaganlar.

Hadislar to‘g‘risida fikr yuritilganda, uch xil yo‘nalish nazarda tutilgan: bu “Musnad”, “Sahiyh”, “Sunan” yo‘nalishidagi hadislardir.

1. “Musnad” yo‘nalishida tasnif etilgan to‘plamlarda turli mavzulardagi hadislar bir joyga keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtga ko‘ra yoki alifbe tartibida joylashtiriladi.

2. “Sahiyh” yo‘nalishidagi hadislar to‘plamiga buyuk muhaddis, vatandoshimiz Imom Buxoriy asos solgan. Bu yo‘nalishda ta‘rif etilgan to‘plamlarga faqat to‘g‘ri, ishonarli, asosli hadislar kiritilgan.

3. “Sunan” yo‘nalishidagi to‘plamlarda barcha hadislar (“zaif” hadislar ham) keltirilgan.

Hadischilikning rivojlanishida IX asr oltin davr hisoblanadi. Chunki Islom dunyosida eng nufuzli deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to‘plamining mualliflari ham xuddi shu asrda yashab ijod qilganlar va yana ularning hammasi Markaziy Osiyo tuprog‘ida yetishib chiqqanlar. Ular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Al-Hajjoj, Abu Iso Muhammad At-Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon, Imom Ahmad An-Nasoniy, Imom Abu Abdullo Muhammad ibn Yazit zotlardir.

Hadis ilmining Amir-al mo‘minini degan sharaflig nomga sazovor bo‘lgan muhaddis olim Ismoil Al-Buxoriy (810–871) hatto 12 yoshligidayoq Buxoro madrasalarida dars beruvchi mudarrislar bilan bahs-munozara olib borgan, ayrimlarining xatolarini topa boshlagan. 826 yilda onasi va akalari bilan haj safariga borib, hijozda olti yil yashab, hadis ilmini astoydil o‘rganadi. Islom

olamining yirik markazlaridan biri bo'lgan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarni kezib chiqadi. Bu yerlarda u hadis ilmi bilan bir qatorda, fiqxdan ham ta'lim va saboqlar oladi, yirik olimlar davrasidagi bahs-munozaralarda qatnashadi, ilmi toliblarga ham dars beradi. Imom Buxoriyning ustozlari juda ko'p, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda to'qson kishi atrofida bo'lgan. Ayni vaqtda o'zi ham minglab shogirdlar yetishtirgan – Muslim ibn Hajjoj, Iso At-Termiziy An-Nasoniy Abu Zur'a, Yusuf Al-Forobiy, Abu Bakr ibn Xuzayma kabi mashhur muhaddislar shular jumlasidandir.

Imom Buxoriy hazrat¹lari jami 600 ming hadislarni to'plaganlar. Shulardan 100 ming "sahiyh" hadislarni va 200 ming "g'ayri sahiyh" hadislarni yoddan bilganlar. Hadislar ilmi bobida imom Buxoriyga teng keladigan biror kimsa musulmon olamida bo'lmagan.

Imom Buxoriy hazratlaridan ulkan va boy meros qolgan. Bu haqida 1998 yilda o'tkazilgan yubiley tantanalarida juda ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Al-Buxoriyning 1225 yillik yubileyi munosabati bilan Samarqand yaqinidagi Xartang (hozirgi Chelak tumani) qishlog'ida juda katta ziyoratgoh majmui bunyod etildiki, bu O'zbekiston davlatining buyuk vatandoshimizga va o'tmish ma'naviyatiga, islom dini ta'limotiga bo'lgan izzat-hurmati nishonasidir.

Olimning "Al adab al-mufrad", "At-ta'rix as-sag'ir", "At-ta'rix al-kabiy", "Kitob al-ilal", "Asomi us-sahoba", "Kitob al-kuna" va boshqa asarlari orasida shoh asar hisoblanmish "Al-jomi' as-sahiyh" ("Ishonarli to'plam") nomli hadislar kitobining tarixda birinchi marta to'liq holdagi to'rt jildi o'zbek tilida bosilib chiqdi². Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan muqaddas kitob mana shu asar hisoblanadi.

Islom dunyosida nom qozongan buyuk muhaddis olimlardan biri Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso az-Zahhok Abu Iso as-Sillamiy az-zariyr al-Bug'iy at-Termiziydir (824–894). U Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Sherobod) qishlog'ida tug'ilib, yoshlikdan ilm-fanga intilgan, muhaddis olimlarning asarlarini zo'r havas bilan o'rganadi. At-Termiziyning kamolotida Al-Buxoriy hazratlarining o'rni bebahodir.

Jahonga mashg'ur Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma» epik dostonida Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining Iskandar Zulqarnayndan tortib, to arablar bostirib kelguncha (651 yil) bo'lgan tarixini g'oyat aniqlik bilan tasvirlagan. Firdavsiy 50-60 ming bayt, 100 mingdan ortiq misradan iborat ulkan epopeyasida 50 podsholik davrining jangu jadali haqida yozar ekan, urush qilmaslikka, barcha ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiradi. Bu asarni yozish uchun juda ko'p hujjat to'plab, o'ttiz besh yil mehnat qilganligi haqida shoirning o'zi ham qayd etib, «Arab va pahlaviy tillarida juda ko'p asarlar o'qidim, juda ko'p mehnat chekdim», – deydi³.

¹ *Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Ал-Бухорий. Ҳадис. 1-жилд. Ал-Жомиъ ас-саҳийҳ. – Т., 1991. – 5-б.*

² Hadisning birinchi jildi 1991, to'rtinchi jildi 1992, uchinchi jildi 1995, ikkinchi jildi 1996 yilda chop etilgan.

³ Qarang: *Фирдавсий Абулқосим. Шохнома. 1-китоб. – Т., 1975. – 8-б.*

Abulqosim Firdavsiy 940–941 yillar atrofida Xurosonda Tus shahri yaqinidagi Boj qishlog‘ida dunyoga keldi. Baxtga qarshi uning shaxsiy hayoti haqida juda oz ma‘lumotga egamiz. Shoir umrining oxirida o‘z vataniga kelib, Tusda vafot etgan bo‘lsa ham, ruhoniylar uning jasadini musulmonlar mozoriga dafn ettirmaganlar, uning jasadi otasidan qolgan bog‘ning bir chekkasiga ko‘milgan. Bu 1025 yil edi¹.

IX–XIII asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida tasavvuf-so‘fiylik ta‘limoti rivoj topdi. So‘fiylik (tasavvuf) islomdagi falsafiy-diniy oqimdir.

Markaziy Osiyo diyori ma‘naviy xazinamiz bo‘lmish tasavvuf ta‘limoti ravnaq topgan va hamisha amalda bo‘lgan muqaddas zamindir. Tasavvuf g‘oyalarining ibtidosi Qur‘oni Karim oyatlariga borib taqaladi. Islom ta‘limoti, tasavvuf ma‘rifatini falsafiy, nazariy va amaliy yo‘nalishda davom ettirgan vatandosh mutafakkirlarimizning faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Istiqlol asl ma‘naviy xazinalarimizni o‘rganishga keng yo‘l ochdi. Tasavvuf ta‘limotini o‘rganish sohasidagi dastlabki samara sifatida professor N. Komilovning “Tasavvuf” kitobi maydonga keldi².

Xorazmlik allomalar Qur‘oni Karim tafsiri bo‘yicha muhim asarlar yozganlar. Qomusiy olim az-Zamahshariyning shoh asari bo‘lgan va musulmon dunyosida keng tanilgan “Al-Kashshof” asari Quroni Karimga yozilgan mashhur tafsirdir. Asarning to‘liq nomi “Al-Kashshof an haqiqi it-tanziyl va uyun il-ahoviyl fi vujuya it-ta’viyl” (“Qur‘ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko‘zlarini ochish”) dir. Az-Zamahshariy bu asarni yozishda mashhur tafsir, hadis, fiqh, ilm al-horiat, nahvu sarf, adab va boshqa shariat ilmlariga oid ko‘plab manbalardan keng foydalangan.

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Jorulloh Zamahshariy (1075–1144) dan juda ko‘p ilmiy meros qolgan. Uning “Al-mufassal” – arab grammatikasiga oid, “Asos al-balog‘a” («Notiqlik asoslari») arab tilining izohli lug‘ati asarlari mashhur. “Muqaddimat al-adab” («Adabiyotga kirish») asari esa arab tilining so‘z boyligiga bag‘ishlanadi va butun islom dunyosida qo‘llanilgan arab tilining ravnaqiga ulkan hissa qo‘shdi. Az-Zamahshariy tafsir, hadis, ilm al-qiroat, tilshunoslik, adabiyot, jug‘rofiyaga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Shu bilan birga, fiqhga taalluqli “Ruus al-masoiya fi-l-fikh” (“Fiqh turli masalalarning muhimi (boshi)”), “Ar-Roiz fi-ilm il-faroiz” (“Meros huquqi ilmi bo‘yicha mashq”) nomli asarlar yozganligi uchun ham az-Zamahshariy Xorazm fiqh maktabining asoschisidir, deb aytishga haqli asoslar bor³.

Musulmon dunyosida mashhur bo‘lgan faqih – fiqhshunos olim Burhoniddin Marg‘inoniy haqida Abdulhay al-Lankaviy shunday deb yozgan: “U imom, qonunshunos bo‘lgan, hadisshunoslik bilan shug‘ullangan, Qur‘onni yoddan tushirgan va tafsir qilgan, huquqiy bilimlarni to‘plab ularni yaxlit fan tartibiga keltirgan, o‘tkir tadqiqotchi, pok xudojo‘y inson, fan va adabiyotda tengi yo‘q, yuksak mahoratli

¹ O‘sha manba. – 11-b.

² Qarang: *Комилов Н.* Тасаввуф. 1-китоб. – Т., 1996.

³ *Муқимов З.* Мовароуннахр фихқ мактаби. – Самарқанд, 1997. – 16-б.

huquqshunos, yozuvchi, shoir bo‘lgan”¹. Demak, Markaziy Osiyolik fiqhshunoslar butun islom huquqi – shariat ilmlari taraqqiyotiga munosib va salmoqli hissa qo‘shganlar.

Tasavvuf ilmining buyuk namoyandasi Ahmad Yassaviy (1166–67 yillarda vafot etgan) ning ota-bobolari silsilasi Muhammad Xanafiya borib taqaladi. Buxoroda ilmu saboq olgan Ahmad Yassaviy o‘z shogirdlari orqali o‘zi asos solgan “Yassaviya” tariqatini Turkiston va Shosh (Toshkent) atrofidagi viloyatlarga tarqata boshlagan.

Movarounnahrda XII asrdan so‘ng “Yassaviya” tariqatidan ikki yirik tariqat paydo bo‘lgan. Birinchisi – “Naqshbandiya”, ikkinchisi – “Bektoshiya”, “Iqoniya” deb atalgan, uchinchi tariqat ham bo‘lgan, ammo u Toshkent viloyati atrofidan nariga o‘tmagan.

Ahmad Yassaviyning juda chuqur va boy mazmunga ega “Devoni hikmat”ida mutafakkirning so‘fiylik falsafiy dunyoqarashi aks etgan. Asarda ulug‘vor insoniy fazilatlar: oddiylilik, mehr-muhabbat, sadoqat, haqiqat, adolat, hur fikrlilik, insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtai nazardan bayon qilinadi. Va aksincha, yomonlik, nodonlik, johillik, adolatsizlik, haqsizlik, saxovatsizlik, molparastlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Bunday nuqsonli shaxslar insof va diyonatga chaqiriladi.

Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining rivojlanishida xorazmlilik buyuk alloma, sarkarda, dinshunos olim, shoir Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Abdul Janob Najmiddin Kubro Al-Xivakiy (1145–1221 yillar) munosib o‘rin tutadi.

Uning nomidagi “Najmiddin” so‘zi dinning yulduzi, “Kubro” esa ulug‘ degan ma‘noni anglatib, unga turli mamlakatlarda berilgan ilmiy darajani ifodalaydi. Najmiddin Kubro asos solgan kubroviya tariqati “oltin tariqat” deb atalgani ham bejiz emas. Kubroviya tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog‘lanib ketgan. Unda kishilarning diniy e‘tiqodi, xudoga bo‘lgan ishonchi, halollik, odamiylik, molu dunyoga hirs qo‘ymaslik, o‘z nojo‘ya ishlaridan tavba qilish, shahvoniy hirsu havolardan saqlanish lozimligi singari axloqiy g‘oyaviy talablar bir-biri bilan bog‘lanib ketgan.

2. IX–XII, XIV–XV asrlardagi fan, madaniyat va tasavvuf ilmining yuqori darajaga erishganligi va uning jahonshumul ahamiyati

Markaziy Osiyo tarixida Temuriylar davrini ba‘zan Temuriylar Renessansi deb ham atashadi².

Amir Temur buyuk davlat asoschisi sifatida biz uchun qadrlidir. Amir Temurning “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat,

¹ *Абдуль-Хай ал-Ланкави. Аль-фавоид ал-бахайа фи Тараджим аль-Ханафийа. – Казан, 1903. – С. 171–174.*

² Renessans (Uyg‘onish) – XIV–XVI asrlarda G‘arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarning madaniy taraqqiyoti tarixidagi davr. O‘rta asrlar madaniyatida gullab-yashnagan, insonning beqiyos imkoniyatlariga, aql-idroki, irodasi, qobiliyatiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan yangi davrga o‘tish jarayoni.

qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”, degan soʻzlari davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etganligidan dalolatdir. Amir Temur faoliyatidagi ibratli jihatlardan yana biri shuki, uning qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro savdo munosabatlarini yaxshi yoʻlga qoʻyish orqali xalqlar, mamlakatlar oʻrtasida yagona makon barpo etishda yuksak yutuqlarga erishganligidadir.

1996 yilning 18 oktabrida xalqaro YUNESKO tashkilotining bevosita homiyligida dunyo ilmiy jamoatchiligining Amir Temur shaxsiga boʻlgan yuksak eʼtiborini hisobga olib, Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bagʻishlangan xalqaro ilmiy anjuman oʻtkazildi. Bugungi kunda dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat koʻrsatayotganligi, Temur va Temuriylar davri haqida koʻplab kitoblar nashr etilayotganligi, oʻtgan olti asr mobaynida Amir Temurga bagʻishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqinligi¹ kabi maʼlumotlarning oʻzi ham Amir Temur shaxsining naqadar ulugʻvorligini koʻrsatadi.

Prezident I. A. Karimov Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bagʻishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada (1996 yil 24 oktabr) qilgan maʼruzalarida shunday degan edi: “Jahon madaniy va maʼnaviy jamoatchiligi oʻrta asrlarda Amir Temur tuzgan davlat va uning butun dunyo eʼtiborini oʻziga jalb qilgan olamshumul faoliyati, umumbashariyat xazinasiga qoʻshgan hissasi bilan tanishar ekan, uni oʻstirgan yurtga va mana shu hududda undan koʻp asr oldin oʻtgan buyuk allomalarning ijodiy merosini, ularning tabarruk nomlarini ham yana bir bor kashf etish va keng miqyosda oʻrganishga zamin va sharoit tugʻildi.

Shu maʼnoda IX asrdayoq yevropaliklar keyinchalik “Algebra” deb atagan fanga asos solgan buyuk vatandoshimiz Al-Xorazmiyning; Xristofor Kolumbdan qariyb besh asr oldin okean ortida quruqlik, yaʼni keyinchalik Amerika deb nom olgan qitʼa borligini bashorat qilib, ilmiy asoslab bergan qomusiy bilim sohibi Abu Rayhon Beruniyning; “Tib qonunlari” nomli mashhur asarining nashr etilib, oʻrta asrlarda butun dunyo, shu jumladan Yevropa tibbiyot institutlarida qoʻllanma sifatida oʻqitilgan ulugʻ ajdodimiz Ibn Sino kabi koʻplab allomalarning nomlari va ilmiy ishlari bilan dunyo ahli aynan Amir Temur zamonida qaytadan va chuqurroq tanishgan...”².

Mirzo Ulugʻbekning umumbashariy qadriyatlarga qoʻshgan hissasi beqiyos boʻlib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Mirzo Ulugʻbek, avvalo, sof amaliy uslubda ijod qilib, minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq qilmaydigan mukammal astronomik jadvalni yaratgan. Uning “Ziji jadidi Koʻragoniy” asari oʻrta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari oʻrtasida keng tarqaldi.

Taqdir bu ulugʻ zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Cheksiz aql-idroki, azmu qatʼiyati, odilona siyosati bilan buyuk

¹ Qarang: *Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi*. T. 5. – T., 1997. – 184-b.

²Oʻsha manba. – 182–183-b.

Amir Temur bobosining vorisi sifatida Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirishda jasorat ko‘rsatdi.

“Biz bu voqealarni dunyo xalqlarining Mirzo Ulug‘bek va uni voyaga yetkazgan yurtga, xalqqa va uning tarixiga samimiy hurmati deb bilamiz”¹. O‘rta Osiyo zaminida yashagan shoirlar, muarrixlar, tasavvuf yo‘nalishidagi mualliflarning ijodida insonparvarlik g‘oyalari yaqqol namoyon bo‘lgan.

Alisher Navoiy (1441–1501) o‘zbek xalqining ulug‘ shoiri va mutafakkiri, olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Amir Hisrav Dehlaviy, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy singari ulug‘ siymolaridan biridir.

Alisher Navoiyning buyuk xizmatlaridan biri o‘zbek adabiy tilini taraqqiy ettirish, uning katta imkoniyatlarini ko‘z-ko‘z qilish, turkiy xalqlar birligini mustahkamlash g‘oyalarini ilgari surganidir. Ayni vaqtda Navoiy fors-tojik tilini ham o‘z ona tilidek sevadi, bu tilda ham g‘oyat go‘zal ijod namunalarini yaratadi. 1476 yilda mashhur “Tuhfatul-afkor” nomli fors tilidagi asarini yozadi.

Alisher Navoiy ijodining o‘sishi va kamolotida fors-tojik adabiyotining buyuk vakili, shoir va olim Abdurahmon Jomiy (1414–1492) ning xizmati kattadir. Har ikki ulug‘ zot bir-birlari bilan do‘st, hamfikir, ustoz va shogird bo‘lganlar. Bu yaqinlik, birodarlik va do‘stlik o‘zbek va tojik xalqlarining qadim-qadimdan birodarligi, qon-qardoshligi va do‘stligining yorqin namunasidir.

Alisher Navoiy o‘zining shoh asari “Xamsa”ni 1483–1485 yillarda yozib tugalladi. “Xamsa” “Hayratul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor” (Yetti sayyora), “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori) kabi besh dostonni o‘z ichiga olgan.

Temur va Temuriylar davrida hadis, kitob va xattotlik, musiqa, tasviriy san‘at turlari ham gurkirab o‘sdi. O‘z zamonasining mohir rassomi Kamoliddin Behzod (1455–1533/37) o‘zining hayratomuz san‘ati bilan “Moniyi soniy” (ikkinchi Moniy-afsonaviy Xitoy rassomi) Hirot maktabiga asos soldi va ustoz san‘atkor sifatida Turkiston o‘lkasida, Eron, Ozor yurti va boshqa o‘lkalarda tasviriy san‘atning rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” asarida o‘zidan avval o‘tgan va zamondosh shoirlar to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar beradi, o‘sha davrning madaniy muhitini tasvirlaydi. Shaharlik buyuk hunarmand shoirlardan, samarqandlik ijodkorlarning (Mavlono Javhariy – sovungarlik korxonasining egasi, Mavlono Davoriy – tikuvchi, Mavlono Mir Qarshining esa bozorda askiyachilar to‘planadigan sahhoflik do‘koni bo‘lgan, hirotliklardan Mavlono Zayn – hamyon tikuvchi, Mavlono Mir Arg‘un – chodir tikuvchi, Mavlono Baqoiy – mohir kamonsoz, Mavlono Mushriqiy – shoh qushxonasining nazoratchisi, Mir Hoshim – tillaga o‘yma naqsh soluvchi, Mavlono Tohiriy – etikdo‘z bo‘lgan) ijodidan namunalar beradi.

O‘z sohasida kamolotga intilish Temuriylar davri hunarmandchiligining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu, ayniqsa, me‘morchilikda yaqqol namoyon bo‘ldi.

¹Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т., 1996. – 321-б.

Temur huzuriga kelgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning “Kundalik”larida Samarqand qiyofasi yaqqol aks etadi. O’sha davrning bu noyob hujjatida Yevropa Renessansi vakilining sinchkov ko’zi bilan atrof borliqqa, shu jumladan musulmon Sharqiga nisbatan keng ko’lamdagi qiziqish bilan qarash namoyon bo’ladi.

Umuman, Temur va Temuriylar davlatida me’morchilik avvalgi davrdan ko’p narsa olgani holda, o’z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko’tarildi. Bunga yordam bergan omillar esa yangi, goho mahobatli binolarni bunyod etish, ulkan hududning turli chekkalaridan keltirilgan me’morlarning ijodiy kuchlarini yagona davlat doirasida birlashtirish va nihoyat, “davr ruhi” – bir qator tadqiqotchilarni “Temuriylar Renessansi” to’g’risida so’z yuritishga undagan o’ziga xos jihatlardan iborat bo’ldi. Bu ibora bahsli, albatta, Yevropadagi Uyg’onish davrining mafkuraviy nuqtai nazarlari O’rta Sharqdagidan farq qiladi. Lekin madaniy taraqqiy etib kelayotgan insonparvarlik ikki xususiyatga ega. Musulmon Sharqida shariat belgilab qo’yan turmush qonun-qoidalari qattiq ekanligidan insonparvarlik yaratuvchilik mehnati bilan band kishilarning ijodiy erkinligida namoyon bo’ldi. Uni mashhur shoirning satrlarida, kulolning kosaga chizgan zangori gullarida, qandakor idishlarga o’yan bezaklarda yoki me’mor bunyod etgan ulug’vor masjid, nafis shiypun va boshqa inshootlarda ko’rish mumkin.

Ulug’bek zamonida uning safdoshlari va shogirdlari tomonidan qurilgan Samarqand rasadxonasi mashhur “Ziji Ko’ragoniy” (Ko’ragonning yangi astronomik jadvali) jahon faniga qo’shilgan bebaho hissadir. Vaqt o’tishi bilan, Ulug’bek “Ziji” butun dunyoda tan olinib, avvalo, Sharq, so’ng G’arb davlatlarida XVII asrning o’rtalaridan boshlab keng tarqaldi. “Ulug’bekning Ziji” Ptolemey, Tixo Brage va boshqalarning jadvallari bilan birga, Angliyadagi Grinvich observatoriyasining birinchi direktori D. Fleystidning 1725 yilda nashr qilingan “Osmon tarixi” kitobiga kiritildi¹.

YUNESKO tomonida Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Toshkentning 2000 yilligi nishonlanishi “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi” nomli yirik xalqaro tadqiqotning olib borilishi, hazrati sohibqiron Amir Temur, buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Al-Farg’oniy va Mirzo Ulug’bek yubileylarining nishonlanishi jahon hamjamiyatining o’zbek milliy madaniyati va san’ati tarixini, uning ma’naviyat-ma’rifat va axloqiy-huquqiy hayotdagi haqiqiy o’rnini e’tirof etishi demakdir.

Sharq xalqlarining o’rta asrlardagi ilg’or madaniyati, dunyoviy turmush tarzi va qadriyatlarining ravnaqi Markaziy Osiyoning uyg’onish davriga asos soldi. Aynan ma’lum bir jug’rofiy makonda, ya’ni Markaziy Osiyoda ma’naviy uyg’onish sodir bo’lgani qiziqarli hol. Buning birinchi sababi – mintaqa bo’ylab odamlar bemalol harakat qilishi mumkin bo’lgan muhitning vujudga kelganligi. Ushbu mintaqadagi mamlakatlar o’rtasida IX–XVI asrlarda bojxona ittifoqi tarkib topgan bo’lib, ayniqsa, Amir Temur davrida Buyuk Ipak yo’liga katta e’tibor berilganligini (savdo yo’lidagi o’g’riqaroqchilarning yo’q qilinganligi, yangi-yangi karvonsaroylar, sardobalar va ko’priklarning qurilganligi va boshq.), Samarqand bozorlarida dunyoning

¹Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Т., 1996. – 58-б.

turli joylaridan kelgan, turli tillarda gaplashuvchi, har xil dinlarga e'tiqod qiluvchi savdogarlar va xaridorlarni ko'rish mumkin bo'lgan. Ikkinchi sabab – odamlarda ilmga bo'lgan hurmatning yuqoriligi hamda bilim olishga ishtiyoqning zo'rligi muhitining mavjudligi. Uchinchi sabab – hukmdorlarning o'zidan yaxshi nom qoldirish, adolatli podshoh nomini olishga intilgani. Ular o'z saroylarida ilm-fan, san'at va adabiyotni rivojlantirishga shart-sharoit yaratib berganlar.

Markaziy Osiyoning uyg'onish davrida vujudga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy vaziyat yagona ilmiy, diniy va ijtimoiy muomala tili vazifasini o'tagan arab tili va yozuvi mavqeining ortishi hamda qaror topishi bilan ham bog'liq. Mintaqa xalqlari arab xalifaligi qaramligidan mustaqil bo'la borganlaridan boshlab o'lkada iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda nisbatan tezroq rivojlanishga imkoniyat tug'ildi. Umumiy bozor, yaxlitlashgan xalq xo'jaligi, yuqori ishlab chiqarish munosabatlari va yirik ilmiy, diniy markazlar vujudga keldi. Natijada IX–XVI asrlarda butun Turkiston o'lkasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotning barcha sohalarida jonlanish, ko'tarilish va umumiy rivojlanish ro'y berdi. Bularning hammasi, albatta, mug'ullarning bosqini oqibatida ro'y bergan vaqtinchalik inqirozni istisno etganda, Sharqning o'rta asrlarda ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jabhalarda, ayniqsa, madaniyatda G'arbga nisbatan ustunligini yuzaga keltirdi.

Buyuk Ipak yo'li orqali savdo-sotiqning kengayishi, ko'p tarmoqli hunarmandchilikning rivojlanishi shahar madaniyatining har tomonlama gullab-yashnashiga olib keldi. IX asr davomida dastlab Tohiriylar, so'ngra markazlashgan Somoniylar davlatining tashkil topishi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida siyosiy barqarorlikni ta'minladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy va madaniy yuksalishga, mahalliy xalqlar turmush tarzining yaxshilanishiga yo'l ochdi. Sivilizatsiyaning asosiy mezoni hisoblangan shaharlar tez sur'atlar bilan rivojlana bordi. Masalan, Farg'ona vodiysining poytaxti Axsikentda X asrning oxirida buyuk muhandislik inshooti bo'lgan yer osti suv o'tkazish tizimi qurilgan bo'lib, u shahar aholisiga 200 yildan ziyod xizmat qilgan¹.

Yevropada, ayniqsa, Fransiyada o'rta asrlar Sharqi, xususan, tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, buyuk ajdodlarimiz ilmiy-ma'naviy merosi katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Markaziy Osiyo ma'rifatparvarligini tadqiq qilishda fransuz sharqshunoslik maktabi jahon ijtimoiy fanida peshqadam o'rinni egallab kelmoqda. Toshkentda ochilgan Fransiya Respublikasining Markaziy Osiyoni tadqiq qilish instituti buning yaqqol dalilidir².

Respublikamiz qo'lyozma xazinalarida madaniyatimiz tarixiga tegishli 60 mingdan ortiq muhim va noyob asarlar saqlanmoqda. Bu manbalarning taxminan 40 foizini bevosita islom ilmi, islom tarixi, tasavvufga bag'ishlangan risolalar tashkil etadi. Ularni o'rganish xalqning madaniyati va musulmon olami uchun muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib,

¹Анарбаев А. Ал-Фарғоний ва Марказий Осиё цивилизацияси // Халқ сўзи. – 1998. – 10 сент.

²Саидов А. Француз бобуршунослиги // Ҳаёт ва қонун. – 1996. – №12. – 24-б.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1999 yil 7 aprelda Toshkent shahrida Islom universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi farmonga imzo chekdi. Bu esa o‘tmish tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarimizni zamon talablari darajasida o‘qib-o‘rganishga juda katta imkoniyatlar ochib berdi.

Tariximizni va jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning merosi bugungi istiqlolimizning oltin poydevoridir. Insonni ma’naviy yetuklikka chorlovchi ilmiy, axloqiy, diniy va huquqiy qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, madaniyatida muhim o‘rin tutadi.

6-ma'ruza
**AMIR TEMUR DAVLATI. TEMUR TUZUKLARI VA HOZIRGI
ZAMON**

1. Temur davlatining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar

XIII asrning 60-yillariga kelib mo'g'ullar imperiyasi yemirila boshladi va uning o'rnida Eronda, Oltin O'rdada va Movarounnahrda uchta mustaqil davlat vujudga keldi. Bu davrda islom dini taraqqiyotida ham rivojlanish ro'y berdi, hatto mo'g'ul hukmdorlari ham islom dinini qabul qila boshladilar. Tarixdan ma'lumki, Chig'atoyning nabirasi Muborakshoh (1264 y.) mo'g'ul hukmdorlari ichida birinchilardan bo'lib islom diniga e'tiqod qilishni boshlagan. XIV asrning boshlariga kelib barcha mo'g'ul hukmdorlari bu dinni qabul qilganlar. Shuningdek, musulmon an'analari va urf-odatlarini keng quloch yoyib, rasmiy odat sifatida keng tarqaldi. Ana shu asosda markazlashgan islom davlatini vujudga keltirish uchun siyosiy kuch yetildi.

Shu bilan birga, feodal davlatlar, hududlar o'rtasida nizolar, kelishmovchiliklar ham tobora kuchayib bordi. O'zaro tinimsiz kurashlar, janjallar odat tusiga kira bordiki, bular tufayli feodal davlatlarning ahvoli tobora og'irlasha bordi. Chingiziylarning so'nggi avlodi bo'lgan Qozonxon Kebekxonning siyosatini, islohotlarini davom ettirdi. Bu esa uning ko'chmanchi oqsuyaklar bilan ziddiyatlarini keskinlashtirib yubordi. Natijada o'zaro urushlarda Qozonxon o'ldirilgach, Movarounnahrda amir Qozog'on hukmronlik qila boshladi. Akademik V. V. Bartoldning ta'kidlashicha, amir Qozog'on davrida yigirma yil mobaynida urushlar, chig'atoylar bilan mo'g'ullar o'rtasida janjallar bo'lmadi¹. U 1358 yilda mo'g'ul xoni Tug'luq Temurning bir no'yon tomonidan o'ldirildi. Shundan so'ng hokimiyat uning o'g'li Abdullaning qo'liga o'tdi. U Samarqandda yashar edi, bunga boshqa amirlar qarshi turdi va bu kurashda u o'ldirildi. Qozog'on o'limidan so'ng Movarounnahrda kuchli bir hokimiyat bo'lmadi va o'zaro feodal nizolar tobora kuchaya bordi.

Akademik I. Mo'minovning fikricha, "Bu davrda Movarounnahrda chet el qaramligidan, mo'g'ul xonligidan ajralib, mustaqil, kuchli hokimiyat tuzishdan manfaatdor bo'lgan feodal aslzodalar orasidan ayrim guruhlar yetishib chiqa boshladi.

Bular masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi eng muhim tomoni shundaki, keng xalq ommasi ko'p mashaqqatlar bilan uzoq vaqt ichida irrigatsiya tarmoqlarini – ariq, zovur, suv omborlari, to'g'onlarni tikladi. Dehqonchilik, hunarmandchilikni yo'lga qo'ydi, ayni vaqtda o'zaro

¹*Бартольд В. В. Сочинения. Т. 2. Ч. 2. – М., 1964. – С. 38.*

urushlarga, mayda feodal hokimlarning o‘zboshimchaligiga, mo‘g‘ul xoni va Oltin O‘rdaning turli noiblari bosqinchiligiga qarshi kurash olib bordi”¹.

Xalq ommasi yanada ko‘proq azob chekdi, xo‘rlandi, talandi. Bu davrda chig‘atoy xonlari va ular bilan mahalliy aholi, zodagonlar o‘rtasida ziddiyat tobora keskinlashib bordi. Ana shu kurashlar natijasida o‘sha asrning 40-yillarida Chig‘atoy ulusi ikki qismga – Sharqiy Turkiston va Yettisuvni o‘z ichiga olgan Mo‘g‘uliston va Movarounnahr ga bo‘linib ketdi. Bo‘lingan davlatlar o‘rtasida o‘zaro kurash avjiga chiqib, Mo‘g‘uliston amirlari Movarounnahr ga tez-tez hujum qilib turdilar.

Mamlakatning iqtisodiy ahvoli ham tobora murakkablashib bormoqda edi. Bundan tashqari, Movarounnahr bir necha feodal davlatlarga bo‘linib, Kesh (Shahrisabz), Buxoro, Termez, Badaxshon, Xo‘jand, Shosh (Toshkent) va boshqa viloyatlarning hokimlari o‘rtasida tinimsiz urush-janjallar avj oldi. Davlat ishlari tamoman izdan chiqdi. Og‘ir soliqlar, qaroqchilarning talonchiliklari dastidan aholi qashshoqlashib, juda og‘ir ahvolga tushib qoldi. Buning ustiga, 1360 yili mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temur Movarounnahr ga o‘z harbiy qo‘shinlari bilan osonlikcha bostirib kirdi. Movarounnahr tarqoq holdagi feodal davlatlardan iborat bo‘lgani uchun ham Tug‘luq Temur qo‘shinlariga qarshi hamjihatlik bilan kurash olib boradigan kuch yo‘q edi. Uning qo‘shinlari hatto hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo tomon harakat qila boshladi. Qashqadaryo hokimi Hoji Barlos aholining tinchligini, osoyishtaligini ham o‘ylamay, dushmanga qarshi kurashni tashkil qilish o‘rniga, mo‘g‘ul istilochilaridan hayiqib, o‘z qo‘shinlarini olib Amudaryo sohilining narigi tomoni – Xurosonga qarab yo‘l oldi. Natijada Qashqadaryo vohasining mehnatkash aholisi boshliqsiz, najotsiz qoldi. Mana shuning o‘zi ham feodal aristokratiyasi va oddiy mehnatkash xalq orasidan kuchli shaxslar yetishib chiqishini hayot taqozo etayotganini ko‘rsatar edi.

I. Mo‘minovning uqtirishicha, “Chig‘atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarning vahshiyona ezishi, mo‘g‘ul xonlari, Oltin O‘rda beklarining Movarounnahr dagi to‘xtovsiz bosqinchilik yurishlaridan azoblangan, xonavayron bo‘lgan, 150 yil davomida chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temur da, uning lashkar boshilarida ravshan ko‘rindi...”².

Amir Temur 1336 yili Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida, uncha badavlat bo‘lmagan, biroq ancha nufuzli barlos beklaridan biri bo‘lgan Tarag‘ay oilasida tavallud topdi.

An‘analarga muvofiq, Tarag‘ay o‘z o‘g‘liga otda yurishni, ov qilishni, xat-savodni, islom dinining tartib-qoidalarini o‘rgatgan. Jumladan, Sohibqiron bilim olishni yetti yoshidan boshlagani haqida o‘zining “Tarjimai holi”da shunday yozadi: “Yetti yoshga to‘lganimda meni madrasaga olib borishdi va qo‘limga so‘zlar jadvalini berishdi. Men o‘qiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand bo‘ldim”³.

¹ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т., 1968. – 49-б.

² О‘sha manba. – 50-б.

³ Бартольд В. В. Сочинения. Т. 2. Ч. 2. – М., 1964. – С. 37.

Akademik Bartoldning e'tirof etishicha, 1360–1370 yillarda Amir Temur harbiy ish bilan tinmay shug'ullangan.

Amir Temur tarqoq feodal davlatlar o'rtasida bo'lib turadigan urush-janjallar tufayli o'z Vatani mehnatkash ommasining azob chekayotganini, buning ustiga mo'g'ul bosqinchilarining ko'rsatayotgan kulfatlarini ko'rib, bunga befarq qaray olmadi.

Amir Temur mo'g'ul hoqoni Tug'luq Temurga qarshi chiqish, kurash olib borish foydasiz ekanligiga to'la ishonch hosil qilib, uning xizmatiga kiradi va o'zining to'g'ri maslahatlari bilan uning ishonchini qozonadi. Tug'luq Temur 25 yoshli Sohibqironga ishonch bildirib, uni Hoji Barlos o'rniga Shahrisabz tumaniga hokim qilib tayinlaydi. Bartoldning ta'kidlashicha, "Amir Temur Tug'luq Temurning yordami bilan Shahrisabz va Qarshi begi bo'ldi¹.

Sohibqiron o'z hukmronligini shu tariqa boshladi. U o'zi hukmdor bo'lgan mamlakatning mavqeini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rishga kirishdi. 1361 yildan boshlab Qozog'onning nevarasi, Xuroson va Eronning hukmdori amir Husayn bilan yaxshi munosabat o'rnatdi.

Amir Temur saksoninchi yillargacha Movarounnahrda tarqoq xonliklar o'rniga mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzish yo'lida astoydil kurashdi. Bu mamlakatni birlashtirishdan manfaatdor turk va tojik zodagonlari bilan birga, o'zboshimcha feodallarga, ya'ni markazlashish va birlashishga zid harakatlarga, mamlakatni tarqoq saqlashga intiluvchilarga, o'zaro urush va janjalga undovchilarga qarshi kurash olib bordi.

Buni shu narsa ham tasdiqlaydiki, 1361–1365 yillarda ikki amir o'rtasidagi aloqa yanada mustahkamlandi. Shu tariqa, ular Movarounnahrda muhim kuchga aylandilar. Ular bunda o'z manfaatlari nuqtai nazaridan harakat qilganlar, albatta. Tug'luq Temur vafot etganidan so'ng, Movarounnahrdan haydalgan uning o'g'li Ilyosxo'ja 1365 yilda katta qo'shin to'plab Movarounnahrda yurish boshlaydi. Buni payqagan Husayn va Temur Ilyosxo'jaga qarshi qo'shin to'playdi. Chinoz bilan Toshkent oralig'ida katta jang bo'ladi. Shiddatli jang ketayotgan davrda kuchli jala yoqqani uchun ham tarixda bu "loy jangi" yoki "jangi loy" deb ataladi.

Bu jangda Temur qo'shini jiddiy muvaffaqiyatga erishgan bir paytda, amir Husayn jangchilari qat'iyatsizlik ko'rsatib, Ilyosxo'ja qo'shinlarining g'olib chiqishiga sabab bo'ldi (Amir Husaynga bo'ysungan Temur unga dadilroq harakat qilish zarurligini aytadi. Urushda Ilyosxo'ja qo'shinlarining qo'li baland kelib, ayniqsa, amir Husayn juda katta zarar ko'radi. U Temur bilan o'z qo'shinlarining qolganini olib chiqib, chekinishga majbur bo'ladi). Amir Temur va Amir Husayn avval Samarqandga chekinib, so'ng Amudaryo sohillariga yashirinadilar. Bu esa Ilyosxo'ja boshliq mo'g'ul qo'shinlarining Samarqand tomon harbiy yurishini yanada davom ettirishga imkoniyat tug'dirardi.

Dushmandan qutulish uchun Samarqandda devor ham, qal'a ham yo'q edi. Amir Husayn bu yerda harbiy qism ham, harbiy boshliqlar ham qoldirmagandi. Shahar aholisi Ilyosxo'janing bosqinchilik harakatini bartaraf etishga kirishdi. Shahar aholisini mo'g'ul bosqinchilaridan saqlab qolish,

¹ *Ахмедов А.* Амир Темур ҳақида ҳақиқат // *Сомон йўли.* – Т., 1992. – 27-б.

shaharni himoya qilishga kuch topildi. Bu kuch sarbadorlarning kattagina bir guruhi edi. Ular shahar aholisini mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga chaqirdilar. Xalq ommasining mo'g'ul istilochilariga, mahalliy yer egalarning haddan ortiq jabru-zulmlariga qarshi kuchli noroziligi tarixda "sarbadorlar" deb nom olgan qudratli ozodlik harakatining boshlanishiga sabab bo'ldi.

Bu harakat XIV asrning 30-yillarida butun Xurosonda boshlanib, O'rta Osiyoga yoyilgan edi. Ular mo'g'ullarga bo'ysunib yashagandan ko'ra, dorda osilib o'lgan afzal derdilar. Ularning rahbarlari Samarqand madrasalarining birida tahsil ko'ruvchi Mavlonzoda va sobiq paxta savalovchi Abu Bakr Kalaviy edilar. Mavlonzoda Jome masjidiga to'plangan 10 mingga yaqin aholiga murojaat qilib, islom va xalqni mo'g'ullardan saqlab qolish, himoya qilishga da'vat etdi. Sarbadorlarni shahar aholisi, madrasalar talabalari, yoshlar, hunarmandlar, shahardan tashqarida yashaydigan dehqonlar va o'rta yer egalari qo'llab-quvvatladilar. Ular Samarqand mudofaasini muvaffaqiyatli himoya qilib, mo'g'ullarning bosqinchilik harakatlarini bartaraf etishga muvaffaq bo'ldilar. Ilyosxo'ja ikki ming nafar jangchidan ajralib, avval Samarqandni, so'ngra Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi¹.

Mo'g'ullar ustidan erishilgan g'alaba agar xalqqa jasur, qobiliyatli, ishonchli, o'z so'zi ustidan chiqish uchun astoydil harakat qiladigan rahbar bo'lsa, juda ko'p ishlar qilish mumkinligini ko'rsatdi. Shunday qilib, sarbadorlar harakati tarixda yorqin sahifalarga ega bo'lib, uning ildizi xalq hayotiga, XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotiga bevosita bog'liqdir.

Temur qishni Keshda (Shahrisabz), amir Husayn Amudaryo sohillarida o'tkazayotganlarida sarbadorlarning mo'g'ul istilochilari ustidan erishgan g'alabalarini eshitib, Samarqandga yo'l oladilar. Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda to'xtaydilar va sarbadorlarning erishgan g'alabalarini go'yo ma'qullab, bu harakatning faollarini yig'ib, ziyofat beradilar va ertasiga ularni qirib tashlaydilar. Temurning himoyasida Mavlonzoda omon qoldi.

Shunday qilib, Amir Husayn bilan Temur Samarqandni yana qo'lga kiritdilar. Bu voqea 1366 yil bahorning oxirida yuz berdi. Shu bilan birga, ikki amir o'rtasidagi ixtiloflar tobora kuchaya bordi. Bu ixtilof o'lja masalasida ham edi. Ta'kidlash o'rinliki, "jangi loy"da katta talofat ko'rgan Amir Husayn amaldorlardan to'lashi lozim bo'lgan o'lponlarni qat'iy talab qilganda, ularga Temur yordamga keldi. Bu Temurning harbiy boshliqlar o'rtasidagi obro'sini oshirib yubordi.

60-yillar oxirida Husayn o'ziga qarashli Balx shahrini mustahkamlab, istehkomlar qurishga kirishdi. Shaharning devorlarini tiklatdi va qurol-yarog'ni ko'paytira boshladi. Temur bu harakatlarning o'ziga qarshi qaratilganini yaxshi anglagandi. Shuning uchun Temur oldinroq harakat qilib, 1370 yilda unga hujum qildi va Balx shahrini egalladi. Balxni qamal

¹ Якубовский А. Ю. Тамерлан. – М., 1992. – С. 24–25.

qilish vaqtida Temur Amir Husaynni Huttalon hokimi Kayxusrav qo‘li bilan bartaraf etdi.

Mana shu paytdan boshlab Amir Temur Movarounnahrning yakka hukmdori sifatida faoliyat boshladi. Bu esa uning 35 yillik hukmronligiga va jahongirona harbiy yurishlari uchun qulay shart-sharoit davrini vujudga keltirdi.

Qo‘shin sarkadaralarining qurultoyi Temurni Movarounnahrning yagona hukmdori deb e‘lon qildi. Asosiy vazifa Movarounnahrni birlashtirishdan iborat deb tushungan Temurning yaqin kishilaridan biri amir Dovudni devonbegi etib tayinladi. Yana uch vazirni tayin qildi va ular turli qabilalarga mansub bo‘lib, ularga davlatning asosiy hal qiluvchi ishlarini bajarish vazifalari yuklandi. Amir Temur Movarounnahrda yakka hukmronligini o‘rnatganidan so‘ng, o‘z davlatiga poytaxt qilib, diyorining mashhur shaharlaridan biri bo‘lgan Samarqandni tanladi. 1370 yili Temur bu yerga ko‘chib o‘tdi. Amir Temur asosiy diqqatini davlat ichki ishlarini yo‘lga qo‘yishga qaratib, butun vujudi bilan davlatni mustahkamlash, rivojlantirishga harakat qildi. Bular markazlashgan davlatni vujudga keltirish borasidagi qilingan dastlabki ishlar edi, xolos.

Shu tariqa, 150 yillik siyosiy qaramlik, boshboshdoqlik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi qoloqlik davriga chek qo‘yiladi. Amir Temur Movarounnahrda feodal tarqoqlik va o‘zaro nizolarga zarba berib, mamlakat siyosiy birligi va yaxlitligini amalda ta‘minladi. Movarounnahr xalqlari yagona davlat tasarrufiga birlashtirildi.

Amir Temur Movarounnahrda o‘z hukmronligini o‘rnatganidan keyin, mo‘g‘ullarning udumlari asosida davlatni tumanlarga bo‘lib, ularga hokimlar tayinladi, yangi lavozimlar joriy etdi. Temur bu borada mo‘g‘ul hukmdorlari, ayniqsa, Kebekxonning an‘analariga, islohotlariga, orttirgan tajribalariga tayandi va ulardan tegishli xulosalar chiqarib oldi. Shu bilan birga, ularni takomillashtirib bordi.

Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etish bilan birga, yurtga jiddiy xavf solib turgan mamlakatlarga qarshi harbiy yurishlar olib bordi. Yana shuni ta‘kidlash joizki, Amudaryo va Sirdaryo orasidagi yerlarni, Farg‘ona va Shosh (Toshkent) viloyatlarini o‘z davlatiga qo‘shib olish, birlashtirish unchalik qiyinchilik tug‘dirmadi. Bu hududlarda Temurga qarshi turadigan hokimiyatning, kuchning o‘zi deyarli yo‘q edi.

Movarounnahrda katta xavf tug‘dirib turgan davlat Oltin O‘rda hisoblanardi. Bu davlat Temur davlatiga nisbatan har jihatdan kuchli edi. Shu bois, uning Movarounnahrda qarshi hujum qilish xavfi ham yo‘q emasdi.

Buni Sohibqiron juda yaxshi anglab yetardi. U bu masalada juda ehtiyotkorlik, sinchkovlik, hushyorlik bilan ish tutdi. Oltin O‘rdadagi vaziyatni atroflicha tahlil qilib, shart-sharoit, qulay vaziyatni kutdi. Xorazm ularning tasarrufiga edi. Shu tufayli Xorazmni Movarounnahrda birlashtirish ko‘pgina sabablarga ko‘ra, ancha murakkabroq edi. Bu masalaga Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” deb atalgan 2 jilddan iborat kitobida yaxshi ta‘rif berilgan.

Xorazm 1359 yilda Berdibekxonning vafotidan so'ng Oltin O'rdada boshlangan g'alayonlardan foydalanib, mustaqil bo'lib oldi va uni qo'ng'iroq qabilasidan So'fiylar sulolasi boshqara boshladi. Husayn So'fiy Xorazmning ikki tomonini birlashtirishga harakat qilib, Qiyot qal'asi va Xivani kuch bilan qo'lga kiritdi. Chig'atoy ulusining barcha hududiga da'vogar bo'lgan Amir Temur Husayn So'fiydan Janubiy Xorazm viloyati va uning shaharlarini qaytarishni talab qildi. Rad javob olganidan so'ng, 1372 yili harbiy yurish qilib, hududni qaytarib oldi. Shu yili Husayn So'fiy vafot etganidan keyin uning o'rniga taxtga chiqqan ukasi Yusuf So'fiy Qiyotni yana bosib oldi. 1373–1374 yillari Temur janubdan yana yurish qildi. Ana shu ikki yurish natijasida Janubiy Xorazm Temur davlati tarkibiga kirdi. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, Oltin O'rda xoni To'xtamishning Xorazmga da'vosi tufayli Amir Temur Xorazmga yana uch bor yurish qildi.

Oltin O'rda va Oq O'rda kuchli mamlakatlar bo'lganligi bois, Movarounnahr davlatiga juda katta xavf tug'dirib turgandi. Shu tufayli Temur bu ikki davlatdagi voqealarni sinchkovlik bilan kuzatib borib, qulay vaziyatni kutdi. Sharqshunos A. YU. Yakubovskiyning hisobicha, 1360–1380 yillar mobaynida Oltin O'rda amiri Mamayni hisobga olmaganda, 25 ta xon almashgan¹.

Amir Temur To'xtamishga qarshi 1389, 1391 va 1394–1395 yillarda uch marta katta yurishlar qiladi. To'xtamishga qarshi so'nggi ikki yurish alohida diqqatga sazovordir. 1391 yil 18 iyunda hozirgi Samara shahri bilan Chistopol o'rtasidagi Qunduz degan joyda Amir Temur bilan To'xtamish qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ladi.

Mironshoh va Xo'ja Sayfiddin sohibqiron rejasi asosida Kura daryosining so'l qirg'og'ida mo'g'ul bosqinchilarining orqa tomonidan o'z qo'shinlari bilan hujumga o'tdi. Bu jangda Temur takomillashgan va kuchli qo'shinga ega edi. Sharafiddin Ali Yazdiyning hikoya qilishicha, Temur o'z qo'shinini yetti qo'lga bo'lib, hujumga, har doim bo'lganidek, otliqlarni emas, piyodalarni tashladi. Hamma qanotlarga jiddiy e'tibor berilib, ularga g'oyat ishonchli kishilar biritildi. Hal qiluvchi hududlarga Mirza Sulaymonshoh, Mirza Muhammad Sulton, Mirzo Mironshoh, Mirzo Umar Shayx, Xoji Sayfiddin singarilarni rahbar qilib tayinladi.

Jangning dastlabki ikki kunida To'xtamish bosqinchilari ustun bo'ldi. Uchinchi kuni sohibqiron qo'shinlarining qo'li baland keladi. Amir Temur qo'shinlari g'alabaga erishib, Oltin O'rdadan To'xtamish lashkarini Volga sohiligacha quvib boradi.

Mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, To'xtamish Amir Temur saltanatini bartaraf etishdek g'arazli niyatidan qaytmagan edi. To'xtamish Temur saltanatiga 1395 yil aprelida yana bostirib kiradi. Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi jang 1395 yil 14 aprelda Shimoliy Kavkazda, Terek daryosi bo'yida sodir bo'ladi. Amir Temur qo'shinlariga murakkab bir vaziyatda tadbirkor Eduhudning rejasi qo'l keladi. Uning ukasi Isobek To'xtamish qo'shinida janjal chiqarib Oqtoy, Yerlik O'g'lon va Toshtemir O'g'lonlar besh tumani bilan jang maydonini tark etdi. ta'minladi. Natijada To'xtamish

¹Якубовский А. Ю. Тамерлан. – М., 1992. – С. 30.

qo'shinlari zaiflashib, orqaga chekina boshlaydi va to'liq mag'lubiyatga uchraydi. To'xtamishning o'zi Litvaga qochib, buyuk knaz Vitovt poytaxtidan panoh topadi. Shunday qilib, Terek daryosi sohilidagi jang tufayli To'xtamish davlati batamom tor-mor etiladi. Sohibqiron Oltin O'rda taxtiga amir Qutlug' Temurni o'tkazib, amirlashkar qilib Eduhudni tayinlaydi. Erishilgan bu g'alaba O'rta Osiyoni birlashtirishda, sohibqironning davlati uchun xavf-xatarni keskin kamaytirishda, Temur saltanatini va u boshqargan davlatning shon-shuhratini jahonga yoyishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash o'rinliki, Amir Temurning Xorazm, Movarounnahr yerlariga, Oltin O'rdaga yurishlari O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni qaror toptirish, shu asosda feodal tarqoqlikka barham berish, o'zi hukmronlik qilgan mamlakatning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, uning Kavkaz, Eron, Hindiston, Kichik va Old Osiyo yerlariga harbiy yurishlari o'zining jahon miqyosidagi mavqeini ko'tarish, savdo va boshqa aloqalarini kengaytirish, eng muhimi, Buyuk Ipak yo'lini tiklash va boshqalarga qaratilgan ediki, buni quyidagilardan ham yaqqol bilish mumkin.

XIV asrning ikkinchi yarmida Eron alohida davlat emas edi. Uning bir tomonida Jaloyirlar davlati (1336–1411) bo'lib, ikkinchi tomonida Sarbadorlar (1336–1381) davlati bor edi.

1381 yili mustaqil Sarbadorlar davlatiga barham berildi. 80-yillar o'rtasida Seyiston va Xuroson ham Temur davlati tarkibiga qo'shib olindi. So'ngra butun Eron Sohibqiron qo'shinlari tomonidan zabt etildi.

Amir Temur Armaniston va Gurjistonni 1392 yilda bo'ysundirdi va katta kuch bilan Ozayrbayjonga bostirib bordi. 1397 yilda uni istilo qilishga muvaffaq bo'ldi. 1398–1399 yillarda Amir Temur Hindiston sari harbiy yurish uyushtirdi. Hindistonni va uning poytaxti Dehlini ishg'ol qildi. Xullas, Dehlini qo'lga kiritib, juda katta o'lja bilan qaytdi.

1400 yildan boshlab Amir Temur Turk sultoni Yildirim Boyazid va Misr sultoni Farajga qarshi kurash boshladi. Temur qo'shinlari tomonidan Kichik Osiyo va Suriyaning ko'pgina shaharlari ishg'ol qilindi. 1401 yili Suriya to'laligicha sohibqiron qo'lga o'tdi. Amir Temur Yevropa va Afrikadagi ko'pgina mamlakatlarga va hatto Temurning markazlashgan davlatiga juda katta xavf tug'dirib turgan Turk sultoni Yildirim Boyazidning hukmronligini bartaraf etishni ham maqsad qilib qo'ygandi. Shu maqsadda sohibqiron 1402 yili Anqara yaqinidagi Oyqor degan mavzeda turk sultoni Boyazid bilan hal qiluvchi jang boshladi. Bu haqida A. YU. Yakubovskiyning yozishicha, 1400 yilda Temur askarlari O'rta Osiyodan uzoqda – G'arbda turk sultoni Boyazid I va Misr sultoni Farajga qarshi urush olib bordi. O'sha vaqtda Temur ko'p xalqlarni, masalan, Kichik Osiyodagi Sivasni, Suriyadagi Xalab (Aleppo)ni o'ziga qaratib olgan edi. 1402 yilda Anqara yonida Temur ikkinchi marta Boyazid bilan jang qildi. Bu jang davrlarining eng katta janrlaridan bo'lgan edi. Bunda har ikki tomondan 200 mingdan ortiq lashkar qatnashadi. Anqara yaqinida bo'lgan bu jangda Usmonli turk sultoni Boyazid qo'shinlari batamom tor-mor etildi va Boyazid asir olindi. Bu g'alaba faqat Osiyo tarixi

uchungina ahamiyatli bo‘lib qolmadi. Temur o‘zining bu g‘alabasi bilan Yevropa xalqlariga ikkinchi marta xizmat qildi. Anqara yonidagi bu g‘alaba va Boyazidning asir tushishi Konstantinopolning usmonli turklar tomonidan bosib olinishini qariyb 50 yil orqaga surib yubordi.

Shunday qilib, bu g‘alaba Amir Temur qo‘shinlarining juda katta va buyuk g‘alabalaridan biri, Amir Temur harbiy nazariyasi va taktikasining beqiyos tantanasi bo‘ldi. Bu g‘alaba Temurning G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida mashhur bo‘lishiga olib keldi. Samarqand va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi diplomatik va savdo aloqalarining kuchayishi ana shu davrdan boshlandi. Jahongir Amir Temur o‘z faoliyatida ko‘p janglar qildi. Bu janglar xususiyati jihatidan har xil. Ulardan “uch yillik yurish”, “besh yillik yurish” va “yetti yillik yurish”lari tarixda ayniqsa mashhurdir. Soxibqiron bu yurishlar natijasida muvaqqat bo‘lsa ham Qora, Egey va O‘rta yer dengizlaridan to Hindistonning sharqi, Mo‘g‘uliston, Xitoygacha, Hind dengizidan Ural tog‘lari, Moskva ostonalari va Dnepr bo‘ylarigacha bo‘lgan hududni zabt etib, buyuk bir saltanat barpo etdi. Shu tariqa markazlashgan buyuk davlatni vujudga keltirib, feodal tarqoqliklarga, tinimsiz bo‘lib turgan o‘zaro urush va janjallarga barham berdi, nihoyat, o‘zining butun jahonga mashhur bo‘lgan markazlashgan davlatida osoyishtalik o‘rnatdi.

Amir Temurning ko‘p yillik yurishlari natijasida jahondagi eng yirik imperiya tashkil topdi. Yirik markazlashgan davlatning tashkil topishi iqtisod, savdo-sotiq, fan va madaniyatning rivoji uchun shart-sharoit yaratdi.

2. Amir Temur – tarixiy shaxs

Sohibqiron Amir Temur zukko siyosatchi va buyuk davlat arbobi sifatida tarqoq, bo‘linib ketgan feodal davlatlar o‘rnida yirik markazlashgan kuchli davlat bunyod etdi. Sohibqiron tomonidan tuzilgan davlatning boshqarish usuli, tutgan udumi, tartib-intizomi g‘oyat ibratli bo‘lib, uning ko‘pgina sohalarda orttirgan tajribalari mustaqillikni qo‘lga kiritib, bu yo‘lda qadam tashlayotgan O‘zbekiston uchun hozirgi davrda katta ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, shuni ta’kidlash o‘rinliki, u o‘zidan avvalgi davlatlar qurilishlarida orttirilgan ijobiy tajribalarni atroflicha o‘rgandi va ularga ijodiy yondashdi.

Amir Temurning davlatni muvaffaqiyatli boshqarishida pirlari Zayniddin Abu Bakr Toybodiy, Shayx Sayyid Baraka va boshqalarning ta’siri katta bo‘lgan. Jumladan, birinchi piri sohibqironiga saltanat ishlarida to‘rt narsaga – kengash, mashvaratu maslahat, qat’iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik, ehtiyotkorlikka amal qilishni o‘zining Hirotdan yozgan xatida maslahat bergan edi. “Temur tuzuklari” asarida ularning shunday nasihatlarini o‘qiymiz: “saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurgizgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lmagaysan. Xullas, bajarilishi shart bo‘lgan tadbirlarning ta’rifidan va zikridan so‘ng

(shuni ta'kidlash lozimki) qat'iylilik, sabr, chidamlilik, sog'lig'u-sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur. Vassalom"¹.

Amir Temurning piri Shayx Sayyid Baraka 1370 yilda Balx qal'asi qo'lga kiritilishi arafasida Amir Temurga do'mbira, hokimiyat va hukmronlik ramzi hisoblangan bayroq berib, unga "Sizning istiqbolingiz buyuk ishlardan darak beradi" deb bashorat qilgandi. Bu makkalik shayx Sayyid Baraka keyinchalik Amir Temur harakatlarida bashoratchilik qildi va uning bir umrga piri bo'lib qoldi. Bu xususda Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, "Temur doimo: – Saltanatda erishgan jamiki narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim – bular hammasi shayx Shamsuddin al-Faxuriyning duosi, shayx Zayniddin al-Xavofiyning (Abu-Bakr Toybody) immati tufayli va barcha topgan barakatlarim esa Sayyid Baraka yordamida bo'lgan",² – der ekan.

Amir Temur pirlarining ko'rsatmalariga sodiqlik bilan amal qilgan holda, davlatni boshqarishning barcha sohalariga jiddiy e'tibor berdi va har doim bu ko'rsatmalar uning diqqat markazida bo'ldi. Natijada markazlashgan davlatni vujudga keltirish, uni mustahkamlash, qudratli qilishda muvaffaqiyatlarga erishib, o'ziga qaram bo'lgan mamlakatlarning tinchligini ta'minladi. U eng avvalo, o'z davlatini boshqarishda kengashga e'tibor berdi. Kengash o'tkazish, unda qatnashuvchilarning darajasi bo'yicha joylashishi hozirgi davrda ham diqqatni tortadi. Bu xususda "Tuzuklar"da qiziqarli misollar keltirilgan.

Temur o'z «Tuzuklari»da davlat tizimini yuqoridan quyigacha qanday boshqarish haqidagi siyosiy-huquqiy qarashlarini umumlashtirdi. Sohibqiron davlatni idora qilishda o'n ikki qoidaga qat'iy asoslanganligini batafsil yozadi. "Temur tuzuklari"da shunday so'zlar bitilgan: "...Endi mening nomdor farzandlarim va mamlakatni zabt etuvchi iqtidorli nabiralarimga yo'l-yo'rig'im shuki, men o'n ikki narsani o'zinga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o'n ikki narsa yordamida mamlakatni zabt etib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga zebu-ziynat berdim..."³. Bu ijtimoiy-siyosiy qatlamlar quyidagilar edi:

1) sayyidlar (payg'ambar avlodlari), ulamo, mashoyix, fozil kishilar, ya'ni ziyolilar;

2) ishning ko'zini bilgan donishmand kishilar;

3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar;

4) no'yonlar (xonzodalar), amirlar, sarkardalar, sipohsolalar;

5) sipoh va raiyat, ya'ni askarlar va avom un-nos;

6) saltanat ishlarini aytib, kengash qilishga loyiq, ishonchli kishilar;

7) vazirlar, sarkotib, devon munshiyalar, muhandislar, roviylar;

8) hakimlar va tabiblar;

9) tafsir va hadis olimlari;

10) ahli sanoat (hunarmandlar, kosiblar);

11) so'fiylar;

12) tujjor (savdogar) va sayyohlar.

¹Темур тузуклари. – Т., 1991. – 14–16-б.

²Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Т. 2. – Т., 1992. – 73-б.

³Темур тузуклари. – Т., 1991. – 53-б.

Amir Temur Movarounnahrda boshqa mamlatlarni o'z farzandlariga, qarindoshlariga, harbiy sarkardalarga "suyurg'ol" qildi. Suyurg'ol deganda, o'sha vaqtda muayyan bir o'lkani idora qilish ishlarini meros tariqasida boshqa birovga topshirib, o'sha yer, hudud, qishloq va shahar aholisidan davlat soliqlari va o'lponlarini suyurg'ol egasi foydasiga to'liq yoki qisman undirib olish huquqi tushuniladi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Amir Temur bu yerda turk-mo'g'ul xalqining qadimgi yo'siniga amal qildi va Movarounnahrni hech kimga bermay o'z qo'lida saqlab qoldi. Uslar markaziy hokimiyatga bo'ysungani bilan ma'lum darajada o'zlarining mustaqilliklarini saqlashgan. Uslar boshliqlarining ham o'z davlat tarmoqlari, xazinasi, qo'shini bo'lgan. Ularning markaziy hokimiyatga qaramligi xirojning muayyan qismini markaziy xazinaga jo'natib turishi va xabar kelishi bilan o'z qo'shinini olib yetib borishida o'z ifodasini topgan. Lekin shunday bo'lsa-da, markazlashgan davlatning o'sha suyurg'ol qilingan hududlari sohibqironning diqqat markazidan chetda bo'lmagan. U hukmronlik qilgan yillari davlatni boshqarish ishlari bilan qattiq shug'ullangan. "Saltanat to'nini kiygach, – deyiladi "Tuzuklar"da, – tinchligu sog'lig'im ketdi, o'z to'shagimda rohatda uxlash, huzur-halovatdan voz kechdim"¹.

Sohibqiron o'z davlatining markazini 1370 yili Samarqandga ko'chirib kelgandan so'ng, davlat qurilishiga jiddiy e'tibor berib, davlat idoralarini uddaburon, qobiliyatli rahbarlar bilan mustahkamlash tadbirlarini ko'rdi va o'zi ham "Tuzuklar"da ta'kidlaganidek, "do'stu-dushman bilan (muomalada) bir tekis yo'l tutdi"². Jumladan, vazirlarni tanlashda sohibqiron to'rt sifatga qattiq e'tibor bergan. Bular "Tuzuklar"da ko'rsatilganidek, birinchisi – asllik, toza nasllik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohi-raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lish; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur vazirlarni tanlashda ularning shu sifatlarga ega bo'lishini inobatga olish bilan birga, ularning har bir masalada har doim odil bo'lishlari, aql-zakovat bilan ishlashlari uchun sharoit yaratgan. Buni "Temur tuzuklari" ham to'la tasdiqlaydi. Amir Temur Movarounnahrda o'zining yakka hukmronligini o'rnatgandan so'ng, to'rtta vazir tayinladi va ularga mamlakatda eng muhim ishlarni bajarish vazifasini yuklatdi. Yana eng e'tiborlisi shundaki, tayinlangan vazirlar mamlakatdagi qabilalardan tanlab olingan edi. Bu xususda Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" kitobida shunday tavsiflangan: "Ular (vazirlar) mamlakatning (ko'zga ko'ringan) a'yonlari hisoblanib, boshqa har bir kimsa ular fikrlariga ihtizo etardi. Arablarda qancha bo'lsa turklarda ham qariyb shunchalik qabila va guruhlar bordir. O'sha vazirlardan har qaysisi bir qabilaga mansub bo'lib, o'z fikr chirog'i bilan u qabila uylarini yorituvchi bir uzun pilik misoli edi. Ulardan birining qabilasi flot, ikkinchisidiki jaloyir, uchinchisidiki qovchin, to'rtinchisidiki barlos deb atalardi. Temur to'rtinchi qabila o'g'loni edi"³.

¹O'sha manba. – 54-b.

²O'sha manba. – 89-b.

³*Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Т. 1. – Т., 1992. – 52-б.*

Vazirlarning barchasi har kuni devonxonada bo‘lishi shart qilib qo‘yilgan. Ularga yuklatilgan vazifalar aniq belgilangan edi. Chunonchi, birinchisi mamlakat va raiyat (soliq) vaziri bo‘lib, bu mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni, raiyat ahvolini, viloyatlardan olingan hosil, soliq-o‘lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, obodonlashtirish, mehnatkash omma farovonligi bilan shug‘ullanardi. Ikkinchisi sipoh vaziri bo‘lib, unga sipohlarning maoshlari, ularning tarqoq holga tushib qolmasliklari uchun doimo sipoh ahvolidan xabar olib turish vazifasi yuklatilgandi. Vazirlardan uchinchisi – egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, savdogarlar mol-mulkidan olinayotgan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularga taalluqli bo‘lgan o‘tloq va yaylovlarni boshqarib, bularning hammasidan yig‘ilgan daromadlarni omonat saqlash majburiyatini bajarardi. Shuningdek, bu vazir bedarak yo‘qolganlar va o‘lganlarning mol-mulki bo‘lsa, ularni merosxo‘rlariga topshirgan. Nihoyat to‘rtinchisi, saltanat ishlarini yuritish, u hamma saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinadigan xarajatlar ustidan ogoh bo‘lgan.

Sohibqiron fath etilgan mamlakatlarga oid masalalar, birinchi navbatda, moliyaviy ishlar bo‘yicha davlat hay‘atini tuzdi. Yetti vazirning hammasi devonbegiga bo‘ysundirilib, bu bilan Temur davlatiga qarashli haq-huquqlarda moliyaviy ishlarda hamjihatlik, inoqlik bilan odilona boshqarish uchun imkoniyat hozirladi.

Yana bir holat e‘tiborni jalb qiladi.. Amir Temur o‘zining davlat apparatida arzbegi lavozimini joriy etgan. Arzbegi sipoh, raiyat va arz-dod qilib sohibqiron huzuriga keluvchilarning ahvoli, mamlakatning obod-xarobligi, muhim ishlardan qaysi biri bitmaganligi xususida axborot berib turgan.

Shuningdek, bularga vaqf yerlari va boshqa vaqf mulkining hisob-kitobini olib boruvchi mansabdor – sadrlar, sadri-sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg‘ol sifatida berilgan yerlar va vaqflarning ahvoli, ularga doir vazifalarning qay tarzda bajarilayotganligi xususida sohibqironning o‘ziga doimo axborot berib turilgan.

Amir Temur o‘z davlatining tashqi va ichki siyosatiga aloqador masalalarni kengashda hal qilish bilan birga bu majlisga kotiblar (majlisnavinos) tayinlangan, ular devon majlisida navbatma-navbat hozir bo‘lib, muhokama qilingan masalalar va ayrim ishlar tafsilotini yozib olishlari, saqlashlari lozim bo‘lgan.

Shuningdek, mingboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, oqsoqol lavozimlari ham o‘sha davrda joriy qilingan. Bularning bir-biri bilan bog‘liqligi, bir-biriga bo‘ysunishi, ularga yuklatilgan vazifalar bajarilishining shartligi, ularga to‘lanadigan maosh, bu lavozimlarga rahbarlar tayinlash borasida “Temur tuzuklari”da maroqli, hozirgi davr uchun ham ibratli fikrlar yozib qoldirilgan.

Amir Temur tasarrufidagi hududlarning iqtisodiyotini amaldorlar tomonidan rivojlantirishga, mehnatkash omma ahvolidan xabar olib turishga, zulmning kuchayib ketmasligiga jiddiy e‘tibor berdi. Davlat qurilishining asosiy tarmoqlarida, hunarmandchilik, to‘qimachilikning hamma sohalarini

rivojlantirishga e'tibor berildi. Buni shundan ham yaxshi bilish mumkinki, Herman Vamberining e'tirof etishicha, "Temurning paxta yigiruvchi korxonalari, Anqaraning movut korxonalari, Turkiya hamda Gurjistonning zargarlari, xullas, sanoatda qancha mohir ishchilar bor bo'lsa, hammasi Samarqandga ko'chdilar"¹.

Uning yerga, dehqonlarga bo'lgan munosabati, soliq olish siyosati ham o'zidan avvalgi, o'sha va so'nggi davr uchun xosdir. D. N. Logofetning "Buxoro tog'lari va tekisliklarida" nomli asarida ta'kidlanganidek, "...Uning (Amir Temurning) hokimiyatida fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo'lingan. Hatto moliyaviy masalalarda ham qat'iy tartib o'rnatilgan. O'zingiz tasavvur qiling, biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi. Temur amaldorlaridan ish yuritayotganda qonun va adolatga bo'ysunishni talab qilgan. Qamchi va tayoq ishlatish qat'iy taqiqlangan, buni bajarmaganlar o'limga hukm qilingan"². Bu xususda gapirilar ekan, akademik V. V. Bartoldning asarlarida qiziqarli va juda foydali fikrlar bildirilganligini aytmoq zarur. Uning e'tirof etishicha, Amir Temur davrida o'simlik o'sadigan barcha yerlardan unumli foydalanilgan. Samarqand aholisi uch yil soliqdan ozod qilingan.

Yana zikr etilgan masalalar xususida akademik I. Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli risolasida ham qimmatli mulohazalar bildirilganki, ularni ham keltirish joizdir. Temur yozadi: "Soliq yig'ishda xalqni og'ir ahvolga solishdan yoki o'lkani qashshoqlikka tushirib qo'yishdan ehtiyot bo'lish zarur. Negaki xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa o'z navbatida, hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo'ladi³. Shuningdek, hamma sohalar bo'yicha qat'iy qoida asosida taftish va nazorat o'tkazilgan. Mamlakatda savdo-sotiq rivojlangan. Ispaniya elchisi Klavixo o'sha vaqtda Samarqand bozorlarida dunyoning turli burchaklaridan kelgan turli tilda so'zlashgan savdogarlarni uchratish mumkin bo'lganligini yozadi. Uning guvohlik berishicha, Samarqand butun Osiyo savdosida mol ombori o'rnini olganligini fahmlash qiyin emas. Xususan, bunda ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Bu davrda, ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lining yanada taraqqiy etishiga e'tibor berilib, uning xavfsizligi ta'minlangan. Shu bois, Hindistondan juda ko'p attorlik va bo'yoq tijorati karvonlari tez-tez kelib turgan. Xitoy bu yerga ipak gazlamalar, har xil chinni buyumlar, qimmatbaho toshlar yuborardi. Shimoldan noyob po'stinlar keltirilardi. Xullas, turli iqlimdan keltirilgan mollar Samarqand bozorlarida toy-toy bog'lanib, Osiyoning eng katta markazlariga va Buyuk Ipak yo'li orqali G'arbiy Yevropaga jo'natilar edi. Savdogarlar bir yo'l bilan Xorazm,

¹Вамбери Х. Бухоро ёки Мовароуннахр тарихи. – Т., 1990. – 55-б.

²Логофет Д. Н. Бухоро тоғлари ва текисликларида // Сомон йўли. – Т., 1992.– 73-б.

³Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т., 1968. – 29–31-б.

Astrobod, Nijniy Novgorod, Moskva orqali Ganza shaharlari (shimoli-g'arbiy Yevropa) ga borardi. Ikkinchisi Xitoy–Kazvin–Tabriz–Trapezund yo‘li bilan genuyaliklarning, venetsiyaliklarning savdo kemalariga tushib Yevropaga yetardi. Nihoyatda mudhish va serurush zamonlar bo‘lishiga qaramay, Amir Temur hokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo nihoyatda jonli va batamom xavfsiz edi.

Amir Temur davlati mustahkam huquqiy tizimga ega bo‘lib, qonuniylik turli choralar bilan qo‘riqlangan. Amir Temur o‘zining davlatni idora qilish siyosatida va devonida qat’iy tamoyillar va adolatli qonunlarga amal qilgan. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior Amir Temur saltanatining barcha hududlarida birday amal qilib, axloqiy-ma’naviy mezunga aylangan.

Shuningdek, Amir Temur davlatida tartib-intizom, mehnatkash ommani himoya qilish, ularga g‘amxo‘rlik, adolat uchun kurash, islom dinini taraqqiy ettirish, boshqa mamlakatlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish singari borasida ham ibratli, hatto hozirgi davr uchun ham saboq bo‘ladigan ishlar qilingan.

Sohibqiron Amir Temur dunyo xalqlari tarixida munosib iz qoldirgan davlat arbobi bo‘lishi bilan birga, tabiat in‘om etgan takrorlanmas, zo‘r harbiy qobiliyatga ega sarkarda hamdir. Uning ana shu sarkardalik qobiliyati tufayli kuchli armiyasi vujudga kelgan ediki, bu armiya feodal tarqoqlikka barham berib, qudratli markazlashgan davlat – Temur imperiyasini vujudga keltirishda va uni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Akademik I.Mo‘minovning e’tirof etishicha, “Harbiy tarix Temurni o‘rta asrning eng yirik lashkarboshilaridan deb hisoblaydi”¹.

Sohibqironning harbiy mahorati ikki yo‘nalishda namoyon bo‘lgan. U o‘z lashkarlarini tashkil etishda mashhur, takrorlanmas lashkarboshi sifatida nom chiqargan. U ishlab chiqqan harbiy siyosatning asrlar osha o‘rganilib kelinayotganligi buni to‘la isbotlaydi. Uning qo‘shinlari tashkiliy tuzilishi jihatidan Chingizxon an‘analariga asoslangan. Birinchidan, sohibqiron qo‘shini ko‘ngillilardan iborat edi, ikkinchidan, u o‘nlik tizim asosida qurilgan, ya’ni tumanlarga, mingliklarga, yuzliklarga, o‘nliklarga bo‘lingan. Buning farqi shundan iborat ediki, Chingizxon davrida asosiy qo‘shin ko‘chmanchilaridan iborat bo‘lar va zabt qilingan mamlakatlarning shaharga majburan tortilgan o‘troq aholisi harbiy ishlarda ancha kam ishtirok etardi. Temur davlatida esa, o‘troq aholi garchi harbiy kuchning asosiy qismini tashkil qilsa-da, har holda ko‘chmanchilar bilan qariyb barobar ahamiyatga ega bo‘lardi. O‘troq aholi yashaydigan viloyatlar piyoda askarlarni, shuningdek o‘sha zamonning artilleriya bo‘linmalarini – tosh otuvchi, devor buzuvchi, o‘q otuvchi mashinalarni, o‘ziotar qurollarni va aslahalarni ishlata oladigan jangchilar yetkazib berardi. Sohibqironning otliq yoki piyoda askarlarning muayyan qismini yig‘ish zarur bo‘lib qolsa, u o‘z davlatining birorta hududidan ma’lum miqdorda tumanlar yig‘ib kelishni buyurib, u yerga tabachilarni (hukmdorning maxsus topshiriqlarini bajaradigan shaxslar) jo‘natardi. Shu bilan birga, tabachilar qo‘liga ma’lum hududdan

¹Мўминов И. Амир Темур ибн Тарағай Баҳодир // Сомон йўли. – Т., 1992. – 4-б.

qancha tuman olinishi zarurligi ko'rsatilgan ro'yxat berilardi. Yuborilgan vakil o'troq va ko'chmanchi turklar va tojiklardan piyoda va otliq askarlar to'plar edi.

Sohibqiron davlatining harbiy qismlarida qayd etilganlardan tashqari, yana quyidagilar ham bo'lgan:

– ko'chma ko'priklar qurish bilan shug'ullanuvchi qism (pontonerlar) va kemachilar;

– yunon olovini otuvchilar yoki naftandozlar;

– qamal qilish mashinalari va uloqtiruvchi to'plar bilan ishlashni biladigan turli xil ishchilar. Sohibqiron boshchiligida qamal qilingan ko'plab qal'alarining yunon olovini otish va uloqtirish to'plaridan mohirona foydalanish natijasida qo'lga kiritilishi qo'shinlarning shu turi juda katta malakaga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Temur olib borgan qamal jarayonlari u yunonlar va rimliklarning qal'alarini ishg'ol qilish uchun qo'llagan usullarni yaxshi bilganini isbot qildi. Boyazidga qarshi urushda u yunon olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o'rnatib, jangga kiritgan;

– tog'larda olib boriladigan, tog'lik yerlarda bo'ladigan janglarga ko'nikkan tog'lik aholidan tashkil topgan maxsus piyoda qismga ega edi. Bu qism jangchilari daralar, tog' yo'llari va tog'larda joylashgan qal'alarni qo'lga kiritishda katta xizmat ko'rsatdi.

Temur qo'shinlari o'sha davr taomiliga ko'ra, o'nliklar, yuzliklar, mingliklar, tumanliklar (o'n ming yoki 12 mingdan iborat qo'shin va boshqalar)ga bo'linib, ularga o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar boshchilik qilgan.

Boshliqlarning huquqlari aniq belgilab berilgan. Temur jismoniy jazo berishni taqiqlab qo'ygan, u hokimiyatni qamchi kuchi bilan egallab turgan boshliq o'z lavozimiga loyiq emas, der edi. Shunday qilib, oddiy jangchilar ham o'nboshi va yuzboshi lavozimiga erishishlari mumkin bo'lgan, lekin oliy mansablarni egallash uchun, yuzboshilar muhim muvaffaqiyatga erishishlari yoki o'ziga xos qobiliyatga ega bo'lishlari kerak bo'lgan. Jangovar xizmat ko'rsatgan jangchilarga mukofotlar, maqto'v, maoshiga qo'shimcha haq to'lash, o'lja bo'lishda ulushning oshirilishi, yuqori mansabga ko'tarish, faxriy unvon berish, «bahodir», «mard», «botir» va boshqa nomlar qo'yish ko'rinishida berilsa, butun qo'shinlar qismiga – nog'ora chalib nishonlash, bayroq berish ko'rinishida taqdim etilardi.

Xullas, Amir Temurning harbiy siyosati, eng avvalo, davlatning mustahkamligi, tashqi xavfdan saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu siyosatni puxta yo'lga qo'yishda sohibqiron masalaning iqtisodiy, texnikaviy, ilmiy, tashkiliy tomonlariga katta e'tibor bilan qaragan. Xuddi shu yo'l uni harbiy san'at borasida ham yuksaklikka olib chiqqan.

Sohibqironning eng muhim xislatlaridan yana biri shundaki, u har doim ilm-fan, madaniyat, san'at ahllari, din peshvolariga tayanib ish tutgan, ulardan kerakli masalalar bo'yicha maslahatlar olgan. Ayniqsa, o'z davlatining taraqqiyotida ilm-fanning o'rni beqiyosligini yaxshi bilgan. Shu bois, qayd etilganidek, u ilm-fan, madaniyat, san'at rivojiga g'amxo'rlik ko'rsatar, olimlar bilan xalqlar tarixi va buyuk hukmdorlar tarixi xususida

suhbatlashishni, fikr almashishni xush ko‘rar, o‘zidan avval o‘tgan buyuk shaxslar, hukmdorlarning ishlariga hamisha ijodiy taqlid qilar, ular yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni takrorlamaslik maqsadida ular talofati, inqirozi, muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini qunt bilan o‘rganardi. Hatto bularni so‘zlab berish uchun alohida kishi ham tayinlangan.

Amir Temurning o‘zi ham falakiyot, tibbiyot, me‘morchilik, riyoziyot ilmlaridan xabardor bo‘lgan. Shaxmatni yaxshi bilgan. Tarixni, ayniqsa, harbiy tarixni sevib o‘rgangan. Temur bilan yuzma-yuz suhbatlashishga muyassar bo‘lgan arab faylasufi Ibn Xoldunning e’tirof etishicha, jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur bilgan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarini ham yaxshi o‘zlashtirib olgan.

Mashhur sharqshunos L. Lyangle o‘zining “Temur hayoti” nomli asarida: “Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek ilm-fan, idora va boshqa ishlarda bilimdon bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e’tibor berar edi”, – deb yozgandi.

Akademik I. Mo‘minovning ta’kidlashicha, sohibqironning yana bir muhim hislatlaridan biri shu ediki, u biror jiddiy masalani hal etishdan oldin din peshvolari, bilimdon kishilar, ilm-fan ahllari bilan maslahatlashib, bu masalani atroflicha tahlil qilib, shundan so‘ng biror qarorga kelar edi. Sohibqironning ilm-fan, din ahllari bilan qiladigan maslahatlari har xil darajada va turli shaklda bo‘lgan. Odatda Amir Temur tibbiyot, riyoziyot, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek teologiya va din sohasidagi mashhur kishilar bilan shaxsiy suhbatlar o‘tkazgan.

Amir Temurning ilm-fan va islom dini arboblari qanchalik katta e’tibor berganligini uning olimlar yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan ham yaqqol bilish mumkin. Temur o‘zining bu nutqida shunday degan edi: “Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar menga o‘z maslahatlaringiz bilan bu ishlarni amalga oshirishda ko‘maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste‘mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo‘yilishi kabi hollar hammadan ko‘ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma‘lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytsangiz yaxshi bo‘lurdi”¹.

Xullas, Amir Temur ilm-fan arboblari, ijodkor zahmatkashlarni e’tibordan chetda qoldirmagan, ularni qadrlagan, o‘ziga yaqin tutgan, bergan to‘g‘ri maslahatlaridan unumli foydalangan va shu bois, ularga alohida iltifot ko‘rsatgan.

¹Муминов И. Амир Темур Ибн Тарағай Баҳодир // Сомон йўли. –Т., 1992. – 7-б.

Amir Temur ko'pgina mamlakatlarni fath etish bilan birga, ulardagi boyliklarni olib kelganligi ham sir emas. Herman Vamberining ta'kidlashicha, Temur Osiyoning hamma joylaridan hadsiz-hisobsiz boylik yig'di, lekin ularni xasis odamlar kabi saqlamadi, balki o'zi bunyod etgan mamlakatni yanada qudratli qilish, rivojlantirish, taraqqiy ettirish, mustahkamlash, unda butun dunyoni lol qoldiradigan masjid, madrasalar qurish, bog'-rog'lar bunyod etish, islom dinini, ilm-fanni, madaniyatni, adabiyotni, san'atni, me'morchilikni yanada taraqqiy ettirish, obodonlashtirish ishlariga sarf etdi. Bu borada jahongir juda uzoqni ko'zlab, o'zining xalqini, kelajakni o'ylagan edi.

Herman Vamberining "Temurni Chingizxon ila bir safga qo'yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marta xatodir"¹, degan fikri e'tiborga molikdir.

Amir Temur Movarounnahrda, markazlashgan davlatining boshqa hududlarida ham me'morchilik, obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor bergan. Bu xususda mashhur sharqshunos olim V. V. Bartold shunday yozgan edi: "Temur, – bir vaqtning o'zida ashaddiy buzg'unchi va tashabbuskor quruvchi edi. U buyuk imoratlar barpo etdi va ularni ulkan bog'u rog'lar bilan o'radi, shahar va qishloqlarni tikladi, suv inshootlari qurdi va buzilganlarini tuzatdi. Temurning ijodkorlik faoliyati ham uning qilgan vayronagarchiliklari kabi kishini hayratda qoldiradi. Musulmon me'morchiligidagi eng yaxshi davr Temur va uning avlodlari nomi bilan bog'liq.

Albatta, Temur, eng avvalo, poytaxti Samarqandni obodonlashtirishga, uning salobati va ulug'vorligini orttirishga harakat qilgan. Lekin u Movarounnahr va Xurosonning boshqa shahar va qishloqlarida, hatto Janubiy Ozarbayjon va Qobul kabi uzoq yerlarda ham obodonlashtirish ishlarini olib borgan va suv inshootlarini qurdirgan"².

Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma"sida Amir Temur faoliyati, sulolasi, u asos solgan davlat barcha sohalarini atroflicha yoritib, juda qimmatli fikrlar bildirgan va dalillar qoldirgan. "Bir yil mobaynida, – deb yozadi Ali Yazdiy, – Bag'dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o'z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarakatrofda dehqonchilik o'ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin"³.

Samarqandning atrofida jahonning mashhur shaharlari nomlari bilan ataluvchi bir qancha qishloqlar – Qohira, Damashq, Bag'dod, Sultoniya, Misr, Sheroz degan joylar ham sahibqironning tashabbusi bilan qurilgandi. Bu davrda bunyod etilgan inshootlarning bir qismi hozirgi davrda ham jahon sayyohlarining diqqatini tortmoqda. Bular Shohi Zinda guruhidagi maqbaralar, Bibixonim madrasasi, Temur va uning piri Sayyid Baraka va

¹ *Вамбери Х.* О'sha manba. – 48-b.

² *Бартольд В. В.* Сочинения. Т. 2. Ч. 2. – С. 52.

³ *Мўминов И.* Амир Темур ибн Тарағай Баҳодир // *Сомон йўли.* – Т., 1992. – 15-б.

sulolalari vakillari dafn qilingan Go'ri Amir maqbarasi singari osori atiqalar dunyoga mashhur.

Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixo "Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat (1403–1406 yil) kundaligi"da bu yodgorliklar, sohibqiron qurgan jannatmakon bog'-rog'lar xususida ajoyib, hammaning diqqatini tortadigan misollar keltiradi.

Amir Temur me'morchilik bilan birga, shaharlarni obodonlashtirish ishlariga ham katta e'tibor bergan. Shaharlar obodonlashtirilishi bilan birga, shahar aholisi chuchuk suv bilan ham ta'minlangan. Masalan, Samarqand suvi Zarafshondan kanal orqali keltirilgan. O'rta asrlarda yurtimizda bo'lgan tarixchi-sayyoh Ibn Xovqalning yozishicha, Samarqandda oqar suv kirmagan biror ko'cha, biror hovli yo'q edi. Faqat ba'zi uylargina bog'siz edi. Bu yerda ko'rkam obidalar, turli binolar qurish bilan birga, so'lim, jannatmakon 12 ta bog'-saroylar bunyod etilgan. Ular Bog'ishamol, Bog'izagon, Bog'ibuldu, Amirzoda Shohruh bog'i, Bog'i Bihisht, Bog'i Dilkusho, Bog'i Baland, Bog'i Chinor, Bog'i Jahonlarning bunyod etilishi tarixi, ulardagi bir-biridan hashamatli binolar, o'tkazilgan marosimlar xususida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Klavixoning esdaliklarida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu bog'larning nomlari bilan ataladigan joylar hozir ham mavjud.

Yana shuni ta'kidlash muhimki, Amir Temurning tarix faniga ham katta e'tibor bilan qaragani ma'lum. Tarixnavislik bobida Sharqda dong taratgan Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Mu'iniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiylar Amir Temur haqida asarlar bitib mashhur bo'lganlar. Amir Temur tarixini ilk bor to'liq yoritgan Nizomiddin Shomiy o'zining "Zafarnoma" asari muqaddimasida yozishicha, 804 (1401–1402) yili Sohibqiron uni hududiga chorlab, o'z hayoti va faoliyati tarixini yozishni buyuradi va shunday talab qo'yadi: "Bayon uslubi murakkablik alomatlaridan hamda maqtovchilik dabdabalaridan kam bo'lsin, (turli) ma'nodorlik tarzidan (ham) tiyilsin. Tashbih va istioralar bezagi girdobida asosiy maqsad) ko'rinmay qolsa, bunday uslubda bitilgan asardan ne foyda. Bir kishi biron so'z darajasini anglab, uning ma'nisini tushunsa, qolgan o'n kishi, balkim yuz kishi undan ko'zlangan maqsadni anglashda ojizdirlar. Demak, undan oddiy xalqqa hech qanday naf yo'qdir". Ko'rinib turganidek, Amir Temur tarixiy asar yaratishdan maqsadni, bayon usullarini aniq tasavvur qilgan va vazifani ham lo'nda qo'ygan. Ya'ni tarix omma, kelajak uchun yoziladi. Shomiy Sohibqiron talablariga mos asar yaratishga intilgan va keyingi yillar tarixchilari, jumladan Sharafiddin Ali Yazdiy ham uning asari tuzilishidan keng foydalanganlar. Kezi kelganda shuni alohida qayd etish o'rinliki, Temuriylar zamonida tarixnavislik o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan.

Jahon tarixida Amir Temur va Temuriylar davri alohida o'rin egallaydi. O'rta Osiyo va o'rta Sharq mamlakatlarining XIV–XV asrlardagi, ya'ni Temur va Temuriylar davri tarixini yoritishda ilk manba xizmatini o'taydigan talaygina tarixiy asarlarning mavjudligi tadqiqotchilarga allaqachon ma'lum. Nizomiddin Shomiyning Sohibqiron hayotligida yozilgan "Zafarnoma", Hofizi Abruning Temur vorisi bo'lmish Shohruh davrida yozilgan "Zubdat ut tavorixi Boysung'ariy", Sharafiddin Ali

Yazdiyning mashhur “Zafarnoma”si, Fasix Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasixiy”si, Abdurazzoq Samarqandiyning Husayn Boyqaro taxtga o‘tirgan (1470) yili yozib tamomlagan “Matlai Sadayn va majmai bahrayn” degan kitoblari, Mirxondning Alisher Navoiy davrida yozilgan yetti jildlik “Ravzat us-safo”si, Xondamirning “Ma’sirul-mulk” va uch jildlik “Xabib us-siar”i shular jumlasidandir.

Bu asarlar, asosan, fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, ularda g‘oyat muhim tarixiy ma’lumotlar mavjud. Ular faktlarga boy bo‘lishi bilan birga, ma’lumotlarning nihoyatda ishonchli ekanligi bilan ham muhim. Shuningdek, “Amir Temur tarixi”, “Temur tuzuklari”, “Amir Temur o‘g‘itlari” singari Sohibqiron tarjimai holiga oid asarlarning so‘nggi yillarda o‘zbek tilida chop etilishi tufayli ularni ona tilimizda o‘qishga muyassar bo‘ldik. Bu kitoblar XIV–XV asrlarni, ya’ni Amir Temur va Temuriylar davrini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ana shu manbalarga asoslangan holda, Amir Temur va temuriylar davri borasida o‘nlab, yuzlab asarlar yozildi, spektakllar, kinofilmlar yaratildi, muzeylar tashkil etildi. Temur va Temuriylar davri borasida chet mamlakatlarda yaratilgan turli xil asarlarda bu davr ancha holisona tahlil qilingan. Jumladan Ispaniya, Fransiya va Angliyada XVI, XVII, XVIII asrlarda Amir Temur haqida bir qator ilmiy va dramatik asarlar yaratilib, ularning aksariyatida Sohibqironga “grand Temura”, ya’ni “buyuk Temurbek” deb hurmat bilan qaraydilar. Ispaniyaning elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘zining “Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat (1403–1405 yillar) kundaligida: “...Temurbekning asl ismi, biz aytganimizdek, Tamerlan emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek o‘z tilida, “Temur podsho” degani...¹, – deb yozgandi. Olmoniyaning Potsdam shahridagi muzeyda Amir Temur sharafiga “Osiyo bo‘limi” tashkil qilinib, u Amir Temur bo‘limi deb ataladi. Angliyada har yili o‘tkaziladigan kinofestival Amir Temur haqidagi kinofilmni ko‘rsatishdan boshlanadi.

Amir Temur to‘g‘risida atroflicha fikr yuritgan D. N. Logofet o‘zining “Buxoro tog‘lari va tekisliklarida” degan asarida shunday yozgan edi: “...Temurday buyuk shoh va inson xotirasiga munosabatni ko‘rib, achinib ketasan. Axir u o‘z xalqi taraqqiyotini yuqori bosqichga olib chiqqan, o‘z davrining o‘ta madaniyatli vakili edi...”².

Bugun dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko‘rsatmoqda, Temur va Temuriylar davri haqida ko‘plab kitoblar nashr qilinmoqda.

O‘zbekiston olimlari ichidan ham Temur va Temuriylar davrini haqiqiy, holisona yoritishga harakat qilganlar bo‘ldi. Shu o‘rinda akademik Ibrohim Mo‘minovning 1968 yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli risolani keltirish joizdir. I. Mo‘minov birinchi bo‘lib sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatini ilmiy, holisona o‘rganish, uning turli sohalardagi faoliyatiga to‘g‘ri, izchil

¹Санъат. – 1990. – №2. – 23-б.

²Логофет Д. Н. Бухоро тоғлари ва текисликларида //Сомон йўли. – Т., 1992. – 72-б.

baho berish masalasini ko‘tarib chiqdi. Bu o‘sha sharoitda o‘z davri uchun jasurlik, masalani o‘ta keskin qo‘yish edi. Bungacha hech qanday olim bu ishga jur‘at eta olmagan. Bu risola nihoyatda xolisona yozilganligi tufayli ham respublika ziyolilari e‘tiborini o‘ziga tezda jalb qildi. Sababi, risola tarix fani uchun kutilgan, g‘oyatda dadil, o‘sha davrda sovet fanida hukmron bo‘lgan mulohazadan, mafkura talabidan o‘zga obyektiv hodisa bo‘ldi va shuning uchun ham olimga ta‘na toshlari otildi. Bulardan Temur to‘g‘risidagi diqqatga sazovor nashrlardan hisoblangan, 1984 yili nashr qilingan Xilda Xukemning “Temurlang – istilochi”, 1989 yilda chop etilgan Beatrisa Mankning “Temurning yuksalishi va hokimligi”, 1991 yilda chop tilgan sharqshunos olim Jan-Pol Runing “Temurlang” nomli asarlarini keltirish mumkin. Bu va boshqa asarlar Temurning hayoti va faoliyatini nisbatan xolisona yoritgan.

Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlariga ko‘rsatgan asosiy xizmati shu bo‘ldiki, u mamlakatda ko‘pdan beri davom etib kelayotgan feodal tarqoqlik va o‘zaro urushlarga barham berdi, Movarounnahrni mo‘g‘ullar asoratidan ozod qildi va uni birlashtirib, markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi, tinchlik o‘rnatdi, uning rivoji uchun lozim bo‘lgan barcha chora-tadbirlarni ko‘rdi.

Amir Temur tuzgan davlat barcha ijtimoiy tabaqalarga suyanadigan va qonun asosida boshqariladigan yangicha davlat edi. Temur mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minladi. Uning zamonida hamma – vazir ham, amir ham, savdogar ham, oddiy fuqaro ham qonun oldida teng bo‘lgan.

Mamlakatda o‘rnatilgan tinchlik va barqarorlik dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga zamin yaratdi. Tez fursatda Movarounnahr bilan Turkiston iqtisodi, ilm-fani va madaniyati rivoj topgan ilg‘or mamlakatga aylandi.

Amir Temur mamlakatning mudofaa qudrati va salohiyatini oshirishga katta xizmat qildi. Temur yaxshi qurollantirilgan, ovlarda va turli harbiy mashqlarda, shuningdek boshqa yumushlarda chiniqtirilgan armiyaga asos soldi. Temur qo‘shinning tuzilishi, strategiyasi va taktikasini isloh qildi.

Amir Temur ulug‘ bunyodkor, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham tarixda qoldi. Temur ko‘p yillar davom etgan feodal tarqoqlik va urush-talashlar oqibatida vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini tiklash, shaharlarni qayta qurish va mamlakatni obod qilishda zo‘r tashabbus va jonbozlik ko‘rsatdi. Amir Temur mamlakatda ilm-fan taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shdi.

Shunday qilib, Amir Temurning faoliyatiga xulosa qiladigan bo‘lsak, atoqli tarixchi olim B. Ahmedov uning to‘rt jihatiga e‘tiborni qaratadi: “Birinchidan, Amir Temur va u yaratgan davlat mo‘g‘ullar istilosi natijasida tanazzulga yuz tutgan Movarounnahrni iqtisodiy va madaniy halokatdan xalos etdi.

Ikkinchidan, Amir Temur Movarounnahrda mustaqil davlat yuzaga keltirdi. Buning natijasida Temur va Temuriylar davrida mahalliy xalqlar davlatchiligi rivoj topdi, obodonchilik va madaniyat yuqori darajaga ko‘tarildi. Tarix fanida “Temuriylar davri madaniyati” yoki “Sharq

Uygʻonish (Renesans) davri” deb atalmish butun bir madaniy hodisa yuzaga keldi.

Uchinchidan, Temur buyuk lashkarboshi va davlat arbobi sifatida feodal davr uchun mukammal boʻlgan davlat idorasi nazariyasini yaratdi. Bu davlat nazariyasi faqat temuriylar uchungina emas, keyingi hamma avlodlar uchun ham necha asrlar mobaynida dasturilamal boʻlib qoldi.

Toʻrtinchidan, Amir Temur buyuk shaxs sifatida hamma zamonlar va hamma xalqlar uchun ibrat namunasi, Movarounnahr xalqlari uchun esa faxr va milliy gʻurur asosi boʻlib qoldi¹.

Mustaqillik davrida respublikamiz tarixining Amir Temur va Temuriylar davri ilmiy asosda, xolisona yoritilmoqda. Sohirqiron Amir Temur kabi ajdodlarimiz yaratgan maʼnaviy boylikdan, bu bebaho xazinadan bahramand boʻlish davri yetib keldi.

Amir Temur jahon, Markaziy Osiyo va Oʻzbekiston xalqlari uchun abadul-abad buyuk davlat arbobi, dovyurak sarkarda, tarixiy shaxs va alloma boʻlib qoladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Toshkentda Amir Temur haykalining ochilishiga bagʻishlangan maʼruzasida: “Muhammad Taragʻay Bahodir oʻgʻli Amir Temur yoshlik chogʻidan mard, dovyurak, gʻururli, oʻtkir zehn va aqlu-idrok egasi boʻlib oʻsdi... Amir Temur davlati qurilishi, harbiy sanʼati koʻp asrlar davomida Sharqu Gʻarb davlatlariga oʻrnak va andoza boʻldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, meʼmorchilik, tasviriy sanʼat, musiqa, sheʼriyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning koʻp anʼanalari takomiliga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga koʻrgazgan cheksiz mehr-muruvvati, ayniqsa, ibratlidir”², – deya unga munosib baho berdi.

YUNESKO qaroriga asosan, 1996 yil “Amir Temur yili” deb eʼlon qilindi. YUNESKO tashabbusi bilan 1996 yil 24 aprelda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bagʻishlangan “Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi” haftaligining oʻtkazilishi katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega boʻldi. Nufuzli xalqaro tashkilot YUNESKO tomonidan Amir Temur yubileyining nishonlanishi har bir yurtdoshimiz qalbida faxr va iftixor tuygʻularini uygʻotdi.

Amir Temurning 660 yillik yubileyi mamlakatimizda ham katta tantanalar bilan nishonlandi. Toshkentda Amir Temur muzeyi ochildi. Toshkent, Shahrizabz va Samarqandda ulugʻ bobomiz haykallarining qad rostlashi unga boʻlgan yuksak ehtirom namunasidir.

Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo respublikalarida “Amir Temur maʼrifiy jamiyati” ish olib bormoqda. Mazkur jamiyatning maqsadi xalqimizga Amir Temur haqidagi haqiqatni aytish, XIV–XV asrlar meʼmorchilik yodgorliklarini taʼmirlab, kelajak avlodlarga yetkazishdir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurni buyuk tarixiy shaxs sifatida oʻrganish va targʻib etish tarixiy haqiqatni tiklashdir.

¹Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1996. – 9 май.

²Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – 360–361-б.

7-ma'ruza

TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

1. Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida O'rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar

Bizga ma'lumki, Movarounnahr va Xurosonda Amir Temurdan keyin hukmronlik qilgan Shohruh, Ulug'bek va Husayn Boyqarolar vafotidan so'ng Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutdi. Bu jarayon ancha avvalroq, Ulug'bekning fojiali o'limidan so'ng boshlangan edi. Abdullatifdan so'ng (1450 y.) Samarqandda hokimiyat Shohruhning nabirasi Abdulloga o'tdi. Mironshohning nabirasi Abusaid Mirzo ham taxt uchun kurashib, Abdulloni yengdi. U o'z hududini kengaytira borib, Hirotni oldi va vaqtincha bo'lsa-da, Temuriylar saltanatini tikladi.

Movarounnahr Abusaid farzandlari o'rtasida taqsimlandi. Samarqandda Sulton Ahmad, Buxoroda Sulton Mahmud, Farg'onada Umar Shayx hukmdorlik qila boshladilar. Shu orada Xurosonda hokimiyatga Husayn Boyqaroning (1469–1506) kelishi tufayli Temuriylar davlati yana ikkiga bo'linib ketdi.

1495 yilda Umarshayx va Sulton Ahmad deyarli bir vaqtda vafot etdilar. 12 yoshida Farg'onada hokimiyat taxtiga o'tirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrni birlashtirish uchun so'nggi kurashni boshladi¹. Bobur 1483 yil 13 fevralda Andijonda Umarshayx oilasida dunyoga keldi. U 1497 yilda katta qo'shin to'plab Samarqandga yurish qildi. Shaharni yetti oy qamal qilib egalladi va u yerda uch oy hukmronlik qildi. Lekin Andijonda o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Xo'jandda o'rnashib, bir yarim yildan so'ng Andijonda hokimiyatni tiklab, yana Samarqand yurishiga tayyorlana boshladi. Ammo ahvol og'ir edi. Bir tomondan, Temur avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash avj olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Muhammad Shayboniy Samarqand yurishiga hozirlanmoqda edi. 1499 yilda Muhammad Shayboniy Samarqand taxtini egallab, Temuriylar saltanatiga chek qo'ydi. Bu davrda Bobur kichik bir guruh (240 kishi) bilan Samarqandga otlandi. Lekin Shayboniy Boburdan oldinroq Samarqandga kirdi. Shaharni egallagan Shayboniyning talonchilik maqsadida atrof qishloqlarga chiqib ketganini eshitgan Bobur to'satdan hujum qilib, Samarqanddagi 8 ming kishilik qo'shinni tor-mor qilib, shaharni qo'lga oldi.

1501 yilning bahorida Bobur Muhammad Shayboniy qo'shinlari bilan jang qilish uchun Samarqanddan chiqdi. Ko'hak daryosi sohilida bo'lgan qattiq jang Bobur lashkarlarining mag'lubiyati bilan tugadi. Bu esa Shayboniyxonga Movarounnahrdagi mavqeini yanada mustahkamlashga yordam berdi.

¹История Узбекистана. Т. 3. – Т., 1993. – С. 33–34.

Og'ir ahvolda qolgan Bobur 1504 yilda o'z baxtini izlab Movarounnahrdan butunlay chiqib ketishga qaror qildi. Tajribali sipoh, dono davlat arbobi darajasiga yetgan Bobur oilasi, yaqinlari va xizmatchi navkarlaridan 200 kishini olib Afg'oniston sari yo'l oldi. Qobul shahrini egallab, u yerda qo'shin to'pladi. Shayboniyxon Samarqandni olishi bilan amalda Temuriylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1500–1508 yillarda Shayboniyxon tinimsiz urushlar olib borib, Farg'onani, Xorazmni, Xurosonni ishg'ol qildi. 1508 yilda Jom ostonalarida Temuriylarning oxirgi qo'shini tor-mor qilingach, ularning Movarounnahrdagi ildizi batamom tugatildi. Kaspiydan Xitoygacha, Sirdaryo etagidan Markaziy Afg'onistongacha bo'lgan ulkan mamlakat Shayboniylar mulkiga aylanib qoldi¹.

1510 yilda Marv yaqinida Eron shohi Ismoil bilan to'qnashuvda Shayboniyxon yengiladi va halok bo'ladi. Shoh Ismoil Xurosonni egallab, Boburni shimolga – Movarounnahrda yurishga undaydi, unga qo'shin va yordam va'da qiladi. Bobur 1512 yilda Samarqandga yurib, uni egallaydi. Biroq xalq uni shoh Ismoilning gumashtasi deb, qo'llab-quvvatlamadi. Shunga qaramay, Bobur taxt uchun qattiq kurashadi. Biroq 1513 yilda u Ubaydulla Shayboniy va Muhammad Temurlardan mag'lubiyatga uchraydi. Shu bilan Bobur va Shoh Ismoil o'rtasidagi ittifoq barham topadi. Bobur garchi Movarounnahrni qaytarib olish niyatidan voz kechmagan bo'lsa-da, lekin bundan keyin Shayboniylar bilan kurash olib borish maqsadidan qaytadi. Qobulga qaytgach, Bobur 1525 yilda Hindistonga bostirib kiradi va Dehli sultonini, so'ngra rajputlar hokimi Rang Sint qo'shinini tor-mor qiladi. Bobur bu o'lkada tarixda Buyuk mo'g'ullar nomi bilan shuhrat topgan Boburiylar saltanatiga asos soladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 332 yil (1526–1858 yy.) hukmronlik qildi². Shunday qilib, Amir Temur va uning avlodlari 144 yil Movarounnahrda, 37 yil Xurosonda, 332 yil Hindistonda, jami bo'lib tarix sahifasida 513 yil o'z mavqelarini saqlab turdilar.

Shayboniylar Movarounnahrni 1500–1508 yillarda bosib olgan bo'lsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur mag'lubiyatga (1512–1513) uchrab, Movarounnahrdan chiqib ketgandan keyin, 1515 yilda ularning bu yerda to'la hukmronligi o'rnatildi.

Shayboniylar sulolasi Movarounnahrda yuz yil hukmronlik qildi. Lekin ko'chmanchi o'zbeklar Movarounnahrning o'troq, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda ancha ilgarilab ketgan hayotiga katta ta'sir ko'rsata olmadi.

Shayboniylarning davlat boshqaruvi mulk tizimiga asoslangan edi. Muhammad Shayboniy qo'lga kiritilgan yerlarni o'z qarindoshlari, sultonlar va beklarga taqsimlab berdi. Ularning har biri mulk boshqaruviga ega bo'lib, bu yerda u mustaqil siyosat olib borishga intildi. Shu tarzda mustaqil, tarqoq yer egalari Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlari jarayonida birlashgan bo'lsalar-da, bu birlashish uzoqqa cho'zilmadi. Mulq tizimining hukmronligi natijasida davlat yana ayrim beklarlarga bo'linib ketdi.

¹Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. 406–407-б.

²О'sha manba. – 404-б.

Bu bekliklarning iqtisodiy, soʻngra esa siyosiy qudratlari kuchaygach, boyib ketgan hokimlar markaziy hokimiyatdan mustaqil boʻlishga harakat qila boshladilar. Ana shu vaziyatda Shayboniyxon oʻz hokimiyati ostidagi sultonlar orasida markazdan qochish kuchini kamaytirish uchun bir qator tadbirlar koʻrdi. Masalan, u ayrim sultonlar va amirlarni bir mulkdan ikkinchisiga koʻchirishga harakat qildi, ammo bu narsa har doim ham u istagan natijani bermadi¹.

Mamlakatda oʻzbek qabilalari maʼlum darajada oʻz mustaqilliklarini saqlab qolgan boʻlib, ularni xondan amirlik yorligʻini olgan qabila boshliqlari boshqarardi. Amirlar xon saylash, majlislarda qatnashish huquqiga ega edi. Natijada ular bora-bora xon hokimiyati uchun xavfli kuchga aylana boshladi.

Muhammad Shayboniy ayrim dushmanlari taʼkidlaganidek, oʻta johil, amalparast, savodsiz emas, balki arab, fors, turk, moʻgʻul tillarini bilgan, adabiyotga qiziqqan, hatto shoirsifat shaxs edi. U 1510 yilda 61 yoshida fojiali halok boʻlgach, taxtga uning amakisi Koʻchkinchixon (1510–1530), uning oʻgʻli Ahad Said (1530–1533), soʻng jiyani Ubaydullaxon (1533–1539) oʻtirib, merosxoʻr sifatida Movarounnahrni boshqardilar.

Undan keyin qoʻsh hokimiyatchilik oʻrnatildi. Buxoroda Ubaydullaxonning Oʻgʻli Abdulazizxon (1540–1550). Samarqandda jiyani Abdullatifxon (1540–1551) hukmdorlik qildilar. Ularning oʻlimidan soʻng yana hokimiyat uchun kurash qizib ketdi.

Shayboniylarning Movarounnahrda yuz yillik hukmronligi davrida oʻtgan 8 ta xondan uchasi – Muhammad Shayboniy, Ubaydullaxon va Abdullaxon (1557–1598) largina shijoatli harbiy hukmdorlar edilar. Aynan shu hukmdorlar davrida davlatning yaxlitligi saqlandi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli bir oz boʻlsa-da, mustahkamlandi, siyosiy barqarorlik taʼminlandi, islohotlar, qurilishlar olib borildi.

Shayboniylar davlati Ubaydullaxon davrida (1533–1539) birmuncha kuchaydi. Davlat poytaxti 1533 yilda Samarqanddan Buxoroga koʻchirildi, shundan keyin davlat Buxoro xonligi nomini oldi. Ubaydullaxon vafotidan soʻng, Shayboniy sultonlar va mahalliy hokimlar oʻrtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib, xonlik yerlari mayda boʻlaklarga boʻlinib ketdi. Buxoroda Ubaydullaxonning oʻgʻli Abdulazizxon, Samarqandda Koʻchkinchixonning oʻgʻli Abdullatif, Balx va Badaxshonda Pirmuhammadxon, Toshkent va Turkistonda Navroʻz Ahmadxon (Baroqxon), Karmana va Miyonkolda Iskandarxon va boshqa kichik hukmdorlar mustaqil boʻlib oldilar².

1551–1556 yillarda Movarounnahr uchun Shayboniylar oʻrtasidagi kurashda Iskandar Sultonning oʻgʻli Abdullaxon gʻolib chiqdi. U Shayboniy hukmdorlar orasida eng nufuzli hukmdor boʻlgan. 1557 yilda Buxoro shahri uzil-kesil davlat poytaxti boʻlib qoldi. Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557–1598) Movarounnahrda tarqoq hokimliklarga barham berilib, markazlashgan davlat va kuchli qoʻshin tashkil etildi. Xonlik chegarasi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha boʻlgan yerlarni qamrab oldi.

¹ Ўзбекистон тарихи. – Т., 1994.

² Оʻsha manba.

Bu davrda sug'orish inshootlari, karvonsaroylar, madrasalar, ko'priklar qurildi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, madaniy va elchilik aloqalari rivojlandi. Pul zarb qilish yo'lga qo'yildi. Biroq Abdullaxon vafotidan keyin mamlakatda taxt uchun kurash yana avj oldi.

1598 yilda Abdullaxon vafotidan so'ng taxtga o'g'li Abdulmo'min o'tirdi. Ammo olti oy o'tgach, u dushmanlari tomonidan o'ldirildi. Abdulmo'mindan so'ng taxtga Abdullaxonning qarindoshi Jonibekning o'g'li shahzoda Pirmuhammad o'tirdi. Uning ham hukmronligi uzoqqa bormay, 1607 yili taxtdan ag'darildi. Shunday qilib, qariyb 100 yil hukm surgan Shayboniylar sulolasi barham topdi.

XVI asr oxiri XVII asrning boshlarida Movarounnahr hududida Shayboniylar o'rniga yangi o'zbek sulolasi – Ashtarxoniylar hokimiyat tepasiga keladi¹. O'zbek davlatchiligi boshqaruviga yangi sulolaning kelishi amalda biron-bir keskin tarixiy burilishga sabab bo'lmadi. Ashtarxoniylar ham mamlakatda davom etgan o'zaro feodal urushlar va boshlangan inqirozga chek qo'ya olmadilar. Bu esa Movarounnahrda markaziy hokimiyat mavqeining tushib ketishiga, mamlakat aholisi va iqtisodining ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ashtarxoniylar sulolasining taxtga kelishi masalasida shuni aytish mumkinki, Oltin O'rda (Jo'chi ulusi) zaiflashib borib, bir qancha mayda xonliklarga bo'linib ketadi. Natijada XV asrning 30-yillarida Volga bo'yidagi yerlarda Astarxan xonligi yuzaga keldi. "Astarxan" Ashtarxonning ruslashganidir. «Ashtarxon» esa asli «Xoji Tarxon» so'zidan kelib chiqqan. Tarxon turkiy xalqlar hayotida mavjud siyosiy unvonlardan bo'lib, mashhur Xazar xoqonligi (VII–X asrlar) davridanoq ma'lum². 1556 yilda Ashtarxon Rossiya tomonidan bosib olinganidan so'ng, Ashtarxon Yormuhammadxon farzandlari bilan Shayboniylar huzuridan panohtopgan. Shu tariqa Ashtarxoniylar Movarounnahrda kelib qolgan. 1599 yilda shayboniy Abdulmo'min vafot etganidan so'ng, shayboniylar orasida taxt vorisi qolmaydi. Shayboniylar davlatining nufuzli amirlari kelishib, Ashtarxoniylardan bo'lmish Jonibek sultonni xon taxtiga taklif qiladilar. U rozi bo'lmagach, Jonibekning katta o'g'li Dinmuhammad taklif qilinadi. Ammo u Obivordan Buxoroga qaytib kelayotganida halok bo'ladi. Buning natijasida oliy taxtga uning ukasi Boqimuhammad o'tiradi. Jonibekning uchinchi o'g'li Valimuhammad Balxga noib qilib jo'natiladi. Shunday qilib, o'lkada Ashtarxoniylar, ya'ni ashtarxonliklar (boshqa nomi joniylar) sulolasining bir yarim asrlik faoliyati boshlanadi. Yuqorida aytilganlarga xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, shayboniylar davrida boshlangan inqiroz so'nggi Shayboniylar (Abdulmo'min) davriga kelib kuchaydi; ikkinchidan, o'zaro urushlar, qabilaviy kurashlar, taxt talashishlar natijasida Shayboniylar urug'idan xon taxtiga voris qolmaydi; uchinchidan, Movarounnahrda ba'zi bir o'zbek qabilalari, qabila amirlarining nufuzi shunchalik kuchayib ketdiki, ular hatto taxt merosxo'rligiga nomzodlar

¹Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – 193–195-б.

²Аштархонийлар // Ўзбекистон овози. – 1996. – 29 июнь.

masalasini o'z hohishlaricha hal qilishgacha (Ashtarxoniylar misolida) borib yetdilar.

Endi Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy ahvolga qisqacha to'xtalib o'tamiz. 1599 yilda ashtarxoniy Boqimuhammad taxtga o'tirdi. Shu davrda Ashtarxoniylar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlash edi. Marv, Xorazm, Balx yerlarida siyosiy parokandalik kuchaygan edi. Boqimuhammadxon o'z hukmronlik yillari Xorazm, Balx, Shibirg'on, Maymana, Bag'lon, Badaxshon, Hisor yerlariga yurishlar uyushtiradi¹. Shu orada 1605 yil Boqimuhammadxon vafot etadi. 1605–1611 yillarda ashtarxoniylardan Valimuhammad hukmronlik qildi. 1606 yili Valimuhammad Balxga yurish uyushtiradi. Keyinchalik xon Eron safaviylari bilan yaxshi diplomatik munosabatlar o'rnatadi. Valimuhammadning no'noq siyosati tufayli, Xurosonda Eron safaviylarining mavqei oshib boradi. Bu esa yirik o'zbek amirlarining norozligiga sabab bo'ladi. Natijada amirlar bilan xon o'rtasida ixtilof kuchayib, Samarqand hokimi Imomqulixon 1608 yili Buxoro taxtiga o'tqaziladi. Valimuhammadxon 1611 yili Samarqand atrofida Imomqulixon bilan navbatdagi to'qnashuvda halok bo'ladi.

Shunday qilib, mamlakat taxtiga Imomqulixon (1611–1642) o'tiradi. U davlatni o'ttiz yildan ko'proq boshqargan. Bu Imomqulixon Ashtarxoniylar orasida eng nufuzli hukmdorlardan biri bo'lganidan dalolat beradi². Imomqulixon Movarounnahr chegaralariga xavf solib turgan ko'chmanchi qalmaq va qozoq xonlariga qarshi tinimsiz kurash olib bordi. 1613 yili Imomqulixon qozoqlarni tor-mor qildi va Toshkentni egallab, u yerda o'z o'g'li Iskandarni noib qilib qoldirdi. Lekin Imomqulixon ketishi bilan shahar aholisi qo'zg'olon ko'tarib, Iskandarni o'ldirdi. Bundan g'azablangan Imomqulixon qo'zg'olonni bostirishga majbur bo'ladi va shahar aholisini qirg'in qiladi.

Bundan tashqari, Imomqulixon o'z hukmronlik yillarida qoraqalpoq va kuchli qalmaqlarga qarshi kurash olib bordi. Tinimsiz olib borilgan urushlar xon hokimiyatining birmuncha mustahkamlanishiga olib keldi. Lekin bu muvaffaqiyatlarga qaramay, feodal yer egaligining rivojlanishi va o'zbek qabilalari zodagonlarining qo'lida yirik mulklarning to'planishi ba'zi bir yirik qabilalarning siyosiy nufuzini oshirib yubordi. Shuning uchun ham o'z hukmronligi yillarida Imomqulixon bir qancha yirik qabila feodal-zodagonlariga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lgan. Hukmronligining so'nggi yillarida ko'zi ojizlashgan Imomqulixon taxtni ukasi Nodir Muhammadxonga topshirgan.

Nodir Muhammadxon (1642–1645) davrida mamlakatda ichki nizolar va o'zaro kurash yanada avjiga chiqqan. Chekka viloyatlar Toshkent, Xo'jand, Turkiston markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan. Hukmronligining dastlabki yillarida Nodir Muhammadxon taqsimot o'tkazib, o'zining

¹Аштархонийлар // Ўзбекистон овози. – 1996. – 29 июнь.

²Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 1. – Т., 1997. – 552-б.

farzandlariga mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk sifatida bo‘lib bergan¹. Nodir Muhammadxon tomonidan amalga oshirilgan mulk taqsimoti markaziy hokimiyat mavqeini juda ham zaiflashtirib yuborgan. Chekka o‘lkalar Buxoro bilan deyarli hisoblashmay qo‘ygan. Nodir Muhammadxon mamlakat ichkarisida yirik amirlarning qarshiligiga duch kelgan. 1645 yilda Nodir Muhammadxonning o‘g‘li Abdulaziz sulton yangi xon deb e‘lon qilingan. Vaholanki, bu vaqtda Buxoroda Nodir Muhammadxon hukmronlik qilardi.

Bunday holat qanday ro‘y berdi, degan savol tug‘iladi. Nodir Muhammadxon dastlabki ikki yillik hukmronligi davrida o‘z mavqeini mustahkamlash niyatida katta nufuzga ega bo‘lgan amirlar ta‘sirini cheklamoqchi bo‘lgan. Masalan, mashhur Yalangto‘shbiydan uning mulki Kaxmerdni tortib olgan. Shunday qilib, nufuzli amirlar bir bo‘lib, 1645 yilda Abdulazizxonni oliy hukmdor deb e‘lon qiladilar. Bu hol mamlakatda markaziy hokimiyat va Ashtarxoniylarning mavqei ancha tushib ketganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida, davlat asoslarini zaiflashtirib yuborgan. Nodir Muhammadxon 1645 yilgacha Balx mulkida hukmronlik qilgan.

Abdulazizxon o‘z hukmronligi yillarida (1645–1680 yy.) Balxni Buxoroga bo‘ysundirishga bir necha bor urinib ko‘rgan. 1651 yilda Balx taxtiga Abdulazizxonning ukasi Subhonqulixon sulton o‘tiradi. Kuchli oliy hokimiyatning yo‘qligi va davlatdagi parokandalikdan foydalangan Xiva xonlari mamlakat ichkarisiga tez-tez bostirib kira boshlaydilar. Xiva xoni Abdulg‘ozixon (1645–1663 yy.) 1655 yilda Movarounnahrda ikki marta bostirib kiradi. Xiva lashkarlarining mamlakat ichkarisiga hujumlari keyingi yillarda ham davom etib turdi. Xiva bilan uzoq davom etgan urushlar mamlakatdagi ahvolni og‘irlashtiradi va ichki ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

1680 yilda Abdulazizxon taxtni ukasi va valiahd Subhonquli sultonga topshiradi. Subhonqulixon (1680–1702 yy.) Buxoro xonligini uzoq yillar boshqargan². Subhonqulixon hukmronlik yillarida ham Balx viloyati uchun kurash davom etgan. Amalda Balx hokimlari Buxoro hokimiyatini rasman bo‘lsa ham tan olmaganlar. Yirik qabila zodagonlarining nufuzi oshib borib, 1688–1697 yillar davomida Balxda yirik amir Mahmudbiy hukmronlik qilgan.

Bu davrda Buxoro xonligining Xiva bilan munosabatlari ham mushkul edi. Subhonqulixon hukmronligi davrida Xiva lashkarlari bir necha bor mamlakat ichkarisiga bostirib kirganlar. Masalan, Xiva xoni Anushaxon (1664–1687 yy.) mamlakatga bir necha marta yurish uyushtirib, 1684 yili hatto Samarqandni bir yil davomida ushlab turishga muvaffaq bo‘lgan³. 1697 yilda Xiva xoni Ereng yana Movarounnahr ichkarisiga yurish qiladi. Endigi safar Subhonqulixon uni bartaraf qilish bilan birga, Xivaga o‘z noibini tayinlaydi. Shu tariqa Xivada yana Buxoro hokimiyati o‘rnatiladi. Xivaga qarshi kurashda ko‘rsatgan xizmatlari uchun qatag‘on qabilasidan bo‘lgan

¹Аштархонийлар // Ўзбекистон овози. – 1996. – 29 июнь.

²О‘sha manba.

³О‘sha manba. – 555-b.

otaliq Mahmudbiy Balx noibi qilib tayinlanadi. Lekin Mahmudbiy Buxoroga butunlay bo'ysunmay qo'yadi. Bu esa boshqa beklar, qabilalar, feodal guruhlarining noroziligiga sabab bo'ladi. Natijada o'zaro feodal urushlar va qabilaviy nizolar yanada kuchayib ketadi.

Mamlakatdagi ichki ziddiyatlar keyingi hukmdor Ubaydullaxon (1702–1711 yy.) davrida avj oladi. Bu davrga kelib, eng asosiy viloyatlar – Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, O'ratepa, Hisor, Balxda Ashtarxoniylar emas, balki o'zbek zodagonlariga mansub ayrim amirlar hukmronlik qilar edilar¹. Ubaydullaxon o'z hukmronlik yillarida markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun harakat qildi. U amalda mustaqil bo'lgan zodagonlar va qabilalarga qarshi tinimsiz urushlar olib bordi. Bu urushlar oqibatida xo'jalik inqirozi yanada kuchaydi. Ubaydullaxon amalga oshirgan pul islohoti ham foyda bermadi. Hatto 1711 yilda Ubaydullaxonning o'zi ham fitna qurboni bo'ldi. Ashtarxoniylardan bo'lgan so'nggi hukmdorlar davriga kelib (Abulfayzxon, Abdulmo'min, Ubaydullaxon) “Buxoro xonligi markaziy hokimiyati amalda mustaqil bo'lgan mulklar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan edi”². Hokimiyat amalda Abulfayzxon hukmronligi davrida avval Jovshan qalmaq, u o'ldirilgandan keyin esa oliy qushbegi Abdullabey xoja, keyin esa Muhammad Hakimbiy o'taliq qo'lida mujassamlashgan edi. Davlatdagi bunday holat ko'pchilik amirlar va qabila zodagonlarining noroziligiga sabab bo'lgan. Abulfayzxonga qarshi fitna uyushtirilgan, lekin fitna fosh bo'lib, tashkilotchilari qattiq jazolangan. Bundan tashqari, 1722 yilda Rajab sultonning Samarqandda xon deb e'lon qilinishi ahvolni yanada mushkullashtirdi. Bu davrda mamlakat ichkarisiga, ayniqsa, Zarafshon vodiysiga ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi qabilalar (qozoqlar)ning ko'chib kelishi kuchaydi. Natijada ekinzor va maydonlar hamda tomorqalar payhon qilinib, xo'jalikka katta zarar yetdi.

2. O'zbek davlatchiligi birlashmalarining shakllanishi va uning xususiyatlari

Bu davrda Balx, Badaxshon ham Buxoro davlatidan mustaqil mulklarga aylandi. Buxoro xonligidagi og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyatdan Eron shohi Nodirshoh (1736–1747 yy.) ustalik bilan foydalandi. 1740 yilda Nodirshoh Buxoro xonligiga qarshi yurish boshlab, Ashtarxoniylar qudratiga zarba beradi. Mamlakatda Abulfayzxon nomigagina xon bo'lib, amalda esa butun hokimiyat o'taliq Muhammad Hakimbiy, 1743 yilda uning vafotidan keyin Muhammad Rahim qo'lga o'tgan. Eng yaxshi lavozimlarga o'taliqning qarindoshlari tayinlanadi. Amalda Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylanib qoldi. 1747 yilda Nodirshoh fitna tufayli o'ldirildi. Natijada Buxoro xonligida butun hokimiyat Muhammad Rahim qo'lida mujassamlashdi. Muhammad Rahim hokimiyat tepasiga kelgach, 1753 yilda Buxoroda mang'itlar sulolasiga asos soldi. Muhammad Rahim Chingizxon avlodiga mansub emas edi, shuning uchun u amir unvonini oldi, bu davrdagi davlat

¹O'sha manba.

²Ўзбекистон тарихи. – Т., 1994. – 46-б.

Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Shu tariqa, 1599 yildan to 1753 yilgacha davom etgan Ashtarxoniyalar hukmronligi barham topdi.

Muhammad Rahim hukmronligi davrida (1753–1758) Buxoro amirligiga qarashli yerlar ancha qisqargan edi. Uning tarkibiga Buxoro, Samarqand, Miyonkol, Karmana, Qarshi, G‘uzor, Karki, Chorjo‘y, Shahrisabz viloyatlari kirib, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari xonlik tasarrufidan chiqib ketgan edi. Doniyolbiy otaliq hukmronligi davrida (1758–1785) ham o‘zaro urushlar davom etdi. Karmana, O‘ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun va boshqa joylarda mahalliy kuchlar bosh ko‘tarib, markazga bo‘ysunmay qo‘ydilar. Amir Shohmurod hukmronligi davrida (1785–1800) Doniyolbiy joriy etgan soliqlardan bir qanchasi bekor qilindi, iqtisodiy hayot birmuncha yaxshilandi. Ruhoniylarning mavqei oshib bordi. Bu davrda Buxoro amirlari markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qanchalik urinmasinlar, viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishlari to‘xtamadi.

Amir Haydar davrida (1800–1826) ham ichki va tashqi urushlar davom etib turdi. Ayniqsa, O‘ratepa bir necha marta qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turdi. XIX asrning birinchi choragida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasida O‘rta Osiyoda ustunlikka erishish uchun o‘zaro urushlar bo‘ldi. Toshkent, Turkiston, Chimkent va ularning atrofi Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shildi. 1825 yilda Xiva xoni Olloqulixon (1825–1864) Buxoroga qarashli Marvni egalladi. Tinimsiz urushlar, soliqlar miqdorining ortib borishi 1821–1825 yillarda Buxoro va Samarqand oralig‘ida istiqomat qiluvchi xitoy-qipchoq qabilalarining qo‘zg‘oloniga sabab bo‘ldi¹.

1826 yilda Amir Haydar vafot etgach, birin-ketin uning ikki o‘g‘li Husayn va Umar o‘ldirildi. Taxtga uning uchinchi o‘g‘li, shafqatsizligi tufayli “qassob amir” laqabini olgan Nasrullaxon o‘tirdi. U hokimiyatni mustahkamlash uchun o‘ta shafqatsizlik bilan kurash olib bordi. U taxtga da‘vogar bo‘lgan barcha qarindoshlarini ham ayamay o‘ldirtirib yubordi. O‘zini Buxoro amirligidan mustaqil deb e‘lon qilgan Shahrisabz bekligiga 20 yil davomida 32 bor yurish qildi. Janubda Marv uchun Xiva xonlari bilan uzoq urushlar olib bordi. Amir Nasrullo 1839, 1841 va 1858 yillarda Qo‘qon xonligiga uch marta yurish qiladi². Aholi qirg‘in qilinib, boyliklar talandi. Hatto mashhur o‘zbek shoirasi Nodirabegim (Mohlaroyim) ham amir buyrug‘i bilan o‘ldirildi.

Amir Nasrullo davrida Buxoro Rossiya bilan Angliya o‘rtasida O‘rta Osiyoda boshlangan raqobatchilik kurashi maydoniga aylanib qoldi.

XVI–XVIII asrlardagi O‘rta Osiyo siyosiy xaritasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu davrda Buxoro davlatidan mustaqil Xiva xonligi mavjud edi³. Xiva xonligi Muhammad Shayboniyxonning XVI asr boshlarida Xorazmga yurishidan so‘ng tashkil topgan edi. 1511 yilda Shayboniylarga mansub bo‘lmagan Dashti Qipchoq ko‘chmanchilari tub aholining yordami bilan eronliklarga zarba berib, Xorazm mustaqilligini tikladilar. Elbars Xiva xoni deb e‘lon qilindi. Elbarsxon XVI asrning 20–30 yillarida Xorazm yerlarini

¹Ўзбекистон тарихи. – Т., 1994.

²О‘sha manba.

³Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – 332–334-б.

Turkmanistonning janubi, Eronning shimoliy Saraxs tumani, Orol boʻylari va Mangʻishloqqacha kengaytirdi.

Buxoro hukmdorlaridan Xivani boʻysundirish uchun 1536 yilda Ubaydullaxon, 1575 yilda Abdullaxon harakat qildi, lekin boʻysundira olmadi. Abdullaxon vafotidan (1598) soʻng, Xiva xonligi uzil-kesil mustaqil boʻldi.

XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligida feodal tarqoqlik hukm surdi. Har bir shahzoda oʻz mulkida mustaqil boshqaruvga ega edi. Arab Muhammad (1602–1623), Asfandiyor (1623–1643) davrida bunday holat yanada kuchaydi. Xonlik hududiga qozoqlar, Ural kazaklari, qalmiqlar va Buxoro lashkarlari bir necha bor bostirib kirdilar. Abulgʻozi Bahodirxon (1643–1663) va uning Oʻgʻli Anusha davrida (1663–1687) Xiva xoni, yirik tarixchi olim va tabib Buxoroga bir necha bor hujumlar uyushtirdi. XVIII asrda ham xonlikda vaziyat ogʻirligicha qolaverdi. Ayniqsa, Shohniyoz (1688–1702) va undan keyin hukmronlik qilgan Arab Muhammadxon II (1702–1714) davrida sultonlar oʻrtasida taxt uchun kurash toʻxtamadi. 1715 yilda Xiva xonligi taxtiga Shergʻozi oʻtirdi. Feodal mojarolar natijasida davlatning ichki ahvoli yomonlashib bordi. Bu davrda qoʻshni davlatlarning Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Petr I Xiva xonligini bosib olish maqsadida 1715–1717 yillarda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida katta ekspeditsiya yubordi. Lekin Xiva lashkarlari ustalik bilan harakat qilib, rus qoʻshinlarini magʻlubiyatga uchratdi. Shundan keyin ham qoʻshni davlatlarning Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi davom etaverdi. 1728 yili Shergʻozixon oʻldiriladi va Xivaning nufuzli ayonlari taklifiga binoan taxtga qozoq sultonlaridan biri Elbars (1728–1740) oʻtiradi.

Elbarsxon II davrida Xuroson, Afgʻoniston va Hindistonga harbiy yurishlar qilindi. Shu davrda Eron hukmdori Nodirshoh Xivaga qarshi urush boshladi. Elbarsxon II oʻldirilib, Xiva xonligi Eronga boʻysundirildi. Bir yildan soʻng, 1741 yilda Xivada Eronga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarilib, xonlikning mustaqilligi tiklandi. 1747 yilda qozoq sultonlaridan biri Qoyim (Kaip, 1747–1757) xon deb eʼlon qilindi.

1763 yilga kelib Xiva xonligida yangi sulola – qoʻngʻirot qabilasi vakillarining hukmronligi boshlandi. Muhammad Amin inoq (1763–1790) 1770 yilda turkmanlarning, 1782 yilda buxoroliklarning hujumlarini daf etdi. 1804 yilda Xivada qoʻngʻirotlar sulolasi amalda emas, rasmiy ravishda hukmron boʻlib oldi. Eltuzarxon (1804–1806) va uning ukasi Muhammad Rahimxon I (1806–1825) hukmronligi davrida Xiva xonligining nufuzi oshdi, uning birlashish jarayoni tugallandi. 1811 yilda Orol boʻylari, koʻp oʻtmay qoraqalpoqlar, 1822 yilda Marv va uning atrofidagi turkmanlar boʻysundirildi.

Muhammad Rahimxon I davlatni boshqarish uchun devon (vazirlik) tashkil qildi, soliq tizimini isloh qilib, bojxona va zarbxona tashkil etdi, oltin va kumush tangalar chiqardi. Uning oʻgʻli Olloqulixon (1825–1842) davrida xonlik yerlari Sirdaryoning Orolga quyilishi joyidan Turkmanistonning Kushkagacha boʻlgan hududlarigacha kengaydi. Natijada Eron bilan munosabatlar yomonlashdi. Undan keyingi xonlar, ayniqsa, Muhammad

Aminxon (1845–1855) va Sayyid Muhammadxon (1855–1864)lar turkmanlarga qarshi va Xurosonni egallash maqsadida bir necha marta yurishlar qildilar. Xiva taxtida eng ko‘p o‘tirgan hukmdorlardan biri Muhammad Rahimxon II (1864–1910) bo‘lib, uning davrida Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qoldi.

XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida ro‘y bergan siyosiy va iqtisodiy tushkunlik oqibatida markaziy hokimiyat zaiflashib bordi. Xonlik tasarrufiga kiritilgan yerlarda, ayniqsa, Farg‘onada mustaqillikka intilish kuchayib ketdi. Natijada Farg‘ona alohida o‘lka bo‘lib, xonlikdan ajralib chiqdi¹. Xon avlodlari o‘rtasidagi kurash tufayli hokimiyat o‘zbeklarning Ming urug‘idan chiqqan Erdonabiy qo‘liga o‘tadi. Ko‘p o‘tmay, Shohruhbiy hokimiyatni qo‘lga olib, 1710 yilda Qo‘qon xonligiga asos soldi. Qisqa vaqt ichida Farg‘onadan tashqari, xonlik hududiga Sirdaryo havzasi, Yettisuvning bir qismi qo‘shib olindi.

Abdurahimbiy (1721–1733) 1732 yilda davlat poytaxtini Tapaqo‘rg‘on qal‘asidan hozirgi Qo‘qon shahri o‘rniga ko‘chirdi. Abdurahimbiy davrida xonlik yerlari kengayib, Farg‘onada kuchli davlat vujudga keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Erdonabiy (1751–1762) va Norbo‘tabiy (1763–1798) hukmronligi davrida Farg‘onani birlashtirish yakunlandi. Bir necha marta Qo‘qon hukmdori Norbo‘tabiy Toshkentga qarashli yerlarni bo‘ysundirishga harakat qildi. Lekin muvaffaqiyat qozonolmadi. Norbo‘tabiyning o‘g‘li va vorisi Olimxon (1798–1809) davrida xonlik yerlari kengayib, uning siyosiy va iqtisodiy mavqei o‘tdi. Xonlikda harbiy islohot o‘tkazildi. Ohangaron, Toshkent, Chimkent va Turkiston viloyatlari xonlikka qo‘shib olindi.

1805 yildan Farg‘ona davlati rasman *Qo‘qon xonligi* deb e‘lon qilindi² va Olimbek o‘ziga xon unvonini oldi. 1809 yilda xonlik taxtiga Umarxon (1809–1822) o‘tirdi. Umarxon hukmronligi davrida bo‘ysunmay qo‘ygan Turkiston, Chimkent, Sayram va Avliyoota egallandi. Jizzax, O‘ratepa va boshqa joylar uchun Qo‘qon xonlari Buxoro amirligi bilan beto‘xtov urushlar olib bordi. Muhammad Alixon (1822–1842) Sharqiy Turkiston bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kuchaytirishga harakat qildi. Xonlik chegaralarini kengaytirib, Qorategin, Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho viloyatlarini bosib oldi. Chegaralarni mustahkamlash maqsadida Pishpak, To‘qmoq, Kushka, Avliyoota va boshqa harbiy istehkomlar qurildi.

Muhammad Alixon boshqaruvining so‘nggi yillarida Qo‘qonda xon hokimiyatiga qarshi Nasrulloxon 1839 va 1841–1842 yillarda Qo‘qon xonligiga bostirib kirib, Toshkent, Xo‘jand, O‘ratepa va boshqa joylarni egallab oldi. 1842 yilda Qo‘qonga hujum qilib Muhammad Alixon, Mohlaroyim (Nodirabegim) va boshqa ko‘p odamlarni qatl ettirdi. Qo‘qonga Buxoro tarafidan noib tayinlandi, lekin ko‘p o‘tmay qo‘qonliklar qo‘zg‘olon ko‘tarib, buxoroliklar hukmronligini ag‘darib tashladilar. 1842 yilda Olimxonning jiyani Sherali xon qilib ko‘tarildi. Bu vaqtda qo‘ldan chiqib ketgan Toshkent yerlari, Qurama, Xo‘jand va boshqa viloyatlar qaytadan

¹История Узбекистана. Т. 3. – Т., 1993. – С. 205–207.

²O‘sha manba.

xonlik tasarrufiga kiritildi. Bu davrda Farg‘onada qipchoqlar qo‘zg‘olon ko‘tarib, Qo‘qonni egalladilar va Musulmonqul bosh qo‘mondon qilib tayinlandi. Sheralixonning siyosatidan norozi o‘zbek beklari uni o‘ldirdilar, taxtga Olimxonning o‘g‘li Murodxon qo‘yildi. Sheralixondan keyin xonlikda taxt uchun kurash avjiga mindi. Yosh hukmdor Murodxon ham o‘ldirilib, uning o‘rniga taxtga Musulmonqul qipchoq tomonidan Sheralixonning o‘g‘li Xudoyorxon o‘tqazildi.

Xudoyorxon uch marotaba taxtga o‘tirdi¹. Birinchi marta (1845–1858) nomigagina xon bo‘lib, hokimiyatni qaynotasi Musulmonqul boshqardi. Xudoyorxon ikkinchi marta 1862–1863 yillarda, uchinchi marta 1865–1875 yillarda xonlik qildi. Xudoyorxon hukmronligi davrida tinimsiz ichki nizolar, Buxoro amirligi bilan olib borilgan urushlar, xalq g‘alayonlari Qo‘qon xonligini inqirozga olib keldi.

Shunday qilib, Rossiya istilosi arafasida O‘rta Osiyoning uchta o‘zbek xonligi o‘rtasidagi feodal urushlar, etnik nizolar, taxt talashishlar Rossiya imperiyasi tomonidan bu uchala mustaqil o‘zbek davlatlarini bosib olib, mustamlakaga aylantirishga qulay imkoniyat yaratdi.

3. “Yagona xalq”, “Umumiy Vatan” tushunchalari qadrining ketishi va yo‘qolib borishi sabablari

XVI asr va XIX asrning birinchi yarmida xonliklarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanday bo‘lgan?

Shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi Temuriylarnikidan farq qilmagan. Ular ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari harbiy zodagonlaridan o‘zlariga tayanch bo‘lgan yangi sinfni yaratdilar. Suyurg‘ol va iqto (tanho)ning keng in‘om qilingani uchun ularning yer-mulklari ko‘payib, siyosiy va iqtisodiy qudrati kuchayib bordi².

Xonlikda davlat tizimida xondan keyingi o‘rinda turgan otaliq bo‘lib, u butun mamlakatni boshqargan. Ikkinchi o‘rinda devonbegi bo‘lib, moliya, soliq-xiroj, elchilar yorlig‘ini qabul qilish vazifalarini bajargan. Parvonachi arz-shikoyatlarni qabul qilish, ularga xon javobini yetkazish bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari, naqib, qoziaskar, ko‘kaldosh, inoq, qushbegi va boshqa lavozimlar ham bo‘lgan³. Buxoroda feodal yer egaligining uch turi – amlok, mulk (xususiy yerlar) va vaqf yerlari mavjud bo‘lgan. Xonlik moliya tizimining asosini xiroj (hosilning 1/5 dan 1/3 qismigacha) – yer solig‘i va ushr (daromadning 1/10 qismi) tashkil qilgan. Davlat xarajatlari zarbxona va bojxona daromadlari hisobiga qoplangan.

Dehqonchilikda asosan g‘alla, paxta ekilgan. Chorvachilik ham rivojlangan. Hunarmandchilikning ko‘p turlari rivojlangan. Qo‘rg‘oshin, la‘l, lojuvard, oltin qazib chiqarilgan. Buxoro hunarmandlari tayyorlagan buyumlar Moskva, Sibir, Eron, Xitoy, Hindiston, hatto G‘arbiy Yevropada

¹Ўзбекистон тарихи. – Т., 1994.

²Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – 51–53-б.

³История Узбекистана. Т. 3. – Т., 1993. – С. 71–74.

sotilgan. Shu bilan birga, mamlakatda islom ruhoniylarining nufuzi oshib bordi. Bu davrda mamlakat ta'lim tizimida islohot amalga oshirilib, 26 yillik ta'lim joriy qilindi. Bolalar 6 yoshdan ikki yil arab alifbosiga, so'ng uch bosqichda sakkiz yildan o'qitilgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Buxoro amirligi tarkibiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Turkmanistonning Murg'obgacha bo'lgan qismi, Tojikistonning ayrim yerlari, shimolda Turkistongacha bo'lgan yerlar kirgan. Aholisi 2 million kishi bo'lib, 90% qishloqlarda yashagan.

Bizga ma'lumki, Xorazm 1511 yilda Shayboniylardan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Bu davrda Xiva xonligida asosan qadimiy xorazmliklarning avlodlari, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi turkmanlar, Dashti Qipchoqdan Elbarsxon bilan birga ko'chib kelgan o'zbek urug'lari, shuningdek qozoqlar va qoraqalpoqlar yashar edilar¹.

XVI asrda Xiva hali kuchli markazlashgan davlat emas edi. Davlat xon avlodiga tegishli bo'lib, urug'chilik asoratlari kuchli bo'lgan. Viloyat va shaharlarga xon avlodlari hokimlik qilgan. Xiva xonligining ma'muriy tuzumi juda murakkab edi². Xonning huquqi cheklanmagan. Davlatni boshqarish uchun devon (vazirlik) tashkil qilingan. Xondan keyin yuqori lavozim vazir (mehtar) va qushbegi bo'lgan. Bular bilan bir qatorda, maslahatchilar (inoqlar) 5 kishi, qabila oqsoqollaridan ikki va undan ortiq otaliqlar, qozi, rais, yasovul va boshqa mansablar mavjud bo'lgan. Shaharlarni hokimlar, yuz boshi va oqsoqollar idora qilganlar. Xiva xonining qo'shini, asosan, otliq askarlardan tashkil topgan bo'lib, unga lashkarboshi qo'mondonlik qilgan. Xiva qo'shini ham Buxoro lashkari singari harbiy qurollanish va taktika jihatidan ancha oqsar edi.

Barcha musulmon mamlakatlarida bo'lganidek, Xivada ham yer davlat (xon) mulki edi. Yerlarning bir qismi foydalanish uchun amaldorlarga berilgan, ular o'z navbatida, yerlarni dehqonlarga ijaraga berganlar. Ijara haqiga esa hosilning deyarli yarmi olingan. Davlat yerlaridan tashqari, xususiy va vaqf yerlari ham bo'lgan. Xonlikdagi soliq tizimi Buxoro amirligi soliq tizimidan uncha ko'p farq qilmagan. Eng og'ir soliqlardan biri yer solig'i bo'lgan. Bundan tashqari, juda ko'p tarqalgan majburiyatlardan biri *begor* bo'lib, unga ko'ra, har bir xonadon 12 kunlik davlat majburiyatini bajarishga bir kishi berishi lozim bo'lgan. Umuman, mehnat majburiyatlarida me'yor bo'lmay, ular 40 kungacha yetgan.

Xiva xonligining iqtisodiy hayotida sug'orishga asoslangan dehqonchilik muhim o'rin egallagan. XVII–XIX asrlar birinchi yarmida bir qancha kanallar (Yangiariq, Toshli Yormish, Arab Muhammad, Shohobod, Qilichniyozbosh va boshq.) qurilgan. Chorvachilik bilan ko'chmanchi elatlar shug'ullanganlar. Shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy etgan. Ichki va tashqi savdo xonlik iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan.

Xonlikning poytaxti Xiva Xorazmning qadimiy shaharlaridan bo'lib, shaharsozlik durdonalaridan biri edi. XIX asrda Xiva butunlay yangidan

¹Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – 406–407-б.

²История Узбекистана. Т. 3. – Т., 1993. – С. 255–256.

qurildi. U Ichan qal'a (ichki) va Dishan qal'a (tashqi) qismlaridan iborat bo'lib, ichki qismida xon qarorgohi joylashgan.

Qo'qon xonligining davlat boshqaruv va ma'muriy tizimi Buxoro va Xiva xonliklaridan deyarli farq qilmagan¹. Xon cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, mutlaq hukmdor hisoblangan. Viloyatlarni bek yoki hokim lavozimidagi amaldorlar boshqarganlar. Xonlikka asoslangan davlat boshqaruvida vazir xondan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Bundan tashqari, qushbegi, otaliq, devonbegi, mingboshi, shayxulislom, qozikalon, parvonachi, inoq, yasovul, oqsoqol va boshqa mansablar bo'lgan. Xonlik 15 ta beklikka bo'lib boshqarilgan. Qo'qon qo'shini XIX asr boshlarida 60 ming kishiga yetgan. Harbiy xizmatni o'tovchilarga tegishli maosh tayinlangan.

Qo'qon xonligida dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo yaxshi rivojlangan. Sug'orish tarmoqlari kengayib borgan. Xonlikda yerning asosiy qismi xonga (davlatga) qarashli amlok yerlar bo'lgan. Amlok yerlar dehqonlarga ijaraga berilgan. Yerning bir qismi esa xususiy yerlar hisoblangan. Xon yerning katta qismini tanho sifatida, soliqlardan ozod qilgan holda, xonlikka sadoqat ko'rsatgan kishilarga xususiy mulk tarzida bergan. Yerlarning katta qismi vaqf mulki hisoblangan².

Xonlikda asosiy soliqlarning bir turi xiroj edi. Ekin ekiladigan yerlardan hosilning 1/5 qismi undirilgan. Ko'chmanchi aholidan zakot solig'i undirilgan. Xon xazinasiga hunarmandlardan ham turli o'lponlar yig'ib olingan. Aholi zimmasiga bir qancha majburiyatlar yuklangan, ya'ni ular qurilish ishlari, sug'orish kanallari qurish, yo'llarini ta'mirlash va boshqa ishlarda qatnashishga majbur etilgan. Hashar eng ko'p tarqalgan majburiyatlardan biri bo'lgan. Bundan tashqari, har bir hukmdor yangi soliq va o'lponlar joriy qilib borgan. Soliq va majburiyatlarning nihoyatda og'irligi mamlakat iqtisodiyotiga juda og'ir ta'sir ko'rsatgan. Soliq yig'ib olishda amaldorlarning o'zboshimchaligi va suiiste'molchiligi dehqonlar va hunarmandlarning xonavayron bo'lishiga, xalq noroziligining ortishiga olib kelar edi. XVIII–XIX asrlarning birinchi yarmida xonliklarda yuz bergan aksariyat xalq g'alayonlarining sababi ham shu edi. Bu harakatlar hukmdorlar tomonidan shafqatsizlarcha bostirilar edi.

Shunday qilib, XVI–XVIII asrlarda 250 yil mobaynida Movarounnahrda dastlab Shayboniylar, so'ng Ashtarxoniylar hukmronlik qildilar. Ashtarxoniylar hukmronligining nihoyasida esa Movarounnahr uchta mustaqil – Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Bu davrda, ya'ni XVI–XVIII asrlarda jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va qolaversa, madaniy hayotda ham umumiy tanglik yuz berdi. Movarounnahrda yagona markazlashgan davlat o'rnida uchta o'zbek xonliklari tashkil topdi. Temur va Temuriylar davrida yaratilgan moddiy va madaniy hayotning orqaga ketishi, o'zaro taxt talashishlar, bosqinchilik urushlari bu davrning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib qoldi. Tashkil topgan uchta o'zbek xonligi o'zaro urushlar, feodal bo'linishlarga barham bera olmadi. Hanuz ko'plab mayda feodal o'lkalar mavjud bo'lib, Xiva

¹O'sha manba. – 209–210-b.

²O'sha manba. – 215–216-b.

xonligining shimoliy qismi, Orol bo‘yi, Shahrisabz, Jizzax, O‘ratepa oralig‘i va boshqa hududlarda mustaqil o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq qabilalari ko‘chib yurardi.

Bu davlatlarda yashovchi 92 ta o‘zbek qabilalarining har biri o‘z yaylov va dalalari, qabila boshlig‘i qarorgohi joylashgan manzilgohlari bo‘lgan muayyan hududlarga ega edi. Qabilalarning ishlab chiqarish usuli ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilikka asoslangan bo‘lib, urug‘-qabila tuzimiga xos xususiyatlar saqlanib qolgan edi. Bu xususiyatlar an‘anaviy madaniy, maishiy turmush tarzi, o‘zini etnik anglash, urf-odatlar va an‘analar, xalqlarning tili, dini, axloq-odobi, milliy qadriyatlari mushtarakligiga qaramay, yirik etnik birliklar tashkil topishiga, ularning yagona bitta xalq bo‘lib birlashishiga xalaqit berar edi. Har bir hukmdor, xon yoki amir faqat o‘zini o‘ylab, xalq, davlat, millat, vatan taqdiriga qayg‘urmadi.

XVI–XIX asrlarda o‘zbek xonliklari ilg‘or Yevropa mamlakatlaridan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va ma‘naviy-madaniy sohalarda ancha orqada qolib ketdi. Bunday ahvol yuz berishiga bir qancha tashqi va ichki omillar sabab bo‘ldi.

Hammamizga ma‘lumki, XV asrning oxiri XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar natijasida XVII–XVIII asrlarga kelib dunyo savdo yo‘llari yo‘nalishining o‘zgarishi O‘rta Osiyoda xalqaro savdo aloqalarining asta-sekin so‘nishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayon Shayboniylar davrida boshlangan bo‘lsa, Ashtarxoniylar hukmronligi davriga kelib, ayniqsa, O‘rta Osiyo davlatlari iqtisodiy hayotiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

XVI–XVIII asrlarga kelib, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida burjua inqiloblari bo‘lib o‘tdi, yangi burjuaziya sinfi va yangi kapitalistik iqtisodiy munosabatlar shakllana boshladi. G‘arbiy Yevropaning bir qator davlatlari (Angliya, Gollandiya, Fransiya va boshqalar) mustamlakalarni shafqatsiz talash va boyliklarni tashib ketish hisobiga dastlabki kapital jamg‘arishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu esa birinchi jamg‘arma hisobiga iqtisodni rivojlantirish uchun poydevor yaratdi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti boshlandi. Nafaqat O‘rta Osiyo davlatlari, balki Osiyoning boshqa davlatlari ham bu jarayonlardan ortda qoldi.

O‘rta asrlarda Osiyo davlatlari kabi bizda ham yerga nisbatan xususiy mulkchilik cheklangan holda rivojlandi. Biz o‘rganayotgan davrda yerga nisbatan mulkchilikning turli shakllari vujudga kelgan bo‘lsa-da (xon va amirlarning davlat mulki, yirik feodallar mulki, vaqf mulki, mayda xususiy mulk, jamoa mulki), yerga nisbatan ko‘proq mayda va jamoa mulkchiligi o‘rnatildi. Savdo-sotiq, tovar-pul munosabatlari shakllanganligi bilan bir qatorda, yarim patriarxal, yarim natural xo‘jalik yuritish, ya‘ni yarim patriarxal munosabatlar taraqqiyotni bir qadar susaytirib qo‘ydi.

Asrlar davomida saqlanib kelgan ishlab chiqarish usuli XVI–XVIII asrlarga kelib sifat jihatidan o‘zgarmadi. U esa iqtisodiy hayotga, u orqali esa butun ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, Turkistonni an‘anaviy turg‘un munosabatlar hukmron bo‘lgan jamiyatga aylantirdi.

O‘zaro urushlar, talon-torojlar, ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, buning natijasida xalqning qashshoq, nochor holga kelib qolishi hurfikrlilikka putur yetkazib, xurofot va diniy mutaasiblik uchun qulay sharoit yaratdi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va san’atga rag‘bat susaydi. Bu esa XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, Turkiston uch davlatga bo‘linib ketganidan keyin ilm-fan, adabiyot, san’at, xususan, tabiiy fanlar chuqur tanazzulga yuz tutdi.

Bizga ma’lumki, VIII asrdan boshlab O‘rta Osiyoda islom dini hukmron mafkuraga aylanib, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, shuningdek iqtisodiy hayotga ham chuqur singib ketgan edi. Iqtisodiy munosabatlar o‘rta asrlar darajasida qolib ketdi, ma’naviy madaniyatning ba’zi sohalarida esa, hatto orqaga chekinish ro‘y berdi. XVI–XVIII asrlardagi ma’naviy hayotga diniy mutaassiblik zararli ta’sir ko‘rsatdi, ijtimoiy-madaniy tafakkurdagi tub yangiliklarni, ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan g‘oyalarni qabul qilmay qo‘ydi. Buning oqibatida o‘zbek xonliklari mahdudlikka berilgan, yangiliklardan yuz o‘girgan yopiq jamiyatga aylandi. Mutaassiblik hukmron mafkura sifatida ma’naviy madaniyat, fan, adabiyot, san’atni nazorat ostiga olib, taqiqlovchi kuch vazifasini o‘tadi, bu esa jamiyatni qoloqlikka mahkum qildi.

O‘zbek xonliklarida XVII–XVIII asrlarda muttasil davom etib kelgan feodal urushlar, Buxoro – Xiva, Buxoro – Qo‘qon mojarolari, mustaqillikka intilgan viloyat hokimlari va qabila zodagonlariga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar, chet el bosqinchilarining o‘zbek xonliklari hududlariga tajovuzlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotni butunlay izdan chiqardi. Bu davrga kelib, o‘zbek qabilalari va urug‘lari sonining ko‘payishi, qabila boshliqlarining yirik zamindorlarga aylanishi, ularning markaziy hokimiyatni inkor etib, mustaqillikka intilishi, xonliklardagi qabilaviy va etnik nizolar mamlakatdagi tanazzulni yanada chuqurlashtirdi. Viloyatlar hokimligiga, an’anaga muvofiq, sulola vakillari emas, qabila amirlarining tayinlanishi davlatning parchalanishiga va inqiroziga olib kelgan separatistik harakatlarni kuchaytirib yubordi. O‘zbek xonliklari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning izdan chiqishi, savdo va hunarmandchilikdagi inqiroz ishlab chiqarish va iste’mol hajmining kamayishiga olib keldiki, bu umumiy inqirozni kuchaytirgan omillardan biri bo‘ldi.

Yagona markazlashgan davlat, kuchli hokimiyat, siyosiy barqarorlik, milliy birlik va ahillikning yo‘qligi tashqi dushmanlarga ham qo‘l keldi. Rossiya imperiyasi Turkiston yerlariga bostirib kirishga tayyorlana boshladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakat katta iqtisodiy, madaniy, ma’naviy imkoniyatlarga qanchalik ega bo‘lmasin, siyosiy tarqoqlik, mahalliychilik, boshboshdoqlik, diniy mutaassiblik, etnik guruhbozlik, o‘zaro feodal urushlar mamlakat va davlatning kuch-qudratini parchalab, zaiflashtirib yubordi. Oqibatda Turkiston taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tish uchun mustamlakachilik azobi va xo‘rligini boshdan kechirishga majbur bo‘ldi.

8-ma'ruza
**CHOR ROSSIASINING TURKISTONDA YURITGAN
MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI**

1. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Markaziy Osiyo hududida joylashgan o'zbek xonliklarida murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kela boshladi. Bu vaziyat, birinchidan, xonliklarning ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari bilan belgilansa, ikkinchidan, tashqi dunyo, ya'ni chor Rossiyasi va Buyuk Britaniya imperiyalarining bu xonliklarni o'z ta'sir doirasiga tortish uchun qilgan xatti-harakatlari bilan bog'liq edi.

Davlatlarga, birinchi navbatda, siyosiy barqarorlikning yo'qligi xos edi. Bunga viloyatlar bilan markaziy hokimiyat o'rtasidagi kelishmovchiliklar, hukmdor sulolalarning taxt uchun beto'xtov kurashlar olib borishi ta'sir qilardi. Masalan, Qo'qon xonligi e'lon qilingan vaqtdan boshlab, taxminan 150 yil ichida bu yerda 24 marta xon almashti. Ulardan 7 nafari o'ldirilgan, 7 nafari majburan taxtdan chetlatilgan, 6 nafari bir yilgina hukmronlik qilgan¹.

Xonliklardagi vaziyatning og'irlashuviga ularning o'zaro munosabatlaridagi kelishmovchiliklar sabab bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda, XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi Buxoro sarhadlariga to'rt marta hujum qilib, o'z hududini kengaytirgan. Xiva xonligi esa Buxoroga besh marta tajovuz uyushtirgan. Shu davrda Buxoro xonligi qo'shni davlatlarga ikki marta hujum qilgan.

Xonliklarning o'z qobig'iga o'ralib qolishi, manmanlik va ehtirosga berilib, tashqi dunyodan ajralib qolishi, undagi siyosiy, iqtisodiy jarayonlardan o'z vaqtida voqif bo'lmasliklari, dushmanning kuch-qudratini mensimasliklari mamlakat muhofazasiga e'tiborsizlik bilan qarashga olib keldi. Ular hatto dushmanning xuruji kuchayayotgan vaqtda ham birlasha olmadilar. Masalan, Rossiya Qo'qon xonligiga tahdid solayotgan davrda xonlik elchilari Rossiyaga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan Xivada uch marta bo'ldilar. Lekin Xiva xoni turli sabab va bahonalarni ro'kach qilib, bunga rozilik bermadi².

O'zbek xonliklari imperialistik davlatlarni, jumladan Buyuk Britaniya va Rossiyani, birinchi navbatda, o'zining moddiy boyliklari, arzon ish kuchi, qo'shimcha bozor ekanligi va turli boshqa imkoniyatlarining mavjudligi bilan o'ziga tortar edi.

Xususan, Angliyaning o'zbek xonliklariga munosabatiga kelsak, sobiq sovet davrida bu borada shunday fikr aksioma sifatida qabul qilingan edi. Emishki, agar O'rta Osiyo davlatlari Rossiya tomonidan «qo'shib olinmasa»,

¹ Бобобеков Х. Тарихимиздаги қонли излар // Абу Тоҳирхожа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. – Т., 1991. – 268–273-б.

² Qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т., 2000. – 62–63, 93–95-б.

bu hudud ashaddiy mustamlakachi davlat – Angliyaga qaram bo‘lib qolishi va xalqlarning yanada ko‘proq ezilishi muqarrar ekan. Biz bu fikrga qo‘shila olmaymiz.

To‘g‘ri, Angliyaning O‘rta Osiyodan ko‘zlagan manfaatlari katta edi, ya‘ni uning bu hududni ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan o‘ziga tobe qilish maqsadi ham bo‘lgan. U o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qildi. Lekin maqsadni faqat bosib olish orqaligina amalga oshirish mumkinmi? Boshqa yo‘llar ham mavjud-ku.

Masalan, Rossiyaning Qo‘qon va Xiva xonliklarini bosib olish rejalaridan xabar topgan Angliya Buxoro, Xiva va Qo‘qonga o‘z emissarlarini yuborib, ularni birlashtirishga, hech bo‘lmasa, Rossiyadan birgalikda muhofazalanish uchun bitim tuzishga da‘vat qilgan¹. Sababi, Angliyaga o‘z mustamlakalarini Rossiyadan himoya qilishni yengillashtiradigan, o‘rtada mustahkam to‘siq bo‘ladigan kuchli davlat kerak edi.

Afsuski, o‘sha paytda O‘rta Osiyodagi davlat boshliqlarida Angliyaning takliflaridan o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanishda donolik yetishmadi, ularga o‘zaro adovat, manmansirash, dushmanni mensimaslik xalal berdi. Oqibatda Rossiyaning xonliklarni oldinma-ketin bosib olishi uchun imkoniyat tug‘ildi.

Xo‘sh, Rossiyaning o‘zbek xonliklariga munosabati qanday edi?

O‘rta Osiyo hududi o‘zining moddiy boyliklari bilan Rossiyani ko‘p vaqtdan buyon o‘ziga jalb qilib kelardi, lekin o‘zbek xonliklarini bosib olish Rossiyada amaliy muammo sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kun tartibiga qo‘yila boshladi. Chunki avvallari iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlaridan ortda qolib kelgan Rossiya sanoati va u bilan bog‘liq sarmoyadorlik shu davrga kelib ildam odimlar bilan rivojlana boshladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, chor hukumati oldiga bir qancha muammolarni qo‘ydi.

Tabiiyki, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini sotish uchun bozor kerak. Rivojlangan mamlakatlar Rossiya tovarlarining Yevropaga kirib kelishidan manfaatdor emas edilar, shu bois bunga qarshilik ko‘rsatardilar. Ayni paytda Rossiya tovarlari ham sifati pastligi uchun raqobatga dosh berolmasdi. Shu sababli Rossiya bozorni boshqa mintaqalardan, kam taraqqiy etgan mintaqalardan izlashi kerak edi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo mamlakatlari shu ehtiyojni qondirishi mumkin edi. Boz ustiga, Buyuk Britaniyaning o‘z mustamlakalari orqali sekin-asta O‘rta Osiyo bozorlarini ham egallay boshlayotganligi Rossiyani tashvishga solmay qolmasdi.

XIX asr oxiriga kelib Rossiyaning tez rivojlanib borayotgan sanoati, ayniqsa, yengil sanoat tobora ko‘proq yangi xomashyo zaxiralariga ehtiyoj seza boshladi. Vujudga kelgan vaziyatning keskinlashuviga, jumladan AQSHdagi fuqarolar urushi tufayli u yerdan Rossiyaning to‘qimachilik sanoati uchun xarid qilinadigan paxta hajmining bir necha barobar kamayishi

¹ Bu fikrga boshqa bir qancha olimlar ham qo‘shilgan. Qarang: *Бобобеков Х. Мустақиллик ва ифвогарлик // Фан ва турмуш. – 1992. – № 11–12. – 3-б.*

va xarid narxlarining besh barobar oshib ketishi ham sabab bo'ldi¹. Bu hol Rossiya sarmoyadorlarini tashvishga solib qo'ydi. Ularning nufuzli vakillari ushbu muammoni hal qilish vazifasini hukumat oldiga qat'iyat bilan qo'ya boshladilar.

Keltirilgan asoslardan Rossiya xomashyo muammosini faqat O'rta Osiyoni bosib olish yo'li bilangina hal qilishi mumkin edi, degan xulosaga kelmaslik kerak.

Tahlil qilinayotgan davrda Rossiyaning oldida yana bir muammo – Rossiya flotining Angliya hukmronlik qilayotgan Qora va O'rta dengizlarga erkin chiqish masalasi ko'ndalang turardi. Bu mintaqalarda Rossiya to'g'ridan-to'g'ri raqobatga dosh berolmasdi. Shu bois Rossiya Angliyaga tazyiq o'tkazadigan boshqa hududni izlashiga to'g'ri kelgan. Angliya mustamlakalarining qo'shnilari bo'lmish O'rta Osiyo xonliklari ana shunday vosita bo'lib xizmat qilishlari mumkin edi. Rossiya ularning hududlarini egallab, Angliya mustamlakalariga tahdid solishga va Angliyani Yevropada biroz bo'lsa-da yon berishga majbur qila olar edi. Sanab o'tilgan muammolar albatta hal qilinishi kerak edi.

Yuqorida biz, asosan, ikki buyuk davlatning manfaatlari haqida so'z yuritdik, lekin bu yerda uchinchi tomon – O'rta Osiyo xonliklari xalqlarining manfaatlari ham borligi raqobat qilayotgan tomonlarni qiziqtirmas edi. Imperialistlar faqat o'z foydalarini ko'zlar va bu yo'lda barcha usullarni qo'llashga tayyor edilar. Chor Rossiyasining hukumati reaksiyon guruhlarning ta'sirida ko'plab qon to'kilishiga olib keladigan talonchilik, bosqinchilik urushi yo'lini tanladi. Ushbu jarayon bir qancha o'quv qo'llanmalari, tarixiy va ilmiy adabiyotda batafsil yoritilganligi bois, bu urushning barcha tafsilotlarini bayon qilishni lozim topmasdan, uning mohiyati, maqsadi, bosqichlari va yakunlariga e'tibor qaratmoqchimiz.

Chor Rossiyasi Qo'qon xonligi tasarrufiga kirgan Oq machitni 1853 yilda egallagan bo'lishiga qaramay, urush, asosan, 1964 yilda Avliyoota (hozirgi Jambul) va Chimkentni bosib olishdan boshlandi.

Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olish jarayonidagi asosiy davrlar quyidagilar:

1864 yilda – Avliyoota va Chimkent egallandi;

1865 yilda – Toshkent bosib olindi;

1868 yilda – Buxoro amirligi taslim bo'ldi;

1873 yilda – Xiva xonligi bo'ysundirildi;

1876 yilda – Qo'qon xonligi tugatildi;

1885 yilda – Turkmanistonning bir qancha shaharlari egallandi;

1895 yilga kelib O'rta Osiyoning hozirgi Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh sarhadlari to'liq zabt etildi.

Mustamlakachi Rossiya davlati o'zining qirg'inbarot harbiy yurishlarini xaspo'shlash uchun O'rta Osiyo xalqlarining Rossiyaga o'z ixtiyorlari bilan qo'shilganligini, urushda qurbonlar kam bo'lganligini isbotlash, bosib olingan davlatlarning mustaqilligi saqlab qolinganligi, ulardagi xalqlarning mustabid

¹ Qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – 229–230-б.

tuzumdan ozod qilinganligi haqidagi nayranglarni o'ziga qurol qilib olganligi va targ'ibot qilganligini nazarda tutib, e'tiborni urushning asl maqsadi va mohiyatini ochib berishga qaratmoqchimiz.

Har qanday urushda bo'lganidek, Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklarining to'qnashuvida ham o'sha davrda mavjud bo'lgan qo'shinning barcha turlari va qurol-yarog'ning to'la majmui ishtirok etdi, ikkala tomondan ham ko'p qon to'kildi, ya'ni haqiqiy qirg'inbarot urush bo'ldi. Rossiya armiyasi bosqinchilikning barcha ko'rinishlarini namoyon qildi.

Fikrimizning tasdig'i uchun ba'zi misollarni keltiramiz. Xivani zabt etishda Rossiya tomonidan 56 ta to'p bilan qurollangan 9 mingdan ortiq harbiylar qatnashdilar¹, qarshi tomondan bundan ham ko'proq odam qatnashgan. Samarqandni egallashga qaratilgan yurishda Rossiya tomonidan taxminan 2,5 ming nafar askar va 10 ta to'p qatnashdi². Urushda halok bo'lganlarning, ayniqsa, himoyachilarning soni nihoyatda ko'pligi kishini dahshatga soladi. Masalan, Chimkentda 12 ming, Toshkentda 8 ming, Xo'jandda 5 ming, Jizzaxda 3 ming nafar himoyachi halok bo'lgan³. Umuman olganda, deyarli 20 yil davom etgan urushda mahalliy aholining qanchasi qirilib ketganligini faqat taxmin qilish mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlar, tarixiy manbalarda bayon qilingan tafsilotlarga asoslanib, chor Rossiyasining o'zbek xonliklariga qarshi olib borgan urushlarini faqat bir ma'noda, ya'ni imperializm davriga xos bosqinchilik, talonchilik urushi deb ta'riflash mumkin.

Bir vaqtlar, ayniqsa, Amir Temur hukmronligi davrida butun dunyoga hukmini o'tkazishga qurbi yetgan davlat nima uchun Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi davriga kelib, xalqning qahramonona qarshiligiga qaramay, fojiali ravishda mag'lubiyatga uchradi, degan savolning tug'ilishi, tabiiy.

O'rta Osiyo xonliklari mag'lubiyatga uchrashining asosiy sababi Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining jahondagi umumiy taraqqiyotdan chetda qolib ketganligidir. Bu xonliklardagi feodal munosabatlarga asoslangan tuzum xurofotni qurol qilib olgan ruhoniylar ta'sirida ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sharoit yaratmadi. Albatta, bu hol armiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmas edi. Masalan, Buxoro amirligida umumiy safarbarlik e'lon qilingan davrda askarlarning soni 100 ming nafargacha yetardi. Ammo u ramziy ma'nodagina lashkar edi. Ularning asosiy qismi uchiga temir nayza qadalgan oddiy tayoq yoki ilg'or mamlakatlarda allaqachon foydalanilmay qolgan pilta multiqlar bilan qurollangan bo'lib, uni yondirish va otish uchun bir hokandoz cho'g' bo'lishi shart edi. Ahmad Donishning yozishicha, lashkarning o'zi harbiy mashqlarni yaxshi o'zlashtirmagan va urush maydonini ko'rmagan bezori va sayoq kishilardan tashkil topgan edi⁴. Aks holda, 1866 yil 22 mayda Oqjarda 10

¹ Qarang: *Зиёев Х.* Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т., 1998. – 314-б.

² Qarang: *Ҳасаний М.* Туркистон босқини. – Т., 1992. – 30-б.

³ Qarang: *Ўзбекистон халқлари тарихи.* Т. 2. – Т., 1993. – 106–108-б.

⁴ Qarang: *Зиёев Х.* Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – 222, 223-б.

ming nafarlik Buxoro armiyasining 2 ming nafarlik rus harbiylari bilan birinchi to'qnashuvdayoq qaqshatqich zarbaga uchrab, 5 ming himoyachining halok bo'lganligini nima bilan izohlash mumkin¹.

Buning teskarisi o'laroq, Rossiyaning bir qancha urushlarda chiniqqan, mustahkam tartib-intizomga bo'ysungan muntazam armiyasi zamonaviy qurol-yarog'larga ega edi. Shuning uchun ham u son jihatdan o'zidan ancha ustun bo'lgan himoyachilar ustidan g'alabalarga erishdi.

O'zbek xonliklari Rossiyadan mag'lubiyatga uchrashining yana bir sababi ular orasida birdamlikning yo'qligi va bir-biriga nisbatan xoinligidir. Yuqorida biz Xiva xonining Qo'qon xonligi takliflariga munosabatini bayon qilgan edik. Xuddi shunday munosabatni Rossiya Buxoro amirligiga qarshi hujum boshlaganda Qo'qon xoni Xudoyorxon ham namoyon qildi. U o'zining rahnamosi amir Muzaffarning Rossiyaga qarshi birgalikda harakat qilish haqidagi taklifini qabul qilishga shoshilmadi.

Aslida buning aksi bo'ldi. Amir Muzaffar Kaufmanga Rossiyaning Xivaga qarshi yurishiga munosabatini shunday bayon qildi: «Men yaxshi tushunamanki, agar Xiva Rossiya bilan to'g'ri munosabatda bo'lmasa, u vaqtda unga (Xivaga. – E. A.) qarshi qurol ishlatishga to'g'ri keladi. Bunday hol yuz bersa, men imkoni boricha bu yordamimni amalda ko'rsatishga tayyorman»².

Afsuski, o'sha paytda O'rta Osiyodagi birona davlatda Amir Temur kabi farosatli, oqil, tadbirkor yurtboshi topilmadi. Aks holda, Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqichma-bosqich kirib kelishidan hech bir davlat rahbarining xulosa chiqarmaganligini nima bilan izohlash mumkin? Axir Rossiya armiyasining kuch-qudrati, qurol-yarog'ining mukammalligi barchaga ma'lum edi-ku. O'zaro urushlar, tortishuvlar, taxtga egalik qilish uchun kurashlar hukmdorlarning e'tiborini asosiy masalalardan chetga tortdi, xalq xo'jaligining yangi sifatga, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi darajasiga chiqishiga, iqtisodiyotning Yevropa darajasiga yaqinlashishiga imkon bermadi. Hukmdorlarning manmansirashlari oxir-oqibatda ularning haqiqiy vaziyatni ko'rmasligiga olib keldi.

Bunday beparvoliklar Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi bevosita urush olib borayotganida ham davom etdi. Ushbu fikrga quyidagilar dalil bo'la oladi: 1864–1865 yillarda Qo'qon xonligi o'zining Avliyoota, Chimkent, Toshkent va boshqa muhim viloyatlaridan ayrilib, 1868 yilda Rossiyaning haqoratomuz shartnomasiga imzo chekishga majbur bo'ldi. Ammo bu kamsitish unga hech qanday saboq bo'lmadi.

Shoir va tarixchi Is'hoqxon Junaydullohoji o'g'li Ibratning yozishicha, Xudoyorxon Rossiyadan xotirjam bo'lib, vaqtini o'yin-kulgi bilan o'tkazdi, ov va ko'pkari chopish bilan shug'ullandi, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru zulm tarqatdi va xalqni o'zidan yuz o'girishga majbur qildi³. Ibrat Qo'qon xonligining Rossiyaga bo'ysundirilishini «behuda fasod

¹ O'sha joyda. – 126, 321-b.

² O'sha joyda. – 321-b.

³ Qarang: *Абу Тоҳирхожа*. Самария. *Наршахий*. Бухоро тарихи. *Баёний*. Шажараи Хоразмшоҳий. *Ибрат*. Фарғона тарихи. – 310-б.

ishlar», aholi o'rtasidagi «beilm va befikrlilik» bilan izohlaydi¹.

Chor armiyasi tomonidan qay bir shahar egallanmasin – Toshkent, Samarqand, Xiva yoki boshqami – eng tashvishli davrlarda shaharlarni himoya qilish bilan uni ixtiyoriy topshirish tarafdorlari o'rtasida ixtilof chiqqan. Fikrimizni tasdiqlash uchun istilochilar bosib olishi arafasida Samarqandda vujudga kelgan vaziyatni misol sifatida keltiramiz.

«Dushmanlarga qarshi kurash tarafdorlari madrasalarda to'planib, xalq o'rtasida tashviqotni yanada kuchaytirdilar. Xalq o'rtasida yaqinlashib kelayotgan yovga qarshilik ko'rsatishga chaqiruvchilar va dushman bilan bitim tuzishni istayotganlar o'rtasida ixtilof kuchayib bordi. Voqeaning bunday rivojlanib borayotganligi va bu gaplar istilochilarning ham quloqlariga yetib borishidan juda qo'rqqan shahar hukmdori Sherali Inoq, qozikalon va boshqa amaldorlar dindorlardan yovga qarshi kurashni tashviqot qilishni to'xtatishni talab qildi. Buni eshitgan dindorlar qattiq g'azablандilar va Sherali Inoqning vakillarini kaltakladilar. Dindorlarning bu ishidan g'azablangan Sherali Inoq ularning «ko'zini ochib» qo'yish maqsadida dindorlar to'plangan Tillakori madrasasiga qurollangan lashkar jo'natdi. Ikki o'rtada janjal chiqdi, bir qancha odamlar jon beradi. Natijada fon Kaufman Samarqandga qurol ishlatmasdan kirib keldi»². Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Xonliklar mag'lubiyatining sabablari mafkuraviy sohadan ham izlanishi kerak. Xalqni dushmanga qarshi birlashtirishi mumkin bo'lgan g'oyani yaratish borasidagi harakatlar haqida so'z ham yo'q edi. Aksincha, tinchlik davrida aholining hokimiyat uchun kurashga jalb qilinishi «Vatan», «millat» kabi g'oya va tushunchalarning shakllanishiga putur yetkazdi. Boz ustiga, mutaassiblikni qurol qilib olgan ko'pchilik ruhoniylar o'zlarining asosiy vazifalarini, ya'ni yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalash va ularni bosqinchilarga qarshi kurash zarurati oldida birlashtirishni eplay olmadilar, ba'zida esa o'zlarining shaxsiy manfaatlaridan yuqori ko'tarilolmadilar.

Rossiyaning o'zbek xonliklarini bosib olishi mudhish oqibatlariga olib keldi. Qo'qon xonligi umuman tugatilgan bo'lsa, Buxoro va Xiva xonliklari bosqinchi davlatning vassaliga aylandi. Fikrimizni asoslash uchun 1973 yilda Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasida tuzilgan shartnomaning ba'zi jihatlarini eslatib o'tmoqchimiz. Shartnomaga ko'ra, xon Rossiya imperatorining itoatli xizmatkori ekanligini tan olib, O'rta Osiyodagi oliy rus ma'muriyatining ruxsatisiz shartnomalar tuzmaydigan, rus savdogarlari barcha bojlardan ozod etiladigan, xonlik hukumati Rossiyadan o'zboshimchalik bilan keluvchilarni qabul qilmaslikni va rus jinoyatchilarini tutib topshirishni o'z zimmasiga oladigan bo'ldi va h.k.³.

Bundan tashqari, shartnomaga ko'ra, mag'lubiyatga uchragan Buxoro amirligi 125 ming tilla pul hisobida, Xiva xonligi 2 mln. so'm miqdorida

¹ O'sha joyda. – 313-b.

² Бердимуродов А. Тажовуз // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993. – 28-сон.

³ Qarang: Зуёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Т., 1998. – 330, 331-б.

Rossiyaga tovon to‘lashga majbur bo‘lgan¹. Albatta, tovon to‘lash busiz ham og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy hayot kechirayotgan mehnatkash xalqning boshiga qo‘shimcha kulfatlar keltirdi.

Katta fojialardan yana biri shunda ediki, mamlakatning bosib olinishi natijasida mahalliy xalqlar o‘z jonlarini Vatan mustaqilligi uchun fido qilgan minglab sof vijdonli, asl farzandlaridan ayrildilar. Xoin, munofiq, sotqin, riyokor, laganbardor kimsalar omon qolib, xalqning ulug‘ tuyg‘ularidan bo‘lgan vatanparvarlikka putur yetdi.

Biz tahlil qilayotgan muammoga yana bir aniqlik kiritish kerak. Aytish mumkinki, bu bosqinchilik urushlari, dunyoni qayta bo‘lish uchun kurashlar ketayotgan davrning mantig‘i edi, Rossiya ham bundan mustasno bo‘lmagan.

Shunday qilib, chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi, maqsad va uslub nuqtai nazaridan, boshqa imperialistik davlatlarning zo‘ravonlik siyosatidan deyarli farq qilmagan. Hududning bosib olinishi o‘lkadagi arzon xomashyo bazasiga egalik qilish, mustabid davlatdagi mulkdorlar manfaatlariga xizmat qildirish maqsadining ro‘yobga chiqarilishi uchun keng yo‘l ochib berdi.

2. Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining mohiyati va maqsadi

Chor Rossiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatiga baho berar ekanmiz, uning mezonini va metodologik asosini aniqlab olishimiz kerak. Albatta, mustabid davlat mustamlakachilik siyosatini yuritish jarayonida bosib olingan hududda qandaydir o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Masalan, sanoat korxonalarini, temir yo‘llar quradi, qishloq xo‘jaligining turli sohalariga e‘tiborni kuchaytiradi va h.k. Ammo ushbu o‘zgarishlar inson omilidan ajratib tahlil qilinadigan bo‘lsa, xato xulosalarga olib kelishi, ya‘ni ular taraqqiyot sifatida baholanishi mumkin.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli bir qancha tarixiy jarayonlar va shaxslarga, xususan buyuk davlatlarning mustamlakachilik siyosatiga ham munosabat o‘zgardi. Shu bois respublikamiz Prezidenti o‘z asarlarida mustamlakachilik siyosatining mohiyatini belgilaydigan bir necha mezonlarni asoslab berdi.

*Birinchi*dan, ba‘zi mualliflarning fikrlaricha, yirik imperiyalar boshqa mamlakatlar va xalqlarni bosib olganlari hamda bo‘ysundirganlari holda, umumjahon taraqqiyotidan orqada qolgan mamlakatlarda muayyan darajada ma‘rifatchilik vazifasini ham ado etib kelganlar. «Bunga qo‘shilmaslik mumkin emas. Lekin buyuk imperiyalar bilan kam sonli xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonining salbiy jihatlari ham bo‘lgan. Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan sivilizatsiya natijalaridan ko‘ra bir necha baravar ortiq edi»². Demak, mustamlakachilik siyosatiga baho berganda,

¹ O‘sha joyda. – 270, 331-b.

² *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – 67-б.

uning natijasini taroziga qo'yib, ijobiy va salbiy tomonlarini qiyoslash lozim. Aminmizki, uning salbiy tomonlari Prezident I. Karimov aytganidek, bir necha marta ortiq bo'lishi muqarrar.

Ikkinchidan, chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati misolida qaraganda, «Markaziy Osiyoning infrastrukturasidagi o'zgarishlar, yo'l qurilishi va kommunikatsiyalarning rivojlantirilishi, ana shu maqsadlar uchun imperiyaga xizmat qiluvchi milliy kadrlarni tayyorlash – bularning barchasi imperiyaning manfaatlarini qondirganligi, bu holda arzon xomashyo va energiya manbalaridan bahramand bo'lishni kafolatlashi kerak bo'lganligi uchungina amalga oshirilgan»¹. Boshqacha aytganda, mustamlakachi davlatning amalga oshirayotgan chora-tadbirlarini ular kimning manfaatini ko'zlayotganiga qarab baholash kerak. Shunisi aniq va ravshanki, tadbirlar, birinchi navbatda, mustabid davlatning foydasi uchun o'tkazilgan.

Uchinchidan, «sivilizatsiya zo'rlik bilan joriy qilingani, milliy nafsoniyat va iftixorni kamsitgani, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni toptagani, ularning ifodachilarini jismonan yo'q qilib tashlagani uchun»² mustamlakachilikni hech qanday olijanob niyatlar bilan oqlab bo'lmaydi. Binobarin, sivilizatsiyaning qay usulda (ixtiyoriy yoki majburlab) olib kirilganligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xo'sh, sanab o'tilgan mezonlar va usullarni qo'llagan holda, chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining oqibatlariga qanday baho berish mumkin?

Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib olayotgan davrdayoq uning boy imkoniyatlaridan mustabid davlatning manfaatlari yo'lida foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqa boshladi.

Siyosiy sohada chor Rossiyasi, birinchi navbatda, mahalliy aholini hududni boshqarishdan chetlatish, uni manqurtga aylantirishning choralarni ko'rdi. Ana shu maqsadda boshqa mustabid davlatlardan farqli o'laroq, armiyaning kuchiga asoslangan harbiy hamda fuqarolik boshqaruvi bir shaxs – general-gubernatorning qo'lida birlashtirildi. Turkistondagi butun hokimiyat general-gubernator ixtiyorida bo'lib, u harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, adliya masalalarini va hatto chet ellar bilan bo'ladigan munosabatlarni ham mujassamlantirdiki, bu har qanday demokratiyani inkor qilib, mahalliy xalqni mutelikda saqlab turish, unga nisbatan har qanday, jumladan harbiy kuch ishlatish uchun ham imkon tug'dirdi.

Barcha turdagi ma'muriy bo'linmalar – oblast, uyezd, volost, uchastkalarga general-gubernator tayinlaydigan harbiylarning rahbarlik qilishi tartibi joriy etildi. Natijada, qishloq boshqaruvini hisobga olmaganda, mahalliy xalq boshqaruvdan umuman chetlatildi. Ushbu tartib podsho ma'muriyatining mahalliy xalqqa bo'lgan salbiy munosabatini, uni mensimasligini bildirar edi. Chor Rossiyasi hukumatining mahalliy xalqqa munosabati Farg'ona general-gubernatori P. Ivanoyning «bir ming sart bir o'rus soldati etigining poshnasiga arzimaydi»³ qabilidagi fikrida o'z ifodasini topdi.

¹ O'sha joyda.

² O'sha joyda. – 68-b.

³ *Хасаний М. Туркистон босқини. – 42-б.*

Chor Rossiyasi xalqaro miqyosda bosqinchi nomini olishdan choʻchib, oʻz mavqeini qisman boʻlsa-da saqlab qolish maqsadida, Buxoro va Xiva xonliklarining mustaqilligini rasman tan oldi. Amalda esa xonliklar toʻlaligicha Rossiyaga qaram edi, chunki ular nafaqat oʻzga davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqa oʻrnatishdan mahrum boʻldilar, balki oʻzlarining ichki siyosatidagi oz boʻlsa-da eʼtiborga molik masalalarda ham Rossiya bilan kelishishlari shart edi. Masalan, Qushbegi eski Buxoroda rus filmlarini koʻrsatmaslik, «tansa» uyushtirmaslik masalasini hal qilishni Rossiyaning Buxorodagi vakilidan iltimos qiladi¹.

Xonliklarga nafaqat chet davlatlar bilan munosabatlar oʻrnatish taqiqlab qoʻyildi, balki ular mustaqil davlat sifatida hattoki Rossiyaning oʻzi bilan aloqalar olib bormas edilar. Bu munosabatlar asosan Turkiston general-gubernatorligi, aniqrogʻi, uning Buxorodagi siyosiy agentligi va Xivadagi Amudaryo boʻlimi orqaligina amalga oshirilishi mumkin boʻlgan.

Bundan tashqari, xonliklarda bir qarashda taraqqiyparvarlik, insonparvarlikka yoʻyilishi mumkin boʻlgan bir qancha tadbirlar ham Rossiyaning talabi bilan joriy qilindi. Ular jumlasiga, xususan, qullikni bekor qilish va avvallari muttasil davom etib kelgan xonliklar oʻrtasidagi urushlarni tugatish kiradi. Buning oʻz sabalari bor. Qulchilikni yoʻq qilish haqida Buxoro amirligi va Rossiya oʻrtasidagi shartnomada bu tadbir Rossiya imperiyasi podshohiga yoqish va imperatori aʼzam janoblarning obroʻsini koʻtarish uchun amalga oshirilganligi ochiqdan-ochiq qayd etilgan. Boshqacha aytganda, bu ish rus podshohining «adolatparvar» siyosatini xalqaro miqyosda targʻib qilishga qaratilgan. Toʻgʻri, mazkur siyosat oqibatida bir necha ming qul ozodlikka chiqib, oʻz vatanlariga tarqab ketdi. Ammo chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy xalq iqtisodiy huquqlaridan, milliy manfaatlaridan deyarli mahrum boʻlib, yarim qulga aylanib, azob-uqubatlarining oʻn chandon oshib ketganligi mustamlakachilarni umuman bezovta qilmadi.

Xonliklarning oʻzaro urushlarini tugatishga kelsak, buning ham oʻz mantigʻi bor. Hudud notinch boʻlsa, birinchi navbatda, Rossiyaning iqtisodiy manfaatlariga putur yetishi aniq edi. Ammo ayni paytda Rossiyaning mustamlakachilik siyosati milliy ozodlik kuchlarini harakatga keltirdi va qon toʻkilishi davom etdi. Bir urush ikkinchisi bilan almashtirildi.

Xullas, chor hukumatining siyosiy chora-tadbirlari, avvalo, mahalliy aholini boshqaruvdan chetlatish, uni mustabid davlat maʼmuriyatining irodasiga soʻzsiz boʻysunuvchi manqurtga aylantirishga qaratildi.

Mustabid davlatning *iqtisod borasidagi siyosati* shundoq ham nochor ahvolda hayot kechirayotgan mehnatkash xalqning rus sarmoyadorlari va mahalliy mulkdorlar tomonidan ikki tomonlama ezilishinini kuchaytirdi. Quyidagilar bunga dalil boʻla oladi:

1) Rossiyadan Oʻrta Osiyoga keltiriladigan va olib ketiladigan mahsulot va tovarlarning qiymati solishtirilsa, katta foyda mustabid davlat foydasiga hal boʻlib, farqi deyarli 29 mln. rublni tashkil qilar edi². Agar Rossiyadan,

¹ Qarang: OʻzRMDA. Fond 3. Roʻyxat 2. Yigʻmajild № 600.

² Qarang: История народов Узбекистана. Т. 2. – Т., 1947. – С. 271.

asosan, tayyor mahsulot olib kelinishi hisobga olinsa, bu nisbat yana ham ko'proqni tashkil etadi;

2) dehqonning rus kapitali bilan aloqasini bog'laydigan sudxo'rlik qishloqda tabaqalanish jarayonini tezlashtirdi. O'z yerini, mol-mulkini garovga qo'yib nasiyaga pul olgan ko'pchilik dehqonlar qashshoqlasha boshladilar. 1912 yilga kelib paxtaning asosiy qismini yetishtiradigan Farg'ona viloyatida yersizlar ulushi 30 foizga yetdi;

3) Turkiston dehqonlaridan mustabid davlat hisobiga undiriladigan yer solig'ining miqdori 1870–1880 yillarda ikki barobarga yaqin ko'paydi. Undan tashqari, 1995–1910 yillarda o'tkazilgan kadastrlash (xo'jalik va oilalarni ro'yxatga olish) natijasida sharoitga qarab soliq miqdori 0,7 dan 6 martagacha oshdi¹;

4) shahar aholisining ham ijtimoiy ahvoli yanada mushkullashdi, chunki Rossiyadan keltiriladigan arzon tovarlar hunarmandlarni xonavayron qildi. Ularning ko'pchiligi shaharda ish topolmay qora ishchiga, batrak yoki chorikorga aylandilar. Sanoat korxonalarida ish vaqti 17–18 soat bo'lib, mahalliy ishchilarning kunlik ish haqi ruslarnikidan deyarli ikki baravar kam edi²;

5) qishloq xo'jaligini bir tomonlama, ya'ni Rossiya sarmoyadorlarining manfaatiga moslashtirib, paxtachilikni kengaytirish hisobiga rivojlantirish mahalliy mehnatkashlarni og'ir iqtisodiy ahvolga solib qo'ydi. 1890–1915 yillarda paxta yetishtirish Turkistonda 73 marta ko'paydi. Shu sababli g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish kamayib, ularning bozordagi narxlari muttasil ko'tarilib bordi. Masalan, 1890 yilning boshlarida mahalliy xalqning asosiy yemishi bo'lgan bug'doy unining bahosi 5 marta oshib ketdi³;

6) bir qancha viloyatlarda sug'oriladigan unumdor yerlar turli bahonalar bilan tortib olinib, kelgindi rus krestyanlariga bo'lib berildi, ular yashaydigan alohida qishloqlar tashkil qilindi;

7) mustabid davlat O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligini yuritishning bor imkoniyatlaridan iloji boricha kengroq foydalanishga intildi, lekin bu tarmoqni takomillashtirish, ilg'or texnologiyani qo'llash chora-tadbirlarini ko'rmadi, bu sohaga sarmoya sarflashdan manfaatdor bo'lmadi, aksincha, dehqonlarni qaqshatqich ekspluatatsiya qilishga asoslangan eski feodal uslubni qurol qilib oldi. Umuman, Rossiya hukmron bo'lgan davrda hududda bironta ham ko'zga ko'rinarli sug'orish inshootlari qurilmadi;

8) temir yo'llarning qurilishi hududdagi xomashyo, yer usti va yer osti boyliklarini Rossiyaga tashib ketishni osonlashtirdi. Masalan, 1912 yilda Krasnovodsk va Toshkent orqali temir yo'lda tashilib, Rossiyaga olib chiqib ketilgan tovarlar miqdori 1900 yildagiga nisbatan salkam 8 marta oshdi⁴. Axir buni mahalliy xalq rizqiga tushgan qurt deyish mumkin-ku. Albatta, bu borada O'rta Osiyoga sanoat mahsulotlari temir yo'l orqali keltirilishining

¹ O'sha joyda. – 279-b.

² Qarang: История Узбекской ССР. Т. 2. – Т., 1968. – С. 283.

³ O'sha joyda. – 153-b.

⁴ O'sha joyda. – 151-b.

ahamiyatini tan olish lozim. Ammo keltirilayotgan tovarlar sifat jihatidan jahon bozori talabiga javob bermaganligi uchun Oʻrta Osiyodan boshqa joyda xarid qilinishi amrimahol edi;

9) Rossiya sarmoyadorlari sanoatni rivojlantirishdan umuman manfaatdor boʻlmaganlar. Temir yoʻl qurilishini hisobga olmaganda, 1913–1915 yillarda Turkistonga kiritilgan umumiy sarmoyaning faqat 15 % sanoatni rivojlantirish uchun sarflangan, uning asosiy qismi ham paxta tozalash va moy olishga ajratilgan. Sanoat mahsulotining 80 % paxtaga dastlabki ishlov berish bilan bogʻliq boʻlgan¹. Tabiiyki, bu iqtisodiyotdagi muvozanatning buzilishiga olib kelgan va hududning imperiyaga qaramligini kuchaytirgan.

Shu bilan birga, chor Rossiyasi mahalliy aholining maʼnaviyatini yuksaltirmaslik, ijtimoiy faolligini oshirmaslik, uni oʻrta asrlar jaholatparastligi sharoitida saqlab turish choralari koʻrdi, Rossiya Oʻrta Osiyo xalqlarini iloji boricha jahon taraqqiyoti va madaniyatidan chetda tutishga harakat qildi. Bu fikrni oʻsha davrda Turkistonni boshqarib turgan general-gubernator A. N. Kuropatkin ham tan oldi. U oʻz xotiralarida: «Biz 50 yil tub joy aholini taraqqiyotidan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik»², – degan edi. Aslida, Turkistondagi madrasalarda taʼlim usullarini yangilash, dunyoviy ilmlarni oʻrgatishga eʼtiborni kuchaytirish, taʼlimni Yevropa darajasiga yaqinlashtirish toʻgʻrisida turli siyosiy kuchlar jiddiy takliflar kiritganlar. Ammo ularni amalga oshirishdan chor hukumati manfaatdor boʻlmagan. Buning sababini quyidagi faktlar orqali tushuntirish mumkin, xolos: 1882 yilda Toshkentdagi oʻqituvchilar seminariyasi yigʻilishida uning direktori N. Ostroumov shunday degan: «Agar biz taklif qilingan loyihani qabul etsak, shu choqqacha mudrab yotgan musulmon mutaassibligini uygʻotib yuboramiz va bu bilan koʻksimizda ilon asragan boʻlib chiqamiz. Shu sababli musulmonlarimiz maorifining asosida ularni ruslashtirish... islomni buzish... umuman, diniy jihatlarni buzish... yotmogʻi lozim»³. Shu maqsadda boʻlsa kerak, rus-tuzem maktablari ochila boshlagan. Albatta, bu maktablar mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy oʻrin tutadi deb aytolmaymiz, chunki koʻp millionli Turkiston aholisi uchun ochilgan 105 ta maktab⁴ (1911 yilda) daryodan tomchi edi.

Shu bilan birga, Turkiston harbiy maʼmuriyati jadidchilar tashabbusi bilan paydo boʻlayotgan, mahalliy xalqning turmush tarziga, maʼnaviyatiga mos keladigan yangi uslubdagi maktablarni yopish uchun barcha choralarni koʻrdi.

Taraqqiyot boʻlgan yoki boʻlmaganligini baholashda yana bir axloqiy mezon ham bor va Rossiya Turkistonni bosib olganidan keyin Oʻrta Osiyo xalqlari taraqqiyotga erishdi, deb faraz qilaylik.

U holda shunday savol tugʻiladi: rivojlangan davlat «qoloq» mamlakatni taraqqiyotga erishtirish uchun uni bosib olishi shartmidi? Bizningcha, bosib olish oqibatlarining progressiv ahamiyati toʻgʻrisidagi xulosa axloqiy

¹ Qarang: История народов Узбекистана. Т. 2. – С. – 273–275.

² Sitata manbai: *Хасаний М.* Туркистон босқини. – 39-б.

³ Sitata manbai: *Қосимов Б.* Исмоилбей Гаспрали // *Ўзбегим.* – 151-б.

⁴ Qarang: История народов Узбекистана. Т. 2. – С. 329.

jihatdan ham noto'g'ri, chunki bu bilan biz bosqinchilikni, agressiyani oqlagan bo'lamiz. Xalqlar har qanchalik «qoloq» bo'lmasin, ularning turmush tarzini zo'rlik bilan o'zgartirishning oqibati yaxshi bo'lishi mumkin emas. Bu na xalqaro huquq normalariga, na umuminsoniy qadriyatlarga to'g'ri keladi.

Masalaning axloqiy tomoniga tegishli yana bir jihat bor. Rossiya o'z xohishi bilan bo'lmasa ham, O'rta Osiyo xalqlarini taraqqiyotga yetaklagan, ular tinchligi va osoyishtaligini ta'minlagan bo'lsa, nima uchun mahalliy xalq o'z manfaatini tushunmadi? So'zsiz, u boshiga tushgan fojiani yaxshi tushunib yetdi va ozodlik uchun kurashdi.

Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'z erkinligini, Vatan mustaqilligini saqlab qolish uchun kurashgan, jonini qurbon qilgan xalq farzandlarining xotirasi bugungi kunda hamma uchun muqaddas bo'lishi kerak. Bu xotirani hech qanday mafkura bilan yo'q qilib bo'lmaydi.

Shunday qilib, chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining oqibatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

birinchidan, mahalliy xalqning siyosiy va fuqarolik huquqlari poymol etildi;

ikkinchidan, ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlanib, iqtisodiy muvozanat buzildi va mustabid davlatga qaramlik kuchaydi;

uchinchidan, mahalliy xalqning turmush darajasi pasayib ketdi;

to'rtinchidan, O'rta Osiyo Rossiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi;

beshinchidan, mustamlaka hudud jahon taraqqiyoti va madaniyatidan chetda qoldi.

9-ma'ruza
**TURKISTON XALQLARINING CHORIZM ISTIBDODIGA
QARSHI MILLIY OZODLIK KURASHI.
JADIDCHILIK HARAKATI**

**1. Turkiston xalqlarining chorizm istibdodiga qarshi milliy ozodlik
harakatlari va ularning bosqichlari**

Chor Rossiyasi harbiy yurishlariga qarshi harakatlar Turkiston bosib olinganidan keyin ham to'xtamadi, balki kuchayib bordi. Rossiyaning mahalliy mehnatkashlarni ezish, xo'rlash, iqtisodiy va siyosiy huquqlarini poymol etish, milliy va diniy e'tiqodlarini mensimaslik hisobiga mustabid davlatning qabih niyatlarini amalga oshirishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati tub joy xalqlarining sabr kosasini to'ldirib yubordi va ularning Rossiya istibdodiga qarshi chiqishlariga sababchi bo'ldi.

Bizningcha, Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq qo'zg'olonlarining to'liq bo'lmagan ro'yxati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1875 yilda – Farg'ona vodiysida Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon;

1878 yilda – Farg'ona vodiysida Yetimxon boshchiligidagi qo'zg'olon;

1879 yilda – Farg'ona qo'zg'oloni;

1880 yilda – Xo'jand va O'ratepa qo'zg'olonlari;

1882 yilda – Namangan va O'sh qo'zg'olonlari;

1883 yilda – Chustdagi qo'zg'olon;

1885 yilda – Farg'ona vodiysidagi bir qancha shahar va qishloqlarda bo'lgan qo'zg'olonlar;

1892 yilda – Toshkentdagi «Vabo isyoni»;

1893 yilda – Namangan va Andijondagi qo'zg'olonlar;

1895–1897-yillarda – Farg'ona vodiysining bir qancha shahar va qishloqlaridagi qo'zg'olonlar;

1898 yilda – Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo'zg'oloni;

1905–1907 yillarda – Farg'ona vodiysining bir qancha shahar, qishloqlari va boshqa mintaqalardagi qo'zg'olonlar;

1916 yilda Turkistonning deyarli barcha viloyatlarida, ko'pchilik shahar va qishloqlarida xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi.

Bu qo'zg'olonlar mahalliy xalqning o'z ozodligi yo'lidagi kurashining qamrovi va xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarni bildirishga imkon beradi:

– mahalliy xalqning ozodlik harakati Rossiya Turkistonda hukmronlik qilgan davrda deyarli to'xtamagan;

– qo'zg'olonlar Turkiston general-gubernatorligining barcha hududlariga tarqalib ketgan;

– chor hukumati ma'muriyatining xalq harakatlarini bostirishga qaratilgan chora-tadbirlari ozodlik uchun bo'lgan intilishni so'ndira olmagan.

Buni bosqinchilarning o'zlari ham tan olganlar. Xalq tarixi haqidagi manbalarda Turkiston general-gubernatori A. N. Kuropatkin: «Garchand

O'rta Osiyoda ruslar yarim asrdan ko'proq hukmdorlik qilayotgan bo'lsa-da, ming afsuski, g'ayritabaqalarni (mahalliy aholini. – E. A.) Rossiya imperatorining sodiq xizmatkoriga aylantira olmadi»¹, – deb yozgan.

Har bir qo'zg'olon muayyan hududda yashaydigan aholining hayotida muhim o'rin tutgan, ularning kelib chiqish sabablari, ishtirokchilari, oldiga qo'ygan maqsadlari, yutuq va kamchiliklari bo'yicha umumiy tomonlar va xususiyatlarga egadir. Bu, albatta, tabiiy hol.

Mahalliy mehnatkashlarni qaqshatqich ekspluatatsiya qilish natijasida ular turmush darajasining pasayib ketishi, siyosiy va milliy manfaatlarining inkor qilinishi hamda diniy e'tiqodlariga mensimaslik bilan qarashlarni qo'zg'olonlar kelib chiqishining sabablari deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, har bir qo'zg'olonning kelib chiqishiga turli bahonalar – soliq olishdagi suiiste'molchilik, saylovlardagi o'zboshimchalik, diniy marosimlarni mensimaslik, yerlarni asossiz tortib olish, mardikorlikka majburlab jo'natish turtki bo'lgan. Bu o'rinda sabab mustamlakachilik siyosatining mohiyatidan kelib chiqsa, bahona uning qo'pol, haqoratomuz shakli bilan bog'liq.

Biz ushbu ma'ruzada har bir xalq qo'zg'olonini batafsil tahlil qilish imkoniyatga ega emasmiz. Qolaversa, bu mutaxassis tarixchilarning vazifasiga kiradi. Shu bois, xalq xotirasida qoldirgan izi, qamrab olgan mintaqasining poyoni, ijtimoiy ongga ko'rsatgan ta'siri, fojiali oqibatlari bilan alohida o'rin egallagan Andijon (1898 yil) va Jizzax (1916 yil) qo'zg'olonlariga to'xtalamiz. Ushbu qo'zg'olonlarda mustamlakachilik siyosatining eng qabih, razil, shafqatsiz jihatlari yorqin namoyon bo'ldi.

Andijon (Farg'ona deyilsa o'rinli bo'lardi, chunki u deyarli butun vodiyni larzaga keltirdi) qo'zg'oloniga mingtepalik Muhammad Ali xalifa Sobir so'fi, oddiy qilib aytganda, Muhammadali eshon boshchilik qildi. Xo'sh, Muhammadali eshon kim edi va u nima uchun «Andijon qo'zg'oloniga» rahbarlik qildi? O'sha davrda eshon o'z qishlog'i Mingtepadagina emas, balki Andijon, Marg'ilon, Qo'qon va boshqa joylarda, jumladan qirg'iz elatlarida ham eng e'tiborli, hurmatli inson edi. Bu hurmatning boisi nimada edi, degan savol tug'iladi. Eshon o'qimishli, islom dinining asosiy g'oyalarini mukammal egallagan, Buxoro va Shahrisabzda o'qib, Makka, Hindistonda piru ustodlardan ta'lim olgan shaxs edi. U iqtisodiy baquvvat xo'jalikka ega bo'lib, nazr-niyozlari hisobidan kambag'allar, beva-bechoralarga g'amxo'rlik qilib kelgan. Eshonning 20 ming nafardan ortiq muridlari bo'lgan va ular o'z pirlarining xosiyatlarini tinimsiz targ'ib qilib kelganlar. Olovsiz ovqat pishirishi, bashorat qilishi, ziyorat qiluvchilarning nima olib kelganligini ko'rmasdan turib bilishi singari ba'zi xislatlari eshonni avliyolar qatoriga kiritishlarining sabablari bo'lgan edi. Bundan tashqari, o'sha davrdagi ulamolarning islom diniga e'tiqodi ruhoniylarga bo'lgan hurmatlarida ham ifodalananar edi. Eshonning ana shu katta obro'si uning qo'zg'olonga rahbarlik qilish darajasiga ko'tarilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu o'rinda nima uchun Muhammadali eshon qo'zg'olonga rahbarlik

¹ Sitata manbai: *Хасаний М. Туркистон босқини.* – 40-б.

qilishga rozi bo'ldi ekan, degan savol tug'ilishi mumkin. Eshonning moddiy tarafdin kamchiligi bo'lmagan, katta amal ham eshonga kerak bo'lmagan, deb o'ylaymiz. Shuning uchun qo'zg'olonga rahbarlikni o'z gardaniga olishga shoshilmagan, sustkashlik qilgan, lekin oxir-oqibat bunga rozi bo'lgan. Nazarimizda, buning quyidagi sabablari bo'lgan:

birinchidan, uni bunga g'ayridinlar zulmidan o'z xalqini ozod qilishdek yuksak tuyg'ular yetaklagan;

ikkinchidan, unga mustamlakachi ma'murlarning eshon faoliyatiga shubha bilan qarashlari tufayli yuzaga kelgan ruslarga qarshi adovat tinchlik bermagan;

uchinchidan, haddidan oshgan rus krestyanlarining bedodliklari ustidan mahalliy mehnatkashlarning shikoyatlari ko'payib ketgan;

to'rtinchidan, eshon o'z tarafdorlarining ishonchini oqlamasa, halq e'tiboridan qolishi va moddiy zarar ko'rishini mumkin bo'lgan.

Eshonning zamondoshi Fozilbek Otabek o'g'li «Dukchi eshon voqeasi» kitobida qo'zg'olon boshlanib ketishining quyidagi sabablarini keltiradi:

– ma'muriyat oq podshoning nomini xutbaga qo'shib o'qishga majburlaydi, Qur'ondan kofirlar to'g'risidagi ba'zi oyatlarni chiqarib tashlashga farmoyish qiladi;

– pristavning qayerda bo'lmasin o'tganini beixtiyor ko'rmay qolib o'rnidan turmagan musulmonlar kaltaklandi, qamaldi;

– qora qirg'izlarning yerlari tortib olinib, rus dehqonlariga berildi, o'zlari esa tog'larga haydab yuborildi;

– cho'b, og'iz, tuyoq puli kabi bir qancha jarimalar o'ylab topilib, mehnatkashlarning mollari tortib olindi va h.k¹.

Ushbu sharoitda mahalliy xalqning bardoshi poyoniga yetib, har qanday kichik voqea ham uning mustamlakachilarga qarshi jangga o'tlanishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Lekin eshon rus podshosiga qarshi chiqish ancha qiyin va murakkabligini, unga muayyan tayyorgarlik talab qilinishini tushungan. Shuning uchun u Farg'onaning turli shaharlari va qishloqlari, jumladan Andijon, O'sh, Marg'ilon, Namangandagi eng nufuzli odamlarga maxfiy xatlar jo'natib, milliy g'azot vaqti yetib kelganligini ta'kidladi va birgalikdagi harakatga da'vat qildi. Ma'lum tayyorgarlikdan keyin 1898 yilning 17 mayida Mingtepadan (hozirgi Marhamat tumani) 200 nafar otliq, 300 nafar piyoda eshon boshchiligida Andijonga yurish boshlaydi. Qo'zg'olonchilar shahardagi harbiy garnizonga hujum qilib, 23 ta askarni o'ldiradilar, 24 tasi yarador qilinib, 30 ta miltiq o'lja olinadi.

Eshonning harakatini Quva, Asaka, Shahrixon, Aravan qishloqlari, O'sh, Marg'ilon, Namangan shaharlari aholisi quvvatlaydilar. Biroq tez orada o'ziga kelgan chor hukumati ma'muriyati isyonchilardan qonli o'ch oldi, ulardan 6 kishi dorga osildi, 374 kishi otildi, 351 kishi turli muddatlarga qamaldi, 15 kishi oilasi bilan Sibirga surgun qilindi. Bir qancha qishloqlar, jumladan eshonning qishlog'i Mingtepa, isyonchilar chiqib ketgan bo'lishiga qaramay, uch kun o'qqa tutilib, yer bilan yakson qilindi; tekislanib rus dehqonlariga bo'lib berildi; masjidlarni buzib, o'rniga cherkov qurish haqida

¹ Qarang: *Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси.* – Т., 1992. – 30–31-б.

farmon berildi.

Yuqorida zikr qilingan kitobda qo'zg'olonidan keyingi vaziyat shunday tasvirlanadi: «O'sha vaqtda kimligidan qat'i nazar oq to'ppi kiygan bo'lsa, istibdod soldatlari «Seniki eshon», deb tutub urar edi. Yoki salla o'rab, soqol qo'ygan kishi uchrasa, uni albatta Yikchi eshonning muridi gumon qilinib, tutib, so'roqsiz qamar edi. Mingboshilarning dunyoparastligi qo'zg'olib, shaharda kimning joyi bo'lsa, kechasi chaqirib borib: «Seni tutib beraman, eshonning hovlisiga borgan eding» deb siyosat qilib, bor-yo'g'ini olardilar. Poraxo'rlik amaldorlar ichida nihoyat avj oldi»¹.

Xo'sh, qo'zg'olon g'alaba bilan tugashi mumkinmidi? O'sha sharoitda yo'q. Biroq bundan xalq isyon qilmasligi kerak edi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Qo'zg'olon ayrim shaxslarning irodasiga bog'liq bo'lmay, sabr kosasi to'lgan xalqning tug'yoni edi. Ammo qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish davrida va uning jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar, xoinliklar bo'lmaganda, natija boshqacharoq ham bo'lishi mumkin edi. Ular quyidagilardan iborat edi:

– qo'zg'olonning eng mas'uliyatli, boshlang'ich davrida xalqni ko'tarishga qurbi yetadigan e'tiborli odamlar o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab chetga chiqib oldilar;

– asosiy kuchlar, ayniqsa, qirg'izlarni bir yerga to'plamasdan isyon boshlab yuborildi (oxirgi vaqtdagi izlanishlar bunda chor ma'muriyati maxsus xizmatining qo'li borligini isbotlamoqda);

– eshon boshlagan ishini oxiriga yetkazish o'rniga kazarmaga hujum qiladi-yu, keyin Andijonni tashlab chiqib ketadi. Agar eshon o'z odamlari bilan shaharda ertalab soat 8–10 largacha turganida edi, balki bundan xabar topgan va Rossiya hukumatining zulmidan bezor bo'lgan shahar aholisi qo'zg'olonga qo'shilib ketishi ehtimoldan xoli emas edi. Aslida, xalq eshonning harakatlaridan xabardor bo'lganda vaqt o'tgan edi;

– agar eshonning yozishmalari chor ma'muriyati qo'lga tushmay o'z vaqtida ishonchli joyga yashirilganida yoki yo'qotilganida, ko'p odamlarning boshi omon qolar edi;

– eshonni boylikka hirs qo'ygan, vijdonini sotgan, xoin mahalliy amalparastlar tutib berdilar;

– xalqimizning siyosiy ongi yetarli darajada shakllanmagan edi, islom dini esa millatni birlashtiruvchi mafkura vazifasini bajara olmadi, undan boshqa siyosiy kuch esa yo'q edi.

Lekin sanab o'tilgan kamchiliklar Andijon qo'zg'olonining siyosiy ahamiyatini sira kamaytira olmaydi.

Qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrashi muqarrar edi. Ammo to'kilgan qonlar zoye ketmadi: chorizm tuzumining xalqqa mutlaqo begona, qonxo'r tuzum ekanligini namoyish etdi. Ikkinchidan, u taraqqiyparvar milliy ziyolilar va ruhoniylarning ko'zini ochdi. Ular Vatanning istiqlolga erishishi uchun xalqni zamonaviy ijtimoiy bilimlar bilan qurollantirish va uni siyosiy jihatdan birlashtirish zarurligini tushunib yetdilar. Muhammadali eshon esa, barcha kamchiliklari va xatolaridan qat'i nazar, zulmga qarshi bosh ko'targan

¹ O'sha joyda. – 31-b.

qahramon sifatida xalq xotirasida saqlanib qoladi.

Endi Jizzax qo'zg'oloniga to'xtaladigan bo'lsak, u 1916 yildagi Rossiya mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakatning eng fojiali va o'zining ommaviyligi jihatidan yuksak pog'onasi edi. Bu xalq isyonlari Birinchi jahon urushining Turkistondagi fojiali oqibatlarini tarzida ham namoyon bo'ldi.

1914 yilda Birinchi jahon urushiga qo'shilgan Rossiya o'z imperialistik manfaatlarini ko'zlab, u bilan bog'liq muammolarini mustamlakalarining zimmasiga yuklashga harakat qildi. Buni Turkiston misolida ko'rish mumkin.

Urush tufayli yuzaga kelgan muammolar quyidagilar edi:

– hukumat tomonidan paxta tolasining xarid narxi 20 % kamaytirilgan miqdorda belgilandi. Bu choradan, birinchi navbatda, mayda va o'rtahol mahalliy mehnatkashlar ziyon ko'rdilar;

– Turkistonga uning ehtiyojiga qaraganda bir necha marta kam g'alla olib kelindi. Natijada g'allaning narxi 4 barobar oshib ketdi;

– turli soliqlar yig'indisining 21 % miqdorida yangi harbiy soliq joriy qilindi;

– urush ehtiyojlari uchun 70 mingta ot, 13 mingta tuya va boshqa turli-tuman mahsulotlar olib ketildi;

– podshoning mahalliy xalqni frontorti ishlariga jalb qilish haqidagi 1916 yil 25 iyundagi farmoni turkistonliklarning toqatini toq qilib yubordi. Farmonga ko'ra, Turkistondan 19–31 yoshdagi 250 ming nafar erkak mardikorlikka olinishi lozim edi. Turkiston general-gubernatorining mahalliy millat vakillariga o'z o'rniga boshqa odamni yollab mardikorlikka jo'natishga ruxsat berishi boylar, amaldorlarning turli suiiste'molliklariga keng yo'l ochib berdi¹. Bu mehnatkashlarning shusiz ham og'ir bo'lgan ahvolini mushkullashtirib yubordi, ularning chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi qo'zg'alishiga turtki bo'ldi.

1916 yil iyulining boshlarida Turkiston o'lkasining turli viloyat, shahar va qishloqlarida mardikorlikka olishga qarshi xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Jizzax qo'zg'oloni ularning eng shiddatlaridan edi. Qo'zg'olonga Jizzaxning eng e'tiborli kishilaridan Nazirxo'ja Abdusalomov, o'z davrining o'qimishli kishilaridan bo'lgan va ikki marta hajga borib kelgan Ziyoqori Abdullayev, shaharning taniqli oqsoqollaridan bo'lgan Muhammadrahim Abdurahmonovlar rahbarlik qiladilar. Qo'zg'olonchilar nafaqat yon atrofdagi qishloqlar, balki Toshkent va Samarqanddagi mehnatkashlar bilan ham aloqa bog'ladilar, ularning ham o'z harakatlarini qo'llab-quvvatlashlarini kutdilar. Qonli to'qnashuv 13 iyulda boshlanib, 8 kun davom etdi.

Qo'zg'olonning qanchalik avj olgani va kuchga ega bo'lgani, bundan chor ma'muriyatining sarosimaga tushib qolganligini isyonni bostirishga jalb qilingan harbiy kuchlarning salohiyatidan ham bilish mumkin. Jizzax qo'zg'olonini bostirish uchun Toshkentdan bir rota, sapyorlar vzvodi, to'rt to'pli batareya; Samarqanddan bir rotadan iborat maxsus jazo otradi, 90 kishilik maxsus ofitserlar rotasi; Orenburgdan 100 kishilik kazaklar jazo otradi; yana Toshkentdan polkovnik Ivanov boshchiligida 12 ta rota, 6 ta

¹ Qarang: История народов Узбекистана. Т. 2. – С. 428.

to'p, 3 ta kazak otradi, maxsus sapyorlar rotasidan iborat jazo otradi yuboriladi. Endi shu darajada qurollangan, g'alayonlarni bostirishda tajriba orttirgan harbiylarning hujumiga bardosh berib, barobar olishgan xalq g'azabi qay darajaga ekanligini ko'z oldingizga keltiring. Afsuski, kuchlar nisbati teng emas edi, to'plar va pulemyotlarning xususiyatlariga qarshi turish og'ir bo'ldi.

Jazo otradi shaharda ko'tarilgan qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Harbiylar eski Jizzaxni to'pga tutib, unga o't qo'yib, kultepaga aylantirdilar. Jazo otradi xalqni Qili va Uchtepa cho'liga haydadi, qochganlarga quvib yetib, qanchadan-qancha gunohsiz kishilarni o'ldirdi. Isyonchilardan qonli o'ch olindi.

Qo'zg'olonchilar zudlik bilan sud qilinib, 32 nafar kishi osib o'ldirishga, ko'pchiligi Sibirga surgun qilishga hukm qilindi. 1640 nafar qo'zg'olonchining 2000 desyatina yeri tortib olinib, rus millatiga mansub odamlarga bo'lib berildi¹. Shu tariqa Jizzax qo'zg'oloni fojiali yakunlandi.

Umuman, 1916 yil mardikorlikka olish tufayli boshlangan qo'zg'olonlar qatnashchilarining 3 mingdan ortiqrog'i javobgarlikka tortildi, chunonchi 347 kishiga o'lim jazosi belgilandi, hammasi bo'lib 872 kishi jinoiy jazoga tortildi². Shunday qilib, butun Turkistonni larzaga solgan qo'zg'olonlar mag'lubiyatlar bilan tugadi.

Mustamlakachilik davrida ko'tarilgan qo'zg'olonlar mag'lubiyatining umumiy sabablari bor. Qo'zg'olonlar tashkiliy jihatdan bo'sh tayyorlangan edi. O'sha sharoitda boshqacha bo'lishi mumkin ham bo'lmagan, chunki nafaqat Turkiston miqyosida, hatto viloyat darajasida ham qo'zg'olonchilarga boshchilik qiladigan, ularni birlashtiradigan bironta siyosiy kuch bo'lmagan. Jadidlar hatto 1916 yilda ham hali siyosiy partiya darajasiga ko'tarilmagan, Turkistonni Rossiya tasarrufidan chiqarish va mustaqil davlat tuzish to'g'risidagi muammolarni o'z dasturiga kiritmagan edilar.

Deyarli hamma qo'zg'olonlar mahalliy ahamiyatga ega edi. Xalqning ko'tarilishiga muayyan qishloq, tuman bilan bog'liq muammolar turtki bo'ldi. Ko'p dehqonlar o'z oilasi, yer-mulkini tashlab ketolmadilar va milliy manfaatlarini himoya qilish darajasiga ko'tarila olmadilar.

Qo'zg'olonlarning mag'lubiyatiga, ko'pincha, o'zining shaxsiy manfaatidan bir qadam narini ko'rolmagan, milliy g'ururdan mutlaqo bexabar ayrim mahalliy amaldor va mulkdorlarning xoinligi ham sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Turkiston xalqining yagona millat sifatida shakllanmaganligi ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Islom g'oyasi xalqni birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilmadi. Xurofot botqog'iga botgan ko'pchilik ruhoniylar xalqning ko'zini ochish, uni taraqqiyotga yetaklashdan manfaatdor bo'lmadilar.

Qo'zg'olonlar mag'lubiyatga uchrangani bilan ularning ijtimoiy hayotga ta'siri izsiz ketmadi: xalqning siyosiy ongi o'sdi, haddidan oshgan mahalliy amaldorlar va chor ma'muriyatining vakillari jazolandilar, hukumat oz bo'lsa-da, yon bosishga majbur bo'ldi. Masalan, murosasiz kurashlar bilan

¹ Qarang: *Хайдаров Х.* Жиззах тарихидан лавҳалар. – Т., 1992. – 66–67-б.

² Qarang: *История народов Узбекистана.* Т. 2. – С. 436.

o'tgan 1916 yildagi qo'zg'olonlar chor hukumati ma'muriyatini tahlikaga solib qo'ydi. Mardikorlikka olish bo'yicha ilgari mo'ljal 50 ming kishiga kamaytirilib, 200 ming kishi qilib belgilandi, ammo jalb qilish muddati uzaytirildi. Podsho mardikorlikka olish siyosati shoshma-shosharlik bilan va puxta o'ylanmay hayotga tatbiq qilinganligini tan oldi. Amalda esa faqat 123 ming mardikor jalb qilindi¹.

Shunday qilib, milliy ozodlik harakatlari qanchalik qaqshatqich ravishda bostirilmasin, xalqdagi ozodlikka intilish tuyg'usini so'ndira olmadi, aksincha, u o'zligini angladi, ozodlikka erishish g'oyasi atrofida jipslashdi.

2. O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va taraqqiyoti (1917 yilgacha)

XIX asrning oxirlariga kelib Turkistonda fojiali tanglik namoyon bo'la boshladi. Mintaqaning boy yer osti boyliklari, son-sanoqsiz mollarni boqishga imkon beradigan vodiylari, keng sug'orish tarmoqlariga ega va yetarli darajada g'alla, sholi, sabzavot, meva-cheva yetishtirish mumkin bo'lgan dehqonchilik salohiyatidan o'ta tartibsizlik va uquvsizlik bilan foydalanildi. Boz ustiga, paxtachilik sekin-asta tub xalqlarni qullikka solish vositasi vazifasini bajara boshladi. Rossiyadan kirib kelayotgan arzon mollar mahalliy hunarmandlarni inqirozga uchratdi. Mahalliy xalqning turmush darajasi tobora pasayib bordi. Xalqning o'z haq-huquqlarini talab qilib chiqishlari muvaffaqiyatsiz tugadi va xunrezlik bilan bostirildi.

Vujudga kelgan fojiali sharoit ayni paytda millatning adolatparvar, xalqparvar, ma'rifatparvar, vijdonli ziyolilariyu ulamolarini tashvishga solmasdan, o'ylantirmasdan qolmasdi. Ular inqirozning sabablarini tahlil qilib, jarayon shu qabilda davom etishi mumkin emasligi, mavjud tuzumni o'zgartirish kerakligini sekin-asta tushunib yeta boshladilar. Mamlakatda mustamlakachi hokimiyat, sotqin mahalliy amaldorlar va, umuman, mavjud ijtimoiy tuzumga qarshi norozilik harakatlari uzluksiz sodir bo'lib turdi.

Bu harakatlarni shartli ravishda uch toifaga bo'lish mumkin:

birinchisi – millatning vijdoni bo'lgan, o'z asarlarida real vaziyatni, jamiyatning kamchiliklarini ochib berib, kishilarni taraqqiyotga xizmat qilishga chaqirgan, ijodkor shoir va yozuvchilar harakati;

ikkinchisi – mahalliy aholini taraqqiyotga erishish g'oyasi asosida birlashgan, ammo qattiq intizomga ega bo'lmagan jadidlar va ularning xayrixohlari harakati;

uchinchisi – mavjud tuzumni inqilobiy yo'l bilan o'zgartirishni, ya'ni hokimiyatni qurol kuchi bilan qo'lga maqsad dastur qilib olgan sotsial-demokratlar va boshqa rusiyzabon kishilar tashkilotlarining harakati.

Endi har bir ijtimoiy harakatning jamiyatni o'zgartirish jarayoniga qo'shgan hissasi haqida to'xtalamiz.

Ma'lumki, o'sha davrda Turkiston aholisining 95 % ni mahalliy aholi vakillari tashkil qilar edi. Ularning ijtimoiy ongini o'stirish, o'zligini anglash,

¹ Qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россия-си мустамлакачилиги даврида. – 439–440-б.

ozodlikka, o'z haq-huquqini muhofaza qilishga targ'ib qilishda, shuningdek demokratik qarashlarni shakllantirishda xalqimizning Ahmad Donish, Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (Berdaq), Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Avaz O'tar, Ubaydulla Solih Zavqiy kabi asl farzandlarining hissasi beqiyosdir.

Ijod ahli o'zlarining qalb tubidan jo'sh urib chiqqan alamli satrlari bilan ikki tomonlama ezilgan mahalliy xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otishga harakat qildilar. Shu o'rinda o'z zamonasining illatlarini qalb nidosi orqali ifodalagan Avaz O'tarning she'ridan bir parcha keltiramiz:

*Yo 'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,
Zulm tig'i birla bo'lgan bag'ri yuz ming pora xalq.
...Ne alarda bor durur ilmu adolatdan asar,
Ne ajabkim, topmasa dog'i diliga chora xalq.
Yetgan ofatni boshiga doimo taqdir deb,
Hasratu armon bilan ketgusi bora-bora xalq.
Bo'lmayin onlarda hech millat, Vatanni saqlamoq,
Bo'ldi qurbon bu sababdan doimo ag'yora xalq.
Xalqi olamni bari aylar taraqqi kun-bakun,
Biz tanazzul aylabon qoldiq, edik ne qora xalq¹.*

Alam bilan bitilgan shu kabi misralarni boshqa shoirlar ijodidan ham ko'plab keltirish mumkin. Ularning ijodi o'sha davrda hukmron bo'lgan diniy mistitsizm bilan bog'liq yo'nalishdan hayotni haqqoniy aks ettirishi, ijtimoiy hayotni erkinlashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Demokrat shoirlarning asarlarida aks etgan yangicha dunyoqarashning mohiyatini umumlashtirilgan tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

– adabiyotga hayotiy, haqqoniy nuqtai nazardan yondashish, ijodiyotni mehnatkash xalq manfaatiga xizmat qildirish;

– mamlakatda muayyan tartib o'rnatish va taraqqiyotga yuz tutish uchun islohotlar o'tkazishga undash;

– xalq ongini mutaassiblik, jaholat va xurofotdan xalos qilish uchun uni ma'rifatli qilish;

– boy mulkdorlar bilan kambag'allarning turmush darajasidagi tafovutni qisqartirish chora-tadbirlarini belgilash;

– nodon xonlar va beklarning o'zaro talon-taroj urushlariga, qirg'inlarga barham berishga chaqirish;

– Rossiya va Yevropaning ilg'or madaniyatini o'rganish va taraqqiyotga intilishda undan foydalanish.

Demokrat shoirlarning xalq oldidagi xizmatlarini tan olish bilan birga, masalaning boshqa tomonini ham unutmaslik kerak. Ijoddagi bu yo'nalish hukmron darajaga ko'tarilmadi. Buning bir necha sabablari bo'lgan. Masalan, demokrat shoirlarning asarlarini targ'ib qiladigan ommaviy matbuotning o'zi bo'lmagan, mahalliy mehnatkashlarning aksariyat qismi savodsiz bo'lganligi tufayli taraqqiyotdan orqada qolgan. Ilg'or g'oyalar esa

¹ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Т., 1959. – 380–381-б.

ommaga tushunarsiz bo'lgan.

Yaqin kunlarga demokrat shoirlarning ijodini o'rganishda bir tomonlamalikka yo'l qo'yilardi. Ularning chop etilayotgan asarlari maxsus prinsip asosida tanlab olinar, ya'ni o'tmishni qoralaydigan, hukmdorlarni – ahmoq, ruhoniylarni xurofotga berilgan qilib ko'rsatadigan, boylarning ochko'zligini «fosh qiladigan»larigina terib olinardi. Bunda ularning islom diniga e'tiqodi, kelajakka umid bilan qarashi, insof va adolatga chaqiruvchi asarlari iloji boricha chetlab o'tilardi. Shu bilan birga, bu davrda yashab o'tgan ziyolilar va ijodkorlar go'yoki dunyoqarashi cheklanganligi, ya'ni baxtiyor, ozod hayotga faqat sinfiy, inqilobiy kurash orqali erishish mumkinligini tushunmaganligi uchun tanqid qilinardi. Ammo ijtimoiy ong jamiyatning taraqqiyot darajasiga mos kelishini inobatga olsak, shoirlarga bu tariqa ayb qo'yish to'g'ri emas. Undan tashqari, sabr-toqatlilik, bardoshlilikni targ'ib qiluvchi islom diniga e'tiqod qilgan insondan turmush tarzini inqilobiy yo'l bilan o'zgartirish haqidagi fikrni kutishning o'zi mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Mahalliy xalqning siyosiy ongini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etgan ijtimoiy harakat jadidchilik edi. Ushbu harakatning tadrijiy rivojlanishi murakkab o'tdi, shuning uchun unga beriladigan baho ham turlicha. Oddiy ma'rifatchilikdan boshlangan jadidchilik harakati 1917 yilga kelib siyosiy partiya darajasiga ko'tarildi. Orada esa jadidlar bir-birini inkor etuvchi bir qancha guruhlarga: radikallar va qadimiychilar, kapitalistik taraqqiyot va sotsialistik inqilob tarafdorlari kabi turli oqimlarga bo'linib turdilar. Bugungi kunga kelib ularning faoliyatiga xolisona baho berishning imkoni tug'ildi.

Xo'sh, jadidlar kimlar edi? XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida mahalliy xalq ziyolilari mavjud imkoniyatlardan foydalanib, Rossiya, Turkiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlariga tez-tez safar qilib turdilar. Safar davomida musulmon ziyolilari u yerlardagi yuksak rivojlangan sanoat, madaniyat bilan tanishdilar va bu yutuqlarning mohiyati kapitalistik ishlab chiqarish, yangicha ta'lim tizimi, ya'ni dunyoviy bilimlarga asosiy e'tibor berilayotganligi bilan bog'liqligini ko'rdilar. Ikkinchi tomondan, bu ziyolilar asosan diniy aqidalarni o'rganishga asoslangan maorif tizimini o'zgartirmay turib mahalliy xalqni ma'rifatli qilish, uning siyosiy ongini oshirish, erkinlikka olib chiqish mumkin emasligini tushunib yetdilar.

Bunday ziyolilar keyinchalik o'zlarini jadidlar deb atay boshladilar. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, yangi uslub, yangicha tafakkur degan ma'nolarni bildiradi.

Jadidchilikka qrimlik Ismoilbey G'asprali (Gasprinskiy) asos solgan hisoblanadi. Ismoilbey Rossiyaning bir qancha markaziy shaharlari, Istanbul, Vena, Myunxen, Shtutgardtda ta'lim-tarbiya oladi, Fransiyaning Sorbonna universitetida o'qiydi. Shubhasiz, taraqqiyot bobida nafaqat musulmon sharqidan, hatto Rossiyadan ham ancha ilgarilab ketgan Yevropa Ismoilbeyning dunyoqarashini o'zgartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmasdi.

Ismoilbeyning asosiy g'oyalari uning 1881 yilda chop etilgan «Rossiya

musulmonlari» kitobida o‘z ifodasini topdi. Ularning mohiyatini quyidagilar tashkil qiladi:

– Rossiya ma‘muriyati musulmonlarni atayin taraqqiyotdan, ilm-ma‘rifatdan uzoqda tutayotganligini, musulmonlarning tili, dini, turmush tarzini buzayotganligini tan olish;

– musulmonlarning hayotini rus tili emas, balki anglash oson, eng ta‘sirchan va tushunarli bo‘lgan ona tilida o‘zlashtiriladigan ilm-fangina o‘zgartirishi mumkinligini, musulmonlar ta‘lim tizimi zamon talabidan orqada qolganligini ta‘kidlash;

– musulmonlarning Rossiyani, uning hayotini va qonunlarini o‘rganishlari, tor dunyoqarashlarini yangilashlari, hayotni jonlantiruvchi bilimga ega bo‘lishlari uchun imkon yaratish lozimligini uqtirish;

– Rossiya tarkibida yashamoqchi bo‘lgan turkiy xalqlarning amaldagi teng huquqliligini ta‘minlash uchun ularning turmush tarzi, urf-odatlarini, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolish kerakligini, aks holda, u o‘zligini yo‘qotishi mumkinligini ta‘kidlash;

– taraqqiyotga, madaniyatga erishish, adolat o‘rnatish uchun jahondagi tartibni buzishga, sotsialistik inqilobga hojat yo‘qligini, aks holda, katta qiyinchiliklarga duch kelinishini anglash¹.

Agar Ismoilbey G‘asprali g‘oyalarining mohiyatiga nazar tashlasak, ularning, ayniqsa, dastlabki davrda Rossiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi qaratilganligi, yuksak taraqqiyotga milliylikni saqlagan holda erishishga chaqirishi sezilib turishini ko‘ramiz.

Ismoilbey Faspralining O‘rta Osiyoda jadidchilik g‘oyalarini tarqatishdagi xizmatlarini tan olamiz. Ammo ayni paytda o‘zbek ziyolilarining ham bu boradagi harakatlari munosib baholanishi kerak, deb hisoblaymiz. Ularning ko‘pchiligi jadidchilik g‘oyalariga o‘z yo‘li bilan mustaqil ravishda yetib kelganlar. Bugungi kunda Turkiston jadidlarining rahnomasi, asli samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiy, toshkentlik Munavvarqori Abdurashidxonov va buxorolik Abdurauf Fitratning taraqqiyparvarlik harakatiga asos solganliklari, unga rahbarlik qilganliklari hammaga ma‘lum. Shu bois, biz, ularning xizmatlariga batafsil to‘xtalmay, Buxoroning ko‘pchilik uchun tanish bo‘lmagan 12 nafar ulamosidan biri domla Ikromning bu boradagi faoliyati haqida qisqacha ma‘lumot beramiz.

Domla Ikrom XIX asrning oxirlarida Makkaga qilgan safari davomida Yaqin Sharqning bir qancha mamlakatlarida, jumladan Turkiyada ham bo‘lib, u yerlardagi ta‘lim tizimi bilan tanishadi. Qaytganidan so‘ng, hayotini islomni mutaassiblik va aqidaparastlikdan xalos etish, ta‘lim tizimini isloh qilish, dars jadvaliga dunyoviy bilimlarni kiritishga bag‘ishlaydi. U amir, mufti, qozi va ulamolarning noto‘g‘ri siyosatini tanqid qiladi. Domla Ikrom o‘zining jadid maktablari, umuman, Buxorodagi xalq ta‘limi tizimiga oid izlanishlarining natijalari va fikr-mulohazalarini umumlashtirib, bir risola yozadi, uni chop ettirib, xalq orasida tarqatadi. Risolaning birinchi qismida jamiyatdagi umumiy kamchiliklar oshkora tanqid qilinadi, ikkinchi qismida hokimlar, qozilar, ulamolarning kirdikorlari ochib tashlanadi, so‘ngida esa

¹ Qarang: Қосимов Б. Исмоилбей Фаспрали // Ўзбегим. – Т., 1992. – 141–165-б.

xalq ta'limini isloh qilish yuzasidan ilgari surilayotgan g'oyalar shariat qoidalariga ko'ra asoslanadi¹.

Biz bu o'rinda ikki narsaga e'tibor qaratmoqchimiz: birinchisi – jadidchilik harakatining O'rta Osiyo ijtimoiy hayotidagi ichki obyektiv zarurat tufayli yuzaga kelganligi; ikkinchisi – uning boshida islom diniga shunchaki aqida emas, balki kishilik jamiyatini takomillashtiruvchi omil sifatida yondashuvchi ziyolilarning turganligi.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy asosini taraqqiyparvar ziyolilar, ruhoniylar, mulkdorlar va hunarmandlar tashkil qildi. Bu harakat o'zining rivojlanishi jarayonida tashkiliy va g'oyaviy jihatdan murakkab bosqichlarni bosib o'tdi.

Birinchi bosqichga shartli ravishda XX asr boshlaridan to 1910–1914 yillargacha bo'lgan davrni kiritish mumkin. Bu bosqichni jadidlarning tashkiliy va g'oyaviy jihatdan shakllanishi davri, desak bo'ladi.

Bunda hali uyushmagan jadidlar zamonaviy taraqqiyot talablariga javob bermaydigan xalq ta'limi tizimini isloh qilish, islom ta'limotini aqidaparastlikdan mosuvo etishdan iborat oddiy ma'rifiy va madaniy ishlarni maqsad qilib qo'yadilar. Chunki ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida mutaassiblik, johillik, xurofotning hukmronligi, o'quv uslubining o'ta ibtidoiy va qoloqligi, aniq maqsadlar aks etgan dasturlarning yo'qligi maktab va madrasalarda ta'limga e'tibor berilmayotganligining sababi edi. Shu bilan birga, o'quv muassasalarining rasman ruhoniylar ixtiyorida bo'lganligi va ularning ko'pchiligi o'ta mutaassibliigi ta'lim tizimini isloh qilishga, islom ta'limotining o'zini qotib qolgan aqidaparastlikdan xalos qilishga imkon bermas edi.

Belgilangan maqsadni quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshirish rejalashtirildi:

1) ta'lim usullarini o'zgartirish, ya'ni qo'llanib kelayotgan va samarasiz «harfdan – tovushga» qoidasini qulayroq «tovushdan – harfga» o'tish usuli bilan almashtirish hamda o'quv rejalarida dunyoviy bilimlarning yetakchi o'rin egallashini ta'minlash;

2) yoshlar tarbiyasida va aholining ma'naviyatini shakllantirishda islom ta'limotiga asoslanish; ammo uning turli sharhlarini o'rganish emas, balki Qur'oni karim, hadislar va shariat normalarini asl manbalar asosida tahlil qilish; ulardagi qoidalarga ko'r-ko'rona amal qilish o'rniga ularni inson manfaati va taraqqiyoti uchun xizmat qildirish. Bu fikrni Abdurauf Fitrat Qur'on oyatlari asosida asoslaydi: «Oллоh taolo Qur'onda biz insonni maqtab, yuksak baho berib, xalq etib yaratdik... barcha yer va osmondagi narsalarga sizlarni hukm etuvchi deb buyurdik... deydi. Demak, mulohaza eting, agar yer va osmondagi narsalarning bir qismi insonning buyrug'iga bo'ysunmas ekan, farangiylar bu yelkanli kemalar va havodagi uchish vositalarini qayerdan yaratmoqdalar»²;

3) aholini taraqqiy etgan davlatlardagi ijtimoiy hayotning yutuqlari bilan

¹ Batafsilroq ma'lumot olish uchun qarang: *Арифджанов Э. Қ.* XX аср бошларида Бухоро маданияти: ҳақиқат ва афсоналар. – Т., 1998. – 24–25-б.

² *Фитрат А.* Ҳинд сайёҳи қиссаси // Шарқ юлдузи. – 1991. – № 8. – 36-б.

tanishtirish orqali jaholatdan qutqarish, ko‘zini ochishni maqsad qilib qo‘ygan ommaviy axborot vositalarini yaratish.

Jadidlar o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etish va xalq ta’limining yangi tizimini yaratishga harakat qildilar. Ular taraqqiyparvar ulamolar, mulkdorlar yordamida bir qancha «jadid» («yangi uslub») maktablarini tashkil qildilar. Bu maktablar o‘zining dastlabki davridayoq samarali ekanligini isbotlab, aholining e’tiborini qozondi va tez orada ko‘payib bordi. Faqat Turkistonning asosiy shaharlarida 92 ta yangi uslub maktablari faoliyat ko‘rsatgan¹. Shunga qaramay, aholini xurofotda saqlashdan manfaatdor jaholatparst ruhoniylar jadid maktablarining faoliyatiga qarshilik ko‘rsatdilar. Chor Rossiyasining ma’muriyati esa vaziyatni qo‘ldan chiqarmaslik uchun bu maktablarni o‘z nazoratida ushlab turish borasida maxsus xizmatlarga topshiriq berganligi arxiv materiallaridan ma’lum.

Masalan, Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agenti Turkiston general-gubernatori S. V. Chirkinga yozgan maxfiy xatida (1914 y.) amirlikdagi jadid maktablarining tashkilotchilari va o‘quvchilarining tarkibi haqida batafsil ma’lumotlar keltiradi va bu maktablarni aholi yaxshi qabul qilayotganligini tashvishlanib yozadi².

Jadid maktablarining aholi e’tiborini qozonganligini quyidagi dalil bilan ham isbotlash mumkin. 1914 yilda Buxoro amiri Sayid Olimxon jamiyatda endigina o‘z o‘rnini topayotgan yangi uslub maktablarini yopishga, otanalardan bolalarni maktabga yubormaslik haqida tilxat olishga farmon beradi. Shunday bo‘lishiga qaramay, amalda yopilgan 4 ta maktab o‘rniga 45 ta norasmiy maktab pinhona ochiladi va faoliyat ko‘rsatadi³.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog‘liq g‘oyalarni xalqqa yetkazish maqsadida o‘z gazeta va jurnallarini yaratishga harakat qildilar. Maxmudxo‘ja Behbudiy 1913 yildan boshlab «Samarqand» gazetasini chop qila boshladi. Keyinchalik bu gazeta «Oyna» jurnaliga aylantirildi. Bundan tashqari, «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona», «Buxoroi sharif», «Turon» kabi gazetalar va jurnallar vaqti-vaqti bilan chiqib turdi. Ular mahalliy aholining siyosiy va milliy ongini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Shulardan «Sadoi Turkiston» gazetasi mamlakatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish va jaholatdan xalos etishning, madaniy-ma’rifiy uyg‘onishning bosh targ‘ibotchisi bo‘ldi, deyish mumkin. Uning birinchi soni 1914 yil 1 aprelda dunyo yuzini ko‘rdi. Gazetaning eng katta xizmatlaridan biri millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga qaratilgan murosasiz tanqidiy qarashlari edi. Bu borada gazeta yosh shoirlarning ijodidan foydalanishga harakat qildi. Misol tariqasida shoir Abulhamid Cho‘lponning gazeta sahifalarida e’lon qilingan «Turkistonlik qardoshlarimizga» she’ridan parcha keltiramiz:

*Ilmu ma’rifat ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq,
Ma’rifatsizlik balosiga yo’liq‘on bizni xalq.*

¹ Qarang: История народов Узбекистана. Т. 2. – С. 329.

² Qarang: O‘zRMDA. Fond 2. Ro‘yxat 1. Yig‘majild № 268 – 3–13-b.

³ O‘sha joyda. – 9–13-б.

*Bir kishi millatparast o'lsa deyurlar dahriy deb,
Bir kishi millatni so'ksa, izzat aylar bizni xalq.*

*Maktab o'rnida har mahalda ochildi mayxona,
Nafrat etmak nori tursin, shodu xandon bizni xalq.
Maktaba yo'q bir tiyinmi, to'yga ming so'mlab berur,
Chorasi mushkul kasalga mubtalodur bizni xalq¹.*

Albatta, jadidlar mahalliy aholining milliy va siyosiy ongini yuksaltirishga muhim hissa qo'shgan, deyarli yagona umumiy g'oya atrofida birlashgan harakat sifatida namoyon bo'ldi. Lekin chor Rossiyasi ma'muriyatining bu harakatga shubha bilan qarab, uning faoliyatini juda bo'lmaganda cheklashga qaratilgan choralarni ko'rishi, ayniqsa, mutaassib ruhoniylarning Buxorodagi jadidlarga qarshi tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatishi va bu yo'lda hatto hokimiyatni ham o'z tomoniga og'dirib olishi jadidlarning ko'zlagan maqsadlarini to'la-to'kis amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shu bois jadidlarning ilg'or namoyandalari ish uslubini o'zgartirish va jamiyatda muayyan siyosiy islohotlar o'tkazish lozimligini tushunib yetdilar. Ana shu vaqtdan e'tiboran jadidchilik harakatida uning siyosiylashuv bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi bosqichi boshlanadi.

Jadidchilikdagi siyosiy qarashlarning shakllanishiga Munavvarqori Abdurashidxonovning «millatlarning ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotiga ikki tayanch kerak, birinchisi – maktab, ikkinchisi – jamiyatdir»², degan fikrlari, Abdurauf Fitratning jamiyat va millatning ravnaqi uchun bir odam ko'p ish qila olmasligi, buning uchun vatanparvarlar ittifoqini tuzish, unga xayrixoh guruhlarni tashkil qilish lozimligi haqidagi g'oyalari asos bo'ldi.

Bu davrda jadidlar mamlakat va millat taraqqiyotini ta'minlashning yo'nalishlarini aniqlash hamda uni ro'yobga chiqarish muammolari bilan shug'ullandilar. Bosqichning asosiy mazmunini quyidagi vazifalar belgiladi:

– mahalliy aholining milliy manfaatlari, diniy e'tiqodlarini hisobga olgan holda boshqarishni tashkil qilish uchun Turkiston muxtoriyatini tashkil qilish;

– Buxoro amiri va Xiva xonining mutlaq hokimiyatini muayyan tartibga solish uchun kengash (parlament) tuzish hamda davlat tizimida va jamiyatda taraqqiyotni ta'minlaydigan islohotlar o'tkazish;

– mahalliy millatlarning manfaatlarini ifoda etadigan, himoya qiladigan siyosiy va ijtimoiy partiyalar, birlashmalar, jamiyatlar tuzish, harakatlar tashkil qilish va h.k.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Rossiyada 1917 yil fevralda amalga oshgan inqilobdan keyin keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Asosan, jadidchilarning tashabbusi bilan «Sho'roi islomiya», «Sho'roi ulamo», «Turk adami markaziyat firqasi», «Alash o'rda», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» kabi siyosiy tashkilotlar tuzildi. Turkistondagi tashkilotlarni birlashtirish maqsadida yagona «Ittifoqi musulimin» siyosiy partiyasini

¹ Sitata manbai: *Иброҳим Фафур*. Миллий хаёллар ва «Садои Туркистон» // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994. – 11 март.

² *Сирожиддин Аҳмад*. Мунавварқори // Шарқ юлдузи. – 1992. – № 3. – 105-б.

tuzishga qaror qilindi. Bu yangi partiyaning eng asosiy vazifalaridan biri qilib Rossiyaning tarkibida Turkiston muxtor respublikasini tuzish belgilandi.

Albatta, tuzilgan bu siyosiy tashkilotni faqat jadidlar partiyasi deb atab bo'lmaz edi. Bu partiya mahalliy xalq ravnaqi va Turkiston mustaqilligining tarafdori bo'lgan har bir mehnatkash, ziyoli, sarmoyador, ruhoniy xayrixohlik bildirdi va uning g'oyalarini o'z e'tiqodi sifatida qabul qildi.

Jadidchilik g'oyalariga asoslangan milliy siyosiy kuchlar mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirishga salmoqli hissa qo'shdilar. Agar Fevral burjua-demokratik inqilobidan keyin bo'lib o'tgan Toshkent shahar dumasiga bo'lgan saylov natijalariga e'tibor bersak, mahalliy mehnatkashlar siyosiy faolligining keskin oshganligiga guvoh bo'lamiz. Saylovlar, asosan, jadidlar ta'sirida o'tgan edi. Shahar dumasiga saylangan 112 nafar deputatning 75 nafari musulmon taraqqiychilari siyosiy tashkilotlarining vakillari edi, sotsial demokratlar esa dumada faqat 4 ta joyga ega bo'ldilar. Ushbu kuchlar nisbati Turkistondagi deyarli barcha shaharlarning dumalariga xos edi¹. Shuning o'zi mahalliy xalq qaysi siyosiy kuchlarning g'oyalarini qabul qilganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib shu narsani to'la ishonch bilan aytish mumkinki, jadidlar mahalliy aholining o'zligini tanishida, siyosiy ongining o'sishida, siyosiy tashkilotlar atrofida birlashishida muhim o'rin tutganlar. Albatta, biz jadidchilik harakati kamchiliklar va xatolardan xoli emas edi, demoqchimiz. Ularni mahalliy xalqning turmush tarzi, ijtimoiy ong darajasi bilan izohlash mumkin. Jadidlarning o'zlari ham kurash jarayonida toblandilar, siyosiy harakat sifatida shakllandilar. Ularning 1917 yil Oktabr qurolli to'ntarishigacha bo'lgan faoliyati davomida ko'zlagan maqsadlari va ularni amalga oshirish usullarini umumiy tarzda quyidagilardan iborat bo'lgan deyish mumkin:

– mahalliy aholining ma'naviyati, madaniyati, turmush tarzini Rossiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi milliylik asosida rivojlantirish;

– islom ta'limotini mutaassiblik va xurofotdan xalos qilish va uni musulmon millatlarining ravnaqi uchun xizmat qildirish;

– ta'lim tizimini isloh qilish orqali xalqni ma'rifatli qilib, uning ijtimoiy faolligini oshirish;

– turli mulk shakllari va hududning iqtisodiy imkoniyatlariga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali aholining to'q va farovon hayotini ta'minlash;

– hududni milliy va diniy qadriyatlar asosida boshqarish uchun Turkiston milliy muxtoriyatini tuzish;

– ijtimoiy hayotni sivilizatsiyalashgan islohotlar orqali tadrijiy usul bilan o'zgartirish va h.k.

¹ Qarang: *Абдуллаев Р.* Туркестанские прогрессисты и национальное движение // Звезда Востока. – 1992. – № 1. – С. 110–111.

Avval ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy tuzumni o'zgartirishni o'zlariga maqsad qilib olgan siyosiy kuchlarga inqilobchilarni kiritish mumkin. Bu siyosiy yo'nalishning asosiy tarkibini rusiyzabon siyosiy kuchlar – bolsheviklar, mensheviklar, eserlar partiyalari tashkil qilar edi.

Siyosiy partiyalarning faoliyatiga baho berishda ham ularning mahalliy millat va milliy ozodlik harakatiga bo'lgan munosabatini nazarda tutishimiz kerak.

Rusiyzabon siyosiy kuchlar Rossiya hududida tuzilgan partiyalarning tarmoqlari bo'lib, o'sha markazning topshiriqlarini bajarib turishga majbur edilar, ya'ni ularni umumrossiya miqyosidagi hokimiyat masalasi qiziqtirar, mahalliy xalq manfaatlari ularning e'tiboridan deyarli chetda qolgan edi. Bu partiyalardan birontasining dasturida Turkistonga hatto muxtoriyat darajasida ham mustaqillik berish masalasi qo'yilmagan. Millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash huquqi bir qancha shartlar bilan cheklab qo'yilgan. Masalan, eserlar mahalliy millat vakillarini faqat hududiy boshqaruv organlarida qatnashishi mumkinligini qayd qilish darajasiga borib yetgan bo'lsalar, bolsheviklar bu masalaning hal qilinishini yo'qsillar hokimiyatining o'rnatilishi bilan bog'ladilar.

Milliy ozodlik harakati mahalliy xalqning barcha tabaqalarini qamrab olganligi sababli sotsializm g'oyasiga mos kelmas va shuning uchun, ayniqsa, bolsheviklar uni tan olishlari mumkin emas edi. Rusiyzabon siyosiy kuchlar Turkistonni Rossiyaning ajralmas bir qismi deb qaradilar va mustaqillik uchun kurashayotgan mahalliy xalqning harakatlariga qo'shilmadilar.

Shunday qilib, inqilobiy kuchlar mahalliy millatlarning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishdan, unga erkinlik berishdan manfaatdor bo'lmadilar, ularga qoloq, o'z huquqini bilmaydigan, siyosiy jihatdan ko'r omma deb qarab, mensimadilar. Ayni paytda, inqilobchilarning dunyoqarashlari, harakat usullari ham mahalliy millatlarning qalbidan joy topa olmadi.

10-ma'ruza
**TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING
O'RNATILISHI VA ISTIQLOLCHILIK HARAKATI**

**1. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining
zo'rlik bilan o'rnatilishi**

1917 yilda Rossiyada yuz bergan Fevral inqilobi Turkistondagi barcha siyosiy kuchlarning faollashuvi uchun keng imkoniyat yaratdi. Bu kuchlarni shartli ravishda quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin: 1) Rossiyadagi muvaqqat hukumat boshqaruv tizimiga mansub bo'lgan Turkiston Ijroiya Qo'mitasi; 2) mahalliy xalqlarning manfaatini ifoda etadigan «Sho'roi islomiya» va shu asosda tashkil topgan turli xil milliy siyosiy kuchlar; 3) rusiyzabon siyosiy kuchlarni o'z ichiga olgan o'lka Soveti.

Ko'rinib turibdiki, Turkistondagi hokimiyatga da'vogar siyosiy kuchlar Rossiyadagilaridan turli-tumanligi bilan farq qiladi. Ammo sanab o'tilgan siyosiy kuchlar, o'z oldlariga qo'ygan maqsadlari turlicha bo'lishiga qaramay, hokimiyatga barobar talabgor edi, desak uncha to'g'ri bo'lmaydi. Buning sabablari turlicha. Muvaqqat hukumat amalga oshirgan ba'zi islohotlar, xususan, mahalliy millat vakillarining davlat boshqaruvida qatnashishiga sharoit yaratilishi, mardikorlikka olinganlar va Sibirga surgun qilinganlarning uylariga qaytishlari ushbu hukumatning musulmon siyosiy kuchlari ishonchini qozonishiga olib keldi. Bu «Sho'roi islomiya»ning muvaqqat hukumatni tan olishining birinchi sababi bo'lsa, ikkinchisi – o'sha davrdagi vaziyat Turkistonning to'la mustaqil bo'lishi masalasini kun tartibiga qo'yish imkonini bermas edi, chunki bunday harakat qurollangan rus armiyasi bilan to'qnashuvga va behisob qon to'kilishiga olib kelishi mumkin edi.

O'lka Sovetlarining muvaqqat hukumatni tan olishiga ham bir necha sabablar bo'lgan. Sovetlarning ko'pchiligini tashkil qilgan mensheviklar va eserlar Fevral burjua-demokratik inqilobi hali o'z vazifasini bajarishi kerak, sotsialistik inqilobga hozircha fursat yetgani yo'q, deb hisoblaganlar. Bundan tashqari, ular inqirozga yuz tutgan mamlakatda, jumladan Turkistonda ham javobgarlikni o'z zimmasiga olishdan qo'rqqan bo'lishlari mumkin.

Sovetlar tarkibida kamchilikni tashkil qilgan bolsheviklarga haqiqiy vaziyat bilan hisoblashmasdan, turli nayranglar ishlatib, o'z mavqelarini mustahkamlashga va hokimiyatni qo'lga kiritishga jon-jahdlari bilan urindilar. Shunday ekan, nima uchun Oktabr qurolli to'ntarishi sodir bo'ldi, degan savol haqli ravishda tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun biroz orqaga qaytish va Fevral inqilobining maqsadlarini eslash lozim. Ular: urushni to'xtatish; yerni – dehqonlarga, zavod va fabrikalarni – ishchilarga, hokimiyatni esa – Sovetlarga topshirish. Ammo muvaqqat hukumat mazkur vazifalarni bajarishga shoshilmadi.

Sal kam to'rt yil davom etayotgan urush mehnatkash xalqning tinkasini quritgan edi. Ommada shunday ruhiy holat vujudga keldiki, kichik (balki soxta) bir ishonch, turtki uni boshi berk ko'chaga tortib ketishi mumkin edi.

Ana shu holatdan bolsheviklar ustalik bilan foydalandilar, keyinchalik bajarilmaydigan va'dalar berib, soxta obro'ga erishdilar. Bundan tashqari, qo'zg'olon jarayonida ham tubanlikni nazarda tutgan «ekspropriatorlarni ekspropriatsiya qilish» (ya'ni talonchilarni talash) kerak degan shiorni o'rtaga tashlab, Petrogradda hokimiyatni qo'lga olishga erishdilar.

Bu Toshkentdagi qo'zg'olon uchun muhim turtki bo'ldi. 1917 yil 28 oktabrda Toshkent ishchi va soldat deputatlari tashabbusi bilan boshlangan va hokimiyatni qo'lga olishga qaratilgan harakatlar I Sibir polki tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Natijada 1 noyabr kuni qo'zg'olon g'alaba qozonganligi e'lon qilindi.

O'sha yilning 2 noyabr kuni, ya'ni qo'zg'olondan keyin Toshkentda o'lka demokratik kuchlarining birlashgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda hokimiyat masalasi muhokama qilinib, syezd chaqirilgunga qadar mamlakatni boshqarib turuvchi Turkiston Muvaqqat O'lka Ijroya Komiteti tuzildi. Ijroqo'm tarkibiga e'tibor qiling. U 9 kishidan iborat edi, jumladan o'lka Sovetidan – 3 kishi, dehqonlar o'lka Sovetidan – 2, qirg'iz deputatlar Sovetidan – 1, o'lka musulmonlar Sovetidan – 1, eserlar partiyasi O'lka komitetidan – 1, sotsial-demokratlar partiyasi markaziy byurosidan – 1 kishi¹. Komitet 15 noyabrda o'lkadagi barcha demokratik tashkilotlarning syezdini chaqirish va o'sha yerda hokimiyat masalasini hal qilishni mo'ljalladi.

Lekin siyosiy kuchlar nisbati barchani ham qoniqtirmas edi. Birinchi navbatda, bolsheviklar bundan norozi edilar. Shuningdek, musulmon mehnatkashlarining turli siyosiy tashkilotlarida ham hokimiyat masalasida yakdillik yo'q edi. Demokratik yo'l bilan o'z maqsadlariga erisha olmagan bolsheviklar yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib, tazyiq o'tkazish yo'lini tanladilar. Bolsheviklar ta'sirida bo'lgan Toshkent ishchi va soldat deputatlari soveti o'lkadagi hokimiyatni o'z qo'lga oldi hamda o'lka Sovetining III syezdini chaqirib, o'sha yerda hokimiyat masalasini ko'rib chiqishni talab qildi va bunga erishdi. Chunki bu masala barcha demokratik kuchlarning qurultoyida muhokama qilinsa, bolsheviklar o'z maqsadlariga erisha olmasliklari aniq edi.

Shunday qilib, Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetining tazyiqi ostida 15–22 noyabrda o'tgan III o'lka Sovetlari syezdida bolsheviklar so'l eserlar va maksimalistlar bilan birgalikda o'z hukumatini tuzishga erishdilar. Bolshevik F. I. Kolesov Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining raisi lavozimiga tayinlandi. Hukumat tarkibi 15 kishidan iborat edi, jumladan bolsheviklar – 5 kishi, «so'l» eserlar – 8 kishi, maksimalistlar – 2 kishi. Afsuski, hukumat tarkibiga bironta ham mahalliy millat vakillari kiritilmadi². Xo'sh, Turkiston aholisining 95 foizini tashkil qiladigan mahalliy xalq vakillari nima uchun hokimiyat tarkibiga kiritilmadilar?

Bu voqeani Turkistondagi bolsheviklarning rahbarlaridan biri I. O. Tobolin III syezdda quyidagicha izohladi: «Bugungi kunda

¹ Qarang: *Иноятов И. Ш. Октябрьская революция в Узбекистане.* – М., 1958. – С. 138.

² O'sha joyda. – С. 142.

musulmonlarni¹ o'lka oliy inqilobiy hokimiyatning tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq emas, chunki mahalliy aholining ishchi, soldat, dehqon deputatlari sovetining hokimiyatiga munosabati o'ta mavhum, bundan tashqari, mahalliy aholi orasida sinfiy proletar tashkilotlar yo'q»². Bu bayonot mustamlakachilik siyosatining ifodasidan bo'lak narsa emas edi.

Aslida, mahalliy aholining sovetlarga bo'lgan munosabatini mavhum yoki noaniq deyish aslo mumkin emas edi, chunki Musulmon mehnatkashlari o'lka kengashi va boshqa musulmon Sovetlari o'zlarining birlashgan yig'ilishlarida bolsheviklar boshchiligidagi Sovetlar hokimiyatini tan olmadilar. Shuningdek, sinfiy proletar tashkiloti to'g'risidagi fikr ham o'ta asossizdir. 1917 yilda Turkistonda 60 mingdan ortiq ishchi bo'lgan, shundan taxminan 70 % mahalliy millatlardan bo'lgan³. Musulmon mehnatkashlarining tashkilotlari ham bo'lgan, jumladan Musulmon ishchilari soveti, «Ittifoq» musulmon ishchilari kasaba uyushmasi va boshqalar.

Xo'sh, bordiyu yo'qsillar sinfi bo'lmagan yoki ular jamiyatda Turkistondagidek ozchilikni tashkil qilgan ham deylik, mahalliy xalqqa boshqa millatga mansub bo'lgan yo'qsillar hokimiyatining boshqaruv tizimini zo'rlab kiritish qaysi mantiqqa to'g'ri keladi? Mahalliy millat ishchilarining ongi boshqarish darajasiga yetgan yoki yetmaganligini ham o'sha hokimiyat tepasida turgan bolsheviklar bir zumda hal qilib qo'ya qoldilar. Demak, ular xohlagan paytlarida hokimiyatini topshirish yoki tarqatib yuborishi ham mumkin.

Bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni – musulmon siyosiy tashkilotlarining o'rtasida birlikning yo'qligi mahalliy mehnatkashlar vakillarining hukumat tarkibiga kiritilishi haqidagi masalaning ijobiy hal qilinishiga pand berdi. Hokimiyat masalasini ko'rish uchun chaqirilayotgan III o'lka Sovetida qatnashish yoki qatnashmaslik borasida «Sho'roi ulamo» va Musulmon mehnatkashlari o'lka kengashi orasida ixtilof kelib chiqdi va mazkur kengash shu munosabat bilan Qo'qonga ko'chib o'tdi.

III o'lka Sovetining syezdida qatnashgan Sherali Lapin boshchiligidagi «Sho'roi ulamo» vakillari hukumat a'zolarining 50 % ni mahalliy millat vakillaridan tayinlash lozimligi haqidagi taklif bilan chiqdilar. Ammo bolsheviklar so'l eserlar bilan kelishib, syezdda ko'pchilik ovoz bilan bu taklifni o'tkazmadilar. Shuning uchun «Sho'roi ulamo» vakillari syezdni tark etdilar⁴.

Demak, Turkistondagi dastlabki hukumat tarkibiga bolsheviklarning mahalliy millat vakillarini kiritmasligini asosan hokimiyatni qo'lga olgan rusiyzabon nayrangbozlarning oldindan o'ylab amalga oshirgan siyosati deb tan olish uchun asos bor. Bu siyosat mahalliy aholini kamsitish, uning huquq va manfaatlarini poymol qilishga qaratilgan edi.

¹ O'sha davrda mahalliy aholi shunday atalar, «musulmon millati» iborasi ham ishlatilar edi.

² Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – Т., 1934. – С. 18.

³ O'sha joyda. – С. 28.

⁴ Qarang: Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. – Т., 1996. – 30-б.

Bundan tashqari, bolsheviklar faqat milliy siyosiy kuchlar va ijtimoiy harakatlarnigina emas, balki o'zlaridan boshqa barcha, jumladan rusiyzabon siyosiy kuchlarning ham hokimiyatda qatnashuviga qarshi bo'lganlar. Bu fikrni bolsheviklar rahbari V. I. Leninning o'zi ham ochiq-oydin ta'kidlagan. Lenin bolsheviklar partiyasining barcha a'zolariga va Rossiyaning barcha mehnatkashlariga yuborgan murojaatnomasida shunday degan: «Rossiyada Sovet hukumatidan boshqa hukumat bo'lmasligi lozim... Ikkinchi Butunrossiya Sovetlarining syezdida bolsheviklar partiyasi ko'pchilikni tashkil etdi. Shuning uchun, faqat mana shu partiya tomonidan tuzilgan hukumatgina Sovet hukumatidir»¹. Yoki boshqa kuchlar o'z zimmalariga sotsializmni qat'iylik va izchillik bilan amalga oshirish majburiyatini olib, bolsheviklarga bo'ysunishlari kerak.

Shunday ekan, nima uchun Turkiston Xalq Komissarlari Sovetiga eserlar va maksimalistlar kiritildi, degan savol tug'ilishi mumkin. Chunki o'sha bolsheviklarning mavqei nafaqat jamiyatda, balki sovetlarda ham mustahkam emas edi. Sharoit bilan hisoblashmaslik ularni mag'lubiyatga uchratishi mumkin edi. Ko'p vaqt o'tmay 1918 yilda Sovetlarning VI syezdida saylangan Xalq Komissarlari Sovetiga boshqa partiyalardan bironta ham vakil kiritilmadi. Ular Sovetlarga qarshi harakatlarda ayblanib, hokimiyatni boshqarish huquqidan mahrum etildilar.

Mazkur sharoit Turkistonning milliy siyosiy kuchlarini o'z manfaatini himoya qilish yo'llarini izlashga majbur qildi va Turkiston muxtoriyatining tarix sahnasiga kelishiga sababchi bo'ldi.

Muxtoriyatning tuzilishi bolsheviklar tashviqot qilib kelayotgan millatlarning o'z taqdirini o'z belgilashi haqidagi prinsipga xilof emas edi. Undan tashqari, V. I. Lenin imzo chekkan «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» deb nomlangan murojaatnomada bayon qilingan fikrlar muxtoriyatning tuzilishiga qo'shimcha asos bo'ldi. Unda shunday jumalarni o'qishimiz mumkin: «Bundan buyon sizning urf-odatlariniz, milliy va madaniy muassasalariniz ozod va daxlsiz deb e'lon qilinadi. O'z milliy hayotlarinizni erkin va bermalol uyushtiravering, sizning bunga haqqingiz bor.

Siz o'zingiz o'z Vataningizning hokimlari bo'lishingiz lozim. O'z rasm-rusumingizga binoan hayotingizni uyushtirishingiz lozim. Sizning bunga haqqingiz bor, chunki sizlarning taqdiringiz o'z qo'lingizda»². Naqadar ajoyib so'zlar (chin dildan aytilgan bo'lsa)! Murojaatnomada sotsializm qurilishi, tuziladigan hokimiyatning shakli to'g'risida bir og'iz ham aytilmagan.

Bu hujjat ham muxtoriyatchilarni ruhlantirgan, yorqin kelajakka ishontirgan bo'lsa ajab emas. 1917 yil 26–29 noyabrda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi musulmonlarining IV qurultoyi Turkiston muxtoriyatining muvaqqat hukumatini qonuniy ravishda tuzgan, deb o'ylaymiz. Shu munosabat bilan, muxtoriyatning nechog'lik adolatli harakat qilganligini ta'kidlash uchun qurultoy qaroridan kichkina lavha keltiramiz: «Turkistonda istiqomat qiluvchi barcha millatlarning buyuk Rossiya inqilobi tantanali e'lon

¹ Ленин В. И. ТАТ. Т. 35. – 78-б.

² Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – С. 56.

qilgan o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipiga munosabatini ifoda etib, Turkistonni Rossiya Federativ Respublikasining tarkibidagi hududiy muxtoriyat shaklida tashkil etishni Turkiston Ta'sis Majlisiga taqdim etadi»¹. Shuningdek, qurultoy «Turkistonda istiqomat qiladigan kam sonli millatlar huquqlarining har tomonlama himoya qilinishini tantanali ravishda ta'kidlaydi»². Keltirilgan lavhadan ko'rinib turibdiki, Turkistondagi biron-bir millatning manfaatlari inkor etilgan emas. Hokimiyatni shakllantirishda ham ana shu demokratik qoidalar nazarda tutilgan.

Qurultoy qatnashchilari olijanoblik qilib, demokratik yo'ldan borganligini ko'rsatish uchun bir necha dalillar keltiramiz:

1) qurultoyda Turkistonning barcha viloyatlaridan kelgan vakillardan tashqari, bir qancha jamoat uyushmalaridan, jumladan «Sho'roi islomiya», «Ulamo jamiyati», «Musulmon tog' ishchilari», «Musulmon askarlar», «O'lka yahudiylari», «Buxoro yahudiylari» va boshqa tashkilotlarning vakillari ishtirok etdilar;

2) o'lkaning oliy organi bo'lmish Muvaqqat Majlisga 54 nafar deputat saylash mo'ljallangan, xususan, rusiyzabon vakillarga 18 ta joy ajratilgan (Sovetlar hokimiyatida bironta ham mahalliy millat vakillari bo'lmaganligini eslang);

3) muxtoriyat Sovetlarning IV o'lka syezdiga (1918 y. yanvar) 1918 yil 20 martda Ta'sis majlisini o'tkazish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qildi. Unga vakillarni to'g'ridan-to'g'ri, teng asosda, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylashni va joylarning 1/3 qismini musulmon bo'lmagan aholiga ajratib qo'yishni taklif qildi (ular aholining 7 % ni tashkil qilardi);

4) qurultoy tasdiqlagan hujjatlarda Turkiston muxtoriyatining Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida bo'lishi, kamchilikni tashkil qilgan millatlar huquqining muhofaza qilinishi ta'kidlangan. Muxtoriyatning bundan boshqa ijobiy tomonlarini ham misol qilib keltirish mumkin.

Xo'sh, muxtoriyatning qanday salbiy tomonlari bor ekan?

Muxtoriyat hujjatlarida davlat shariat qonunlarini hurmat qilishi belgilangan³. Lekin shu asosda muxtoriyatni klerikalizm (shariatga asoslanganlikda) ayblash mumkinmi? Axir, mahalliy xalqning hammasi musulmon edi-ku? Ana shunday sharoitda islomni inkor qilish hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Muxtoriyatni chet el, xususan, Angliya bilan maxfiy aloqadorlikda aybladilar. To'g'ri, bunday aloqa bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo shunga asoslanib, muxtoriyatchilarni Turkistonni Angliyaning mustamlakasiga aylantirishdagi harakatda ayblash adolatdan emas. Nima uchun muxtoriyatchilar uzoqni ko'zlab Turkistonni Rossiya mustamlakasidan qutqarib, ozod qilishda Angliyaning yordamidan foydalanishi mumkin emas

¹ Туркестанские ведомости. – 1917. – 18–21 нояб.

² Улуғ Туркстон. – 1917. – 8 дек.

³ Turkiston muxtoriyatining faoliyatini tahlil qilishda biz M. K. Hasanovning «Кокандская автономия и некоторые ее уроки» maqolasidan foydalandik. Qarang: Октябрьская революция в Средней Азии и Казахстане: теория, проблемы, перспективы изучения. – Т., 1991. – С. 159.

edi? Biz ko‘proq Angliyaning Turkistonda Rossiyaga bo‘ysunmagan mustaqil kuchli davlat yaratish maqsadi bo‘lgan, degan fikrga moyillik bildiramiz. Axir, bolsheviklar Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatishda boshqa siyosiy kuchlardan foydalangan-ku, nima uchun shu usuldan muxtoriyatchilar foydalanishi mumkin emas edi?

Biz yuqorida keltirilgan dalillar bilan Turkiston muxtoriyatiga yuz foiz ijobiy baho berish tarafdori emasmiz. Muxtoriyat tarkibida o‘z zamonasining yetuk ma’rifatparvarlari, o‘z xalqini ozod qilish uchun chin dildan harakat qilganlar bilan birga, o‘zlarining tor doiradagi siyosiy manfaatini ko‘zlagan, xurofotga berilgan mutaassiblar ham bor edi, desak xato bo‘lmaydi.

Turkiston muxtoriyatining kamchiliklarini tanqid qilish mumkin, lekin bir narsani unutmaslik kerak, ya’ni muxtoriyatning vujudga kelishi bolsheviklarning mahalliy millatlarni mensimaslikka asoslangan noto‘g‘ri siyosatiga muayyan javob bo‘ldi. Sovet hukumati esa o‘zining siyosatini mahalliy millatlar manfaatiga moslashtirish o‘rniga Turkiston muxtoriyatini qurol kuchi bilan zo‘ravonlarcha tugatdi.

Bolsheviklar partiyasining Turkistondagi rahbarlaridan biri bo‘lgan D. I. Manjara muxtoriyatning tugatilishini shunday eslaydi: «Milliy siyosatda yo‘l qo‘ygan xatolarimiz tufayli Qo‘qon muxtoriyati vujudga keldi... Uni yo‘qotish paytida yana bir xatoga yo‘l qo‘ydik. Qurol-yarog‘i bo‘lmagan muxtoriyatchilar joylashgan eski shaharni qamal qilish o‘rniga biz to‘plardan o‘qqa tutdik, keyin dashnoqlarning qurolli to‘dalarini ishga soldik. Natijada talon-taroj, nomusga tegish, qirg‘in boshlandi. Bundan muxtoriyatchilarga aloqasi bo‘lmagan tinch aholi katta zarar ko‘rdi»¹.

Yana bir dalil. Muxtoriyat tugatilishi bilan Farg‘ona vodiysida bo‘lgan Turor Risqulov (Musbyuroning² bo‘lajak raisi) o‘zining xabarnomasida shunday yozadi: «Farg‘ona viloyatidagi barcha voqealarda armanlarning «Dashnaksutyun» partiyasi uyushtirgan ig‘vogarlik ishi ko‘rinib turibdi. Qizil Armiya guruhleri qaroqchilar bilan kurashish o‘rniga ichkilikbozlik bilan shug‘ullanganlar, o‘sha qaroqchilarga qurol-yarog‘ va o‘q-dori sotganlar. Tinch qishloqlarni talab, ularni qaroqchilarni yashirganlikda ayblanganlar»³.

Xo‘sh, bolsheviklar nima uchun milliy muxtoriyat tuzilishiga qarshi bo‘ldilar va uni qon to‘kish yo‘li bilan tugatdilar?

Buning birinchi sababini Turkiston bolsheviklarining o‘sha davrdagi rahbari Tobolinning so‘zlaridan bilish mumkin. U shunday deb yozgan edi: «Bugungi kunda muxtoriyatni darhol amalga oshirish to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas, chunki muxtoriyatning birinchi sharti o‘lkadan ruslar

¹ Каримов Ш. Қафасдаги куш орзуси. Т., 1991. 54-б.

² Musbyuro (Musulmonlar byurosi) 1919 yilda Turkiston Kompartiyasi o‘lka komiteti huzurida tashkil qilingan. U partiyaning siyosatini mahalliy aholiga singdirishi lozim bo‘lgan. Amalda esa mahalliy millat vakillaridan tashkil topgan Musbyuro rahbarlari Turkiston rahbarlarining buyuk davlatchilik siyosatini dadil fosh qilganlar va oqibatda barchalari qatag‘onga uchraganlar.

³ Хасанов М. Кокандская автономия и некоторые ее уроки // Октябрьская революция в Средней Азии и Казахстане: теория, проблемы, перспективы изучения. – С. 169.

qo‘shinini olib chiqib ketish bo‘lar edi. Agar biz muxtoriyat g‘oyasidan kelib chiqayotgan asosiy g‘oyani amalga oshirsak, inqilobga orqa tomondan zarba bergan bo‘lar edik»¹. Muxtoriyat g‘oyasi faqat Tobolinning o‘ziga emas, balki Turkistondagi ko‘pchilik bolshevik rahbarlarga ham erish tuyulardi.

Bu dunyoqarashni sovet tarixchilari faqat Turkistondagi bolsheviklarga xos xato, ular fuqarolar urushi tufayli markazdan ajralib qolgan edilar, deb haspo‘shlamoqchi bo‘ladilar. Aslida, musulmon muxtoriyatiga nisbatan bunday tajovuzning sababi bolsheviklarning soddaligi yoki tushunmasligi emas, balki birinchi navbatda, V. I. Leninning ko‘rsatmalari edi. Bu fikrimizning dalili sifatida RSDRP(b)ning V. I. Lenin boshchiligida bo‘lib o‘tgan 1917 yil aprel konferensiyasi qarorida ko‘chirma keltiramiz: «U yoki bu millatning u yoki bu sharoitda ixtiyoriy ravishda o‘z mustaqilligiga erishishi masalasini uning maqsadga muvofiqligi masalasi bilan chalkashtirmaslik lozim. Mustaqillikning maqsadga muvofiqligi masalasini yo‘qsillar partiyasi har bir muayyan holatda bir-biriga bog‘lamasdan alohida, umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan va yo‘qsillarning sotsializm uchun qaratilgan kurashidan kelib chiqib hal qilishi lozim»².

Mazkur ko‘chirma bir necha savollar tug‘dirishi mumkin. Millatlarning mustaqilligi maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligini nima uchun faqat bolsheviklar hal qilishi kerak? Agar mustaqillik sotsializm qurishga qaratilmagan bo‘lsa, millatni qurol kuchi bilan markazga bo‘ysundirish kerakmi? Asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan xalqning erkinligi nima uchun mustamlakachi davlat yo‘qsillarining sinfiy kurashi maqsadlariga mos kelishi kerak?

Endi Turkiston IV o‘lka Sovetlarining syezdida bolsheviklar taklifi bilan qabul qilingan qarorda zikr etilgan fikrni bayon qilamiz. U yerda, jumladan shunday deyilgan: «Turkiston muxtoriyati masalasi rus revolutsiyasi ko‘tarib chiqqan milliy masala bilan bog‘liq va uni faqat shu inqilobiy nuqtai nazardan ko‘rish mumkin.

Biz xalqlarning o‘z taqdirini o‘zlari belgilashi prinsipini asosan sotsializmga bo‘ysundiramiz va bu yo‘lda Qo‘qon muxtoriyati kabi to‘siqlar revolutsiya bilan yo‘q qilib tashlanadi»³. Qarang, bu gaplar Lenin va bolsheviklarning fikrini tasdiqlash emasmi?

Turkiston muxtoriyati tugatilishining asosiy sabablarini bolsheviklarning milliy siyosatidan izlash kerak. Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslansak, bolsheviklarning Rossiya tarkibida yashagan xalqlarga haqiqiy milliy mustaqillik berishni hech qachon istamaganligi ma‘lum bo‘ladi. Xalqlarning o‘z taqdirini o‘zlari belgilashlari prinsipi bolsheviklarning muayyan niyatlarini amalga oshirishlarida mahalliy mehnatkashlarni chalg‘itadigan shior vazifasini bajargan, xolos.

Oktabr qurolli to‘ntarishi Buxoro va Xiva xonligidagi vaziyatga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Buxoro va Xivaning mustaqilligi rasman tan olingan bo‘lsa-da, V. I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hukumati doimo bu

¹ Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – С. 19.

² КПСС в резолюциях... Т. 1. – М., 1983. – С. 503.

³ Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – С. 9.

hududlarni o'z tasarrufiga olish niyatida bo'lganligini juda ko'p dalillar bilan isbotlash mumkin.

Bu ikki davlat ilgari chor Rossiyasiga qaram bo'lganligiga qaramay, u bilan munosabatlarini muvofiqlashtirib, aksariyat paytda tinch va barqaror siyosat olib borar edi. To'ntarishdan keyin Rossiyada vujudga kelgan yangi vaziyat Buxoro va Xivada asosli ravishda bu davlatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otdi. Shu bois, Buxoro va Xiva, aholi turmush darajasining pasayishi evaziga bo'lsa-da, o'z mudofaa qobiliyatini kuchaytirishga majbur bo'ldi.

Bundan tashqari, Rossiyada ishlatib kelinayotgan balandparvoz shiorlardan ehtirosiga berilgan ayrim siyosiy kuchlar, jumladan «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar»ning so'l qanotlari mamlakatdagi hokimiyatni qo'lga olish rejalarini tuza boshlaganligi ushbu davlatlardagi vaziyatning chigallashuviga olib keldi. Bunday harakatlar ba'zan qonli to'qnashuvlarga ham aylanib ketdi.

Bunday vaziyat Rossiyaning bolshevik rahbarlariga qo'l keldi. Ular oxir-oqibat 1920 yilga kelib, o'z ixtiyoridagi barcha vositalarni, xususan, qurolli kuchlarini ham ishlatib, bu ikki mamlakatda o'ziga tobe bo'lgan yangi hukumat tuzishga erishdilar.

Shunday qilib, Turkiston, Buxoro va Xivada sovet hokimiyati majburan o'rnatildi. Buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, bolsheviklar o'z maqsadlariga erishishda bir qancha shiorlardan ustalik bilan foydalandilar, ya'ni xalqlarga – tinchlik, milliy mustaqillik, ishchilarga – zavod-fabrikalar, dehqonlarga – yer, barchaga – tenglik, ozodlik, baxtli kelajak va'da qildilar. Bolsheviklarning soxta shiorlariga mahalliy mehnatkashlarning, hatto ziyolilarning ham bir qismi ishondi. Bir tomondan – chor samoderjaviyesi, ikkinchi tomondan – mahalliy boylar va zodagonlar mehnatkashlarni ezganligini inkor etolmaymiz. Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistondagi voqelikni ta'riflab shunday yozgan edi: «...Bu zamonda yuz yildan ziyodroq muqaddam zamondan boshlab ohista-ohista millat devorlarining har tarafiga rahna paydo bo'ldi. Munga sabab ulamo va umarolarni(ng) o'z nafslari rioyasida harakat qilmoqlari bo'ldi. Podshoh va xonlarimiz bo'lsa, millatga qilgan xizmatlari tanho xotin olmoq va kuchuk urushtirmoq va behaqqoniyat dindor kishilarni badarg'a qilmoq va o'ldirmoq bo'ldi. Millat nima va shariat nima bilmadilar»¹. Shunday holatda qolgan mehnatkash xalq umid uchquni beradigan har qanday va'daga ishonishi mumkin edi. Bunday vaziyatdan bolsheviklar ustalik bilan foydalandilar;

ikkinchidan, bolsheviklar tajriba va qat'iy intizomga asoslangan kuchli tashkilotga ega edilar, milliy siyosiy tashkilotlar esa faqat 1917 yilgi Fevral inqilobidan keyingina tuzila boshladi. Ularning yetarli tajribasi yo'q edi. Bolsheviklar turli siyosiy kuchlarning kelishmovchiliklaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar: kezi kelganda ba'zilar bilan kelishib, boshqalariga qarshi kurashdilar, g'alabaga erishgach, vaqtinchalik ittifoqchilarini yo'q qildilar.

¹ Шарқ юлдузи. – 1992. – № 5. – 109-б.

Yana bir asosiy sabab bor. Ma'lumki, bolsheviklar hokimiyatni qo'lga kiritishda qurollangan, harbiy tajribaga ega bo'lgan armiyani o'z tarafiga og'dirib olib, uning katta kuchidan foydalangan edilar. Jangovar tayyorgarlik ko'rgan muntazam armiyaga ketmon va tayoq bilan qarshi chiqqan, bir parcha yeriga qattiq bog'langan dehqonni ko'z oldingizga keltirsangiz, g'alaba qaysi tomonda bo'lishi oldindan ayon bo'ladi. Kuch ishlatish nafaqat turmush tarzini, balki insonning ongini o'zgartirishda ham qo'llanildi. Kommunistik mafkurani, sotsializm yaratish g'oyasini qabul qilmagan mahalliy xalq doimo tazyiq, yer-suvini, mol-mulkini, o'zining va oilasining tinchini yo'qotish xavfi ostida yashadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda mustaqillikka erishgan respublikamizning kelajak ravnaqi xalqimizning o'z tarixidan zarur saboqni ola bilishida. Uning mohiyati turli tabaqa, turli millatga mansub bo'lgan xalqimizning mafkurasidan qat'i nazar, birligidadir.

2. Sovetlarning shovinistik siyosatiga ommaviy qarshilikning vujudga kelishi va uning oqibatlari

Turkistonda sovetlar hokimiyatining majburlab o'rnatilishi va Turkiston muxtoriyatining qurolli kuchlarni ishlatib, xunrezlik yo'li bilan yo'q qilinishi hududda yangi hokimiyatga ommaviy qarshilik harakatining avj olishiga turtki bo'ldi. Qarshilik harakatining tarkibiy qismlarini Rossiya ma'muriyatining hokimiyatdan majburlab chetlatilgan va o'z mavqeini qayta tiklashga harakat qilayotgan vakillari; yangi hokimiyatda yetakchi o'rinni egallash uchun intilayotgan menshevik, eser va boshqa rusiyzabon siyosiy kuchlar hamda ularning xayrixohlari; nihoyat, o'z ozodligi, juda bo'lmaganda, milliy manfaatlarining yangi hokimiyat tomonidan tan olinishi uchun kurash olib borayotgan istiqlochlilar harakati tashkil qildi. Istiqlochlilar harakatiga qo'lida qurol bilan sovetlarga qarshi kurashganlardan tashqari, maxfiy tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etganlarni va kommunistik partiyaga kirib, sovet tashkilotlarida turib, o'z millatdoshlarining manfaatini himoya qilganlarni ham kiritish lozim. Biz uchun eng muhimi istiqlochilik yoki milliy ozodlik harakatining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganishdir, chunki u o'zining ommaviyligi va uzoq davom etganligi bilan ham e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, u barcha mahalliy millatlarning manfaatlarini ifoda etib, bosqinchilikka qarshi qaratilgan edi.

Milliy ozodlik harakatlarining qanchalik avj olganligi, uning saflarida aholining qancha qismi ishtirok etganligi, qanchasi unga xayrixoh bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar keltirish qiyin. Lekin biz milliy ozodlik harakatlariga barham berish uchun sovet davlati tomonidan maxsus Farg'ona, Yettisuv, Kaspiyorti frontlari tuzilganligini inobatga olsak, bu harakatning qanchalik keng tarqalganligi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, faqat Farg'ona vodiysidagi Madaminbekning dastasida – 30 ming, Shermuhammadbeknikida – 20 ming,

Ergash qo‘rboshinikida – 8 ming nafar atrofida yigit bo‘lgan¹.

O‘zbekistonda milliy aholining bolsheviklar siyosatiga qarshi o‘z ozodligi uchun kurashi asosan 1926–1927 yillargacha, ba‘zi joylarda esa 1933 yilgacha davom etdi va sovetlar unga – «bosmachilik», milliy ozodlik harakatining faol qatnashchilariga esa – «xalq dushmani» tamg‘asini yopishtirdilar.

Shu o‘rinda istiqlolchilik harakati boshlanishi va shiddatli ommaviy tus olishi, uzoq davom etishi, fojiali oqibatlarga olib kelishining asl sabablari nimada ekan, degan savolning tug‘ilishi tabiiy.

Istiqlolchilik harakati kelib chiqishining nazariy asoslari bolsheviklarning jamiyatni o‘zgartirish, ya’ni sotsializm tuzumini qaror toptirish usuliga munosabati bilan bog‘liq. Bu munosabat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, bolsheviklar o‘zlarining jamiyatni o‘zgartirish harakatlariga V. I. Leninning sotsialistik inqilob nazariyasini, ya’ni mavjud tuzumni majburlab, qurolli kuch ishlatib o‘zgartirish usulini asos qilib oldilar. Insonning ming yillar davomida shakllangan turmush tarzini majburlab o‘zgartirish qarshilikka uchrashi tabiiy edi, shunday bo‘ldi ham;

ikkinchidan, xususiy mulkka ekspluatatsiya manbai sifatida qaralib, uni majburan davlat tasarrufiga olish jamiyatda eng katta qarshilikka sabab bo‘ldi, chunki mulk inson o‘z joni, oilasi, e’tiqodi qatorida e’zozlaydigan eng yuksak ne’matdir. Bolsheviklar esa uni qonunga xilof ravishda tortib oldilar. Turkistonda ham Xalq Komissarlari Kengashining raisi F. Kolesovning hech qanday qonunga asoslanmagan 1918 yil 28 fevral farmoyishiga binoan, aholidagi bor paxtaning hammasi, kimda va qancha bo‘lishidan qat’i nazar, joyida, mulk egasi va uning oila a’zolari hayotini xavf ostida qoldirib, davlat hisobiga tortib olindi. Undan tashqari, 274 ta xususiy paxta tozalash zavodi ham davlat tasarrufiga o‘tkazildi². O‘sha davrda Farg‘ona vodiysida dehqonlar asosan paxta yetishtirish hisobiga tirikchilik o‘tkazganlar. Ammo paxta nafaqat boylarda, balki bir parcha yeri bo‘lgan o‘rtahol yoki kambag‘al dehqonlarda ham bo‘lgan, buning ustiga ana shunday dehqonlar ko‘pchilikni tashkil qilgan hukumatning bunday munosabatidan so‘ng tirikchiligi zarar ko‘rgan oddiy dehqonlar kayfiyatining ko‘tarilmagani aniq.

Biz eslatgan davr haqida harbiy tarixchi D. Zuyev shunday yozadi: «Bosmachilik harakati paxta o‘rniga don yetishtirishga o‘tilayotgan davrda vujudga keldi: (paxtani davlat tortib oladigan bo‘lsa, uni ekishdan na foyda. – E. A.) natijada yuz minglab dehqonlar, aravakashlar, olibsotarlar, paxta zavodlarining ishchilari, hammollar ishsiz qoldilar»³. Umuman olganda, 1930 yillarga kelib aholining ixtiyorida deyarli xususiy mulk qolmadi. Demak, keltirilgan dalillardan xulosa qilib aytish mumkinki, sovet hukumati olib borgan siyosat boylar bilan bir qatorda kambag‘al dehqonlarning ham manfaatlarini poymol qilgan;

¹ Qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустақлақчилиги даврида. – Т., 2000. – 99–100-б.

² Qarang: Семятова В. Голод в Туркестане в 1917–1920 годах // Человек и политика. – 1991. – № 12. – С. 73.

³ O‘sha joyda. – С. 73.

uchinchidan, Sovetlarga qarshilikning kuchayishiga olib kelgan yana bir sabab bolsheviklarning ijtimoiy hayotga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashishidir. Ularning fikricha, kommunistik jamiyatga o'tish uchun davlatni faqat ishchilar diktaturasi boshqarishi mumkin, o'zga sinflar va tabaqalar, jumladan dehqonlar esa yo ishchilar (kommunistik) mafkurasini qabul qilishlari yo sinf sifatida yo'q qilinishlari lozim. Bolsheviklar partiyasining 1919 yilgi ikkinchi dasturi o'rtahol dehqonlar bilan ittifoqda bo'lishga chaqirganligiga qaramay, 1921 yilda V. I. Lenin dehqonlar (barcha toifasi) mulkdor bo'lganliklari, mayda burjua toifasiga kirganliklari uchun har kuni, har soatda kapitalizmni vujudga keltiradi, degan fikrni bildirgan¹. Sotsializm qurayotgan bolsheviklar bunga tish-tirnog'i bilan qarshi edilar. Demak, asosan dehqonlardan tashkil topgan Turkistondagi aholini turli yo'llar bilan tugatish bolsheviklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan;

to'rtinchidan, Turkistondagi fojiali jarayonlarni bolsheviklarning milliy-ozodlik harakatiga bo'lgan munosabati bilan izohlash mumkin. Milliy harakatga kommunistlarning munosabatini V. I. Lenin Kominternning II kongressida (1920 y.) o'zining «Milliy va mustamlaka masalalari bo'yicha doklad»ida quyidagicha ifodalagan: «Hech bir shak-shubha yo'qki, har qanday milliy harakat faqat burjua-demokratik harakati bo'lishi mumkin, chunki qoloq mamlakatlardagi aholining asosiy ommasi burjua-kapitalistik munosabatlarning namoyandalari bo'lgan dehqonlardir»².

Bu mantiqqa amal qilinsa, sotsializm uchun kurashayotgan kommunistik partiya ikki yo'ldan borishi mumkin. Birinchisi – milliy ozodlik harakatini qurol kuchi bilan yo'q qilish kerakligi (Turkistonda milliy masalani hal qilish jarayonida shunday usul ham qo'llangan), lekin bu yo'lni ochiqdan-ochiq rasmiy siyosat sifatida qo'llash mumkin emas. Shuning uchun ikkinchi yo'lni, ya'ni bolsheviklar yo'lini tutish kerak. Uning mohiyati millatlarning o'z taqdirlarini o'zlari belgilashlari huquqini, ya'ni ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzish huquqini shior sifatida tan olib, milliy ozodlik harakatini sotsializm g'oyasiga bo'ysundirish choralarini ko'rishdan iborat. Bu choraning mazmunini V. I. Leninning Turkiston va shu kabi qoloq, sanoat proletariati deyarli yo'q mamlakatlarda rahbarlik rolini bolsheviklar o'z zimmlariga olishi lozimligi haqidagi g'oyasi tashkil etadi³. Boshqacha aytganda, bolsheviklar milliy manfaatlarni inkor qiladilar. Bunga yuqorida bayon etilgan hodisalar, ya'ni sovet hukumati tarkibiga mahalliy millat vakillarining kiritilmaganligi, Turkiston milliy muxtoriyatining yo'q qilinishi aniq dalil bo'la oladi.

Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Buyuk davlatlarning sivilizatsiyadorlik harakati mumtozlik va atrofdagilarga mensimay qarashdan iborat halokatli ruhiyatni vujudga keltirib va mustahkamlabgina qolmadi, balki zo'rlik bilan joriy qilingani, milliy nafsoniyat va iftixorini kamsitgani, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarini toptagani, ularning ifodachilarini jismonan yo'q qilib tashlagani uchun bunday harakat tegishli

¹ Qarang: *Ленин В. И.* Тўла асарлар тўплами. Т. 41. – 6-б.

² O'sha joyda. – 271-b.

³ O'sha joyda. – 6-b.

qarshilikka uchrar edi»¹. Bolsheviklarning o‘z siyosatini amalga oshirishda aynan shunday yo‘l tutganliklari, shuningdek o‘sha qaqshatqich bostirish, riyokorlik, bosqinchilik, xunrezlik usullarini qo‘llaganliklari, aholi eng quyi tabaqalarining ham qarshilik harakatiga qo‘shilishiga va bu harakatning yanada ommaviylashib ketishiga sababchi bo‘ldi. Fikrimizni asoslash uchun bir necha misollar keltiramiz.

1918–1920 yillarda Rossiyada fuqarolar urushi davom etayotganligi, Turkistonda avvallari g‘alla yetishtirilgan yerlarga paxta ekishga o‘tilganligi sababli bu yerda ochlik hukmronlik qildi. Bolsheviklarning oziq-ovqat siyosatini amalga oshirishlari ham aynan shu davrga to‘g‘ri keldi. Unga ko‘ra, Qizil Armiyani davlat emas, balki u o‘zini o‘zi ta‘minlashi kerak edi. Demak, armiya o‘ziga kerak bo‘lgan mahsulotni xalqdan yig‘ib olishi kerak bo‘lgan. Maxsus tuzilgan harbiy oziq-ovqat guruhlari (ular tarkibida mahalliy millat vakillari bo‘lmagan) tub aholining ehtiyojlarini hisobga olmasdan, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri talaganlar. Bundan tashqari, ishchilarning oziq-ovqat guruhlari ham bo‘lgan. O‘sha davrdagi mahalliy hokimiyat ham doimo Moskvaning oziq-ovqat tayyorlash bo‘yicha topshiriqlarini oshirib bajarishga tayyor turgan. 1921 yilda (Turkistonda ochlik hukm surayotgan paytda) V. I. Lenin markazga 58 vagon don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yuborish to‘g‘risida topshiriq bergan. Turkiston hukumati bu vazifani qariyb uch barobar oshirib bajarishga, ya‘ni 150 vagon jo‘natishga qaror qiladi². Zo‘rg‘a kunini ko‘rib turganlarning bor-yo‘q narsalarini tortib olgan, mol-mulkini yashirganlarni otib tashlashga buyruq bergan sovet hukumati olib borayotgan tadbirlarga qarshilikning ommaviy tus olishi, aholining o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun qo‘liga qurol olishi tabiiy edi.

Yana bir dalil. 1922 yilda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining to‘rtinchi plenumi «bosmachilik» harakati bilan bog‘liq masalani maxsus muhokama qildi. Plenumda Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining raisi Qayg‘isiz Otaboyev nutq so‘zladi. Sovetlarning Turkistonda olib borayotgan nomaqbul siyosatini ko‘rsatish uchun ana shu nutqdan bir necha ko‘chirmalar keltiramiz:

«Bizning 4 yil mobaynida olib borayotgan barcha ishlarimiz bu yerdagi mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan turmush tarziga, urf-odati va an‘analariga butunlay zid edi. Vaziyat bilan hisoblashishga uquvimizning yo‘qligi hammamizning kasalligimizdir...

Biz o‘zimizning uquvsiz siyosatimiz bilan aholining o‘zimizga qarshi qo‘zg‘alishiga sabab bo‘libmiz... Buxoro inqilobining mohiyatini tushuntirar ekan, notiqlar bizning inqilobimiz boshqa inqiloblardan shunisi bilan farq qiladiki, bu inqilob faqat amirgagina emas, ayni paytda xudoga ham qarshi qaratilgan, deb javrashayapti. Bu gapni shahri sharif hisoblangan Buxoroda, din g‘oyat mustahkam o‘rin olgan, butun turmush tarzi to‘laligicha diniy asosga qurilgan, aholisi o‘ta dindor va mutaassib hisoblangan Buxoroda

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараккиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – 68-б.

² Qarang: Исоқов И. Қирғинни ким қилган-у, жадиға ким қолган эди? // Шарқ юлдузи. – 1992. – № 5. – 159-б.

aytishyapti! Tabiiyki, bu holda biz, butun aholini o'zimizga qarshi qo'zg'aymiz...

...Farg'ona frontining qo'mondoni o'rt. Konovalov bosmachilarning turgan joyi haqida xabar topib, Bozorqo'rg'onga yo'l oldi va otradning harakati haqida bosmachilarga xabar berilishidan qo'rqib, yo'lda uchragan barcha o'zbeklarni otib tashladi. Otrad Bozorqo'rg'on yaqinida yana bosmachilar bilan to'qnashib, kichik jang qildi. O'rt. Konovalov bu yerdan jo'nab ketayotib, Bozorqo'rg'onga qo'shni bo'lgan Nikolskoye qishlog'i krestyanlariga Bozorqo'rg'onni bosmachilardan tozalashni taklif qiladi. Nikolskoye krestyanlari 23 kun mobaynida Bozorqo'rg'onni «tozalaydilar». «Tozalash» shunday olib borildiki, avval «faqat» talaydilar, keyin aholini otib tashlaydilar: erkaklarni bosmachilarga hamdard deb, bolalarni esa kelajakda bosmachi bo'lishlari mumkin deb o'ldirdilar... Krestyanlar bosmachilarni tugatganliklari, qishloq aholisi qaytib kelib, murdalarni ko'mishlarini, endi qishloq aholisiga dushmanlik qilmasliklarini e'lon qiladilar. Qishloqqa qaytib kelgan aholi otilganlarni qabristonda dafn etish marosimini o'tkazayotganida krestyanlar bu yerga ham hujum qilib, oxirgilarini (dafn etishda qatnashayotganlarini. – E. A.) bir yo'la qirib tashlaydilar»¹.

Biz Qayg'isiz Otaboyevning nutqidan kichik bir lavha keltirdik. Aslida nutq dahshatli misollarga to'lib-toshib yotibdi. Nutqning asosiy maqsadi «bosmachilikka» qarshi kurash jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib, sovet hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan. Shunday bo'lsa ham Q. Otaboyevning mardligiga qoyil qolish kerak. Balki u o'z xalqining kelajak baxti sovet tuzumi bilan bog'liqligiga samimiy ishongandir. Bu – uning fojiasi edi. Lekin «xalqlar otasi» Stalin hech qachon, hech kimni kechirgan emas. 1937 yilgi qatag'onlarda Otaboyevning yo'q qilib yuborilishi uning 1922 yildagi nutqi bilan ham bog'liq bo'lsa, ajab emas.

«Bosmachilik»ning milliy ozodlik kurashi ekanligini o'sha davrda Turkistondagi ba'zi bir rusiyzabon rahbarlarning o'zlari ham tan olganlar. Masalan, 1919–1922 yillarda Turkiston armiyasining Revolyutsion Harbiy Soveti va Turkkommissiya a'zosi F. I. Goloshchyokin o'z bayonotida quyidagilarni yozadi: «U yoqda (Farg'onada) siyosiy va iqtisodiy hayotda faqat o'ta tartibsizlik va dahshat bor. Sinfy kurash yo'q, aksincha, milliy kurash shiddatli tus olgan, bosmachilik esa sho'ro hokimiyati va guruhlarimiz sa'y-harakati tufayli vujudga kelgan... partiyaning barcha a'zolari bosqinchilik qilmoqda, pora olmoqda»².

Bolsheviklarning zo'ravonlik, mahalliy aholini kamsitish siyosatini 1920 yilda V. I. Leninning o'zi ham tan olgan. «Bosmachilik» harakati avj olgan, Turkistonda siyosiy inqiroz davom etayotgan davrdagi ahvol RKP(b)ning siyosiy byurosida ko'riladi va shu masala bo'yicha qaror qabul qilinadi. Ana shu qarorning muqaddimasidan ko'chirma keltiramiz: «RKP Markaziy

¹ Қайғисиз Отабоевнинг ТуркМИК 4-пленуми 5-мажлисида сўзлаган нутқи стенограммаси // Ўзбегим. – Т., 1992. – 76–87-б.

² Босмачилик: ҳақиқат ва уйдирма: Давра суҳбати // Шарқ юлдузи. – 1991. – № 3. – 167-б.

Komiteti Turkiston RKPning asosiy vazifasi Rossiya samoderjaviyesining ellik yildan ortiqroq imperialistik siyosati natijasida kelgindi yevropalik aholi bilan tub aholi o'rtasida vujudga kelgan keskin munosabatlarni tugatish, deb hisoblaydi. Bu munosabatlar mustamlakachilik psixologiyasi bilan g'oyat zaharlangan rus ishchilarining juda kichik guruhining qo'lida bo'lib, bu munosabatlar Sovet hokimiyatining 2,5 yili mobaynida yaxshi tomonga o'zgarish u yoqda tursin, balki o'ziga xos «kommunistik» harakatlar tufayli yanada kengroq keskinlashib ketdi, qullikka tushirilgan tub aholi bu harakatlarni eski chor hokimiyati agentlari harakatining davomi deb biladi, ular aslida ham shunday harakatlardir»¹.

Ushbu qaror V. I. Leninning topshirig'i bilan tayyorlangan va tasdiqlangan. Ko'rinib turibdiki, u bizning ba'zi sovetshunos olimlarimizdan farqli o'laroq, Turkistondagi ahvolni yaxshi bilgan va vaziyatni to'g'ri talqin qilgan. To'g'ri, qarorga bir qancha tadbirlar qatori, jumladan V. I. Lenin o'z qo'li bilan yozgan quyidagi band ham kiritildi: «Hokimiyatni ishonchli kommunistlar kontroli ostida – asta-sekin, lekin og'ishmay mehnatkashlarning mahalliy Sovetlariga bera borish muntazam ravishda o'ylanib, tayyorlanib, amalga oshirilsin»². Hokimiyatni faqat ishonchli kommunistlar kontroli ostida topshirish kerak emish, chunki bunday nazorat bo'lmasa, hokimiyat qo'ldan ketib qolishi mumkin-da. Undan tashqari, kim ishonchli kommunist bo'lishi mumkinligini faqat markaziy hokimiyatgina belgilashi katta sir emas. Demak, Turkistondagi mahalliy sovetlar markaziy hokimiyat ishongan kommunistlarning nazoratida bo'ladi.

Xullas, Sovetlarning mustamlakachilik siyosati natijasida kelib chiqqan qurolli to'qnashuv mahalliy aholi boshiga misli ko'rilmagan kulfatlarni keltiradi. Turkiston Ijroiya Qo'mitasining raisi bo'lgan N. To'raqulov Sovetlarning «bosmachilikka» barham berishga qaratilgan harakatlari natijasida 200 ming odam qurbon va mayib-majruh bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni keltiradi³.

Bu raqamni ham tekshirib ko'rish kerak, chunki sho'ro hukumatining boshlig'i sifatida N. To'raqulov haqiqatni to'liq ochib berish imkoniga ega bo'lmagan, deb o'ylaymiz. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, bu raqam bir necha marta kamaytirilgan. Chunki, masalan, M. Cho'qayev o'zining «Turkiston Sovetlar hukmronligida» (Parij, 1935) nomli kitobida bu qatag'onlar natijasida 1,1 mln. odam halok bo'lganligini xabar beradi⁴.

Bundan dahshatliroq ma'lumotlar ham bor. Masalan, R. Shamsutdinov Vatan istiqloli uchun kurashda 5 million 600 ming kishi shahid bo'ldi, chet ellarda muhtojlik azobini tortdi, Sibir surgunlarida halok bo'ldi va mayib-majruh bo'lib qoldi, deb yozadi⁵. Balki bu raqamlar biroz bo'rttirib

¹ Ленин В. И. Тўла асарлар тўплами. Т. 41. – 489-б.

² O'sha joyda. – 170-b.

³ Qarang: Босмачилик: ҳақиқат ва уйдирма // Шарқ юлдузи. – 1991. – № 3. – 176-б.

⁴ Qarang: Азия. – 1993. – № 29–30.

⁵ Qarang: Шамсутдинов Р. Тарихий меросимизга бир назар. – Андижон, 1994. – 143-б.

berilgandir. Albatta, aniq raqamni keltirish qiyin, chunki bunday ma'lumotlar keltirilgan hujjatlarning topilishi amrimahol. Fuqarolar urushida, ochlikdan, qatag'onlar natijasida halok bo'lganlarni hisobga olish va bu to'g'rida ochiq-oydin axborot berishdan sovetlar hokimiyati manfaatdor bo'lmagan. Lekin millionlab emas, hattoki bir inson huquqining poymol etilishi, joniga jabr qilinishining o'zi fojiaadir.

Ma'lum bo'lishicha, 1917–1920 yillarda, ya'ni uch yil ichida Turkistonning ekin maydonlari 40 foizga kamayib ketdi, chunki, bir tomondan, erkaklar birodarkushlik urushida qatnashayotgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, bolsheviklar olib borgan «harbiy kommunizm» siyosati ishlab chiqarishdagi manfaatdorlikni so'ndirdi. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlari 2 martaga yaqin, qoramollar soni 2,5 marta kamayib ketdi, sug'orish tarmoqlari vayron bo'ldi. Savdo-sotiq to'xtaganligi natijasida Turkiston xo'jaligiga 298 mingta omoch, 394 mingta ketmon va boshqa ish qurollari yetishmas edi¹. Natijada ochlik hukm sura boshladi.

Biroq bu ochlik bolsheviklarni deyarli tashvishga solmadi. Masalan, bolshevik Tobolinning fikricha, ochlikka qarshi kurashishga mo'ljallangan mablag'larning frontlarni ta'minlashga sarflangani inqilob uchun ma'qulroq (chunki bu borada maqsadga erishib bo'lmaydi)². Shu dunyoqarashning o'ziyoq Turkistondagi mahalliy xalqqa kulfat keltirgan kommunistik g'oyaning insoniylik normalaridan yiroqligidan dalolat beradi.

Istiqlolchilik harakatining asl mohiyati mahalliy aholining ozodligi, mamlakatning mustaqilligi uchun kurash ekanligini tan olib, uning ba'zi nuqsonlari haqida so'z yuritmaslik xolislikka xilof.

Milliy ozodlik harakati tarkibida siyosiy maqsadni ko'zlagan Madaminbek va boshqa qo'rboshilarning ham bo'lganligini, ularning dastalarida rus ofitserlari ham xizmat qilganligini, ular istiqloqlarni xorijdan, ayniqsa, Afg'oniston tomondan qurol-yarog' bilan ta'minlanganligini, 1919 yilda Farg'onada Madaminbek boshliq muvaqqat hukumat tuzilganligi va uning xorij bilan aloqada bo'lganligini, ayni paytda ba'zi guruhlarining tinch aholini talash bilan ham shug'ullanganliklarini inkor qilmaymiz. Lekin shu kabi ayrim dalillar asosida butun milliy ozodlik harakatini qoralash insofdan emas, chunki ushbu faktlarning har biri ortida qandaydir obyektiv asos bor.

Madaminbek va boshqa qo'rboshilar xalqni bolsheviklar istibdodiga qarshi kurashga ko'tarar ekan, harakatdagi Qizil Armiya bilan to'qnashishga to'g'ri kelishini yaxshi tushunganlar. Bor quroli ketmonu belkurakdan iborat bo'lgan musulmon dehqonini harbiy ishga o'rgatishda kimdan foydalanish kerak? Agar rossiyalik mutaxassislar bunda yordamga kelgan bo'lsa, buning nimasi yomon? Umumiy dushmani bartaraf qilishda nima uchun ulardan foydalanish mumkin emas? Qurol-yarog'ni Rossiya bermaydi. Shuning uchun uni faqat chet eldan olish mumkin.

Yana shuni e'tirof etish joizki, milliy ozodlik harakatida ishtirok

¹ Qarang: Голованов А. А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917–1937 гг. – Т., 1992. – С. 62.

² Qarang: Азия. – 1993. – № 29–30.

etayotgan guruhlarning moddiy ta'minoti faqat mehnatkash xalqning gardanida edi. Qayerdadir aholi istiqlochlilarga xayrixohlik bildirib, ularni ixtiyoriy ravishda oziq-ovqat bilan ta'minlagan bo'lsa, boshqa yerda oziq-ovqat kuch ishlatib olinganini ham inkor etib bo'lmaydi.

Istiqlochlilik harakatida uchragan ayrim ma'naviy nuqsonlarning ham muayyan sabablari bor: birinchidan, hokimiyat uchun kurash ketayotgan vaqtda ushbu harakatga putur yetkazadigan, o'zining qabih siyosiy maqsadlaridan boshqa narsani ko'rmaydigan unsurlar kirib qolmasligiga hech kim kafil bo'la olmaydi? Bu borada sovetparastlikda umuman ayblab bo'lmaydigan Boymirza Hayitning fikricha, «bosmachilik» harakatining eng bo'sh joyi rahbariyat masalasi edi, chunki ularning birontasi ham hokimiyat uchun kurashda o'z da'vosidan kecha olmadi, ba'zida bu ixtilof o'zaro qonli kurashga ham olib kelardi. Milliy harakatni boshqarib turadigan siyosiy kuch ham yo'q edi. Buning ustiga islohotchilar bilan xurofotga berilgan ruhoniylar o'rtasidagi nizo ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatar edi. Ana shu nizo «Qo'qon muxtoriyati»ning tugatilishiga asosiy sabab bo'ldi¹.

Ikkinchidan, ochlikdan o'lim bo'sag'asida turgan yoki ishsizlik, notinchlik tufayli ro'zg'or tebrata olmayotgan odamning miyasida faqat olijanob, insoniy tuyg'ular barq urib turadi, deyish xomxayoldan bo'lak narsa emas. Axir, insonning ongi real muhit bilan bog'liq-ku. Istiqlochlilik harakati inqirozga uchrashining yana bir obyektiv sababi uning tarkibiy qismi bilan bog'liq. Eslatib o'tganimizdek, uning asosiy qismini dehqonlar tashkil qilgan. Dehqonning jamiyatdagi o'rni ham, istiqboli ham, oilasining baxti, sog'lig'i ham yeri va undan olingan mahsulotga bog'liq. Shu bois, uning milliy ozodlik harakatidagi ishtiroki mana shu bir parcha yerini saqlab qolishga qaratilgan, qolaversa, u qishloq, nari borsa, tuman doirasidan chetga chiqmaydi. Deqqon uzoq vaqtga oilasini tashlab ketolmaydi, chunki u och qolishi mumkin.

Milliy ozodlik harakatidagi ayrim salbiy jihatlarni tan ola turib, Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ba'zi bir tangliklar, xalqning o'zaro qarama-qarshi bo'lgan turli-tuman siyosiy taraflarga bo'linib ketishi, avvalo, bolsheviklarning jamiyatni qurol kuchi bilan o'zgartirish borasida olib borayotgan siyosatining mahsuli ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, shafqatsizlik, razillik, inson huquqlarini poymol qilishda bolsheviklar «bosmachilar»dan o'n chandon o'tkazib yuborganliklarini yuqorida keltirilgan ko'plab misollardan bilib oldik.

Endi Turkistonda Sovetlar hokimiyatining qaror topishi sabablariga to'xtalamiz. Nazarimizda, bu birinchi navbatda bolsheviklarning riyokorona siyosati bilan bog'liq. Ular milliy ozodlik harakatiga qarshi nafaqat qurol kuchi bilan kurashdilar, balki mahalliy aholini aldash, chalg'itish borasida ham ustasi farang bo'lib chiqdilar.

Bunga misol qilib 1921–1922 yillarda bolsheviklar amalga oshirgan mahalliy aholiga yon berish siyosatini keltirish mumkin. «Bosmachilik»

¹ Qarang: *Баймирза Хаит. Басмаческое движение // Звезда Востока. – 1992. – № 1. – С. 100.*

harakatini to'g'ridan-to'g'ri qurol kuchi bilan yengib bo'lmasligiga ko'zlari yetganidan keyin bolsheviklar o'z siyosatlarini o'zgartirdilar. Jumladan ular vaqfning qaytarilishiga, eski maktablar ochilishiga, shariat va qozilik sudlovining tiklanishiga rozilik bildirdilar, o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan bosmachilarni afv etishni va'da qildilar¹. Lekin bu tadbirlar vaqtinchalik bo'lib, bolsheviklar o'z mavqeini mustahkamlab olganlaridan so'ng bu milliy an'analarni tag-tomiri bilan qo'porib tashladilar.

Sovet hukumatining eng katta siyosiy o'yinlaridan biri 1924 yilda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishidir. Go'yoki millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hayotga tatbiq etish va milliy davlat tuzish maqsadida, ikki mustaqil davlat – Buxoro XSR va Xorazm XSR tag-tugi bilan yo'q qilib tashlandi. Ularning o'rnida O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston respublikalari tashkil qilindi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar va mulohazalar asosida «bosmachilik» tushunchasini sovetparast tarixchilar kommunistik mafkuraga amal qilib yaratganlar, aslida u milliy ozodlik harakati bo'lgan, deb to'la ishonch bilan ayta olamiz. Har bir siyosiy jarayonda bo'lganidek, ushbu harakatning ham salbiy tomonlari bo'lgan. Lekin 20–30-yillarda millatning ozodligi yo'lida berilgan qurbonlar zoye ketmadi. Tarix, Prezident I. A. Karimovning so'zlari bilan aytganda, shovinizm pirovardida davlatning o'ziga zarba berishini, uning poydevorini kuchsizlantirishini, ichki ziddiyatlarini kuchaytirishini va uning Sovet imperiyasi kabi parchalanib ketishini 1991 yilga kelib isbotladi².

¹ Qarang: *Исоқов И.* Қирғинни ким қилган-у, жадига қолган ким эди? // Шарқ юлдузи. – 1992. – № 5. – 160-б.

² Qarang: *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 68–69-б.

11-ma'ruza

SOVET DAVLATINING QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI OG'IR OQIBATLARI

1. SSSRda ma'muriy buyruqbozlik tizimining shakllanishi

Ma'lumki, sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi va mustahkamlanishi ezilgan xalqlarga ozodlik ato qilish, mehnatkashlarga erkinlik, millatlarga mustaqillik berish kabi chiroyli va jozibali shiorlar ostida ro'y berdi. Shunday ekan, nima uchun keyinchalik ma'muriy buyruqbozlik tizimi qaror topdi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu tizimning shakllanishiga nima sabab bo'ldi? V. I. Lenin, I. V. Stalin, N. S. Xrushchev, L. I. Brejnev kabi muayyan shaxslarning xohish-irodasimi, SSSRni qurshab olgan tashqi dunyoning tazyiqimi yoki sotsializm deb atalmish g'oyaning maftunkorligimi? Bu savolga aniq javob berish uchun ana shu ma'muriy buyruqbozlik tizimining shakllanish jarayonini tahlil qilish lozim.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimining dastlabki ko'rinishi sovetlarning «harbiy kommunizm» siyosatida namoyon bo'ldi. Uning mohiyatini dehqonning ehtiyojidan ortiqcha (ba'zida ortiqcha bo'lmagan) mahsulotlarini davlat ixtiyoriga tortib olish tashkil qilardi. Buning «adolatli ekanligini» sovet hokimiyati mamlakatdagi fuqarolar urushi va chet el intervensiyasining oqibatlari bilan izohladi. To'g'ri, vaziyat og'ir bo'lgan. Lekin «harbiy kommunizm» siyosati, birinchi navbatda, kommunistik partiya rahbariyatining iqtisodiyotga, jumladan xususiy mulkka munosabati bilan bog'liq, bu siyosat sotsializm usuli sifatida joriy qilingan. Bolsheviklarning tushunishi bo'yicha sotsializm xususiy mulkning yo'q qilinishi, uning davlat tasarrufiga o'tkazilishi, pul-tovar munosabatlariga barham berilishi, iqtisodiyotni yagona markazdan turib rejalashtirish va teng taqsimlashni taqozo etadi. RKP(b)ning 1919 yilda qabul qilingan II Dasturida belgilangan maqsad va vazifalar hamda sovet hokimiyatining dastlabki davridagi iqtisodiy faoliyat ham buni tasdiqlaydi. Masalan, 1919–1920 yillardayoq Turkistonning o'zida boy dehqonlardan tortib olingan yerlar hisobidan 550 ta jamoa xo'jaligi tashkil qilingan, sanoat korxonalarining 93 % davlat tasarrufiga o'tkazilgan¹.

Ushbu siyosat nafaqat o'zining samarasizligini ko'rsatdi, balki og'ir oqibatlarga ham olib keldi. Shu sababli kommunistik partiya rahbariyati yangi iqtisodiy siyosatga, boshqacha aytganda, pul-tovar munosabatlariga o'tishga majbur bo'ldi. Tez kunda yangi iqtisodiy siyosat o'zining natijalarini bera boshladi. Ittifoq miqyosida, xususan O'zbekistonda ham sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqaror o'sib bordi. Paxta, sholi, beda hosildorligi 1913 yil darajasiga yetdi. Davlat ixtiyoridagi sanoat ishlab chiqarishi 1925–1928 yillarda 3 marta o'sdi. Bu ko'rsatkichlarga juda katta sarmoya hisobiga erishilgan bo'lsa, hunarmandlar esa o'z mahsulotlarining

¹ Qarang: История Узбекской ССР. Т. 3. – Т., 1967. – С. 180.

hajmini davlatning yordamisiz 5 barobarga ko‘paytirdilar¹. Shu bilan birga, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik o‘rnatildi, aholining turmush darajasi bir maromda ko‘tarila boshladi.

Shunday ekan, nima uchun 1930 yilga kelib to‘satdan yangi iqtisodiy siyosatga barham berildi va kommunistik partiya o‘z siyosatini tubdan o‘zgartirdi?

Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tilishi, kommunistik partiya rahbarlarining o‘zlari tan olishicha, vaqtinchalik chora edi². Ikkinchidan, sovet hokimiyati 1929 yilga kelib o‘zining mavqeini mustahkamlab oldi va sotsializmning asosini yaratish, ya’ni kapitalizmni qayta tiklashi mumkin bo‘lgan xususiy mulkni tag-tugi bilan yo‘q qilish davri keldi, deb hisobladi. Lekin «harbiy kommunizm» siyosati hali yo‘q qilishga ulgurmagan mulkka egalik hissi yangi iqtisodiy siyosat davrida aholining ongida o‘z mavqeini tiklab olganligi sababli, sotsializm g‘oyasini hayotga tatbiq etish qarshilikka uchrashi muqarrar edi. Shu bois, sovet rahbariyati juda ishonarli bahonalar izlashga majbur bo‘ldi. Bunday bahonalar topildi ham.

Birinchi bahona – SSSR kapitalistik dunyo qurshovida bo‘lganligi uchun urush xavfi ostida qoldi. Demak, bolsheviklarning fikricha, barcha iqtisodiy imkoniyatlar markazlashtirilib, og‘ir sanoatni tezlik bilan rivojlantirish, mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash lozim edi.

Bugungi kunda tarixchi olimlar urush xavfi siyosiy maqsadlarda bo‘rttirib ko‘rsatilganligini tan olmoqdalar. Ushbu fikrni isbotlash uchun bir necha dalillarni keltirish mumkin:

a) fuqarolar urushi davridagi, o‘ta qiyin iqtisodiy sharoitda chet el intervensiyasiga barham bergan sovet davlati yangi iqtisodiy siyosat tufayli o‘zini o‘nglay olganidan keyin mudofaani mustahkamlash uchun favqulodda choralar ko‘rishiga zarurat bo‘lmagan;

b) SSSRdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning guvohi bo‘lgan yetakchi mamlakatlar, jumladan Angliya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, AQSH (1933 y.) bu davlatni rasman tan ola boshlagan edilar. SSSR 1934 yilda jahondagi 30 mamlakatni birlashtirgan Millatlar Ligasiga qabul qilindi³. Bular xalqaro miqyosda SSSRning mavqei mustahkamlanganligidan dalolat berardi;

v) agar urush xavfi mavjud bo‘lsa, nima uchun kapitalistik dunyo SSSR bilan savdo-sotiqni rivojlantirdi? Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, SSSRdan Yevropa mamlakatlariga g‘alla sotish hajmi 1930–31 yillarda 52 marta oshgan⁴. Eksport evaziga olingan mablag‘ o‘sha mamlakatlarning o‘zidan, asosan, og‘ir sanoatni rivojlantirish bilan bog‘liq ishlab chiqarish vositalarini xarid qilishga sarflangan.

Urush xavfini 1939 yilda boshlangan Ikkinchi jahon urushi bilan asoslash esa tarixiylik qoidasining buzilishiga olib keladi, chunki 30-yillar boshlarida

¹ Qarang: Сельская правда. – 1989. 9 авг.

² Ленин В. И. Тўла асарлар тўплами. Т. 43. – 373-б.

³ Qarang: За мир, разоружение и безопасность народов: Летопись внешней политики СССР. – М., 1983. – С. 39–88.

⁴ Qarang: Историки спорят: 13 бесед. – М., 1988. – С. 271.

amalga oshirilgan markazlashtirish choralari undan keyin boshlangan urush bilan asoslash mantiqan noto'g'ri bo'ladi.

Ikkinchi bahona – Stalinning rasmiy ravishda e'lon qilingan «Sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham kuchayib boradi» degan soxta g'oyasi. Bu «bashorat»ni ittifoqdosh respublika partiya tashkilotlari o'zlariga dasturilamal qilib olishga majbur edilar, aks holda, sinfiy dushmanning borligini inkor qilganlarning o'zlari sotsializmning dushmaniga aylanib qolishlari aniq edi. Shuning uchun ham O'zbekiston Kommunistik partiyasi IV qurultoyining (1929 y.) qarorida zikr qilingan quyidagi ko'rsatmaning amal qilishi tabiiy edi: «Partiya qurultoyi bizning davlatimizda sinfiy kurashni yashirishga qaratilgan har qanday urinishni rad qiladi. Sinfiy kurashning keskinlashuvini xaspo'shlash, aslida, bizni sinfiy dushman oldida qurolsizlantiradi»¹. Xo'sh, sinfiy dushman kim edi?

Agar kommunistik partiyaning mantig'iga rioya qilinsa, sotsializm qurishga qarshilik ko'rsatishi mumkin bo'lganlar, birinchi navbatda, mulk egalari va ularning manfaatini ifoda etuvchi siyosiy kuchlardir. Shunday ekan, qarshilik ko'rsatishi mumkin bo'lganlarning mavqei O'zbekistonda qanchalik kuchli edi, degan savol tug'iladi. Bizningcha, Stalinning vahimasi mutlaqo o'rinsiz edi. Chunki 1930 yillar arafasida sanoat sohasida mulkdorlar sinfi (agar ba'zi hunarmandlar hisobga olinmasa) butunlay tugatilgan, qishloq aholisining tarkibida boy va quloq dehqonlar (yollanma ishchi kuchidan foydalanadiganlar) bor-yo'g'i 1,4% ni tashkil qilar edi². Kommunistik partiyadan o'zga partiyalar jamiyat hayotidan tag-tomiri bilan sug'urib tashlangan edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tashqi va ichki dushmanning sotsializm qurilishiga xavf solishi haqidagi bahonalar kommunistik partiya boshchiligidagi sovet hokimiyatining mavqeini, har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, mustahkamlashga qaratilgan edi.

Kommunistik partiya rahbariyati asl maqsadlarini yashirgan holda, o'z mavqeini mustahkamlash yo'llarini ham o'ylab topdi. Bular industrilashtirish (sanoatlashtirish), qishloq xo'jaligini jamoalashtirish (kolxozlashtirish) va madaniy inqilobni amalga oshirish ko'rinishida namoyon bo'ldi. Kommunistik partiya o'z qo'lidagi barcha vositalardan – tashviqot va targ'ibot, qo'rqitish va tazyiq o'tkazish apparatidan – keng foydalanib, aholini bir muddat qiyinchiliklarga sabr-toqat qilishga chaqirdi, kelajakda farovon hayotning ta'minlanishiga ishontirishga harakat qildi va bu yo'lda muayyan natijalarga ham erishdi.

Kommunistik partiyaning 1934 yilda bo'lib o'tgan XVII syezdida Stalin SSSRda sotsializmning asoslari yaratilganligini tantanali ravishda e'lon qildi. Bu quyidagilarni anglatardi:

– xususiy mulkning Ittifoq miqyosida tugatilganligi, bir markazdan boshqariladigan umumdavlat mulki yaratilganligi va shu yo'l bilan har

¹ Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). Т. 1. – Т., 1987. – С. 457.

² Qarang: Юсунов Э. и др. Коммунистическая партия Узбекистана во главе социалистического строительства в республике. – Т., 1977. – С. 86.

qanday demokratiyaning asosi bo'lgan iqtisodiy erkinlikka barham berilganligi;

– kommunistik mafkura davlat mafkurasi sifatida qaror topganligi va hurfikrlikka, ma'naviy erkinlikka chek qo'yilganligi;

– ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ishchilar nomidan Kommunistik partiya, aniqroq aytganda, uning apparati diktaturasining o'rnatilganligi, muxolafatdagi siyosiy kuchlarning tugatilganligi va siyosiy huquqlarning poymol qilinganligi.

Haqiqat nuqtai nazaridan tan olish kerakki, aynan shu 30-yillarda, barcha qiyinchiliklarga qaramay, ishchi va dehqonlarning ochlik va tazyiqlarga chidashi, matonatli mehnati tufayli ko'plab sanoat korxonalari qurildi, yoppasiga kolxozlashtirish amalga oshirildi, maktab, texnikum, oliy o'quv yurtlari ochildi. Ammo yutuq qurilgan korxonalar, tuzilgan kolxozlar soni bilan emas, balki xalq xo'jaligidagi aniq ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, ayniqsa, samaradorlik darajasi bilan o'lchanadi. Birinchi besh yillikda rejalashtirilgan juda ko'p ko'rsatkichlarga esa aslida erishilmay qoldi.

Paxtachilikdagi ko'rsatkichlar ham maqtovgga sazovor emas. Birinchi besh yillik yakuni bo'yicha rejadagi 1,91 mln. o'rniga atigi 1,27 mln. tonna paxta yetishtirildi. Hosildorlik 1928 yilda o'rtacha bir gektarga 8,1 sentnerdan 5,9 sentnerga tushib ketdi¹. Amaliy tajribaga, ilm-fanga asoslanmagan siyosatga, muayyan shaxslarning xohish-irodasiga bo'ysundirilgan iqtisodiy boshqarish turli o'pirilishlarga, nomutanosibliklarga olib keldi va sotsialistik deb atalmish mamlakatlarda an'anaga aylanib qoldi.

SSSR rahbariyatining 30-yillardagi iqtisodiy siyosati qanday natijalarga olib kelganligidan qat'i nazar, u o'zining asosiy maqsadiga, ya'ni ma'muriy boshqaruv tizimini yaratishga erishdi.

Ma'muriy-boshqaruv tizimining o'zagini Kommunistik partiya, aniqrog'i, uning uncha katta bo'lmagan siyosiy byurosi va boshqaruv apparati tashkil qildi. Boshqaruv apparati esa bir shaxsning, ya'ni partiya bosh kotibining irodasiga bo'ysundirildi. Mamlakatda qat'iy tartib o'rnatildi. Unga ko'ra, ijtimoiy hayotdagi barcha masalalar siyosiy, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, harbiy, huquqiy va boshqa muammolar dastlab partiya organlarida muhokama qilinib, bir qarorga kelinib, undan keyin qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlarga topshiriq berilgan.

Partiyaning ittifoq, respublika, viloyat, shahar va tuman organlarida har bir soha bo'yicha o'z bo'limlari bo'lgan. Masalan, uning tashkiliy, targ'ibot-tashviqot, og'ir sanoat, qishloq xo'jaligi, madaniyat va boshqa sohalar bilan shug'ullanuvchi bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Sohalar bo'yicha vazirliklarning rahbarlari Vazirlar Mahkamasidan ko'ra ko'proq partiya markaziy komitetining bo'limlariga itoat etgan, chunki ularning hayot-mamoti asosan o'sha yerda hal bo'lgan.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan yana bir xususiyat – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning (Stalin davrida ular ko'proq jazolovchi, qatag'on qiluvchi organ sifatida namoyon bo'ldi) hattoki partiya

¹ Qarang: *Рабич Р. Г.* Формирование и развитие социально-классовой структуры Узбекистана. – Т., 1991. – С. 92.

tashkilotlaridan ham xoli qilinib, bevosita partiya bosh kotibiga bo'ysundirilib qo'yilganligidir.

1930–1940 yillarda shakllangan ma'muriy buyruqbozlik tizimi ayrim juz'iy o'zgarishlarni nazarga olmaganda, to' SSSR tarqalib ketgunga qadar saqlanib qoldi.

1950–1960 yillarda partiya bosh kotibi N. S. Xrushchuyov Stalinning o'limidan so'ng bu tizimning qo'pol, yaqqol ko'zga tashlanadigan qusurlarini tanqid qildi, sovetlarning mavqeini tiklashga, ittifoqdosh respublikalarning vakolatlarini kengaytirishga erishmoqchi bo'ldi. Ammo u ham kommunistik partiyaning rahbarlik vazifasiga til tekkizmadi. Aksincha, 1977 yilga kelib yangi bosh kotib L. I. Brejnevning tashabbusi bilan kommunistik partiyaning jamiyatni boshqarishdagi rahbarlik vazifasi SSSRning uchinchi Konstitutsiyasida maxsus belgilab qo'yildi, ya'ni partiyaning faoliyati har qanday nazoratdan xoli bo'lishi ta'minlandi. Bu esa, o'z navbatida, partiya xodimlarining qonunbuzarliklariga yo'l ochib berdi.

Xo'sh, ma'muriy buyruqbozlik tizimining salbiy tomonlari nimalardan iborat edi?

Bu tizimning qabih tomoni shundan iboratki, u jamiyatning turli siyosiy, g'oyaviy qarashlar raqobati va erkin tanlov asosida rivojlanishiga chek qo'ydi. Natijada jamiyat o'zini muvofiqlashtirib boruvchi mexanizmiga ega bo'lmay qoldi. Shu bois, SSSR nafaqat ishlab chiqarishni rivojlantirish, balki mehnatkashlarning turmush darajasini yuksaltirish borasida ham rivojlangan G'arb mamlakatlaridan ortda qoldi. Mamlakatda yuzaga chiqayotgan turli siyosiy, ijtimoiy, milliy muammolarni o'z vaqtida va adolatli hal qilish imkoniyati bo'lmaganligi bois, SSSRning o'zi siyosiy inqirozga uchrab, tarqalib ketdi.

Davlatning, to'g'rirog'i, ma'muriy buyruqbozlik tizimining manfaatiga ustun ahamiyat berilishi mehnatkashlarning qaqshatqich ekspluatatsiya qilinishiga olib keldi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, G'arb mamlakatlarida milliy daromadning 70 %, SSSRda esa 20 % gina mehnatkashlarga oylik maosh sifatida qaytarilardi¹. Maxsus o'ylanib joriy qilingan ushbu tartib aholining boyishiga yo'l qo'ymagan va uni tobelikda saqlab turish uchun kerak bo'lgan. Eng oddiy ishchidan tortib, yuqori lavozimdagi amaldorgacha hech kim o'z rahbarlariga qarshi chiqa olmagan.

Yuqoridan turib rejalashtirish va taqsimlashga asoslangan tizim ma'naviyatning ham inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Turli darajadagi hokimiyat organlariga moddiy va boshqa boyliklarni taqsimlash funksiyasining berilishi mansab vakolatini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, laganbardorlik kabi illatlarning avj olishiga imkon yaratdi. Sekin-asta aholining ongida «bermasang, hech narsaga erisha olmayсан» degan tushuncha qaror topdi. Buning ustiga, mulkning umumiyliги (aniqrog'i, egasizligi) ommaviy miqyosdagi tashmachilikni tabiiy hol sifatida baholashga va boqimandalik kayfiyatining shakllanishiga turtki bo'ldi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimi o'z faoliyati davomida faqat markazning manfaatlarini inobatga olganligi uchun ittifoqdosh respublikalarning

¹ Qarang: *Худоятов Г. А.* Национальный вопрос в СССР. – Т., 1991. – С. 66.

huquqlarini poymol qildi, ularning ehtiyojlari bilan hisoblashmadi. Natijada respublikalarning rivojlanishida nomutanosiblik va bir tomonlamalik avj oldi. Xususan, O‘zbekistonda paxta yakkahokimligi o‘zining barcha salbiy oqibatlarini bilan respublikaga juda katta ziyon keltirdi.

Nihoyat, ma‘muriy buyruqbozlik tizimi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida nafaqat sotsializm qurish g‘oyasiga qarshi chiqqanlarni, balki sotsializmni o‘zicha talqin qilganlarni, hattoki unga nisbatan betaraf qolganlarni ham qatag‘on qilish siyosatiga asos soldi. Kommunistik partiyaning rahbarlari, mafkurachilari sotsializm beradigan «erkinlik», «demokratiya»ni bir tomonlama talqin qildilar, ya‘ni umumiy mulkni – davlat mulki, hurfikrlilikni – kommunistik e‘tiqod, demokratiyani – yuqoridan o‘rnatilgan tartib, farovonlikni – davlat tomonidan belgilangan me‘yoriy taqsimlash, milliylikni – kommunistik baynalmilallik, ijtimoiy tenglikni – sinfiy yondashish bilan almashtirdilar. Ular shu tariqa o‘zlarining hukmronligini mustahkamlashga harakat qildilar va buning uchun barcha choralarini ko‘rdilar.

2. Sovet davlati qatag‘onlik siyosatining O‘zbekistondagi og‘ir oqibatlari

Sovet imperiyasi tarixining eng fojiali, qonli sahifalaridan biri ommaviy qatag‘onning maxsus uyushtirilishi bo‘ldi. Insoniyat tarixi tinchlik davrida o‘z xalqiga nisbatan shu qadar tajovuzkor siyosat olib borgan hech bir davlatni bilmaydi. Bunday holat sodir bo‘lishining sabablarini aniqlash jamiyatda tinchlik, xotirjamlik va barqarorlikni ta‘minlashga ulkan hissa bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Avvalo, shuni ta‘kidlab o‘tishimiz joizki, shu bugungi kungacha qatag‘onlik siyosati to‘g‘risida so‘z yuritilganida nima uchundir, asosan, XX asrning 30–50-yillari ko‘rsatib o‘tiladi. Aslida, qatag‘onlik SSSRda sotsializm qurish va uni mustahkamlashga xizmat qilgan sovet davlatining birinchi kunidan to oxirgi soatlarigacha davom etgan, kommunistik dunyoqarash bilan asoslangan maxsus siyosat sifatida tahlil qilinmog‘i lozim. Undan tashqari, bu siyosat ayrim shaxslargagina emas, balki hurfikrlilikka, milliylikka, inson farovonligiga, qolaversa, demokratiyaga, jamiyatdagi bir qancha toifa va sinflarga qaratilganligini tan olish kerak bo‘ladi. Xususiyl mulkning tugatilishi va davlat tasarrufiga o‘tkazilishi, ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori va sifatini e‘tiborga olmay, mehnatga deyarli bir xilda haq to‘langani manfaatdorlikni kamaytirishi turgan gap edi. Kommunistik partiyaning rahbarlari buni yaxshi tushunganlar. Ishyoqmaslarga nisbatan V. I. Leninning fikricha, ming xil choralar ko‘rish mumkin. Masalan, 10–15 kun qamab qo‘yish, hojatxonalarini tozalashga majbur qilish, safga turg‘izib, har o‘ntasidan bittasini otib tashlash va h.k.¹

Leninning bu taklifi keyinchalik qonun darajasiga ko‘tarildi va sotsialistik ishlab chiqarishda ishtirok etmagan kimsalar jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yildi. Masalan, 1960 yil 27 oktabrda tasdiqlangan RSFSR Jinoyat

¹ Qarang: *Ленин В. И. Тўла асарлар тўплами*. Т. 35. – 204-б.

kodeksining 209-moddasida daydilik yoki gadoylik bilan hayot kechirayotganlarga bir yildan ikki yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. RSFSR Oliy Soveti Prezidiumining 1984 yil 13 dekabrda qarori bilan yuqorida ko'rsatilgan toifalarga mehnat qobiliyatiga ega bo'la turib, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaganlar ham kiritilgan¹. Aniqroq aytganda, har qanday davlat korxonalarida (kolhoz, artellar ham nazarda tutilyapti) ishlamaganlar tekinxo'r hisoblanib, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan. RSFSRning kodekslari namunaviy hisoblangan va boshqa ittifoqdosh respublikalar uning qoidalarini deyarli o'zgarishsiz o'z kodekslarida aks ettirganlar.

Endi ko'z o'ngingizga keltiring. Agar mazkur qonunga amal qilinsa, erkin mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan qanchadan-qancha shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'ladi, shunday bo'lgan ham. Demokratiyaga xilof ushbu tartibni joriy qilishdan maqsad bitta – hech kim quyushqondan chiqib ketmasligi kerak. Agar biron kimsa erkin mehnat faoliyati bilan shug'ullansa, mavjud tuzumni mensimay qo'yib, unga qarshi chiqishi mumkin. Hokimiyat esa bunga aslo yo'l qo'ya olmas edi. Uning asosiy prinsipi – tobelik, manqurtlikni shakllantirish bo'lgan.

Bizningcha, eng ommaviy qatag'on qishloq aholisiga, birinchi navbatda, dehqonlarga nisbatan amalga oshirilgan. Dehqonlarga turli yo'llar bilan tazyiq o'tkazilgan. Masalan, boylardan yollanma ish kuchidan foydalanyapti, deb yerlari tortib olingan. 1921–1922 yillarda yer-suv islohoti bahonasida 1,3 mln. desyatina (desyatina – taxminan 1 gektar) yer tortib olinib, davlat va jamoa xo'jaliklari tuzilgan². Qarshilik ko'rsatgan dehqonlar jinoiy javobgarlikka tortilganlar yoki chet elga qochib qutilganlar.

Sovet tizimi amal qilgan dastlabki davrda dehqonlarni nazorat qilishning bir turi kontraktatsiya edi. To'rt jildlik «O'zbekiston SSR tarixi»da qayd qilinishicha, kontraktatsiya davlat uchun mayda tovar dehqon xo'jaligini rivojlantirish ustidan nazorat o'rnatishning muhim vositasi bo'lib, davlat shu kontraktatsiya orqali stixiyali bozor munosabatlarini cheklab turish imkoniyatiga ega bo'lgan. 1928 yildayoq O'zbekistonda paxta va pilla tayyorlashning 100 %, qorako'l teri tayyorlashning 82 %, jun tayyorlashning 70 % va quruq meva tayyorlashning taxminan 60 % kontraktatsiya asosiga ko'chirildi³. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hatto «yangi iqtisodiy siyosat» amalda bo'lgan vaqtda ham o'zbek dehqonlari erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lganlar.

Kolxozlashtirish davriga kelib dehqonlarni qatag'on qilishning yangi usuli, ya'ni ularni ota-bobolari asrlar davomida yashab kelgan joylardan badarg'a qilish qo'llanila boshlandi. Undan tashqari, avvallari boy va quloqlar qatag'on qilingan bo'lsa, endi bu chora o'rtahol dehqonlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. Faqat 1930 yilning o'zida O'zbekistonda 2648 nafar o'rtahol dehqonning xo'jaligi «quloq» sifatida tugatildi va 1944 ta oila

¹ Qarang: Уголовный кодекс РСФСР с постановочными комментариями. – М., 1987. – С. 113, 117.

² Qarang: Голованов А. А. Крестьянство Узбекистана... – С. 70.

³ Qarang: Ўзбекистон ССР тарихи. 4 жилдлик. Ж. 3. – Т., 1971. – 476–477-б.

Oʻrta Osiyodan koʻchirib yuborildi¹. Xususan, Ukrainaning Xerson viloyatidagi Skadovsk, Kaxovka va boshqa choʻllarning oʻziga Oʻrta Osiyodan deyarli 10 ming oila, jumladan Oʻzbekistondan 3 ming oila koʻchirilgan². Koʻchirilganlarning koʻpchiligi oʻzga yurtlarda vatangado boʻlib, oʻlib ketganlar. Qatagʻon 30-yillardagidek dahshatli tus olmagan boʻlsa-da, keyinchalik ham davom etgan.

Oʻzbekiston Kompartiyasining qishloq xoʻjaligini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilgan 1957 yildagi plenumining qaroriga muvofiq, 1958 yilgacha yangi ochilayotgan qoʻriq yerlarga 40 ming nafar kolxozchini koʻchirish talab qilingan. Ushbu kolxozchilar koʻchishni xohlaganmi yoki yoʻqmi, joylardagi sharoit yashash uchun qulaymi-yoʻqmi – bular inobatga olinmagan³. Bu topshiriqlarni bajarmagan partiya, sovet, xoʻjalik rahbarlari intizomiy, maʼmuriy, partiyaviy jazo olishi, hattoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin edi.

Qishloq aholisini tobelikda saqlab turishning yuqorida keltirilgan usullardan tashqari, boshqa bir qancha yoʻllari ham qoʻllanilgan, jumladan mehnat haqiga oylik maosh u yoqda tursin mahsulot ham berilmay, hech narsa bilan ragʻbatlantirilmaydigan «mehnat kuni» berilgan. Yana bir antiqa usulni eslatib oʻtish lozim. Maʼlumki, chor Rossiyasida krepostnoylik huquqi 1861 yilda bekor qilingan. Sobiq Ittifoqda esa boshqacharoq koʻrinishda XX asrning 70-yillarigacha saqlanib qolgan. Kolxozchilarga shaxsiy pasport berilishi joriy qilinmaganligi sababli, ular oʻz ixtiyorlari bilan boshqa yerga koʻchib ketolmas, ish joylarini oʻzgartira olmas edilar. Kolxozchi yoshlarning biron yerga oʻqishga borishi, mutaxassislikka ega boʻlishi, biron amalga ega boʻlishi faqat kolxoz raisining xohish-irodasiga bogʻliq boʻlib, kolxozchi doimo unga qulluq qilishga majbur boʻlgan. Qamchisidan qon tomgan raislar toʻgʻrisidagi gaplar shunchaki afsona emas.

Kommunistik partiya uyushtirgan qatagʻonlik siyosati sovet va partiya apparatini tozalashga qaratilgan tadbirlarda namoyon boʻldi. Ijtimoiy hayotni tashkil qilish va boshqarishda ming yillar davomida shakllangan urf-odatlarlarga, milliy manfaatga hurmat bilan qarash lozimligi gʻoyasini ustun deb bilmasa ham, imkon qadar u bilan hisoblashish kerakligini eslagan milliy kadrlar partiya va sovet organlaridan badargʻa qilinganlar. Bu borada 30-yillargacha Oʻzbekistonda bir necha guruh barchaga namuna qilib «tozalangan».

Ularga quyidagilar kiradi:

– «oʻn sakkizlar guruhi». Bu guruhga, jumladan Fayzulla Xoʻjayev (oʻsha vaqtda Oʻzbekiston SSR Xalq komissarlari kengashining raisi), Inomjon Xidiraliyev (Oʻzbekiston SSR Yer-suv ishlari xalq komissari) va respublikada yuqori lavozimlarda ishlagan boshqa xodimlar, hammasi boʻlib 18 nafar kishi kirgan. Ular yer-suv islohotiga qarshi chiqqanlik va boy-

¹ Qarang: Голованов А. А. Крестьянство Узбекистана... – С. 130, 132, 136.

² Qarang: Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. – Андижон, 1998. – 401-б.

³ Qarang: Комунистическая партия Узбекистана в резолюциях... Т. 2. – Т., 1988. – С. 591–61.

quloqlarning manfaatini himoya qilganlikda ayblanganlar hamda o'z vazifalaridan olib tashlanib, qatag'on qilinganlar. F. Xo'jayev omma oldida o'z xatolarini tan olganligi uchun vaqtinchalik kechirilgan. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi qayta tashkil qilinayotganligi, ya'ni fermer, dehqon xo'jaliklarining faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratilayotganligini nazarda tutsak, o'sha davrda dehqonlarga qarshi qanchalik mantiqsiz siyosat olib borilganligi ayon bo'ladi;

– Inog'omovchilar guruhi» («Inagamovщина» deb tamg'a bosilgan). Rahim Inog'omov o'sha davrda O'zbekiston xalq maorifi komissari bo'lgan. U va uning atrofida «mahalliy millatchilik»da, «o'lib borayotgan milliy burjuaziyani himoya qilish»da ayblanganlar. Aslida esa ular sho'ro hokimiyati milliy mustamlakachilikdan boshqa narsa emasligini, kommunistik partiya yuritgan milliy shovinistik siyosatni keskin tanqid qilgan edilar. Bunday tanqid uchun asoslar yetarli bo'lgan. Masalan, 1928 yilda respublikada faqat bitta oliy o'quv yurti (SAGU) bo'lib, unda 4200 nafar talaba o'qigan, ulardan faqat 131 kishi, ya'ni 3,2% mahalliy millatlarga mansub bo'lgan. Mahalliy millatlarning davlat idoralari va vazirliklarda faoliyat ko'rsatayotgan vakillari bor-yo'g'i 15% ni tashkil qilganligi ham mutaxassislar yetishmasligidan dalolat berar edi¹. Bundan, albatta, milliy kadrlar yo'q edi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, chunki yetuk ziyolilar yetarli bo'lgan, lekin ularning arzimas qismigina sovetlar siyosatini ma'qullashi mumkin edi. Tanqid asosli bo'lgan, lekin u kommunistik rahbarlarning dunyoqarashiga zid ekanligi sababli, guruh qatnashchilari jinoy javobgarlikka tortilganlar va keyinchalik jismonan yo'q qilinganlar;

– «Qosimovchilar guruhi» («Касымовщина»). Bu guruhga 30 kishi atrofida, jumladan O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimov boshchiligidagi sud va prokuratura xodimlari kirgan. Guruh qatnashchilari Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi «Milliy istiqlol» tashkilotining a'zolariga xayrixohlik qilganlikda, poraxo'rlikda, mansablarini suiiste'mol qilganlikda ayblanganlar. «Jinoyatchilar» ustidan o'tkazilgan sudlov Samarqandda deyarli yarim yil davom etgan (1930 y.) va juda katta dabdaba bilan o'tgan. Sudga Samarqand shahar korxonalaridan vakillar taklif qilingan. Masalaning mohiyatiga tushunmasdan oldindan tayyorlangan vakillar ehtirosiga berilib, barcha «jinoyatchilarga» o'lim jazosini qo'llashni talab qilganlar.

1930 yil 18 iyunda Qosimov, Alimov, Spiridonovlar otib o'ldirishga, qolganlar esa 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilinganlar. Tez kunda hukm ijro etilgan.

Mazkur guruhlardan boshqa yana bir qancha katta va kichik guruhlar ham «fosh» qilingan, ularning a'zolari jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Yuqorida keltirilgan materiallardan aniq bir xulosaga kelish mumkin. Javobgarlikka tortilganlarning «aybi», agar shunday deyish mumkin bo'lsa, bitta, u ham bo'lsa o'z xalqining manfaatlarini, milliy qadriyatlarini himoya qilishdir.

¹ Qarang: *Икрамов А. Избранные труды. Т. 2. – Т., 1972. – С. 59.*

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov yuqoridagi sudlov ishlari kelib chiqishining sababini quyidagicha izohlagan: «Kommunistik ideologlar va siyosatchilar... odamlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining o'sish jarayonini ataylab tajovuzkor, siyosiy tus berilgan millatchilik bilan almashtirib qo'ygan edilar... Markaz ittifoqdosh respublikalar va milliy chekka o'lkalardagi e'tiqodiga ko'ra, ilg'or va xalqiga sadoqatli kishilarni «millatchilikda» ayblab, qatag'on qilgandi¹.

Ulug' Vatan urushi arafasida va uning yakuniy davrida «millatchi», «sotqin» tamg'alarining bosilishi sovet imperiyasi milliy siyosatining eng muhim ko'rinishlarida namoyon bo'ldi. 1940 yillarning o'rtalarida qrim tatarlari, mesxeti turklari, chechenlar, qalmiqlar, nemislar va shu kabi 20 ga yaqin butun boshli xalqlar turli bahonalar bilan O'zbekistonga ko'chirib keltirildi². Qrim tatarlari o'z vatanlariga qaytish, o'zlariga yopishtirilgan «sotqin xalq» tamg'asini yo'q qilish uchun deyarli yarim asr kurashdilar. Bu surgunning asoratini qrim tatarlari shu bugungi kungacha sezib turibdilar. 1988 yilda bir qism aholining mesxeti turklari bilan yuz bergan to'qnashuvi bir qancha qurbonlarga olib keldi va respublikamizdagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Qatag'onlik siyosatining yana bir mudhish ko'rinishlaridan biri dinga, ruhoniylarga va, umuman, har qanday insonning diniy e'tiqodiga qaratilgan tajovuz bo'ldi.

Kommunistik partiyaning islom diniga munosabati O'zbekiston Kompartiyasining 1927 yilda bo'lib o'tgan VI plenumi qabul qilgan «Musulmon ruhoniylari va maktab to'g'risida»gi qarorida qayd qilingan. Uning mohiyatini quyidagi ko'rsatmalar ifodalaydi:

– islom o'zga dinlar kabi madaniyat, proletariat g'oyalarini rivojlantirish va sotsializm qurilishini taraqqiyotga erishtirish yo'lidagi to'siqdir;

– ruhoniylarning tinch islohotchi yoki taraqqiychi deb atalmish qismi o'zga guruhlar kabi partiya va sovet hokimiyatining asosiy tadbirlarini amalga oshirishga qarshilik qiladigan antisovet kuchdir;

– ruhoniylar islom dinini va uning tashkilotlarini yo'qsillar diktaturasiga qarshi qurolga aylantirish, ularni mavjud sharoitga moslashtirish uchun barcha choralarni ko'ryaptilar;

– kommunizm va din bir-biriga butunlay qarama-qarshi ekanligini va ularni hech qachon birlashtirish mumkin emasligini kommunistlar, ayniqsa, faollar tushunib yetishlari kerak³.

Ushbu ko'rsatma joylardagi partiya va sovet tashkilotlarining dinni tugatish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishlari uchun asos bo'ldi. Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «din sun'iy ravishda mafkuraviy kurashning o'ta qizg'in jabhalaridan biriga aylantirib qo'yilgan edi. Islom dinining o'ng minglab mo'tabar ruhoniylari qatag'on qilindi.

¹ Qarang: *Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot йўлида* Т. 6. Т., 1998. 79–80-б.

² O'sha manba. – 81-b.

³ Qarang: *Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях...* Т. 1. – Т., 1987. – С. 301–303.

Minglab machitlar va yuzlab madrasalar buzib tashlandi»¹. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Oktabr qurolli qo'zg'olonigacha Samarqandda – 150, Toshkentda – 387 ta masjid va madrasa bo'lgan bo'lsa, 30-yillarning o'rtalariga kelib ular deyarli qolmadi². Vaziyat shu darajaga borib yetdiki, nafaqat ruhoniylar qatag'on qilindilar, balki hatto dehqonlar ham diniy e'tiqodlari uchun kamsitildilar. Masalan, faqat Andijon viloyatining Qorasuv tumanida 536 nafar dehqon islom diniga e'tiqodi uchun siyosiy huquqlaridan mahrum qilindi³. Odamlar salla o'rganliklari, uylarida Qur'on yoki arab imlosida yozilgan boshqa har qanday kitob saqlaganliklari uchun ham qatag'onga uchraganlar. O'rta asrlardagi Yevropa inkvizitsiyasi yoki fashistlar Germaniyasi vaqtidagidek eski kitoblarga o't qo'yilgan. Umuman din, xususan, islom dini o'zining haqiqiy mavqeiga faqat mustaqillik tufayligina ega bo'ldi.

Qatag'onlik siyosatidan eng katta zahmat chekkanlar qatoriga ziyolilarni kiritish lozim. Ma'lumotlarga qaraganda, faqat 1936 yilning oxiri va 1937 yil davomida O'zbekistonning turli viloyatlaridan ilm-fan, adabiyot, jurnalistika, maorif va boshqa sohaning 5758 nafar ziyolilari qatag'on qilinganlar, ulardan 4811 nafari otib o'ldirilgan. Ular orasida bugun hammaga ma'lum bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon), Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy (Julqinboy), Usmon Nosir kabi o'zbek xalqi madaniyatining rivojlanishiga buyuk hissa qo'shgan olijanob insonlar ham bor edi⁴. Biz bugun hammaga tanish bo'lgan insonlarnigina sanab o'tdik, aslida qatag'on qilinganlarning ko'pchiligi hali xalqimizga tanish emas. Ularning har biri haqida doston yozish mumkin.

Qatag'onlikning eng yuqori nuqtasi 1936–1937 yillarga to'g'ri keldi. Bu davrda eng yuqori lavozimda ishlayotgan partiya va sovet rahbarlarini jismonan yo'q qilish boshlandi. 1937 yil 16–19 sentabrda O'zbekiston Kompartiyasining III plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda, jumladan VKP(b) MKning O'zbekiston Kompartiyasiga xati, KPSS MK vakili A. A. Andreyevning A. Ikromov to'g'risidagi axboroti va A. Ikromovning tushuntirishi ko'rib chiqildi. Masalaning Plenum kun tartibiga kiritilishiga VKP(b) MKning I. Stalin va V. M. Molotov imzosi bilan yo'llangan xati asos bo'ladi. Xatda, xususan quyidagilar qayd qilinadi:

a) hibsga olingan Buxarin, Xo'jayev, Razumov, Rumyansev, Polonskiy, Xo'janov, Antonov, Risqulovlarning ko'rsatuvlari;

b) Ikromovning Buxarin, Xo'jayev, Antonov, Razumov, Rumyansevlar bilan yuzlashtirish protokollari;

v) Ikromovning arizasi bilan tanishib chiqib, VKP(b) Markaziy Komiteti o'rt. Ikromov burjua millatchilari va o'zbek xalqining ashaddiy dushmanlari (Xo'jayev, Xo'janov, Boltaboyev, Tojiyev, Karimov) va boshqalarga nisbatan siyosiy ko'rlik qilibgina qolmay, ba'zan ularga homiylik ham qilgani.

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 56-б.*

² Qarang: *Коммунист Узбекистана. – 1990. – № 10. – С. 87.*

³ Qarang: *Голованов А. А. Крестьянство Узбекистана... – С. 132.*

⁴ Qarang: *Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. – 406-б.*

Aftidan Ikromovning Moskvadagi o'ng trotskiychi aksilsho'roviy guruhlar rahbarlari (Buxarin, Antipov va boshqalar) bilan aloqasi bo'lganligini inobatga olib, ushbu xatni O'zbekiston Kompartiyasi MKning plenumida ko'rib chiqish taklif qilinadi.

O'zbekiston Kompartiyasi MK quyidagicha qaror qabul qildi. O'zbekiston KP(b) MKning Birinchi kotibi Ikromov:

a) hozirgi kunda fosh etilgan xalq dushmanlarining partiya va sovet organlaridagi rahbarlik lavozimlariga chiqib olishlariga to'la imkon berganligi;

b) hozirgi kunda hibsga olingan xalq dushmanlari – Karimov, Sexer, Boltaboyev, Shermuhammedov va boshqalarni himoya qilgani hamda fosh etilishiga xalaqit berganligi, ular bilan yaqindan aloqada bo'lib, oddiy partiya a'zolarining ashaddiy xalq dushmani F. Xo'jayevni tanqid qilishiga yo'l qo'ymaganligi;

v) o'zining 1923 yilda trotskiychilar bilan aloqada bo'lganligini O'zbekiston partiya tashkilotidan yashirganligi aniqlandi, deb hisoblaydi.

MK plenumi Ikromov homiyligida o'zbek xalqining ashaddiy dushmanlari bo'lgan trotskiychi o'ng va burjua millatchi unsurlar (Xo'jayev, Sexer, Boltaboyev, Nemsovich, Manjara, Moor, Shermuhammedov, Karimov, Zyakina, Tojiyev va b.) MK byurosi va boshqa muhim lavozimlarga ko'tarilib olganliklari hamda uzoq vaqt dushmanlik faoliyati bilan shug'ullanganliklarini aniqladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, O'zbekiston KP(b) MKning III plenumi shunday qaror qiladi: «Ikromov MKning Birinchi kotibi vazifasidan ozod qilinsin, O'zbekiston KP(b) MK tarkibidan chiqarilsin, partiyadan o'chirilsin, u haqdagi ish tergov organlariga berilsin va darhol hibsga olish talab etilsin»¹.

Stalin va Molotov imzo chekkan xatlar va O'zbekiston KP(b) MKning qarori yuzasidan bir qancha savollar va e'tirozlar tug'iladi.

Birinchiidan, xatga 1937 yil 10 sentabrda imzo chekilgan, plenum qarori 1937 yil 21 sentabrda qabul qilingan, o'ng trotskiychilar guruhi (ular qatoriga sovet davlatining N. I. Buxarin, A. I. Rikov kabi sobiq rahbarlari bilan birga, A. Ikromov va F. Xo'jayev ham kiritilgan edi) ustidan sud jarayoni 1938 yil 2 martda boshlanib, hukm 13 mart kuni e'lon qilindi. Taajjub, nima uchun sud qaroridan deyarli 7 oy ilgari F. Xo'jayev va boshqalar xalq dushmani deb e'lon qilindi? Bu hol, bir tomondan, insonlarning taqdiri partiyaning eng oliy rahbarlari qo'lida bo'lganligini, sud hokimiyati hech qanday huquqqa ega bo'lmaganligini tasdiqlasa, boshqa tomondan, partiya sudlovga to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma berganligidan dalolat brmoqda.

Ikkinchiidan, Stalinning xatida Ikromov trotskiychilar bilan aloqada bo'lganlikda ayblanyapti. To'g'ri, Trotskiy 20-yillarda partiya va sovet idoralarida eng yuqori lavozimlarda ishlagan va A. Ikromov respublika rahbari sifatida u bilan aloqada bo'lganligi tabiiy. Agar shu mantiqqa rioya qilinadigan bo'lsa, Stalin va Molotov ham Trotskiy bilan u badarg'a qilinguncha ish yuzasidan doimo muloqotda bo'lganliklari inobatga olinib,

¹ *Муҳитдинов Н. Ҳақиқат ўлмайдди // Ёш ленинчи. – 1990. – 21 авг.*

ularni ham xalq dushmaniga aylantirish mumkin-ku?

Uchinchidan, O'zbekiston KP(b) MK plenumi qarorining «a» bandiga e'tibor qiling. Unda A. Ikromov fosh etilgan xalq dushmanlarining rahbarlik lavozimlariga chiqib olishlariga imkon yaratganlikda ayblanyapti. Ammo, agar F. Xo'jayev nazarda tutilayotgan bo'lsa, u 1924 yilda A. Ikromovdan kattaroq lavozimda ishlagan va shu bois, ayblov oddiy mantiqqa ham to'g'ri kelmaydi. Undan tashqari, partiyada o'rnatilgan tartibga ko'ra, shaxs respublika bo'yicha bironta e'tiborga molik lavozimga tayinlanishi yoki saylanishidan avval partiya markaziy komitetida, xususan Stalin va boshqa rahbarlar huzurida suhbatdan o'tishi shart bo'lgan. Demak, «xalq dushmanlari»ning yuqori lavozimlarga tayinlanishida Stalin va uning safdoshlarining ham aybi bor. U holda, nima uchun ular javobgarlikka tortilmadilar?

To'rtinchidan, A. Ikromov oddiy partiya a'zolarining F. Xo'jayevni tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaganlikda ayblanyapti. O'zingiz o'ylang, rasmiy ravishda sud ayblovi e'lon qilinmagan shaxsning mitingda jinoyatchi deb qoralanishi qaysi huquqqa to'g'ri keladi? Bu sharoitda aybsizlik prezumsiyasi nima bo'ladi? Undan tashqari, miting qatnashchilari tergov materiallari bilan tanish bo'lmasa, qaysi asosga ko'ra F. Xo'jayevni tanqid qilishlari mumkin. Maqsad aniq – mitingchilar yuqoridan kelgan ko'rsatmalarni ko'r-ko'rona tasdiqlashlari va sudni bu materiallar bilan qurollantirishlari lozim bo'lgan.

Beshinchidan, plenumning yana bir qarori, ya'ni A. Ikromovni darhol hisbga olishning talab qilinishi. Sudlovga, tergovga bevosita aloqasi bo'lmagan partiya Markaziy komitetining bunday talabni qo'yishi endilikda taajjublanarli emas, chunki u huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifalarini ham o'zlashtirib olgan va ular ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan edi.

Keltirilgan dalillardan, kommunistik partiyaning qonunchilik bilan umuman hisoblashmaganligidan tashqari, o'z foydasi uchun har qanday soxtalashtirilgan ishdan ham qaytmaganligi ko'rinib turibdi. Lekin Stalin uchun buning ahamiyati yo'q edi. 1938 yil 13 martda sud mazkur guruhga kirgan 15 kishini, jumladan F. Xo'jayev va A. Ikromovni oliy jazoga – otib o'ldirishga hukm qildi. Ertasiga hukm ijro etildi.

O'zbekistonning kelajagi uchun ulkan hissa qo'shgan buyuk insonlarning hayoti ana shunday fojiali tugadi. Shubha yo'qki, A. Ikromov, F. Xo'jayevda ham xato va kamchiliklar bo'lgan, aybsiz – Parvardigor. Lekin bir narsa aniq – ular o'zbek xalqi va Vatan kelajagi, uning ravnaqi uchun halol xizmat qilganlar, markazning tazyiqini susaytirish borasida bor imkoniyatlardan foydalanganlar. Afsuski, ular aynan shu xizmatlari uchun «aybdor» bo'ldilar, chunki bu xalqning o'zligini tanishiga va oxir-oqibat mustaqillikka chiqishiga olib kelishi mumkin edi. Rasman qo'yilgan ayblar – Sovetlarga qarshi kurash, trotskiychilarga qo'shilish, chet el razvedkasiga xizmat qilish va boshqalar esa KPSSning XX syezdidan keyin uydirma ekanligi to'liq isbotlandi. Lekin ular yuridik jihatdan oqlangan bo'lishlariga qaramay, siyosiy tomondan faqat O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingina

oqlandilar.

Siyosiy qatag'onlar eng avjiga chiqqan davrlarda «nomaqbul shaxslarni» «aksilsho'roviy» harakatlari uchun javobgarlikka tortish jarayonini tezlashtirish maqsadida jahon yuridik amaliyotida umuman uchramagan yangi usul joriy qilindi, ya'ni «uchlik» tashkil qilindi. Hududning partiya, sovet va ichki ishlar komissariati rahbarlaridan iborat mazkur organ javobgarlikka tortish masalasida qaror chiqaradigan oxirgi instansiya bosqichi bo'lgan. «Uchlik»da aksariyat vaqtda Ichki ishlar xalq komissarligi vakilining fikri ustun ahamiyatga ega bo'lgan. Ana shu organning tashabbusi bilan O'zbekistonda 1937–1939 yillarning o'zida 41 ming nafar shaxs qamalgan, ulardan 37 mingga jazoga hukm qilingan, 6 ming 920 kishi otib tashlangan. Umuman, 1939–1953 yillarda 61 ming 799 kishi qamaldi. Shulardan 56 ming 112 kishi turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, 7 ming 100 kishi esa otib tashlangan¹.

«Uchlik»larning qanchalik jadallik bilan ish olib borganligini quyidagi misolda ko'rsatish mumkin. Ushbu organda kotiblik vazifasini bajargan shaxsning keyinchalik tan olishicha, «uchlik» har soatda 100 ga yaqin ishni ko'rgan, hukm esa ikki xil: oliy jazo – otib o'ldirish yoki yozishma olib borish cheklangan holda, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish bo'lgan. Qaror chiqqanidan so'ng, hukm darhol ijro etilgan². Qatag'onlik shu bilan yakunlanmadi. U urushdan keyingi yillarda yana davom etdi. Uning oxirgi nuqtasi 1983–1990 yillarga to'g'ri keldi.

Bu davrga kelib sovet imperiyasi inqirozining ba'zi ko'rinishlari ochiq-oydin namoyon bo'la boshladi. Partiya va sovet apparatining barcha bosqichlarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar xodimlarning poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish va boshqa jinoiy harakatlarga berilib ketganliklari tufayli ijtimoiy hayotni qayta izga tushirish amrimahol bo'lib qoldi. SSSR rahbariyati vaziyatni qo'ldan chiqarmaslik uchun favqulodda choralarni ko'rishga majbur bo'ldi. Buning uchun bironta ittifoqdosh respublika misolida o'rnak bo'larli jazo tadbir o'tkazish zarur edi.

Uni amalga oshirish uchun O'zbekistondan qulay respublika yo'q edi. Chunki ittifoqda katta obro'ga ega bo'lgan SH. Rashidov olamdan o'tgan, uning o'rnini markaz izmidan chiqmaydigan I. B. Usmonxo'jayev egallagan edi. Boz ustiga, kimning topshirig'i bo'lishidan qat'i nazar, uning O'zbekistondagi vaziyatni o'zgartirishda yordam berishni iltimos qilib Moskvaga murojaat qilganligi qo'l keldi.

Bundan tashqari, partiya Markaziy Komitetining o'z tadbirini o'tkazish uchun O'zbekistonni tanlaganligining yana bir sababi – o'zbek xalqining hokimiyatga haddan tashqari hurmat bilan qarashi, ortiqcha sabr-toqatliligidir. Natijada «O'zbeklar ishi», «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'onlar uyushtirildi. Ko'pdan-ko'p halol mehnatkashlar, xo'jalik, sovet, partiya rahbarlari qo'shib yozishni tashkil qilishda, poraxo'rlikda, mansab vakolatini suiiste'mol qilganlikda ayblandilar. Hech kim bu qusurlar kelib chiqishining tub sabablarini surishtirib o'tirmadi. Bunga hojat ham yo'q edi,

¹ Qarang: Ўзбекистон овози. – 1991. – 15 сент.

² Qarang: *Куличев Ф.* Зулматдан садолар. – Т., 1994. – 142–143-б.

chunki «yuqoridan» nima qilish haqida aniq ko'rsatmalar berilgan edi.

Moskvadan maxsus yuborilgan Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergov guruhi, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, 1983–1989 yillarda O'zbekistonda taxminan 22 ming nafar, yana boshqa ma'lumotlarga qaraganda, undan ham ko'proq odamni hibsga oldi. Deyarli barcha viloyatlarning birinchi rahbarlari, tuman rahbarlarining ko'pchiligi jinoiy javobgarlikka tortildilar. Faqat mustaqillik yillaridagina nohaq javobgarlikka tortilgan shaxslarning insoniy qadr-qimmatlari tiklandi. Faqat, mustaqillik tufayligina har qanday insoniy qadriyatlarni tahqirleydigan qatag'onlik siyosatiga chek qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, KPSS uyushtirgan qatag'onlik siyosatining tub maqsadi va asosiy sabablari quyidagilar edi:

– unchalik katta bo'lmagan muayyan guruhga kirgan shaxslarning hokimiyatni o'z shaxsiy manfaatiga xizmat qildirish uchun yaratilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimini mustahkamlash;

– jamiyatni boshqarishda yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni o'zga shaxs va guruhlarning zimmasiga yuklash;

– jamiyat a'zolarini qo'rquvda, tobelikda saqlash, ularni manqurtga aylantirish.

Shunday qilib, sobiq Ittifoqning qatag'onlik siyosatidan mustaqil O'zbekistonga siyosiy befarqlik, mutelik, boqimandalik ruhiyati meros bo'lib qoldi. Respublikamiz xalqi faqat mustaqillik tufayligina o'z qaddini, qadr-qimmatini tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi.

12-ma'ruza

SOVETLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIGI HAMDA BUNING OQIBATLARI

1. Sovetlar davrida O'zbekiston xalq xo'jaligini qayta tashkil qilish natijalari va muammolari

Sovet imperiyasi hukmronlik qilgan deyarli 74 yil mobaynida xalq xo'jaligini tashkil qilish va boshqarishning jahon tajribasidan o'zgacha uslubi yuzaga keldi. Ushbu tizimga xolisona baho berish – ancha qiyin ish. Buning bir qancha sabablari bor.

Bugungi kunda mustaqillikka erishgan respublikamiz ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan 30–40 yoshlardagi fuqarolar sovet ta'lim tizimida tarbiya ko'rib, mutaxassislikka ega bo'lganlar, ularning dunyoqarashi ham kommunistik mafkura tazyiqi ostida shakllangan. Shuning uchun nafaqat katta yoshdagi, balki nisbatan yosh bo'lganlarning ham bir qismida sho'rolar tizimiga qandaydir xayrixohlik bor, deb o'ylaymiz. Ularning fikrini tasdiqlaydigan dalillar ham topiladi.

Tan olishimiz kerakki, sho'rolar davrida sanoat korxonalarini keng ko'lamda qurildi, qishloq xo'jaligini tashkil qilishning yangicha shakllari yaratildi, ta'lim tizimi tubdan o'zgartirildi va muayyan natijalarga erishdi. Ushbu tashkilot va muassasalarning faoliyati markazning manfaatlariga moslashtirilganligi boshqa masala. Xalqning turmush darajasi ham bir joyda muqim to'xtab qolgani yo'q.

Natijalarga baho berishdan oldin bir narsani eslatib qo'ymoqchimiz. Muammoni tahlil qilar ekanmiz, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy boshqaruvni tashkil qilishda uning asosiy yo'nalish va usullarini mustaqil belgilay olmaganligini yodda tutishimiz lozim. U to'laligicha markazning irodasiga bo'ysunishga majbur edi. Shuning uchun u yoki bu faoliyatga beriladigan baho, birinchi navbatda, sobiq Ittifoq hokimiyatiga taalluqli, deb hisoblamoq kerak.

Undan tashqari, sho'rolar davrida hayot to'xtab qolgani yo'q. Ko'plab sanoat korxonalarini qurildi, millionlab gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Bularni ko'r-ko'rona inkor etib bo'lmaydi. Boz ustiga, sodir bo'lgan o'zgarishlar asosida, birinchi navbatda, O'zbekiston xalqining mashaqqatli mehnatlari, qiyinchiliklar va yetishmovchiliklarga chidam-bardoshi, sabr-toqati yotadi.

Shunday ekan, sho'rolar davridagi 74 yil davomida yuzaga kelgan o'zgarishlarga xolisona baho berish uchun qanday mezonlarni, usullarni qo'llash kerak? Bu borada birmuncha noaniqliklar mavjud.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z asarlarida o'tmishga baho berish metodologiyasi haqida aniq-oydin fikrlarni bayon qilgan. Jumladan I. A. Karimov shunday deb ta'kidlaydi: «Bizning maqsadimiz... bir necha avlod mehnati bilan yaratilgan narsalarni yo'qotmaslik, ularning eng yaxshilarini saqlab qolish, demokratik

me'yorlarga, milliy manfaatlarimizga, mustaqilligimizga mos kelmaydiganlarini qayta tashkil etishdan, mazkur tuzilmalarni yangi mazmun bilan boyitishdan iboratdir. O'zbek xalqining boy madaniyati, ta'lim, maorif tizimi, fan totalitarizmdan qolgan meros deb parchalab tashlanishi mumkin emas...»¹. Ushbu mavzuning bosh muammosini ana shu merosning qaysi qismidan voz kechish, qaysi birini saqlab qolishni aniqlash tashkil qiladi, desak to'g'ri bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, kelajakka zamin yaratish ma'nosini bildiradi.

1917 yilda jamiyat ijtimoiy hayotini kuch ishlatib o'zgartirishga kirishgan kommunistlar iqtisodiyotni tashkil qilishda oldindan belgilangan aniq prinsiplarga amal qilish kerakligini nazariy jihatdan o'zlashtirib olgan bo'lishlariga qaramay, amaliyotda bir qancha o'zaro zid bosqichlarni bosib o'tishga majbur bo'ldilar. Bular «harbiy kommunizm», «yangi iqtisodiy siyosat» va bevosita «sotsialistik ishlab chiqarish» kabilardir.

Sho'ro hokimiyati iqtisodni tashkil qilishda sotsialistik ishlab chiqarishga o'tish masalasini amaliy vazifa sifatida taxminan 1929 yilda kun tartibiga qo'ydi.

Avvalo, sotsialistik ishlab chiqarishning asosini nima tashkil qiladi, degan savolga javob berish lozim. 1977 yilda qabul qilingan sobiq Ittifoq Konstitutsiyasining 10-moddasida ko'rsatilishicha, SSSR iqtisodiy tizimining negizini asosiy ishlab chiqarish vositalariga davlat (umumxalq) va kolxoz-kooperativ mulki shaklidagi sotsialistik mulk tashkil qiladi². Ana shu norma va prinsipni sotsialistik ishlab chiqarishning bosh mezonini sifatida qaror toptirish uchun harakat, yuqorida eslatganimizdek, 30-yillarning boshlarida boshlandi.

Iqtisodiyotni qayta tashkil qilishda bolsheviklar partiyasining rahbariyati ikki g'oyaga tayandi. Bular sanoatlashtirish (industrlashtirish) va jamoalashtirish (kolxozlashtirish) g'oyalaridir.

Industrlashtirish sanoatni, birinchi navbatda, og'ir sanoatni rivojlantirish ma'nosini bildiradi. Umuman olganda, sanoatlashtirish, har qanday davlatning, jumladan O'zbekistonning ham taraqqiyotini belgilaydigan soha ekanligi aniq. Boz ustiga, o'sha paytda Ittifoq G'arb mamlakatlaridan birmuncha orqada qolib ketgan edi. Shuning uchun sanoatlashtirish siyosatining kun tartibiga qo'yilishini obyektiv zarurat deyish ham mumkin. Lekin masalaning mohiyatini sanoatlashtirish qay tartibda, qanday muddatda, qanday manbalar hisobiga amalga oshirilishi va O'zbekistonning milliy manfaatlarini hisobga olish-olmasligiga doir muammolar belgilaydi. Agar ana shu muammolar inobatga olinsa, sho'rolar davrida hayotga tatbiq qilingan siyosat O'zbekistonning mutanosib rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi ma'lum bo'lib qoladi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ldi:

1) umuman, ishlab chiqarishni tashkil qilishda, jumladan sanoatlashtirishda iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari mavjud. Ularni e'tiborga olmaslik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, biron-bir

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 158–159-б.

² Qarang: Совет Социалистик Республикалари Иттифоқининг Конституцияси (Асосий Қонун). – Т., 1988. – 59-б.

hali pishib yetilmagan bosqichni sakrab o'tish mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, sobiq SSSRni sanoatlashtirish borasida rivojlangan G'arb mamlakatlari 40–50 yilda qo'lga kiritgan ko'rsatkichlarga 4–5 yilda erishish mumkinligi haqidagi g'oya asosida ehtirosga berilib belgilangan rejalar nafaqat bajarilmadi, balki samarasizlikning namunasi bo'lib qoldi. Masalan, O'zbekiston sanoati 1933 yilda ishlab chiqarish rejasini 72 % ga bajardi, mahsulot tannarxi og'ir sanoatda 30 % ga oshdi, ko'p korxonalar yilning 30–40 % davomida ishlamay turdi, F. Xo'jayev nomidagi poyafzal fabrikasi mahsulotining – 30 %, Farg'ona to'qimachilik fabrikasi mahsulotining – 40 % yaroqsiz (brak) deb topildi¹. Buni «zo'riqish» kasalligi desa ham bo'ladi, ya'ni imkoniyat va reja mos kelmasa, nafaqat ko'zda tutilgan natijaga erishilmaydi, balki inqiroziy vaziyat yuzaga keladi;

2) sanoatni o'ta tezkor odimlar bilan rivojlantirishda davlatning moddiy imkoniyatlari yetarli emasligini inobatga olmaslik jamiyatda ijtimoiy tanglikka olib keldi. Sanoat korxonalarining qurilishi uchun mablag', asosan, qishloq mehnatkashlarini qaqshatqich ekspluatatsiya qilish va aholining turmush darajasini o'ta past darajada ushlab turish hisobiga jamlandi. Natijada aholini kishi boshiga oziq-ovqat bilan ta'minlash 1940 yilning boshlarida ham 1924 yilga nisbatan 10–15 % kamroq bo'lgan². Oziq-ovqat mahsulotlarini kartochka asosida taqsimlash 1937 yil oxirlaridagina bekor qilindi. 1932–1933 yillarda sobiq Ittifoq, jumladan O'zbekiston hududlarida hukmronlik qilgan ochlik tufayli millionlab odamlarning qirilib ketishi bolsheviklar sanoatlashtirish siyosatining mudhish oqibatlarini deb qaralmog'i lozim;

3) sanoatni, birinchi navbatda, og'ir sanoatni rivojlantirishdan, eng avvalo, siyosiy maqsadlar, ya'ni davlatning harbiy qudratini mustahkamlash ko'zlandi. To'g'ri, bu haqda har qanday davlat ham g'amxo'rlik qilishi zarur. Lekin bu o'rinda gap davlatning mudofaa qobiliyatini yetarli darajada mustahkamlash xususida emas, balki harbiy qudratni butun dunyoda sotsialistik tuzum, umumjahon sovetlar hokimiyatini o'rnatishga xizmat qiladigan darajaga ko'tarish to'g'risida ketyapti. Sovetlar o'zini butun jahonga muxolif sifatida qo'yayotgan bir davrda, tabiiyki, harbiy sanoatning asosi bo'lgan ishlab chiqarish vositalarining o'zini ishlab chiqarishsiz ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasdi. Ushbu yo'nalish, ya'ni og'ir sanoatni rivojlantirishga ustunlik berish ishlab chiqarishning bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Natijada iste'molni qondirish bilan bog'liq bo'lgan sohalar Sovetlar davrida faqat ikkinchi darajali bo'lib qolaverdi;

4) sobiq Ittifoq sanoatni rivojlantirish masalasida faqat davlatning ichki imkoniyatlaridan foydalanish prinsipiga amal qildi, chunki siyosiy manfaatlarga ustun ahamiyat bergan davlat butunjahon iqtisodiy hamjamiyatiga qarshi turishga majbur bo'ldi. Oqibatda davlat jahonning ilg'or texnika va texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. SSSRda umuman ilmiy texnika taraqqiyoti bo'lmadi, deya

¹ Qarang: *Икромов А. Избранные труды. Т. 3. – Т., 1973. – С. 19.*

² Qarang: *Рабиш Р. Г. Формирование и развитие социально-классовой структуры Узбекистана. – С. 74.*

olmaymiz. Lekin erishilgan natijalar kamroq yo‘qotishlar orqali qiyinchiliklarsiz, qurbonlarsiz, xalqning boshiga tushgan azob-uqubatlarsiz ham qo‘lga kiritilishi mumkin edi;

5) sanoat ishlab chiqarishini haddan tashqari ixtisoslashtirish O‘zbekistonning markazga qaramligini kuchaytirdi. Respublikada qurilgan korxonalar asosan xomashyo ishlab chiqarish va unga dastlabki ishlov berishga, Ittifoqning rivojlangan mintaqalaridan keltirilgan tayyor agregatlardan zarur texnikani yig‘ishga moslashtirildi.

Umuman olganda, bolsheviklar yuritgan sanoatlashtirish siyosatining bosh g‘oyasini davlatning kuch-qudratini, birinchi navbatda, harbiy qudratini butun dunyoda Sovetlar hokimiyatini o‘rnatishga xizmat qiladigan darajaga yetkazish tashkil etardi.

Kollektivlashtirish (qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish) bolsheviklar iqtisodiy siyosatining fojiali ko‘rinishlaridan biridir. 30-yillarning boshlarida respublikamizda qishloq xo‘jaligini qayta tashkil qilish obyektiv zaruratmidi, degan savolga ijobiy javob bersa bo‘ladi. Chunki mayda dehqon xo‘jaliklari yangi agrotexnika, ilm-fan yutuqlarini keng qo‘llashga imkon bermasdi. Lekin qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini faqat kolxozlashtirish orqali isloh qilish zarurmidi? Yo‘q, albatta. Masalan, Amerika, Germaniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda kolxozlar hech qachon bo‘lmagan, lekin ular qishloq xo‘jaligining taraqqiyot darajasi bo‘yicha jahonda birinchilar qatorida turadi. Demak, jamoalashtirish qishloq xo‘jaligini isloh qilishning yakkayu yagona yo‘li, deb bo‘lmaydi.

Ammo, balki jamoalashtirish Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarziga mos kelar? Xo‘sh, o‘sha kezlarda O‘zbekistonda mahalliy dehqonlar orasida kolxozga kirishni xohlovchilar bormidi? Bu savollarga ijobiy javob berish amri mahol, chunki 1929 yillarda xo‘jaliklarning taxminan 70 % o‘rtahol dehqonlarga tegishli bo‘lib, ularning har biri ega bo‘lgan yer maydoni o‘rtacha 10 gektar edi. Kambag‘al dehqonlar taxminan 28–29 % ni tashkil qilgan bo‘lib, ularning har birining ixtiyorida 3 gektarcha yer bor edi. Adolat nuqtai nazaridan tan olish kerakki, dehqonlarning bir qismi bu yerlarni sho‘rolar hokimiyatidan olgan edi. Boy va umuman yersiz dehqonlar esa 1,5–2 % ni tashkil qilgan¹.

Nazarimizda, keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, hech bir dehqon ixtiyoriy ravishda yerini o‘zi uchun notanish bo‘lgan kolxozga topshirishga tayyor emas edi, chunki bolsheviklarning siyosati qanday iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi noma‘lumligi dehqonlarni cho‘chitib turgan. 20-yillarda yuz bergan yerlarni tortib olish, mol-mulkni musodara qilish, bolsheviklarning xususiy mulkka salbiy munosabati dehqonlarning xotirasidan ko‘tarilmaganligi aniq. Demak, kolxozlarni ixtiyoriy ravishda tashkil qilish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Kommunistik partiya jamoalashtirishda aynan majburlash usulini qo‘lladi. U quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi:

– 1929 yil 10 dekabrda markaziy «Kolxozsentri» deb atalmish tashkilot

¹ Qarang: Юсунов Э. и др. Коммунистическая партия Узбекистана во главе социалистического строительства в республике. – С. 86.

(albatta, partiyaning topshirig‘i bilan) joylarga, jumladan O‘zbekistonga ham jamoalashtirishga doir ko‘rsatmalar jo‘natdi. Unga ko‘ra, uch oy davomida ot-ulovlar va sog‘in sigirlarning 100 %, qoramollarning – 80 %, qo‘y-echkilarning – 60 % kolxozlar ixtiyoriga o‘tkazilishi shart qilib belgilangan¹. Kolxozlashtirishning o‘ta qisqa vaqtda o‘tkazilishi turli suiiste‘molliklar, talon-tarojlar, asossiz moddiy yo‘qotishlarga olib keldi;

– yerini, molini kolxozga o‘z ixtiyori bilan topshirmagan dehqonlarga nisbatan «quloq» qilish siyosati qo‘llanildi, ya‘ni sovet hokimiyatining dushmani sifatida ularning mol-mulki musodara etilib, o‘zlari jinoiy javobgarlikka tortildilar, surgun qilindilar, o‘zga hududlarga ko‘chirib yuborildilar. Bu siyosat nafaqat boy dehqonlarga, balki asosan o‘rtahol, ba‘zan esa kambag‘al dehqonlarga nisbatan ham qo‘llandi. Masalan, 1930 yilning o‘zida O‘zbekistonda 2648 ta o‘rtahol dehqon xo‘jaligi «quloq» sifatida tugatildi². Bundan tashqari, bolsheviklar siyosatini qabul qilmaganlarga nisbatan siyosiy cheklashlar (saylov huquqidan mahrum etish, iqtisodiy majburlash, bir necha marta oshirilgan soliqlar, kredit bermaslik, yetishtirilgan mahsulotni eng past narxda sotib olish va boshq.) usullarini qo‘lladilar. Joylardagi haybarakallachi partiya va sovet organlarining rahbarlari soxta obro‘ orttirish harakatida bozor, machit, choyxonalarni yoptirdilar, hatto tovuqlar va ro‘zg‘or buyumlarini umumlashtirishga ham borib yetdilar;

– ishchilar (to‘g‘rirog‘i sotsializm) manfaatini mutlaqlashtirgan bolsheviklar majburlashning yana bir antiqa usulini kashf qildilar. «25 mingchilar» harakatining qatnashchilaridan 437 nafari – Moskva, Leningrad, Ivanovo-Voznesensk ishchilari – O‘zbekistonga yuborilgan. Ularning aksariyati kolxozga rais, pravleniye a‘zosi, partiya tashkilotining kotibi etib saylangan³. Umrida o‘zbek qishlog‘ini ko‘rmagan, mahalliy xalq turmush tarzini tushunmagan, paxtaning nima ekanligini bilmagan rus ishchisining kolxozga qanday rahbarlik qilishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Boz ustiga, uning ruhiyatiga o‘zbeklar qoloq, siyosiy ongi past, o‘zining manfaatini tushunmaydigan omi xalq, degan fikr singdirilganligini ham nazarda tutish kerak.

Xullas, jamoalashtirishda ham iqtisodiy zarurat emas, balki siyosiy maqsadlar birinchi o‘rinda bo‘ldi, ya‘ni xususiy mulkka asoslangan dehqon xo‘jaligini tag-tomiri bilan yo‘q qilib tashlash muhim edi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini qayta tashkil qilish sobiq Ittifoqning paxta mustaqilligini ta‘minlash bilan bog‘liq. Paxtachilikni rivojlantirishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qoralab bo‘lmaydi. Gap paxtachilik qanday maqsadlarda, nimaning evaziga, qanday usullar bilan rivojlantirilganligi va qanday oqibatlariga olib kelganligidadir. Bu borada ham o‘sha majburlash, samarasiz usullarni qo‘llash, iqtisodning o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari bilan

¹ Qarang: *Куриндин В. М.* 1937 год в истории советского государства // Советское государство и право. – 1988. – № 2. – С. 112.

² Qarang: *Голованов А. А.* Крестьянство Узбекистана... – С. 130–131.

³ Qarang: *Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.* – 343-б.

hisoblashmaslik yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Masalan, birinchi besh yillikning oxiriga borganda (1934 y.) 1924 yilga nisbatan 8 martadan ortiqroq paxta yetishtirish rejalashtirildi. Tabiiyki, reja bajarilmadi, bajarilishi ham mumkin emas edi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida nomutanosiblik vujudga keldi. G'alla, bog'dorchilik mahsulotlarining hajmi o'rta hisobda 1,5 barobargacha kamaydi¹.

Paxta yetishtirishni ko'paytirish bilan bog'liq harakatlardan yana bir misol. Uzunligi 270 km bo'lgan Katta Farg'ona kanali mislsiz og'ir va qiyin sharoitda, faqat qo'l kuchi, ketmon, belkurak, zambil vositasida 45 kunda qurib bitkazildi. Xalqqa nisbatan shunchalik jabr-zulm bilan bog'liq tezkorlik, shoshma-shosharlik qanchalik zarur bo'lganligini o'ylab ko'rish ham sovet davlatiga xiyonat hisoblangan.

Shu tariqa, 30-yillar oxiriga kelib, SSSRning iqtisodiy tizimi aniq bir shaklga ega bo'ldi. Uning asosini quyidagilar tashkil etdi:

- asosiy ishlab chiqarish vositalari davlat mulkiga, qolganlari jamoat mulkiga aylantirilib, davlat nazoratiga olindi;

- markazlashgan boshqaruv, rejalashtirish va taqsimlash usuli mutlaqlashtirildi;

- ishlab chiqarish iqtisodning rivojlanish qonuniyatlariga emas, balki butun dunyoda sotsialistik tizimni o'rnatishdek siyosiy g'oyaga bo'ysundirildi;

- ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishga alohida ahamiyat berildi;

- ittifoqdosh respublikalar iqtisodini tashkil qilishda mahalliy sharoit inkor etilib, unga markaziy boshqaruvning bir elementi sifatida qarab kelindi.

Ana shu tizim deyarli SSSR tarqalib ketgunga qadar ba'zi bir juz'iy o'zgarishlar bilan saqlanib qoldi. Uning asosini tubdan isloh qilish masalasi biron marta kun tartibiga qo'yilmadi, chunki bunday islohot sotsializm g'oyasini inkor qilishga olib kelishi mumkin edi. Lekin, iqtisodiy tizim qandayligidan qat'i nazar, ishlab chiqarish rivojlandi, mehnatkashlarning turmush darajasi ham ko'tarildi. Bu fikrni tasdiqlash uchun ba'zi dalillar keltirish ham mumkin. Masalan, rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1960–1985 yillarda O'zbekistonning milliy daromadi – 4,3; sanoat ishlab chiqarishi – 4,9; qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi – 2,3 marta oshdi². Shu davrda respublika keng ko'lamdagi qurilish maydoniga aylandi. Sirdaryo GRESi, Buxoro va Andijon to'qimachilik kombinatlari, Namangandagi ipak va kostumbop gazmol ishlab chiqarish kombinati, Xivadagi gilam fabrikasi kabi yirik sanoat korxonalari ishga tushirildi, Chorvoq, Tuyamo'yin va Qoradaryo suv omborlari yaratildi³.

Yuqoridagi raqamlarda bo'rttirib ko'rsatish, qo'shib yozish elementlari mavjud bo'lishi mumkin, lekin har holda, o'sishni inkor etib bo'lmaydi. Erishilgan natijalar, aslida, birinchi navbatda, bardoshli o'zbek xalqining har qanday qiyinchiliklarga, yetishmovchiliklarga qaramay qilgan tinimsiz mehnatining mahsulidir. Bu natijalardan O'zbekiston xalqi yetarli darajada

¹ Qarang: Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Т., 1974. – С. 43-б.

² Qarang: Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет. – Т., 1984. – С. 19.

³ Qarang: Пузаев С. Шароф Рашидов. – Т., 1992. – 67–75-б.

naf ko‘rmadi. Fikrimizning tasdig‘i uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz: respublika ishchilari o‘rtacha oylik ish haqi bo‘yicha Ittifoqda 12-o‘rinni (15 tadan), kolxozchilarning maoshi bo‘yicha 15-o‘rinni, kishi boshiga o‘rtacha yillik daromad bo‘yicha 14-o‘rinni egallab turar edi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi har ming kishiga Ittifoqda 26 taga to‘g‘ri kelsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 43 tani tashkil qilardi. Qiyoslansa, o‘sha 1985 yilda bu ko‘rsatkich Finlyandiya va Yaponiyada – 6, AQSHda – 11 nafar bo‘lgan¹.

Fojia shundaki, vujudga kelgan ahvolni respublika o‘z xohish-irodasi bilan o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Markazlashgan rejalashtirish jarayonida respublikamizdagi demografik vaziyat hisobga olinmagan.

Respublikaning markazga qaramligi quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

– respublika hududida joylashgan sanoat korxonalari ishlab chiqaradigan mahsulotning faqat 7–10 % gina respublika ixtiyorida edi²;

– yetishtirilgan mahsulotni qat’iy ravishda markazdan belgilangan narxda sotish tartibi qaror topdi. Masalan, bir tonna paxta yetishtirish uchun sarflanadigan mehnat g‘allanikidan 28 marta ortiq bo‘la turib, uning xarid narxi faqat 5 martagina qimmat edi. O‘zbekiston paxtasi davlatga jahon bozoridagidan o‘rtacha 5 marta arzon narxda sotilgan³;

– respublikaning markazga qaramligini kuchaytirishda ishlab chiqarishni keng miqyosda ixtisoslashtirish usuli qo‘llandi. Respublika asosan xomashyo yetishtirishga ixtisoslashtirildi. O‘zbekiston Ittifoqdagi umumiy paxtaning taxminan 65 % ni yetishtirgan bo‘lsa, uning tolasidan respublikada ishlab chiqarilgan gazmol faqat 5,1 % ni tashkil qildi⁴. Bu ipak gazlamalarga ham tegishli edi. Ishlab chiqarishga bunday yondashish sanoatga ham to‘laligicha taalluqli. Paxta terish mashinalari, traktorlar, samolyotlar ishlab chiqaradigan korxonalariga butlov qismlari asosan Rossiya, Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalardan keltirilgan. Iqtisodiy qaramlikning bir qancha boshqa ko‘rinishlari ham bo‘lgan.

To‘g‘ri, iqtisodiy rivojlanish bo‘lgan, lekin unga aholining ortib borayotgan ehtiyojini qay darajada qondirganligiga, berayotgan samarasiga qarab umumiy baho berish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Birinchi, erishilgan natijalar sho‘rolar davlatining, sotsialistik tuzumning mahsuli sifatida izohlangan, vaholanki, taraqqiyot kishilik jamiyatining umumiy qonuniyatidir. Ijtimoiy hayot inqirozlardan qat’i nazar, oxir-oqibatda yuksalish yo‘lidan boradi. O‘tgan davrda rivojlanish faqat sotsializm yo‘lidan borgan O‘zbekistondagina emas, balki o‘zgacha yo‘ldan borgan G‘arb va Sharq mamlakatlarida ham ro‘y bergan. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar erishgan yutuqlarning dong‘i butun dunyoga mashhur.

Ikkinchidan, ijtimoiy hayotda hamma narsa, jumladan yutuq ham,

¹ Qarang: Народное хозяйство СССР в 1988 г. – М., 1989. – С. 29, 81, 83, 94.

² Qarang: На пороге кризиса: нарастание застойных явлений в партии и обществе. – М., 1990. – С. 360.

³ Qarang: Ризаев С. Шароф Рашидов. – 78-б.

⁴ Qarang: Народное хозяйство СССР за 70 лет. – М., 1987. – С. 188, 229.

magʻlubiyat ham, taraqqiyot ham, inqiroz ham nisbiydir. Faqat qiyoslash tufayli muayyan xolis natijalarga kelish mumkin. Aynan shu maqsadda sovetlar davrida Oʻzbekiston erishgan natijalarni boʻrttirib koʻrsatish uchun respublika koʻrsatkichlarini Afgʻoniston kabi qashshoq mamlakatlar bilan solishtirish anʼanaga aylangan edi. Aslini olganda, sanab oʻtilgan rivojlangan davlatlar bilan qiyoslansa, Oʻzbekistonning yutuqlari juda kam boʻlib qolardi. Ushbu mamlakatlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi, balki xalqining farovonlik darajasi boʻyicha ham Oʻzbekistondan ancha ilgari ketdilar.

Uchinchidan, mamlakatning taraqqiyoti faqat iqtisodiy koʻrsatkichlar bilan belgilanmaydi. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati past boʻlsa, unga talab boʻlmasa, u omborxonadan nariga ketmaydi. Natijada ishlab chiqarish bilan talab oʻrtasida nomutanosiblik kelib chiqadi. Masalan, SSSR choʻyan, sement, poyafzal, paxta va boshqa bir qancha mahsulotlar ishlab chiqarish boʻyicha AQSHdan oʻzib ketgan edi. Lekin ayni paytda qurilishda sement, turmushda paxtadan tayyorlangan gazlamalar, sifatli poyafzal, xalq isteʼmoli mollariga keti uzilmas navbatda turish davlat miqyosidagi anʼanaga aylanib qolgan edi.

Xullas, sovet davrida Oʻzbekistonning iqtisodiy ahvoli qanchalik nochor boʻlganligi haqida koʻplab boshqa dalillarni ham keltirish mumkin.

Koʻpincha, sovet davriga moyillik bildiradiganlar 1970–1980 yillarni (yaʼni 75 yildan faqat 10 yilni), boshqacha aytganda, uning «yashnagan» vaqtini eslaydilar. Ammo, bu davrda ham respublikaning iqtisodiy rivojlanish darajasi rivojlangan mamlakatlar darajasidan anchagina past ekanligi haqida yuqorida soʻz yuritdik. Toʻgʻri, mazkur davr nisbatan toʻkinchilik davri edi. Lekin nima uchun umuman sovet davri emas, balki aynan uning «yashnagan» davriga qarab baholashimiz kerak. Bu davrdan tashqari davrlarda xalq yarim qashshoqlikda yashaganligini sovetparastlar eslagilari kelmaydi. Qolaversa, oʻsha sovet tuzumi 80-yillarning oxiriga kelib davlatni umumiy inqiroz vaziyatiga olib kelganligi obyektiv haqiqat ekanligi endilikda barchaga maʼlum.

Xullas, shoʻrolar iqtisodiy siyosati Oʻzbekistonning boy imkoniyatlarini keng miqyosda ekspluatatsiya qilishga qaratilgan edi va samarasizligi tufayli inqirozga uchradi.

2. Kommunistik mafkura hukmronligining oʻrnatilishi hamda uning milliy madaniyat va maʼnaviyatga salbiy taʼsiri

Inson uchun moddiy farovonlik juda muhim, lekin buning oʻzi kifoya qilmaydi. Insonning madaniy, maʼnaviy ehtiyojlari yetarli darajada qondirilmasligi jamiyatdagi barqarorlikka salbiy taʼsir koʻrsatishi muqarrar. Bunga tarix shohid.

Ana shu muammolarning sovetlar davrida qoʻllanilgan usullar bilan oʻz yechimini topmaganligi, amalga oshirilgan islohotlarning mahalliy aholi turmush tarziga, dunyoqarashiga, milliy va maʼnaviy qadriyatlariga salbiy taʼsiri, ularni toʻliq qondirish borasida rasmiy hokimiyat koʻrgan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq qilinishi va ularning qanday ayanchli oqibatlarga olib kelganligini yoritish mavzuning mohiyatini tashkil qiladi.

Madaniyat va ma'rifat sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar xususida so'z yuritishdan oldin 20-yillar oxiri va 30-yillarning boshlarida bu sohada yuzaga kelgan vaziyatni yana bir eslash zarur. Xo'sh, bu boradagi ahvolni qanday baholash mumkin?

Sovet hokimiyati turli nayranglar bilan o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlab olgan bo'lishiga qaramay, ma'naviy va madaniy sohada aholining bir butun, yakdil dunyoqarashini shakllantira olmadi.

Xalq ta'limi. Bu davrda maktab yoshidagi bolalarning faqat 16 % o'qishga jalb qilingan, qishloq sharoitida esa bu ko'rsatkich 10–12 % dan oshmagan. Ta'lim sifati to'g'risida so'z yuritmasa ham bo'ladi, chunki o'quvchilar bir yil davomida 90–93 kun tahsil olganlar, xolos. Qolgan vaqtlarda qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinganlar. Maorifda muayyan bir tizim yetakchi o'rinni egallab ulgurmagan edi. 1927 yilda o'qishga jalb qilingan yoshlarning 3–4 % eski uslub maktablari (diniy maktablari), 30–35 % isloh qilingan maktablarda (jadid maktablari), 10–15 % sovet maktablari bilim olganlar¹. Demak, yoshlarning asosiy qismi savodsizlar bo'lib chiqadi. Bunga ham ma'lum ma'noda bolsheviklarning ta'lim sohasidagi siyosati sababchi edi, desak xato bo'lmaydi, chunki u qaror topgan eski tizimni sindirishga qaratilgan edi.

Milliy kadrlar. Hatto 1932 yilda ham boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilarning 72,5 % bor-yo'g'i boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan. Pedagogika institutlarni (o'sha vaqtda ular ikki yillik bo'lib, ularning maqomi taxminan o'rta maxsus o'quv yurtlariga teng bo'lgan) tugatgan o'qituvchilarning bilimlari universitetga qabul qilish talablariga javob bermaganligi sababli ular rabfakning 1–2 kurslariga qabul qilinganlar². Pedagog kadrlarning yetishmasligi ham nisbiy ma'noda tushunilishi lozim, chunki madrasalarni bitirganlar maktablarda dars berishi mumkin bo'lmagan.

1928 yilda respublikada faqat bitta oliy o'quv yurti – SAGU mavjud bo'lib (1917 yildan keyin barcha madrasalar yopib tashlangan), unda 4200 nafar talaba o'qigan, ulardan 131 nafari, ya'ni 3,2 % mahalliy millatlarga mansub bo'lgan.

Davlat idoralari va vazirliklarda faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy millat vakillari atigi 15 % ni tashkil qilgan³.

Ma'naviyat. Bu sohada aholining asosiy qismi ongida diniy dunyoqarash va milliylikni saqlab qolish asosida respublikani rivojlantirish mumkin, degan qarash ustuvor ahamiyat kasb etar edi. Ayollarning asosiy qismi ijtimoiy faoliyatdan chetda qolib, nisbatan himoyalanihga muhtojlik sezardi.

Shunga ko'ra, umumlashtirib xulosa qilinadigan bo'lsa, ma'naviy-madaniy sohada ham islohotlarni amalga oshirishga zarurat yuzasidan qaralishi mumkin. O'zbekistonning rasmiy rahbariyati ham buni anglagani aniq. Shu bois, bu borada bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublika rahbariyatining sa'y-harakatlari tufayli 30–40-yillarda ko'zga

¹ Qarang: *Икрамов А. Избранные труды. Т. 1. – Т., 1972. – С. 290–291.*

² O'sha joyda. – С. 290–292.

³ Qarang: *Икрамов А. Избранные труды. Т. 2. – С. 59.*

ko‘rinarli, muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishildi. Masalan, 1937 yilga kelib, maktab o‘quvchilarining soni 1928 yilga nisbatan 10 barobardan ko‘proqqa ortdi, shu davrda 1,7 mln. aholi savodli bo‘ldi. Savodlilar darajasi 67% gacha ko‘paydi. 1941 yilga kelib, sovet maktablarida o‘quvchilarning soni 1925 yilga nisbatan 70 barobar, ulardagi o‘qituvchilar soni taxminan 7 barobar ko‘paydi. Respublikada 31 ta oliy, 100 ga yaqin o‘rta maxsus o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsata boshladi. Ularda 33 ming talaba o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi (shundan 15,5 mingi oliy o‘quv yurtlarida). Bir qator ilmiy tekshirish institutlari tashkil qilindi¹. Keyinchalik taniqli allomalar darajasiga ko‘tarilgan H. M. Abdullayev, G‘. A. Mavlonov, T. N. Qori-Niyoziy, T. A. Sarimsoqov, O. S. Sodiqov, I. Mo‘minov va boshqalar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarini 30-yillarda boshlaganlar.

1933–1937 yillarda O‘zbekistonda asosan o‘zbek tilida 6,5 ming bosma tabaq hajmidagi har xil kitoblar chop etildi. Ularning umumiy tiraji 52 mln. nusxadan ko‘proq edi. Respublikada 202 ta gazeta chiqarilib, ularning umumiy tiraji 884 ming nusxa edi².

San‘at, adabiyot sohalarida ham salmoqli natijalarga erishildi. Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Uyg‘un, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov kabi taniqli yozuvchi-shoirilar va san‘atkorlar, o‘zbek badiiy adabiyoti va san‘atining o‘ziga xos yo‘nalishlarini shakllantirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ularning an‘analari asosida yosh ijodkorlar tarbiyalandilar.

Qo‘lga kiritilgan natijalarni qanday baholash mumkin? Agar ularni amalga oshirish usullari, berilgan qurbonlar hisobga olinmasa, haqiqatan ham o‘sha davrda xalq maorifi, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, ilmiy-tekshirish dargohlarining asosi yaratildi, deyish mumkin. Lekin Ittifoq va respublika rahbariyati ana shu natijalarga erishish uchun tanlagan va amalga oshirgan yo‘l yakkayu yagona, muqobilsizmidir? Yo‘q, albatta. Nima uchun sho‘rolar hokimiyati qurbonlar berilmaydigan, inson huquqlari poymol qilinmaydigan usullarni qo‘llamadi?

Sababi aniq: bolsheviklar o‘zlariga mafkuraviy qurol qilib olgan kommunistik g‘oya hech qanday o‘zgacha dunyoqarashni tan olmagan. Kishilik jamiyatining kelajagini faqat kommunistik g‘oya belgilashini – oliy haqiqat, bu maqsadga erishish uchun har qanday usulni yaroqli deb hisoblaganlar. Olijanob maqsadlarga nojo‘ya usullar bilan erishish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi, afsuski, xayolga ham kelmagan.

30-yillarda bolsheviklar partiyasi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini kommunistik mafkura mantig‘iga bo‘ysundirish choralari ko‘rdi. Masalan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalq ta’limida jadid maktablarining mavqei yuqori edi. Bu maktablar mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan turmush tarzi va diniy e’tiqodini inkor etmagani holda, mazlum xalqimizning dunyoviy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini ham qondirayotgan edi. Hukumat

¹ Qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – 388–389-б.

² Qarang: Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 4. – Т., 1971. – 650–672-б.

budjetida kamomad bo'lgan davrda taraqqiyparvar dindorlar bu maktablarning moddiy ta'minoti uchun vaqf mablag'lari hisobidan sarmoya ham ajratib turganlar. Ammo sovetlar rahbariyati bu maktablar turkumini kengaytirishga qarshi bo'lgan, ularga nisbatan salbiy munosabatini ochiqchasiga bildirgan. Akmal Ikromov O'zbekiston Kompartiyasi MKning VI plenumidagi «Musulmon ruhoniylari va maktab to'g'risida» ma'ruzasida isloh qilingan maktablarni yopish kerakligini yoki ulardagi ruhoniylarni yo'qotib, o'zlarining ishonchli odamlarini qo'yish lozimligini ta'kidlaydi¹. Ammo bu A. Ikromovning shaxsiy fikri demoqchi emasmiz. U kommunistik partiyaning respublikadagi rahbarlaridan bo'lganligi uchun o'zining e'tiqodi qanday ekanligidan qatyi nazar, partiyaning ko'rsatmalarini bajarishga majbur bo'lgan. U holda, nima uchun kommunistlar isloh qilingan maktablar faoliyatiga qarshi chiqdilar? Buning bir qancha sabablarini ko'rsatish mumkin:

– bolsheviklar maktabga, birinchi navbatda, bilim o'chog'i emas, balki yosh, o'sib borayotgan kelajak avlodning dunyoqarashini o'zgartiradigan, aniqrog'i, faqatgina kommunistik dunyoqarash va e'tiqodni shakllantiradigan vosita sifatida qaraganlar. «O'qituvchi – millionlab sotsializm uchun kurashchilarni tarbiyalashga yordam beruvchi qurolimiz», deb ta'kidlanadi partiya hujjatlarida. Jadidchilik maktablarida esa umuminsoniy dunyoqarashga e'tibor yuqori darajada bo'lgan;

– maktab bolsheviklar uchun o'z o'tmishidan ajratilgan va uni bilmaydigan avlodni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi zarur edi. Jadidchilik maktablarida o'qitiladigan Turkiston tarixi, islom dini kabi sharqona qadriyatlarga asoslangan fanlar esa o'tmishga hurmat bilan qarashni o'rgatardi, milliy ongini yuksaltirishga qaratilgan edi.

Maktabga bo'lgan bunday munosabat umuman xalq ta'limining barcha sohalariga – ishchi fakultetlari, FZU (fabrika-zavodlarda ishchi mutaxassislar tayyorlash kurslari), o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari va boshqalarda ham bo'lgan.

Bunday siyosatning natijasi esa aniq. Xalq ta'limi dunyoviy bilimlar berishdan ko'ra, ko'proq kommunistik mafkuraning sovet tuzumi manqurtlarini shakllantirishga e'tibor berdi. Bizningcha, bu tizim o'z maqsadiga qisman erishdi ham. Aks holda, qanday qilib chorakam bir asr mutelikka, xo'rlikka, kamsitishlarga chidab keldik? Imperiya inqirozga yuz tuta boshlaganidagina, ko'zimiz ochila boshladi.

Madaniyat, adabiyot, san'atga ham faqat bir tomonlama, kommunistik mafkuraning mantig'idan kelib chiqib, yondashildi. Bunday munosabat eng to'g'ri yo'nalish deb hisoblanib, rasmiy ravishda nafaqat targ'ib qilindi, balki hayotga tatbiq qilindi ham. Masalan, Akmal Ikromov 1928 yilda shunday deb e'lon qilgan: «...bizga umuman madaniyatning o'sishi emas, balki sotsialistik madaniyatning yuksalishi kerak»². Albatta, bu ham A. Ikromovning shaxsiy fikri emas edi, balki bolsheviklar rahnamosi I. Stalinning: «Yo'qsillar madaniyati milliy madaniyatni bekor qilmaydi, balki

¹ Qarang: *Икромов А. Избранные труды. Т. 2. – С. 123.*

² *Икромов А. Избранные труды. Т. 1. – С. 415.*

unga mazmun beradi. Va aksincha, milliy madaniyat yo‘qsillar madaniyatini bekor qilmaydi, aksincha, unga shakl beradi»¹, degan asossiz fikri negizida shakllangan edi. Demak, milliy madaniyatning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan iymon, e‘tiqod, halollik, hurfikrlilik, vijdonlilik kabi fazilatlar Stalinning ko‘rsatmasi asosida qatag‘on qilingani aniq.

Milliylik to‘g‘risida so‘z yuritish faqat millatchilikda, ya‘ni sovet tuzumiga dushmanlikda ayblanishga olib kelar edi.

Nafaqat o‘zbek madaniyati, balki umuman jahon taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan sharqona madaniyat ham yo‘q qilinishi kerak bo‘lgan. Fikrimizni dalillash uchun yana bir misol keltiramiz. 1929 yilda «Sotsializm qurilishining umumiy vazifalari va maorifni rivojlantirish to‘g‘risida»gi masala muhokama qilingan O‘zbekiston Kompartiyasi plenumida shunday eslatma berilgan: «Sharqqa qarab moslashish va Sharq (arab, fors, turk) madaniy merosi haqidagi gaplar, aslida burjua jamiyatini qayta tiklashga qaratilgan ochiq-oydin harakatdir. Bu gaplarning asosida proletar diktaturasini tugatishga va barcha Sharq sotsialistik respublikalarida burjua hukmronligini tiklashga qaratilgan oshkora intilish yotadi»². Masalani bunday qo‘yishdan maqsad, nazarimizda, Sharq bilan bo‘lgan an‘anaviy aloqalarga barham berish, milliy madaniyatning ming yillar mobaynida shakllangan ildiziga bolta urish va o‘zbeklarni faqat Rossiyadan kirib kelayotgan dunyoqarashga tobe qilishdir. Bu – yana o‘sha manqurtlikka qaratilgan harakat.

Hokimiyat sharqona madaniyatni nafaqat kulfat keltiruvchi ofat deb e‘lon qildi, balki uni yo‘qotish uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rdi. Ulardan biri 1928 yilda hali zarur sharoit yaratilmay turib, arab alifbosini lotincha alifbo bilan almashtirish bo‘ldi. Uning sababi tushuntirilgan mantiqqa e‘tibor qiling. O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashining alifboni almashtirish munosabati bilan e‘lon qilgan tezislarda, jumladan shunday deyilgan: «madaniyatimizning quroli bo‘lgan bizning alifboimiz (arab alifbosi nazarda tutilyapti. – E. A.) shunchalik ahmoqona va yaroqsizki, uning asosida hech qachon umumiy savodxonlikka erishish mumkin emas»³. Bu ham yetmaganidek, 1940 yilga kelib lotin alifbosi kirillitsa bilan almashtirildi. Oqibatda Turkiston tarixi, ma‘naviy qadriyatlari bilan bog‘liq o‘zbek mumtoz adabiyotidagi Navoiy, Ogahiy, Muqimiy, Ahmad Donish, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa buyuk ijodkorlarning asarlarini aslicha o‘qishga yoshlarimiz ojiz bo‘lib qoldilar.

Kommunistik mafkuraning qaror toptirilishi tub joy aholisining islom dini bilan bog‘liq ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlari va an‘analarining toptalishiga yo‘l ochib berdi.

Kommunistik partiyaning islom diniga bo‘lgan munosabati 1927 yilda O‘zbekiston kompartiyasining VI plenumi qabul qilgan «Musulmon ruhoniylari va maktab to‘g‘risida»gi qarorida qayd qilingan. Uning

¹ *Сталин И. Сочинения. Т. 7. – М., 1952. – С. 138.*

² *Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях... Т. 1. – Т., 1987. – С. 487.*

³ *Агзамходжаев А. А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т., 1971. – С. 114.*

mohiyatini quyidagi ko'rsatmalar ifodalaydi:

– islom o'zga dinlar kabi madaniyat, yo'qsillar g'oyalarini rivojlantirish va sotsializm qurilishini taraqqiyotga erishtirish yo'lidagi katta to'siqdir;

– ruhoniylarning islohotchi yoki taraqqiychi deb atalmish qismi ham o'zga guruhlar kabi partiya va sovet hokimiyatining asosiy tadbirlarini amalga oshirishga qarshilik qiladigan antisovet kuchdir;

– ruhoniylar islom dini va uning tashkilotlarini yo'qsillar diktaturasi bilan almashtirish, ularni mavjud sharoitga moslashtirish uchun barcha choralarni ko'ryaptilar;

– kommunizm va din bir-biriga butunlay qarama-qarshi ekanligini, ularni hech qachon birlashtirish mumkin emasligini kommunistlar, ayniqsa, faollar tushunib yetishlari kerak.

Keltirilgan fikrlarni umumlashtirib xulosa qilinsa, sovetlar davlatida dinga umuman o'rin bo'lmasligi, u insonlarning ongidan o'chirib tashlanishi kerak edi. Demak, dinning davlatdan ajratilganligi to'g'risidagi, ya'ni davlat va din har qaysisi o'z-o'zicha rivojlanishi haqidagi qonun uydirmadan boshqa narsa emasligi ma'lum bo'ladi. Amalda sovet hokimiyati ashaddiy murosasiz ateizmni o'zining dinga qarshi kurashish quroli qilib oldi. Machitlar va madrasalar yopilib, molxona va omborxonalariga aylantirildi, diniy kitoblar G'arb inkvizitsiyasi davridagidek gulxanlarda yoqildi, ruhoniylar e'tiqodi uchun qatag'on qilindi. Islom dini bilan bog'liq qadimiy tarixiy yodgorliklar qarovsiz qoldi va h. k.

Islom diniga qarshi kurashning bir ko'rinishi sifatida «Hujum» harakati uyushtirildi. Ayollarni rasman ozodlikka chiqarish, ijtimoiy faoliyatga jalb etish uchun o'tkazilgan va, umuman, yaxshi maqsadlarni nazarda tutgan bu harakatning amalga oshirilishi usullarini oqlab bo'lmaydi. Majburlash bu harakatda asosiy o'rin egallagan. Paranji-chachvonlar zo'rlab, ommaviy tarzda tortib olindi va yoqib yuborildi. Ayollar zabun hayotining asosiy aybdori qilib ruhoniylar ko'rsatildi. Shu munosabat bilan mashhur qirg'is adibi Chingiz Aytmatovning mulohazasini keltirish joiz: «Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan «Hujum» kampaniyasini o'sha davrning og'ir xatolaridan biri edi, deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi. Xudoning barqarorligini inkor etgan murtdalar Xudoning vazifasini o'z zimmasiga oladilar va «yangi odam yaratamiz» deb dahshatli o'yin boshlaydilar¹.

«Hujum» harakatini amalga oshirish jarayonida ayollarning qadr-qimmatini poymol bo'ldi, sharm-hayo oyoq osti qilindi. Xo'rlikka chidamagan ko'plab ayollar o'z joniga qasd qildilar yoki erlarining quvg'iniga uchradilar. Xullas, jamiyatda, oilada notinchlik yuzaga kelishiga sababchi bo'lindi.

Keyinchalik «Hujum» harakati ko'klarga ko'tarib maqtalgan sovet adabiyotida, ilmiy ishlarda keltirilgan ijobiy xulosalar yetarli darajada asoslanmadi. «Hujum»ni ayollarni erkinlikka olib chiqishning yakkayu yagona yo'li edi, deb hisoblash mantiqqa to'g'ri kelmaydi, chunki bugungi kunda islom davlat dini darajasiga ko'tarilgan bir qancha Sharq, jumladan

¹ Qarang: *Айтматов Ч. Қояда қолган кўз ёшлар // Жаҳон адабиёти. 1997. №2. 111-б.*

arab mamlakatlarida ayollarning ijtimoiy mavqei bizning mamlakatdagidan past darajada deb bo'lmaydi. Yoki bugun bizda bu muammo butunlay hal qilindi, desak ham xato qilgan bo'lamiz.

Kommunistik mafkura kadrlar siyosatini amalga oshirishda ham bir tomonlamalikka keng yo'l ochib berdi, ya'ni shaxsning ishbilarmonligi, mutaxassisligi emas, balki siyosiy e'tiqodi birinchi o'ringa qo'yildi. Jumladan partiya va sovet idoralari boshqaruv xodimlarini mahalliyashtirish (o'zbeklashtirish) muammosini hal qilishda ham qiyinchilik tug'ildi. Umuman, to'g'ri qo'yilayotgan masala bir qancha shartlar bilan cheklab qo'yildi. Bu shartlar A. Ikromovning «Mafkura frontidagi kurash va madaniyat xodimlarining vazifalari» nomli ma'ruzasida (1927 yil) bayon etilgan. «Milliy masalani, – deb ta'kidlaydi u, – partiya proletariat davlatini mustahkamlash maqsadidan, sotsializm qurilishini tezlashtirish maqsadidan kelib chiqib hal qiladi va bu mutlaqo to'g'ri. Milliy masalani bizning bu kundagi sotsializm qurish uchun kurash masalasidan ajratmasligimiz kerak. Bunga biz hech qachon yo'l qo'ymaymiz»¹.

Keltirilgan ko'chirma va, umuman, ma'ruzaning mohiyatidan kelib chiqadigan xulosani quyidagicha ifodalash mumkin. Davlat apparatiga har qanday o'zbek emas, balki faqat sotsializm qurishni istagan o'zbekkina jalb qilinishi mumkin edi, chunki bolsheviklar uchun kommunistik g'oyaga e'tiqod birinchi o'rinda, ishbilarmonlik ikkinchi o'rinda turgan. Natijada ishning ko'zini bilgan, bilimli, farosatli ko'plab o'zbeklar siyosiy e'tiqodi mavhum bo'lganligi uchungina davlat ishiga tortilmagan, millat manfaatini ko'zlaganlari esa millatchilikda ayblanib, qatag'on qilingan. Shuning uchun ham yuqorida keltirilgan, milliy kadrlarning yetishmasligi haqidagi fikr shubha uyg'otadi. Aslida, ularning yetishmasligi emas, aksincha, sho'rolar hokimiyatining siyosatini qo'llab-quvvatlovchi mahalliy kadrlarning kamligi haqida so'z yuritish to'g'riroq bo'ladi.

Xullas, 1930–40 yillarga kelib, O'zbekistonda markazga qaram bo'lgan mafkuraviy tizim shakllandi. U yakka kommunizm g'oyasiga e'tiqod qiladigan «yangicha» shaxsni tarbiyalashga xizmat qildi. Shunday qilib, ijtimoiy hayotning: maorif, o'rta va oliy ta'lim, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at va boshqa barcha jabhalari inson ongiga kommunistik mafkurani singdirishga, uni hokimiyat topshiriqlarini e'tirozsiz bajarib turadigan manqurtga aylantirishga qaratildi.

Kommunistik partiya maxsus yaratgan muhit kelishuvchilar, vaziyatga moslashuvchilarga qulaylik tug'dirdi, jamiyatda ularning mavqei mustahkamlanib, martabasi ulug'lashib bordi. Kommunistik dunyoqarashni qaror toptirish harakatlari riyokorlik, chaqimchilik, sotqinlikka keng yo'l ochib berdi. O'z xavfsizligi yo'lida otaning boladan, akaning ukadan va, aksincha, voz kechishi tabiiy holga aylanib qoldi.

Mulohaza yuritmaydigan, topshiriqni ko'r-ko'rona bajarishga tayyor turgan, tashabbus ko'rsatmaydigan shaxslar toifasi shakllanib, ular jamiyatning aksariyat qismini tashkil qila boshladi. Insof, diyonat, ezgulik, savob, harom-xarishdan qo'rqish kabi ma'naviy fazilatlar qadrsizlana boshladi.

¹ *Икромов А. Избранные труды. Т. 1. – С. 314.*

Jahon madaniyatidan va taraqqiyotidan ajralib qolish oqibatida va kommunistik ommaviy axborot vositalari tazyiqi ostida fuqarolar ongida sotsializm insoniyat kelajagini belgilaydigan yakkayu yagona tuzumligi to'g'risida soxta tushunchalar shakllandi. Vaqtinchalik qiyinchiliklar o'tib ketadi, oldinda bizni porloq, «har kimdan imkoniyatiga yarasha, har kimga ehtiyojiga yarasha» prinsipiga asoslangan kommunistik kelajak kutmoqda, degan gaplar surunkasiga targ'ibot qilindi. Ommaviy qatag'onlardan boshi omon qolgan har bir fuqaro har qanday og'ir sharoitda ham taqdirga tan berib yashashga majbur qilindi.

Kommunistik g'oya SSSR tarqalib ketguncha davlatning bosh mafkurasi sifatida o'z mavqeini yo'qotmadi, aksincha, 1977 yildagi Konstitutsiyada KPSSning jamiyatda rahbarlik roli qonuniy ravishda qayd qilinganidan keyin o'z mavqeini yanada mustahkamlab oldi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga nafaqat o'z ta'sirini o'tkazdi, balki uni tashkil qilishning asosiy mezonlarini belgilab berdi.

Lekin mafkuraviy sohadagi targ'ibot va tashviqot qanchalik kuchaymasin, qancha kuch va mablag' sarflanmasin, bu ishlarning samarasi tobora pasayib boraverdi. Nihoyat, siyosiy va ma'naviy hayotda inqirozli vaziyat vujudga keldi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- halol mehnat qilmay mo'may daromad topish imkoniyati tug'ilganligi, mehnatkashlarning moddiy holatini sun'iy ravishda tenglashtirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarda boqimandalik kayfiyati shakllanishiga olib keldi;

- izlanuvchan shaxslarning taklif va mulohazalariga yetarli e'tibor berilmasligi, tashabbuskor shaxslar munosib taqdirlanmaganligi tufayli davlat tasarrufidagi korxonalar mehnatkashlarida ishga befarqlik odat tusiga kirib qoldi;

- rahbar partiya xodimlari vakolatlarining cheklanmaganligi turli suiiste'molliklar va poraxo'rlikka olib keldi, ularning ma'naviy qiyofasining buzilishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, oddiy fuqarolarning amaldorlar oldidagi muteligini kuchaytirdi;

- eng asosiysi, milliy, tarixiy, diniy qadriyatlarni mensimaslik o'zlikni yo'qotishga olib keldi, «xalq, Vatan oldidagi burch» kabi muqaddas tushunchalarning qiymati pasaydi. «Sen menga tegma, men senga tegmayman» qabilidagi qoida asta-sekin ijtimoiy ongni egallab oldi;

- ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan aloqa vositalarining yaratilishi tufayli jahondagi rivojlangan mamlakatlarning demokratiya, inson huquqlari va farovonligi borasida erishayotgan salmoqli yutuqlaridan aholining voqif bo'lishi sotsializmga, uning adolatli, samarali jamiyatligiga nisbatan borgan sari ko'proq shubha uyg'ota boshladi.

Prezident I. A. Karimovning ta'biricha, «...inson jamiyatdagi o'z o'rnini va qadrini to'g'ri tushunishi zarur. U o'zini kichkina bir murvat deb his etishi, hamma muammolarni uning o'rniga davlat hal qilishi kerak deb bilishi zararli tushunchadir. Hayotga bunday munosabatda bo'linsa, o'z faoliyatining maqsadga muvofiqligi, o'z mehnati bilan munosib turmush

sharoitini yaratish mumkinligi haqidagi tasavvur soʻnadi»¹. Haqiqatan ham kommunistik partiyaning mafkura mashinasi aholini bir katta mexanizmning kichkina murvati sifatida tarbiyalash uchun barcha chora-tadbirlarni koʻrdi.

Shunday qilib, Oʻzbekiston xalqi sovet davrida murakkab jarayonlarni boshidan kechirdi.

Bir tomondan, KPSS rahnamo boʻlgan maʼmuriy buyruqbozlik tizimining tazyiqi ostida ezilib, erkin nafas ololmadi, tarixiy va milliy qadriyatlari toptaldi. Kommunistik mafkura respublika fuqarolarining ongidan ozodlik, mustaqillik gʻoyalarini oʻchirib tashlashga xizmat qildi.

Ikkinchi tomondan, respublika xalqi ogʻir sharoitga qaramay, oʻz mamlakatining kelajagi uchun sidqidildan ter toʻkib mehnat qildi, yirik sanoat korxonalarini yaratdi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini kengaytirdi.

Uchinchidan, Oʻzbekiston xalqi har qanday tazyiq ostida ham oʻzligini, milliy qadriyatlarini, diniy eʼtiqodini unutmadi, doimo ozodlikka intilish hissi bilan yashadi.

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.* – Т., 1998. – 167-б.

13-ma'ruza
**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA
KIRITILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI**

1. 90-yillar boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, tarixiy qisqa vaqt ichida katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Tarixiy nuqtai nazardan qisqa vaqt ichida ulkan zafarlar qo‘lga kiritildi. Erishilgan muvaffaqiyatlarning asosida nimalar yotishini tahlil qilish, xulosalar chiqarish kelajakdagi taraqqiyot uchun zamin bo‘ladi. Bunday farahli kunlarda o‘tmishga yana bir bor nazar tashlash, ya‘ni mustaqillikning qo‘lga kiritilishi arafasida respublikada hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ko‘z oldimizga keltirib, eslashimiz zarur.

Mustaqillikka intilish xalqimiz hayotida u yoki bu ko‘rinishda sobiq Sovet imperiyasi hukmronlik qilgan davrda ham namoyon bo‘lib turdi. U faqat 1991 yilga kelibgina ro‘yobga chiqdi. Buning bir qancha sabablari bor. Eng asosiysi, kishilik jamiyatining uzoq tarixidan ma‘lumki, har qanday imperiya o‘zi yaratilgan kundan boshlab o‘limga mahkumdir. Chunki uning maqsadi mustamlaka mamlakat xalqlarini ezish, uning moddiy boyliklarini talash bo‘ladi. Shunday maqsadni ko‘zlagani uchun ham u bo‘ysundirilgan xalqlarning tobora ko‘proq qarshiligiga uchraydi, ularni boshqarish borgan sari qiyinlashib boradi, pirovard natijada imperiyaning o‘zi inqirozga yuz tutadi.

Sobiq SSSR hukmronligini yodga olsak, 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida mamlakatda umumiy inqirozning ko‘rinishlari yaqqol namoyon bo‘la bordi. Shuningdek, O‘zbekistonda ham ishlab chiqarish asta-sekin so‘na bordi. Masalan, 1987 yilda O‘zbekistonda milliy daromad kishi boshiga 1985 yildagiga nisbatan 94,5 % ni tashkil qildi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi 1986–1990 yillarda biron marta ham 1985 yildagi darajaga yetib bormadi. Bu davrlarda sanoat va qishloq xo‘jaligining bir qancha sohalarining nafaqat kishi boshiga, balki mutlaq miqdori ham kamayib ketdi. Po‘lat, traktor, paxta terish mashinalari, ekskavator, ko‘prikli kran, qog‘oz, paxta tolasi, shohi gazlama, go‘sht ishlab chiqarish miqdori ancha kamaydi. Qishloq xo‘jaligida ham paxta va sabzavot turlarining hosildorligi pasaydi. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, o‘rtacha ish haqi to‘lash va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston Rossiyadan deyarli ikki barobar orqada qola boshladi¹.

Ijtimoiy-madaniy sohalarga e‘tibor tobora kamayib bordi. Achinarlisi shundaki, maorif, fan, sog‘liqni saqlash oqsay boshladi. Agar 1985 yilda maorif va fanga, umumiy ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yo‘naltirilgan mablag‘ning 46,3 % sarflangan bo‘lsa, 1991 yilga kelib bu ko‘rsatkich

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси: қисқача маълумотнома. – Т., 1993. – 13, 14, 27, 28, 29, 33, 42-б.

25,2 % gacha kamayib ketdi. Sogʻliqni saqlash va jismoniy tarbiya sohasida ham bu koʻrsatkich 18,0 % dan 12,7 %ga pasaydi¹.

Mustaqillikni qoʻlga kiritish arafasidagi eng katta fojialardan biri – bu millatlararo munosabatlar hamda respublikalar bilan markaz oʻrtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi boʻldi. Uning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari mavjud edi. Ularga, jumladan quyidagilarni kiritish mumkin:

– ijtimoiy muammolarning yechimini topishda milliy respublikalarning xususiyatlarini (koʻp bolalilik, ogʻir ekologik vaziyat, turli kasalliklarning ortib borishi, urf-odatlar, qadriyatlar) hisobga olmaydigan eskicha usullarni qoʻllashning davom ettirilishi;

– ittifoq ijro etuvchi hokimiyatini shakllantirishda aksariyat rahbar lavozimlarni rusiyzabon shaxslar egallashining davom etayotganligi oqibatida joylarda ruslarga nisbatan salbiy munosabatning kuchayganligi va jamiyatdagi koʻp nuqsonlar rusiyzabonlarning faoliyati bilan bogʻliq degan asoslanmagan fikrning tugʻilganligi;

– teng huquqli ittifoqni shakllantiradigan yangi shartnomani ishlab chiqishda markaziy hokimiyatning sustkashlik qilishi, markazning koʻproq oʻz mavqeini mustahkamlashga eʼtibor berib kelganligi, joylarga haqiqiy mustaqillik berishdan qoʻrqish;

– ilgari qatagʻon qilingan xalqlar: qrim tatarlari, koreyslar, mesxeti turklari, nemislar va boshqalarning rasmiy ravishda oʻz huquqlari va davlatchiligini tiklashi borasida deyarli hech qanday xayrli ish qilinmaganligi;

– rasmiy hokimiyatning Ittifoqqa kirgan Oʻrta Osiyo respublikalari oʻzlarini boqa olmasdan qarz hisobiga yashayotganligi haqidagi taʼnalari mahalliy millatlarning gʻururiga tegdi va ularni kamsitdi. Bunday salbiy munosabat ularda markazga nisbatan ishonchsizlik va qarshilikni kuchaytirdi.

Respublikada oʻsha davrda hukm surgan ijtimoiy tanglikning yana bir koʻrinishi siyosiy manqurtlik bilan bogʻliq. Bu nafaqat oddiy fuqarolar dunyoqarashiga aloqador, balki, birinchi navbatda, respublikada yuqori lavozimlarni egallab turgan rahbarlarga ham tegishlidir. Ular respublikadagi inqirozni faqat chetdan yuborilgan rahbar kadrlar orqali tuzatish mumkin, deb oʻyladilar. Shunday takliflar bilan markazga murojaatlar qilindi. Mahalliy urf-odatlar va turmush tarzidan umuman bexabar va uzoq, markazdan keltirilgan 400 nafardan ortiq partiya, sovet, xoʻjalik xodimlari respublikaning turli rahbarlik lavozimlarini egalladilar. Oʻzbekiston Kompartiyasining XVI plenumidan (1984 y.) keyin oʻtgan atigi 1,5 yil mobaynida viloyatlar partiya qoʻmitalarining 65 nafar kotibidan 40 nafari almashtirildi, ulardan 9 nafari birinchi kotib, 260 nafari shahar va tuman kotiblari etib tayinlandilar². Bu almashtirishlar boshqa sobiq sovet va xoʻjalik organlarini ham chetlab oʻtmadi. Natijada rahbar xodimlarning

¹ Oʻsha manba. – 43-b.

² Qarang: *Абдунабиев А.* Обновление: уроки прошлого. – Т., 1988. – С. 10–11.

aksariyatida kelajakka ishonchsizlik, umidsizlik, vazifalariga nisbatan mas'uliyatsizlik tuyg'usining kuchayishi sezilgan bo'lsa, boshqa bir qismida mavjud vaziyatdan foydalanib, shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun egallab turgan mansabini suiiste'mol qilish hollari kuzatildi. Bunday sharoitning vujudga kelganligi esa, o'z navbatida, boshqarish tizimini ham izdan chiqardi.

Jamiyatda tanglikka Markaz tashabbusi bilan amalga oshirilgan, «o'zbek ishi» va «paxta ishi» deb atalgan (aslida 1937 yildagi qatag'ondan qolishmagan) kampaniya sabab bo'ldi. Ushbu kampaniya davomida qonunlar to'g'ridan-to'g'ri poymol qilindi, gunohsiz fuqarolar javobgarlikka tortildi. Albatta, bunda paxtachilikda qo'shib yozishlar sodir etilganligini inkor etib bo'lmaydi, lekin bunga odamlarni kim majbur qilganligini ham hisobga olish kerak edi. Bu ish esa qilinmadi.

Mutasaddi rahbarlar Markazning paxta ishlab chiqarishni ko'paytirish to'g'risidagi talablarini bajarmasligining imkoni yildan-yilga kamaygan, chunki bunday talablarni bajarmagan shaxslarning xatti-harakatlari sovet davlatining siyosatiga qarshi chiqish, davlat manfaatini mensimaslik, millatchilik ko'rinishi sifatida baholanib, ularning nafaqat lavozimlaridan ketishlari, balki javobgarlikka tortilishlari ham ehtimoldan xoli emas edi. Qatag'onning nihoyatda avj olganligiga «paxta ishi» bo'yicha javobgarlikka tortilgan uch mingdan ortiqroq kishining keyinchalik butunlay oqlanganligi ham dalil bo'la oladi¹.

Iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi, turmush darajasining pasayishi, millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi, boshqaruvning izdan chiqishi, qonuniylikning buzilishi va boshqalar jamiyat turli tabaqalarining o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida norasmiy, mavjud qonunlarda ko'rsatilmagan yoki man qilingan jamoalar va harakatlarga birlashishga majbur qildi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy hayotning siyosiylashuviga olib keldi. Bu jarayon, ayniqsa, 1998 yildan boshlab avj oldi. O'zbekistonda dastlab «Birlik», keyinchalik «Erk», «Interdvijeniye» harakatlari, yoshlar hamda ayollarning turli jamiyatlari vujudga keldi. Bunday ijtimoiy harakatlar va jamiyatlarning boshlang'ich faoliyatida mehnatkashlar siyosiy ongini o'stirish borasida ba'zi bir ijobiy natijalarga erishildi, desak xato bo'lmaydi. Ular o'zbek tilining mavqei, tarixiy qadriyatlar va vijdon erkinligini tiklash hamda respublikaning mustaqillikka erishuviga muayyan hissa qo'shdilar. Lekin keyinchalik rasmiy rahbariyatga qarshi turishni o'zlarining asosiy quroliga aylantirib, ehtirosiga berilib, o'z maqsadlaridan og'ib ketdilar. Ko'pchilik muammolar ijobiy hal bo'lganiga qaramay, fuqarolarni mitingbozlik va tartibbuzarlikka chaqirdilar. Ba'zi hollarda jinoiy ishlarga qo'l urishga ham jur'at qilganliklari sababli, xalqning e'tiboridan qoldilar.

Shunday og'ir vaziyatda xalq manfaatlarini va respublikaning kelajagini o'ylaydigan sofdil hamda adolatparvar rahbarlar ham topildi. Ular endi Markaz vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishga mutlaqo layoqatsiz

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1992. – № 2. – 55-б.

ekanligiga ishonch hosil qildilar, shuning uchun ham respublikaning mustaqilligini ta'minlash yo'llarini va choralari izlab topa boshladilar. 1989 yilning iyunida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimiga I. A. Karimov saylanib, uning rahbarligida bunday ishlar tobora izchillik bilan amalga oshirila boshladi.

Bugungi kunda ba'zilarga mustaqillikka osonlikcha erishilgandek bo'linib ko'rinadi. Aslida, sobiq Kommunistik partiya hukmronlik qilib, butun repressiv apparatni o'z qo'lida ushlab turgan kezlarda respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka intilayotganining ba'zi bir ko'rinishlari bilan bog'liq tadbirlarni ochiqdan-ochiq amalga oshirish o'ta mardlik, shijoat va qat'iyatni talab qilar edi. Bu damlarni sanab va eslab o'tishning o'zi ham mustaqillikning ba'zilar o'ylaganchalik oson qo'lga kiritilmaganligidan dalolat beradi. Masalan, 1989 yilning 21 oktabrida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu tarixiy voqeaning mohiyati shundaki, u faqat milliy ma'naviyatni tiklashga qaratilgan bo'lib qolmay, o'sha paytda mahalliy aholining asosiy qismini tashkil qilgan, mustaqillikka intilayotgan o'zbeklarning siyosiy qarashlarini ham ifodalagan edi.

1989 yil 25 noyabrdagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasi respublikaning o'zini o'zi boshqarishi va mablag' bilan ta'minlashi prinsipiga o'tishi chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozimligi to'g'risida qaror qabul qildi. Chunki Markaz respublikaga nisbatan o'z majburiyatlarini bajarmay qo'ygan edi.

1990 yilning 24 martida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasi sobiq Ittifoqda birinchi bo'lib respublikada Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Mustaqillikka erishish borasidagi kurashlarda jonbozlik ko'rsatayotgan I. A. Karimov bir ovozdan ushbu lavozimga saylandi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1990 yil 20 iyundagi sessiyasi «Mustaqillik deklaratsiyasi»ni qabul qildi. Unda O'zbekiston SSR o'zining ichki va tashqi siyosatini belgilashda tanho hokim bo'lishi qayd etildi.

Oliy Kengash Prezidiumi 1991 yilning 22 iyulida «O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida» qaror qabul qildi.

Qabul qilingan qarorlar mustaqillikka erishish uchun qilingan harakatlar majmuasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmasa ham, mustaqillik sari intilishning tasodifiy hodisa emasligini tasdiqlab turibdi.

1991 yilga kelib Markazning tazyiqidan qutulishga harakat sobiq Ittifoqda umumiy yo'nalishga aylandi. Endi markaziy hokimiyat oldida bir qancha muammolar ko'ndalang bo'lib turardi. Bu muammolarni shartli ravishda o'zaro bog'liq uch guruhga bo'lish mumkin:

1) har qanday yo'l bilan bo'lsa ham markaziy hokimiyatning mavqeini mustahkamlash;

2) mamlakatda muayyan tartib o'rnatish va ijro intizomini kuchaytirish;

3) milliy respublikalar bilan Markaz vakolatlarining chegarasini aniq belgilash orqali separatizmga chek qo'yish.

Lekin bu muammolarning yechimini topishda markaziy hokimiyatning o'zida birlikning yo'qligi SSSRning tarqalib ketishini tezlashtirdi. Moskvadagi siyosiy kuchlarning vakillari ikkita qarama-qarshi guruhga bo'linib ketdilar.

Prezident M. S. Gorbachevning o'sha davrdagi muovini Yanayev boshchiligida birinchi guruh (o'zining siyosiy bayonotida Favqulodda holat bo'yicha davlat qo'mitasi) GKCHP hokimiyatni o'z qo'liga olgani va mamlakatdagi vaziyatni quyidagi yo'llar bilan o'zgartirish rejasini e'lon qildi:

– iqtisodiy faoliyatni uyushtirishda davlat mulkining mavqeini mustahkamlash va, umuman, ishlab chiqarish ustidan nazoratni kuchaytirish;

– jamiyatda yetakchi mavqeini tobora yo'qotib borayotgan KPSSning obro'ini ko'tarish;

– jamiyatni boshqarishda sotsializmning ustun g'oya ekanligini tan olish.

Yelsin boshchiligidagi ikkinchi guruh vakillari o'zlarini demokratlar deb atadilar. Bu siyosiy kuch quyidagicha talablar bilan Moskva ko'chalariga chiqdi:

– KPSSning jamiyatdagi rahbarlik o'rniga barham berish;

– mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va erkin iqtisodiy faoliyat uchun sharoit yaratish;

– jamiyatni boshqarishda demokratik tamoyillarni qo'llash uchun keng yo'l ochish;

– ittifoqdosh respublikalar, jumladan Rossiyaning mustaqilligini tan olish va h.k.

Har ikkala guruhning dunyoqarashi tahlil qilinganda, birinchisi jamiyatni o'zini oqlamagan eski tuzumga qaytarishga harakat qilganligini, ikkinchisi kelajak, yangilanish, taraqqiyotga intilganligini ko'rish mumkin. Tarix g'ildiragini orqaga aylantirib bo'lmaydi. Demokratiyaga intilayotgan Yelsin boshchiligidagi kuchlar bu siyosiy inqirozdan g'alaba bilan chiqdilar.

Murakkab vaziyatda ham O'zbekiston rahbariyati oqilona yo'lni tutdi, ya'ni Markazdagi tortishuvlarga aralashmasdan respublikada barqarorlikni saqlab qolish, ichki va tashqi siyosatni mustahkamlash uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo'lidan bordi.

I. A. Karimov o'sha davrdagi O'zbekiston rahbariyatining harakatlari haqida shunday degan edi: «17–19 avgust kunlari men O'zbekiston delegatsiyasi bilan Hindistonda edim. 19 avgustda u yerdan qaytib kelgach, shu kuniyoq rahbariyat a'zolarini, hukumat va parlament a'zolarini to'plab, maxsus yig'ilish o'tkazdik. Yig'ilishda men o'z fikrimni aytdim. ...Mening bayonotim shunday bo'ldi: O'zbekistonga buning daxli yo'q. O'zbekiston o'z yo'lini, o'ziga xos, o'ziga mos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi, O'zbekiston erkin bo'ladi, deb uzil-kesil aytganmiz. Bu qarorni barcha viloyatlarda, barcha tumanlarda butun O'zbekiston xalqi qo'llab-quvvatladi»¹.

Shunday qilib, 19–21 avgustda yuz bergan siyosiy voqealar SSSRning tarqalib ketishi uchun muhim turtki bo'ldi, deyish mumkin. Imperialistik

¹ *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996. – 295-б.

siyosatning mustamlaka hudud aholisining manfaatlari bilan hisoblashmasligi, sotsializm deb atalmish ijtimoiy tuzumning jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi ichki mexanizmi shakllanmaganligi tufayli SSSR davlatining o'zi barbod bo'ldi. Tobe bo'lgan milliy respublikalarning mustaqilligiga yo'l ochildi.

2. O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi va buning tarixiy ahamiyati

Sobiq Ittifoq hokimiyatida avgust voqealari munosabat bilan yuzaga kelgan parokandalik uning vaziyatni tuzatishga layoqatsizligidan dalolat berdi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston rahbariyati respublika xalqini muhofaza qilish borasida qat'iy harakatlar qilishga va shoshilinch choralar ko'rishga majbur qildi. Shunday vaziyatda:

– 1991 yil 21 avgust kuni Prezident I. A. Karimovning GKCHP qarorlari O'zbekiston uchun noqonuniy ekanligi haqidagi farmoni e'lon qilindi. Bu bilan markaziy hokimiyatning respublika ichki ishlariga aralashuviga chek qo'yildi;

– 1991 yilning 25 avgust kuni har qanday davlat o'zini o'zi muhofaza qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligi nazarda tutilib, Prezident I. A. Karimovning farmoni bilan Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi. Ichki qo'shinlar esa bevosita Prezidentga bo'ysundirildi;

– 1991 yilning 28 avgustida O'zbekiston Kompartiyasining plenumi KPSS Markaziy Komiteti bilan aloqalarini to'xtatgani, uning barcha tashkilotlaridan chiqqanligi haqidagi qarorini e'lon qildi.

Bu choralarning ko'rilishi O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda e'lon qilishiga mustahkam zamin tayyorladi. Nihoyat, 1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qildi. Shu munosabat bilan Oliy Kengashning «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi bayonotida shunday deyiladi:

« – o'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda hayotdagi o'zgarishlarini e'tiborga olib;

– xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib;

– O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab;

– shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatni bayon etib;

– millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va

qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib;

– mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi»¹.

Respublika huquqiy maqomining o'zgarishi, uning mustaqil davlatga aylanishi munosabati bilan amaldagi Konstitutsiyani qo'llash borasida muammo yuzaga keldi. Shu bois ham, 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunga konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi. U yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasi yaratilgunga qadar amalda bo'ldi. Ushbu qonunda O'zbekistonning davlat ramzlari – gerbi, bayrog'i, madhiyasi yaratilishi lozimligi qayd etildi².

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tasdiqlovchi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi respublika xalqiga nima berdi, degan savolning qo'yilishi, tabiiy. Chunki bugungi kungacha ongiga boqimandalik ruhiyati o'rnatilgan qolgan ba'zi bir avom shaxslar o'z manfaatlarining davlat tomonidan qondirilishini kutib, moddiy boyliklar o'zidan o'zi yaratilmasligi, ular sidqidildan qilingan halol mehnat tufayli jamg'arilishini tushunmayaptilar. Shunday vaqtinchalik tushkunlik ko'rinishlari zohir bo'lishiga qaramay, mustaqillik e'lon qilinishining o'zi ham O'zbekiston xalqi uchun juda uzoq vaqt kutilgan oliy ne'mat, deyishga to'la asos bor. Chunki mustaqillik tufayli:

– dunyo xaritasida «O'zbekiston» degan yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi va o'zbek xalqining o'z davlatchiligining tiklashdan iborat asriy orzu-umidi ro'yobga chiqdi;

– respublikada yashayotgan har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqidan kelib chiqib, o'zining ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritish imkoni yaratildi;

– O'zbekiston xalqi respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi bo'ldi;

– O'zbekiston o'z hududidagi barcha tabiiy boyliklarga o'zi egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi;

– milliy, ma'naviy va tarixiy qadriyatlarni qayta tiklash va erkin rivojlantirish uchun sharoit yuzaga keldi;

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонунлари. №3. – Т., 1992. – 121-б.

² О'sha manba. – 118-b.

– jahondagi ilg‘or tajribalardan kelib chiqib, inson manfaatlari va huquqlarining himoyasini ta‘minlovchi huquqiy demokratik davlat qurish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Xullas, O‘zbekiston xalqining ijtimoiy, ma‘naviy, iqtisodiy manfaatlari ustun ekanligi tan olinib, uning farovonligini ta‘minlovchi barcha omillarni qo‘llash uchun sharoit yaratildi.

O‘zbekistonning mustaqilligi tom ma‘noda o‘zbek xalqining ezgu niyatlarini aks ettiradi. Buni 1991 yil 29 dekabrda o‘tkazilgan referendum yana bir marta tasdiqladi. Referendumda shunday savol qo‘yildi: «O‘zbekiston fuqarosi sifatida sizning Oliy Kengash e‘lon qilgan O‘zbekiston mustaqilligiga munosabatingiz qanday – qo‘llaysizmi-yo‘qmi? Bu savolga fuqarolarning 98,2 foizi ijobiy baho berib, mustaqilligimizni qo‘llab-quvvatladi»¹. Shunday qilib, O‘zbekiston tarixida yangi davr boshlandi.

1991 yil 29 dekabrda I. A. Karimovning umumxalq tomonidan muqobillik asosida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylanishi O‘zbekiston hakikatdan ham demokratiya sari intilayotganligining ifodasi bo‘ldi. Bu siyosiy voqeaning tarixiy ahamiyati shundaki, o‘zbek xalqi 130 yillik mustamlakachilikdan keyin tarixda birinchi marta o‘zining davlat rahbarini erkin tanlov asosida sayladi. Saylov yakuniga ko‘ra, I. A. Karimov 86 foiz ovoz oldi. I. A. Karimovning Prezidentlik lavozimiga birinchi bosqichdayoq ko‘pchilik ovozi bilan saylanishi uning O‘zbekiston xalqi oldidagi xizmatlari, mustaqillik uchun kurashlarda fidokor va jasur rahbar bo‘lganligiga xalq javobining ifodasi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. O‘z navbatida, Prezident ham lavozimga kirishayotib: «O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat‘iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman»², – deb Oliy Majlisning yig‘ilishida xalq ishonchiga javob berdi.

O‘zbekistonning mustaqillikni e‘lon qilishi jahonshumul ahamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘plab mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar respublika mustaqilligini xursandlik bilan qabul qildilar va buni qo‘llab-quvvatlashlarini bildirdilar. Oradan bir yil o‘tar-o‘tmas, O‘zbekiston BMTning teng huquqli a‘zosiga aylandi. Uning davlat mustaqilligini dunyoning 120 dan ortiq mamlakati rasman tan oldi. Ularning 45 tasi bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Toshkentda AQSH, Olmoniya, Fransiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Pokiston kabi nufuzli davlatlarning elchixonalari ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Xelsinki shartnomasiga imzo chekdi va Yevropa bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishi uchun yo‘l ochdi.

¹ *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – 296-б.

² *Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.* – Т., 2003. – 92-модда.

O‘zbekiston Turkiya, Eron va Pokiston davlatlari tomonidan tashkil etilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga a‘zo bo‘ldi. Turkiya, Xitoy, Koreya, Rossiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlar bilan o‘zaro iqtisodiy va madaniy hamkorlik haqidagi bitimlar tuzildi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning xalqaro nufuzi oshib borishini I. A. Karimov quyidagicha izohlaydi: «**Birinchidan**, biz dastlabki kunlardanoq mustaqil ravishda tashqi siyosat yurita boshladik. Tinchlik va hamjihatlik prinsiplarini olg‘a surdik. O‘zbekiston iqtisodiy va ma‘naviy salohiyati buyuk davlat ekanini anglatib turdik va bu haqiqatni amalda namoyon eta boshladik.

Ikkinchidan, biz tashqi siyosatni ichki siyosat bilan uzviy bog‘lashning uddasidan chiqdik. Mamlakat ichkarisida osoyishtalikni saqlashga erishdik»¹.

Davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi nafaqat O‘zbekiston xalqi, balki jahon hamjamiyati uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – 5–6-б.*

14-ma'ruza
**O'ZBEKISTON HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH
YO'LIDA. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING
BARPO ETILISHI**

1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning xususiyatlari

O'zbekiston XX asrning so'nggi o'n yilligida mustaqillikka erishdi va o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Mustaqil suveren davlat deb e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishni, barcha fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishni, ularga huquq va erkinlik kafolatini berishni, shuningdek, xalq farovonligini oshirib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining asl mohiyati bozor munosabatlariga asoslangan erkin fuqarolar jamiyatini qurishdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish.

Fuqarolik jamiyatining asoslarini barpo etish zarurligi to'g'risida fikr yuritib, I. A. Karimov shunday dedi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi»¹.

Demokratik fuqarolik jamiyatini barpo qilish eski davlat tuzumini, birinchi navbatda, siyosiy tuzumni isloh qilishni taqozo etdi. Islohotlarni amalga oshirishga kirishishda, avvalo, ikki muhim omilni hisobga olish kerak bo'ldi: birinchisi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda jahon tajribasidan foydalanish; ikkinchisi – milliy davlatchilik va boshqa sohalarda xalqimizning asl merosiga tayanish.

Ayni paytda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan prinsiplarga amal qilinmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va amalga oshirishi;
- davlat va jamiyat boshqaruvida qonunning ustunligi;
- davlat asosiy organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi;
- hokimiyatning taqsimlanishi;
- ko'ppartiyaviylik;
- inson huquqlarining ustuvorligi;

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 151-б.*

– inson va davlat manfaatlarining uygʻunlashuvi va h.k.

Shuningdek, demokratik fuqarolik jamiyati qurishda xalqimizning asl merosi, respublika aholisining oʻziga xos mentaliteti, yaʼni xususiyatlari hisobga olinmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

– aholining ijtimoiy hayotida kollektivizmga intilish, sabr-toqatlilik, andishalilik, hamjihatlik gʻoyasi va jamoatchilik fikrining ustunligiga tayanuvchi «sharqona demokratiya qadriyatlarining mavjudligi»;

– aholi asosiy qismining islom diniga eʼtiqod qilishi va koʻplab diniy konfessiyalarning mavjudligi;

– respublika aholisining koʻp millatliligi (100 dan ortiq millat va elatlar vakillarining yashashi);

– respublika aholisining yakka partiya, yakka mafkura hukmronlik qilgan jamiyatda yashaganligi;

– deyarli 130 yillik mustamlakachilik davrida aholi siyosiy faolligining pasayib ketganligi.

Respublikada demokratik fuqarolik jamiyati qurish borasida yuqorida qayd qilingan jahon tajribasi va milliy xususiyatlarimizning hammasi toʻliq hisobga olindi. Oʻzbekistonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat bir qator prinsiplar va huquqiy normalar talablariga javob berishi kerak. Bular quyidagilardan iborat:

– shaxs manfaatleri va huquqlarining taʼminlanishi;

– Konstitutsiya va qonun ustunligining taʼminlanishi;

– qonun oldida barchaning tengligi;

– davlatning oʻzini oʻzi muvofiqlashtirib turuvchi mexanizmga ega boʻlishi;

– ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotning raqobat asosida tashkil qilinishi, hech bir sohada monopol hukmronlikka yoʻl qoʻyilmasligi;

– eʼtiqod erkinligi va hurfikrlilikning hukmronligi.

Bu talablarni amalga oshirish borasida Oʻzbekistonda juda katta ishlar amalga oshirildi. Lekin demokratik davlatni barpo qilish – toʻxtovsiz jarayon. Oʻzbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati qurishning xususiyatlaridan biri unda shunchaki demokratik jamiyat emas, balki demokratik odil jamiyat qurish yoʻli tanlandi. Adolat va haqiqat gʻoyasi davlatimiz va qonunchilik faoliyatimizning bosh yoʻnalishi boʻlmish demokratik jamiyat qurilishining asosi qilib olindi. Prezident I. A. Karimov demokratik odil jamiyat qurish toʻgʻrisida shunday deydi: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. Oʻtmishda oliy adolat gʻoyasi mansabdor shaxslarga qoʻyiladigan talab va bahoning asosi boʻlgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan. Biz tariximizdagi ana shu jihatlarni hisobga olmasak, qudratli, erkin, demokratik davlat qura olmaymiz»¹.

¹ *Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – 9-б.*

O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati qurilishining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri «sharqona demokratiya»¹ prinsiplarining qo‘llanila boshlashidir. U xalqimiz tomonidan katta ko‘tarinkilik bilan qabul qilindi. Sharqona demokratiya – milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug‘larga hurmat, o‘zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuviga asoslanadigan faoliyatdir. Shuningdek, «sharqona demokratiya» siyosiy tartibsizliklar, boshboshdoqlikni xalqning milliy manfaatlariga zid deb qaraydi. Sharqona demokratiya siyosiy plyuralizm, alternativ jarayon, har bir shaxs yoki guruh manfaatlarini himoya qilishni o‘z faoliyatining eng asosiy qoidalaridan biri deb hisoblaydi.

Respublikamiz Prezidenti ta’kidlaganidek, «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo‘lmaydi. Ya’ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g‘oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. Bizning mamlakatimizda demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur»².

Mustaqil O‘zbekistonda sharqona demokratiyani tiklash va hayotga tatbiq etish borasida katta ishlar bajarilmoqda. Chunki bizda «sharqona demokratiya»ning qadriyatlarini demokratiya rivoji uchun ko‘proq qo‘l kelmoqda.

Buyuk taraqqiyot yo‘lidan borayotgan respublikamizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Fuqarolik jamiyati – hokimiyatning davlat organlari va boshqaruvidan tashqaridagi qism. Fuqarolik jamiyatining yetuklik darajasi – fuqarolarning siyosiy va jamoat tashkilotlariga birlashish darajasi, siyosiy va jamiyat tashkilotlarining ta’siri hamda taraqqiyot darajasi bilan ham belgilanadi. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi taxminan ikki ming yillik tarixga ega. Uning yuzaga kelishi jamiyat haqidagi fanlar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq»³.

Erkin demokratik fuqarolik jamiyati o‘zining bir qancha jihatlari bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatida inson, uning hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va siyosiy manfaatlarini, sha’ni, qadr-qimmati, erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi.

Fuqarolik jamiyatida shaxsning o‘z iqtisodiy va siyosiy turmushini erkin, ixtiyoriy asosda qurishi ta’minlanadi, umuminsoniy huquqlarga alohida e’tibor beriladi, davlat organlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazorati o‘rnatiladi, kuchli davlat funksiyalari tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o‘tadi. Shu bilan birga, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini bajarishlari, o‘z hududlaridagi ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazishdagi faolliklari hozirgidan ko‘ra ancha kuchayadi.

¹ Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т., 1998. – 241-б.

² Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – 8-б.

³ Фофуров З. Ҳуқуқий давлат мезони // Ҳаёт ва қонун. – 1999. – № 7. – 14-б.

Fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipi bo'lgan ijtimoiy asoslarning davlat asoslaridan ustunligi Konstitutsiyamizning 2-moddasida quyidagicha aks ettirilgan: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar»¹.

Fuqarolik jamiyati huquqiy demokratik davlatning negizi, bosh zaminidir. Uni «demokratiya», «qonunning ustunligi» va «inson huquqlari» kabi tushunchalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyati – qonun, axloq-odob, insonparvarlik va adolat prinsiplariga hurmat bilan qaraladigan hur, demokratik, huquqiy, madaniy jamiyatdir, bu aralash iqtisodiyotli ko'p ukladli bozor jamiyati, tashabbus asosidagi ishbilarmonlik jamiyati, turli qatlamlar manfaatlarining oqilona muvozanatidir.

Respublikamiz fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan jadal borayotganini mustaqillik yillarida amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, vujudga kelgan siyosiy partiyalar, harakatlar va jamoat tashkilotlarining faoliyati yaqqol ko'rsatmoqda. Demak, oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda yangicha fikrlaydigan komil insonni shakllantirish zarur. Shundagina biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishdek ulug' maqsadimizga erisha olamiz.

2. O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, ularning mohiyati va asosiy yo'nalishlari

Huquqiy davlat qurishning nazariy asoslari va amaliy muammolari 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiya va mamlakat Prezidenti I. A. Karimovning «O'zbekiston kelajagi – buyuk davlat», «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kabi asarlarida, Oliy Majlisning birinchi chaqiriq I va VI sessiyalarida «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari» nomli ma'ruza va nutqlarida aniq belgilab berildi.

Huquqiy davlatning asosiy belgisi shundan iboratki, bunda davlat huquq doirasida harakat qiladi, uning jamiyat va insonlar bilan munosabatlari huquqiy qoidalarga asoslanadi. Huquqiy davlatning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida davlat organlari, mansabdor va yuridik shaxslar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar bevosita ishtirok etadilar. Huquqiy davlatda Konstitutsiya va qonunning ustunligi tobora keng va to'la ta'minlana boradi. Unda har qanday muammo qonunlar va huquqiy normalarga asosan adolatli hal etiladi. Qonun jamiyat va davlat hayotidagi barcha munosabatlarni tartibga solib turadi. Aytish mumkinki, qonun – huquqiy davlatning poydevori, qonuniylik – uning asosiy prinsipi. Prezident I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida shunday yozadi: «Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir... Hech bir davlat organi, hech bir

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2003.

xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo‘ladi»¹.

O‘zbekistonning huquqiy demokratik davlatni shakllantirish yo‘lidagi kurashi, avvalo, siyosiy islohotlar amalga oshirishida ko‘rinadi. Davlat va jamiyatni boshqarish san’ati hamda mahoratiga, turli tabaqa va guruhlarning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq faoliyatga siyosat deyiladi. Respublikamiz siyosiy tizimi tarkibiga: davlat, jamoat tashkilotlari, birlashmalar, nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy tizim Konstitutsiya, uning asosida qabul qilingan qonunlar hamda boshqa rasmiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida siyosiy sohada qanday islohotlar amalga oshirildi, degan savol tug‘iladi. Birinchi navbatda, davlat hokimiyatini tashkil qiluvchi idoralar isloh qilindi. Demokratik jamiyat qurish, fuqarolarning erkin ravnaqi va qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida, davlat boshqaruvi hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi asosida isloh qilindi. Bu prinsipning qo‘llanilishi hokimiyatning suiiste’mol qilinishiga jiddiy to‘siq qo‘ydi, fuqarolarni mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlaridan va tazyiqidan himoya qilishga, davlat idoralari faoliyatining samarali bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Davlat hokimiyatining taqsimlanishi huquqiy demokratik davlatga xos bo‘lib, qonun chiqaruvchi (Oliy Majlis), ijro etuvchi (Prezident boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasi), sud hokimiyati (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy Xo‘jalik sudi)dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida hokimiyatning taqsimlanishi Asosiy qonun darajasida mustahkamlangan. Prezident I. A. Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida ta’kidlaganidek, «qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilishini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo‘yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo‘ladi»².

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek siyosiy islohotlar hokimiyat va boshqaruv organlarida ma’muriy buyruqbozlikning barham topishiga imkoniyat yaratdi. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslari barpo etila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – 321-б.*

² O‘sha manba. – 45-б.

belgilab berdi. Bular quyidagilar: xalq hokimiyatchiligi, davlat suvereniteti, qonuniylik, hokimiyatning taqsimlanishi.

Xalq davlatni boshqarishni bevosita yoki saylab qo'yilgan vakillari orqali amalga oshiradi. Xalqning davlatni bevosita boshqarish vositalari referendum, Oliy Majlisga, xalq deputatlari kengashlariga saylovlar, davlat hayotidagi muhim masalalarni xalq muhokamasiga qo'yish, xalq deputatlarini muddatidan oldin chaqirib olish, saylovchilarning yig'ilishlari va boshqalardir.

Oliy Majlis Respublikada oliy vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oliy Majlis Konstitutsiya asosida saylangunga qadar uning vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi amalga oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining yangi tarkibi 1990 yilning 18 fevralida saylandi, u 1990–1994 yillarda faoliyat ko'rsatdi. Oliy Kengash birinchi marta Respublika Prezidentini sayladi. U «Mustaqillik deklaratsiyasi»ni, «O'zbekistonning Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qildi. Oliy Kengash faoliyati davomida 200 ga yaqin qonunlar, 500 dan ko'proq qarorlar qabul qilindi.

Oliy Majlisga saylov 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunga asosan olib boriladi. Deputatlar Oliy Majlisga umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadilar. 18 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylash huquqiga, 25 yoshga to'lganlari esa Oliy Majlisga saylanish huquqiga egadirlar. Oliy Majlisga deputatlarni saylash normasini birinchi chaqiriq Oliy Majlisi 250 kishi qilib belgilagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XVI sessiyasi 1994 yil 25 dekabr kuni Oliy Majlisga, shuningdek viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazishga qaror qildi. Nomzodlar ko'rsatishda ko'ppartiyaviylik va muqobillik ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga XDPdan 247 nafar, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 146 nafar, hokimiyatning vakillik organlaridan 250 nafar nomzodlar ko'rsatildi. Nomzodlarning birortasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995 yil 8 va 25 yanvar kunlari qayta saylovlar o'tkazildi. Natijada birinchi chaqiriq Oliy Majlisga 250 nafar deputat saylandi.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisda hokimiyatning vakillik organlaridan 120 nafar deputat, XDPning 69 kishilik fraksiyasi, «Adolat» partiyasining 47 kishilik fraksiyasi, «Vatan taraqqiyoti» partiyasining 14 kishilik fraksiyasi ro'yxatga olingan edi.

Oliy Majlisning sessiyalari odatda bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Navbatdan tashqari sessiyalar Oliy Majlis raisining tashabbusi yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining yoki Oliy Majlis deputatlarining kamida uchdan bir qismining takliflari bilan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasida ko'rsatilganiga muvofiq, Oliy Majlis qonun loyihalarini tayyorlash, Oliy Majlisga havola etiladigan masalalarni oldindan ko'rib chiqish va tayyorlash,

respublika qonunlari va Oliy Majlisning boshqa qarorlari ijrosini nazorat qilib turish maqsadida deputatlar orasidan Oliy Majlisning komissiya va qo'mitalari saylanadi.

1995 yil 23–24 fevral kunlari birinchi chaqiriq Oliy Majlisning I sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident I. A. Karimov «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari to'g'risida» ma'ruza qildi.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 1995–1999 yillar mobaynida faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda 10 ta kodeks, 130 ta qonun qabul qildi. 460 ta turli huquqiy hujjat va qonunlarning qo'llanish amaliyoti puxta o'rganilib, ularga 200 dan ziyod qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi¹. Qabul qilingan barcha qonunlar va qarorlar jamiyatni demokratlashtirish, bozor munosabatlarini shakllantirish, aholining ijtimoiy himoyalanihini kuchaytirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, milliy davlatchilik asoslarini yaratish va mustahkamlashni huquqiy jihatdan ta'minladi.

1999 yil 5 dekabrda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazildi. 1994 yildagi parlament saylovlarida 2 ta siyosiy partiya va vakillik idoralari o'z nomzodlarini ko'rsatib, saylovda ishtirok etgan bo'lsalar, 1999 yilgi saylovlarda 5 ta siyosiy partiya, vakillik idoralari va saylovchilarning tashabbus guruhlari bu muhim siyosiy tadbirda ishtirok etdilar.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasining birinchi yig'ilishi 2000 yil 22 yanvarda, ikkinchi yig'ilishi shu yilning 11 fevralida bo'lib o'tdi. Sessiyada Prezident I. A. Karimov nutq so'zlab, kelajakda mamlakatimiz oldidagi davlat qurilishi, siyosat, iqtisodiyot, ma'naviyat, sud, huquq, tashqi siyosat, xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar haqida to'xtaldi. Nutqda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish borasidagi vazifalar belgilab berildi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 2001–2004 yillari davomida faoliyat yuritib, davlatimiz tarixida sezilarli darajada iz qoldirdi.

2001 yil 6 dekabrda Oliy Majlisning ikki palatasi parlamentini shakllantirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyasida belgilangan vakolatlarini o'zgartirish masalalari yuzasidan referendum o'tkazish haqida tarixiy qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan 2002 yil 27 yanvarda ikki palatali parlamentga o'tish to'g'risida umumxalq referendumi o'tkazildi.

2002 yil 4–5 aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chiqiriq Oliy majlisining VIII sessiyasida “Referendum yakunlari va davlat hokimiyatini tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi.

2004 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Bunda Qonunchilik palatasiga 120 deputat saylandi. Shuningdek Senatning 84 nafar a'zosi Mahalliy

¹ Qarang: Жалолов А. Сиёсий партиялар ва демократия: ўзаро алоқа ва боғлиқлик // Мулоқот. – 1999. – № 3. – 4-б.

kengashning yig'ilishida yashirin ovoz berish orqali 14 ta hududdan oltitadan saylandi. Senatning qolgan 16 nafar a'zosi Prezident tomonidan tayinlandi.

2005 yil 28 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida Prezident I. A. Karimov "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" degan ma'ruza qildi. Unda taraqqiyotimiz muammolarini hal etishga qaratilgan nazariy masalalar ko'tarildi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy tizimi shakllana boshladi. Prezidentlik boshqaruvi davlatimiz boshqaruv tizimining o'zagi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, SSSR davlati parchalanmagan davrda, 1990 yil 24 martda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdagi sessiyasida prezidentlik lavozimi ta'sis etilgan edi. Sessiya Islom Karimovni respublikamizning birinchi Prezidenti etib sayladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (89-moddasi)ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'idir. Ayni vaqtda Prezident Vazirlar Mahkamasining raisi ham hisoblanadi. Yangi jamiyat qurish borasidagi tajribalarning ortishi bilan prezidentlik boshqaruvi ham takomillashib bordi. Shu bois ham prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib, Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti maqomi belgilab berilgan. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha O'zbekistonda kamida 10 yil yashagan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash tartibi 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifasini bajarib turgan davrda vakillik organining deputati va siyosiy partiya a'zosi bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

1995 yil 26 martdagi umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali I. A. Karimovning prezidentlik vakolati 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirildi. 2000 yil 9 yanvarda muqobilik asosida o'tkazilgan saylovda I. A. Karimov ikkinchi marta O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. «Fidokorlar milliy demokratik partiyasi»dan nomzodi ko'rsatilgan I. A. Karimov saylovchilarning 91,90% ovozini olib, saylovda g'alaba qozondi¹. O'zbekiston xalqi yana bir bor I. A. Karimovga yuksak ishonch bildirdi.

O'zbekistonda o'zbek milliy davlatchiligining taraqqiy etishi va respublika prezidentlik boshqaruvining qaror topishida I. A. Karimovning xizmatlari juda katta. Respublikada prezidentlik boshqaruvining joriy

¹ Qarang: Жўраев Н. Президент – Ватан ва миллат тимсоли // Мулоқот. – 2000. – № 1. – 3-б.

qilinishi hokimiyat bo‘linishini adolatli tarzda amalga oshirishga imkoniyat yaratdi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining bir-biridan daxlsiz holda ish olib borishi ta’minlandi.

O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruvi joriy etilishining ikkita muhim jihati mavjud. Birinchisi – qadimdan Osiyoda «sharqona demokratiya» mavjud bo‘lib, u demokratiyaga ham, kuchli hokimiyatga ham keng imkoniyat yaratib bergan. Ikkinchisi – boshqaruvning parlamentar respublika usulidan farqli o‘laroq, prezidentlik respublikasida prezident umumxalq saylovida barcha fuqarolarning ovoz berishi asosida saylanadi. Bunda prezident o‘z vakolatlarini parlament a’zolaridan emas, balki keng xalq ommasidan oladi. Ana shunday muhim jihatlarga ko‘ra, O‘zbekistonda boshqaruvning prezidentlik respublikasi usuli shakllandi. Shuningdek, respublikada boshqaruv tizimi ham izchillik bilan isloh qilib borildi. Dastlab respublikada davlat suverenitetini amalga oshiruvchi markaziy boshqaruv idoralari tizimi barpo qilindi. Ular jumlasiga Tashqi va Ichki ishlar, Mudofaa va Adliya, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Oliy attestatsiya komissiyasi va boshqa idoralar kiradi.

Bozor munosabatlarining shakllanishiga imkon beruvchi iqtisodiyotni boshqarish tizimi ham shakllana boshladi. Unga Moliya vazirligi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Prezident huzuridagi Iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo‘yicha idoralararo kengash va boshqa idoralarni kiritish mumkin. Qayta tashkil etilgan vazirliklar va qo‘mitalarning bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, faoliyati va ish yuritish usullari tubdan o‘zgartirildi.

Respublikada ijroiya hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlardan biri mahalliy davlat hokimiyati tizimida amalga oshirilgan islohotlardir. Yangi davlat organi – viloyat, shahar va tuman hokimligi boshqaruvi vujudga keldi. Boshqaruvning hokimlik shakli vujudga kelishiga bir qancha omillar sabab bo‘ldi.

Birinchidan, ilgari xalq deputatlari kengashlari KPSSning yakkahokimligi tufayli partiya tashkilotlari rahbarlik qiladigan organga aylanib qolgan edi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan mahalliy hokimiyat organlari o‘z hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga bevosita mas’ul bo‘lishi davr talabiga aylandi.

Mahalliy hokimiyat tizimini isloh qilish bir qator zaruriy qonunlar va boshqa hujjatlar qabul qilinishini taqozo etdi. Bular «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi 1993 yil 2 sentabr, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari to‘g‘risida»gi 1993 yil 2 sentabr, «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to‘g‘risida»gi 1994 yil 5 maydagi qonunlar va boshqa muhim hujjatlardir.

«O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, viloyat, shahar va tumanlarda hokim lavozimi ta’ sis etildi. Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimini

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tayinlaydigan, lavozimidan ozod qiladigan, tegishli xalq deputatlari kengashlari esa bu qarorni tasdiqlaydigan bo‘ldi. O‘z navbatida, tumanlar va shaharlarning hokimlarini tegishli viloyat hokimi tayinlaydigan, lavozimidan ozod qiladigan, tegishli xalq deputatlari kengashi esa tasdiqlaydigan bo‘ldi.

Viloyat, shahar, tuman hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi hisoblanib, tegishli hudud ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Hokimlarning vakolat muddati besh yil, ular o‘z vakolatlarni yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar, o‘zlari rahbarlik qilayotgan tashkilotlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

Boshqaruvning tarixiy va milliy shakli bo‘lgan hokimlik institutining tiklanishi va joriy qilinishida davr talabi namoyon bo‘ldi va u mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘plab murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini yaratdi. Mustaqillik yillarida o‘zini o‘zi boshqarish organlari yanada rivojlandi va takomillashdi.

Ma‘lumki, Markaziy Osiyoda o‘zini o‘zi boshqarish an‘analarining ildizi ancha qadim zamonlarga borib taqaladi. Keyingi yillarda mahalla, qishloq boshqaruvi yangicha mazmun bilan boyidi. Bu organlar o‘zini o‘zi boshqarish organlari sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Mahalla – O‘zbekiston milliy an‘analariga mos bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarish shakllaridan biri. Aytish mumkinki, mahalla – milliy qadriyatlarimiz beshigi, tariximiz va davlatimiz salohiyatining in‘ikosi. Prezident I. A. Karimov uning jamiyatimizda tutgan o‘rniga katta baho berib: «Ma‘lumki, asrlar mobaynida mahalalarda ko‘pdan-ko‘p hayotiy muammolar o‘z yechimini topib keladi. To‘y-ma‘rakalar ham, hayitu xasharlar ham mahalla ahlisiz o‘tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o‘zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda»¹, – degan edi. 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonun mana shu ulug‘ ishni amalga oshiruvchi huquqiy asos bo‘ldi. Mahalla boshqaruvning eng ta‘sirli shakli sifatida tan olindi. Shu maqsaddan kelib chiqib, respublikada «Mahalla» xayriya jamg‘armasi tashkil topdi.

«Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonun jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi huquqini ro‘yobga chiqaradi, o‘z hududlarida ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini, madaniy-ommaviy, ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishda davlat organlariga yordam berishga jalb etiladi. Fuqarolarning yig‘inlarida ikki yarim yil muddatga mahalla raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylanadilar. Fuqarolar yig‘ini shu hududdagi yuqori organ hisoblanadi, u tegishli xalq deputatlari kengashi yoki hokim bilan kelishilgan holda zaruratga qarab chaqiriladi»².

¹ *Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – 10-б.

² *Ҳайдаров Т.* Ҳуқуқий давлатчилик мезони. – Т., 1999. – 28-б.

Mustaqillik yillarida o'zini o'zi boshqarish organlarining yanada rivojlanishi aholining jamiyatni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish davlat hokimiyatining mustaqil uchinchi tarmog'i, ya'ni sud hokimiyatini izchil isloh qilishni talab etdi. Sud hokimiyati inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning qudratli quroli, shaxs va jamoat xavfsizligining kafolatidir. Mustaqillik yillarida sud organlarining maqomi, funksiyalari va tuzilishi tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mustaqil sud hokimiyati tashkil qilishning konstitutsiyaviy kafolatlarini yaratib berdi. Mustaqil sud hokimiyatining asosiy prinsiplari «Sudlar to'g'risida»gi, «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol etuvchi xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunlarda mustahkamlab qo'yildi. «Sudlar to'g'risida»gi qonun 1993 yilning 2 sentabrida Oliy Kengashning XIII sessiyasida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida besh yil muddatga saylanadigan sud organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy va Oliy Xo'jalik sudlari;
- viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat xo'jalik sudlari, harbiy sudlar.

Konstitutsiya va «Sudlar to'g'risida»gi qonunda sud hokimiyati, uning asoslari va sudyalarning mustaqilligi mustahkamlab qo'yilgan. Sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalaridan farqli o'laroq, mustaqil holda ish yuritadilar. Respublikada odil sudlov umuminsoniy demokratik prinsiplar asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari – jinsi, irqi, millati, tili, dini, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengdirlar.

Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim»¹. Hozirgi davrda o'tkazilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar ham ana shu maqsadlardan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilishi maqsad qilib qo'yilgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati pirovard natijada kadrlar masalasiga borib taqaladi. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida yangi qurilajak jamiyat talablariga to'la mos keladigan kadrlar siyosati ishlab chiqildi. Yangi sharoitda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish mustaqillikni mustahkamlashning dolzarb vazifasi bo'lib qoldi. Puxta o'ylab chiqilgan kadrlar siyosati mamlakat kelajagini belgilab beradigan asosiy omillardan hisoblanadi.

¹ Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997. – 127-б.

Natijada davlat siyosatining muhim tarmog‘i hisoblangan kadrlar masalasida jiddiy kamchiliklarni bartaraf qilishga kirishildi. Avvalambor, davr talabiga mos mahalliy boshqaruv organlari va ijroiya hokimiyatini mustahkamlashga katta e‘tibor qaratildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda ijroiya hokimiyatga boshchilik qiladigan hokimlar lavozimining ta‘sis etilishi bu ishlarning amaldagi natijasi bo‘ldi. Mustaqillik yillarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda siyosiy va axloqiy yetuklik, tashkilotchilik qobiliyati, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, xalq bilan birdamlik kabilar qo‘yiladigan asosiy talablardir. Zarur kadrlar tayyorlash maqsadidan kelib chiqib, 1995 yilning sentabrida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti huzurida Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi ta‘sis etildi. Akademiya o‘tgan davr ichida xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun ko‘plab rahbar kadrlarni tayyorlab berdi.

Jamiyat siyosiy tizimida demokratiyaning zaruriy va qonuniy belgisi bo‘lgan tom ma‘nodagi ko‘ppartiyaviylikni uni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mustaqillik yillarida jamiyatda demokratlashuvni ta‘minlashning siyosiy mexanizmi – turli ijtimoiy guruh a‘zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma‘naviy va boshqa manfaatlariga xizmat qiladigan ko‘ppartiyaviylik yuzaga keldi. Davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning mavqei, ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Xalqning ko‘ppartiyaviylik tizimi asosidagi faollik darajasi hozirgi davrga kelib demokratiya mezonlarini belgilab bermoqda. Jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ko‘ppartiyaviylikning qaror topishi – huquqiy-demokratik jamiyat qurishning asosiy talablaridan biri. Siyosiy partiya fuqarolik jamiyatining muhim unsuri hisoblanadi. Siyosiy partiyalar, ko‘ppartiyaviylik fuqarolar siyosiy huquqlarini amalda tatbiq etishning usullari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12 va 34-moddalarida belgilab berilgan.

Mustaqillik yillarida Oliy Majlisning qabul qilgan bir qancha qonunlari siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining vujudga kelishi va erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratdi. Bular «Jamoat tashkilotlari to‘g‘risida»gi (1991 yil 15 fevral), «Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to‘g‘risida»gi (1992 yil 2 iyul), «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi (1996 yil dekabr), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi (1998 yil 28 aprel) qonunlardir.

1996 yilning 26 dekabrda birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi qabul qilgan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi qonunining 1-moddasida: «Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir»¹, deb ko‘rsatilgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 2. – 11-б.

Ayni vaqtda respublikada 4 ta siyosiy partiya va bitta ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatmoqda. Ular quyidagilar:

- O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (1991 yilda tashkil topgan);
- «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (1995 yilda tashkil topgan);
- «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (1995 yilda tashkil topgan);
- «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi (1998 yilda tashkil topgan);
- O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi (2004 yilda tashkil topgan).

1995 yildan respublikada «Xalq birligi» harakati faoliyat yuritmoqda. Bulardan tashqari, respublikada 2300 ga yaqin jamoatchilik birlashmalari va nodavlat tashkilotlar mavjud. Bular – davlat va jamiyatdagi turli masalalarni hal etishda tobora faol ishtirok etayotgan O'zbekiston kasaba uyushmalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Nuroni» jamg'armasi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik jamg'armasi va boshqa ko'plab tashkilotlardir.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan barcha siyosiy partiyalarning dasturlari va ularda siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviyat sohalari bo'yicha ilgari surilgan maqsad va vazifalar davlatning hozirgi siyosati bilan mos tushadi. Siyosiy partiyalar faoliyatining mushtarakligi jamiyat a'zolarini, ular qaysi partiya a'zolidan qat'i nazar, yagona maqsad sari yetaklaydi. Partiyalarning nomlari turlicha bo'lsa ham, ular umumiy siyosiy faoliyati mazmuniga ko'ra, bir-biriga juda o'xshash. Bu ijtimoiy-siyosiy uyg'unlik bozor munosabatlariga o'tish davrida jamiyatni demokratlashtirishda, ijtimoiy tabaqalar va toifalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hamda hamjihatlik munosabatlarini vujudga keltiradi.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni juda katta. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati uchun to'la huquqiy asos yaratilgan. Konstitutsiyaning 67-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, senzura yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Oliy Majlis qabul qilgan bir qancha qonunlarda ham ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Bu «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi (1997 yil 24 aprel), «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi (1997 yil 24 aprel), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (1997 yil 26 dekabr) qonunlardir. Ommaviy axborot vositalari aholining yangicha tafakkuri va ongini shakllantiruvchi, ularning xohish-irodasini xolisona ifodalovchi, inson manfaatlarini faol himoyalovchi omildir.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalarining turlari va soni birmuncha ko'paydi. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni haqida I. A. Karimov: «Ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim»¹, – deb ta'kidlagan edi.

¹ *Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. Т. 7. – 391-б.*

Ommaviy axborot vositalari milliy mustaqillik, demokratik islohotlar, davlat siyosatining mohiyatini odamlar ongiga yetkazishda katta ishlarni amalga oshirmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yagona bir maqsad – huquqiy-demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgandir.

15-ma'ruza
**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY
TARAQQIYOTI**

**1. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllantirilishi
va uning asosiy prinsiplari**

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalaridagi islohotlar uchun keng imkoniyatlar ochildi. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotning o'ziga xos yo'lini, ya'ni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish yo'lini tanlab oldi. Mamlakatimizning xususiyatlari, xalq an'analari va milliy urf-odatlari, kishilarning turmush tarzini inobatga olgan holda, bozor munosabatlariga o'tishning «o'zbek modeli» ishlab chiqildi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analari, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni biryozlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»¹.

O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'liga kirgan ko'pgina ilg'or mamlakatlarning tajribasiga tayanib, respublika bo'yicha keng miqyosda tub islohotlarni amalga oshirish va bozor iqtisodini shakllantirishga kirishdi.

Mustaqillikka erishilgan vaqtda respublikamizning iqtisodiy ahvoli qanday edi? Ma'lumki, sobiq Ittifoqdan O'zbekistonga salbiy iqtisodiy meros qolgan edi. I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bu nochor iqtisodiy ahvolning sabablariga batafsil to'xtalib o'tgan.

Bu salbiy iqtisodiy merosning asosiy ko'rinishlari quyidagilar edi:

– mo'rt va zaif, biryozlama rivojlangan, paxta yakkahokimligiga asoslangan xo'jalik;

– xomashyoni sodda qayta ishlash, texnika va texnologiyani chetdan keltirishga asoslangan ishlab chiqarish;

– respublikaning yoqilg'i, g'alla, shakar, go'sht-sut va boshqa shu kabi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha boshqa mintaqalarga qaram bo'lib qolganligi;

– respublikada og'ir ekologik vaziyatning vujudga kelganligi;

– ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, boqimandalik kayfiyatining hukmronligi va h.k.

Sobiq Ittifoqdan qolgan ana shu salbiy iqtisodiy merosni «bartaraf qilish» ishiga O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kirishildi. Bunda respublikani iqtisodi taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqish, mo'ljallangan iqtisodiy islohotlar strategiyasini amalga oshirishda mamlakatimizning qanday salohiyat va imkoniyatlarga ega ekanligini ham

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 162-б.*

hisobga olish kerak bo'lar edi. O'zbekistonning o'ziga xos shart-sharoitlari va salohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– respublikadagi demografik vaziyat: aholi tabiiy o'sishi kattaligining (u aholini ish joylari bilan ta'minlash muammosini paydo qiladi); migratsiyaning deyarli yo'qligi (sanoat ishlab chiqarishini qishloqqa yaqinlashtirish muammosi bilan bog'liq);

– respublikaning geografik joylashuvi, ya'ni Sharq bilan G'arbni o'zaro bog'lovchi Buyuk ipak yo'lining markazida, Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan o'rtada, nihoyat, jahon portlaridan yiroqda joylashganligi;

– respublikaning tabiiy va iqlim sharoiti: texnik o'simliklar (paxta, kanop), oziq-ovqat mahsulotlari (g'alla) yetishtirishga qulay, sug'oriladigan yerlarning ko'pligi, lekin suv tanqisligining mavjudligi;

– foydali qazilma imkoniyatlari: oltin, mis, gaz, neft zaxiralarining yetarli darajada ekanligi, lekin temir, ko'mir, yog'ochning yetishmasligi va h.k.

Bozor iqtisodi haqida so'z ketganida, avvalambor, tovar-pul munosabatlariga asoslangan hamda ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida harakatlanadigan iqtisod tushuniladi. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston oldida taraqqiyotning ikki yo'li mavjud edi: birinchisi – markazdan boshqariladigan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sobiq iqtisod; ikkinchisi – bozor munosabatlariga asoslangan iqtisod. Kechagi tarixdan ma'lumki, birinchi yo'l o'zining samarasiz ekanligini isbotladi. Sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar nafaqat iqtisodiy taraqqiyotda, balki aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash borasida ham rivojlangan G'arb mamlakatlaridan ancha orqada qoldi. O'zbekiston taraqqiyotning ikkinchi yo'li – iqtisodni bozor munosabatlari asosida rivojlantirish yo'lini tanladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv zarurat va davr taqozosi bo'lib qoldi. Chunki u umumbashariy hodisa, jahon sivilizatsiyasining rivojlanishi yo'lidagi muqarrar bosqich hisoblanadi. Qolaversa, bizda, ya'ni Sharqda bozor sharoitidagi iqtisodiy rivojlanish juda uzoq vaqt davom etgan qadimiy jarayon bo'lib, odamlar azal-azaldan savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar.

Bozor iqtisodiyotining bir qancha muhim xususiyatlari bor. Bu xususiyatlar tovar ishlab chiqaruvchining mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishi, mulkning turli shakllarda bo'lishi va ularning teng huquqliligi, monopolizmga yo'l qo'ymaslik va ishlab chiqarishning erkin raqobati uchun keng yo'l ochib berish, iste'molchilar ehtiyojini qondirishning birinchi o'ringa chiqishi, ishlab chiqaruvchining o'zi yaratgan mahsulotiga o'zi egalik qilishi, uni erkin sotishi yoki sotmasligi uchun imkon berilishi, tovar ishlab chiqaruvchining o'zi mulk egasi bo'lib, uni o'zi bilganicha ishlatishi mumkinligi, ishlab chiqarilgan tovarga bozorda tan olinadigan ijtimoiy zarur mehnatning sarflanishi lozimligi, narx-navoning erkinligi va boshqalardan iborat.

Jahon tajribasida bozor munosabatlarini shakllantirishning ikkita yo'nalishi mavjud: birinchisi – stixiyali, tartibsiz, rivojlanuvchi bozor iqtisodiyoti, ikkinchisi – boshqariladigan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti.

O‘zbekiston ikkinchi, ya’ni boshqariladigan iqtisodiyot yo‘lini tanladi. O‘zbekiston tanlagan yo‘lining xususiyati shundan iboratki, uning maqsadi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishdir. «Ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti markazlashtirilgan rejali bozordangina emas, balki erkin bozordan ham farq qiladi. U mustaqil iqtisodiy andozadan iborat bo‘ladi. Uning erkin bozordan muhim farqi shundan iboratki, u iqtisodiy va ijtimoiy asoslarning sintezi hisoblanadi. Bu shuni bildiradi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodi, to‘la-to‘kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi, iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy adolat bilan bog‘lash maqsadini ko‘zlaydi»¹.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bozor iqtisodiga o‘tishning o‘ziga xos milliy yo‘li keyinchalik «o‘zbek modeli» deb atala boshlandi. Mustaqillikka erishilganidan so‘ng, O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu Prezident I. A. Karimov ilmiy asoslab bergan va olg‘a surgan islohotlarning besh prinsipidir. Ular quyidagilar:

- 1) iqtisodning siyosatga nisbatan ustunligini ta’minlash;
- 2) bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlatning bosh islohotchi bo‘lishi;
- 3) qonunlarning va ularga rioya etishning ustunligi;
- 4) kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish;
- 5) bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo‘l bilan o‘tish.

Bu prinsiplar bozor iqtisodiyotiga o‘tishda «o‘zbek modeli»ning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular o‘zida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning umumiy qonuniyatlarini, respublikaning milliy xususiyatlari va sharoitlarini aks ettirgan.

Birinchi prinsip – iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustunligi. Bu prinsip iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning boshqa sohalari uchun poydevor vazifasini o‘tashini va ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo‘lishini anglatadi. Unda iqtisodiyotning o‘ziga xos obyektiv qonunlarining mavjudligi, bu qonunlarsiz iqtisodiy faoliyat yuritish mumkin emasligi hisobga olingan. Iqtisodiyot siyosiy kurashlar va mafkuraviy tazyiqlardan xoli, o‘ziga xos ichki qonunlarga asosan rivojlanishi lozim. Lekin siyosat taraqqiyotning zaruratidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotga ta’sir etishi mumkin.

Ikkinchi prinsip – bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlatning bosh islohotchi bo‘lishi. Bu prinsipda davlat islohotlarning ustun yo‘nalishlarini belgilab berishi, ularni amalga oshirish yo‘lini ishlab chiqishi va unga izchillik bilan rioya etilishini bildiradi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan davrda davlat boshqaruv mexanizmini qo‘ldan chiqarmasligi kerak. Bunda faqat davlat asosiy islohotchi bo‘lishi lozim. Ma’lumki, taraqqiy etgan ko‘pgina mamlakatlarning tajribasi davlat hamisha tub o‘zgarishlarda peshqadam bo‘lib kelganligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda totalitar, rejali, ma’muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidan erkin, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tilmoqda. Shu sababli

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – 303-б.*

G'arb mamlakatlarining boshidan kechgan stixiyali, tartibsiz bozor iqtisodiyoti bizda ham bo'lishi shart emas. Jahon tajribasi demokratik jamiyatda davlatdan o'zga umummilliy manfaatni ifodalovchi siyosiy institut bo'lmasligini ko'rsatdi. O'zbekistonda evolyutsion yo'l bilan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotda davlat monopoliyasini tugatishni anglatadi va bu davlat ishtirokida amalga oshiriladi. Keng qamrovli islohotlarning dasturlarini davlat keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqadi va hayotga tatbiq etadi.

Uchinchi prinsip – Konstitutsiya va boshqa qonunlarga rioya etishning ustunligi. Bu huquqiy davlat qurishning zarur shartidir. Unga ko'ra, barcha fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga og'ishmay rioya etishga majburdirlar. Qonuniylikni qaror toptirish muammosi respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun barqaror huquqiy zamin yaratish bilan bog'liqdir. Faqat shundagina iqtisodiy o'zgarishlar sezilarli natija berishi mumkin. Iqtisodiy hayotga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik xususiyati yuridik qonunlarni ham ularga mos ravishda o'zgartirib borishni talab qiladi.

Huquqiy davlatda va ijtimoiy hayotni boshqarishda qonunchilik asosiy vositadir. Qonunning ustunligi prinsipi siyosiy tizimning bozor iqtisodiyoti talablariga monand tarzda demokratlashuvini bildiradi. Bu prinsip bozor iqtisodiyoti sharoitida inson huquqlari va erkinligini ta'minlash asosiy vazifa ekanligini anglatadi.

To'rtinchi prinsip – kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bu prinsip hayotga bozor iqtisodi to'la joriy qilinayotgan davrda aholining demografik tarkibini hisobga olib, uni ijtimoiy himoyalashning choralari ko'rishni taqozo etadi. Ushbu prinsip kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish zaruratidan kelib chiqadi. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli bozor iqtisodi hamda ijtimoiy yo'naltirilgan, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan bozor xo'jaligi yaratilishni anglatadi. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritishning mohiyati ijtimoiy adolatni ta'minlash, kishilarda boqimandalik kayfiyatini bartaraf etish, ularning faolligini oshirish, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, aholining muhtoj qatlamlarini ishonchli himoya qilishdan iborat. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi O'zbekiston davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo'lib qoldi.

Beshinchi prinsip – bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish. Bu prinsip – O'zbekistonda bozor iqtisodiga o'tish yo'lining xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish O'zbekistonda evolyutsion yo'l bilan tamoman yangi bozor tizimining yaratilishini bildiradi. Bu prinsipning asosiy mazmuni va maqsadi – soxta inqilobiy sakrashlar, fojiali oqibatlar va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, madaniy yo'l bilan normal taraqqiyotga o'tish. U totalitar rejali iqtisoddan sekin-asta bozor tuzumiga o'tishni shoshma-shosharliksiz, tinch amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum bir vaqt va tayyorgarlik zarur bo'ladi.

2. Bozor iqtisodiyotiga evolyutsion yo‘l bilan, bosqichma-bosqich o‘tilishi

Ma'lumki, G'arb mamlakatlarining ham rivojlangan madaniy bozor iqtisodiga erishishi uchun bir necha yuz yillab vaqt kerak bo'lgan. Shuning uchun ham bozor aloqalari hali shakllanib ulgurmagan sharoitda mavjud bo'lgan aloqalarni buzib yuborishning oqibati iqtisodni izdan chiqarishi, aholining turmush darajasini keskin pasaytirib yuborishi va turli ijtimoiy larzalarga sabab bo'lishi mumkin edi. Bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish prinsipi mash'um «falaj qilib davolash» yo'lini inkor etdi.

I. A. Karimov O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining xususiyatlariga to'xtalib, shunday degan edi: «Xalqimizda «yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay – boshpanasiz qolasiz», degan naql bor. Unda respublika aholisining ruhiyati to'la aks etgan. Shuni hisobga olib, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish andozasiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish asos qilib olingan. Bozor iqtisodiyoti tomon sakrashsiz, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki izchillik bilan bosqichma-bosqich borish kerak»¹.

O'zbekistonda shakllanayotgan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti:

– yuridik va jismoniy shaxslarning ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish uchun konstitutsiyaviy, qonuniy va huquqiy kafolatlar va erkin bozor konyukturasini rag'batlantirishni;

– mulkning barcha turlarining hamda xo'jalik yuritishning barcha shakllarining yuridik teng huquqliligini;

– iqtisodiy munosabatlar subyektlari faoliyatining eng ko'p darajada erkinligini;

– umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini hamda iqtisodiy munosabatlarda milliy an'analarni, urf-odatlarini, xalq turmush tarzini to'la hisobga olishni;

– insonning hayot faoliyati va uni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlarni, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni, aholining turmush darajasini og'ishmay oshirib borishni;

– O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini, xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqlilik hamda o'zaro manfaatdorlik asosida faol ishtirok etishni nazarda tutadi².

Tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

– kishilar turmush farovonligini ta'minlovchi va muntazam rivojlanuvchi iqtisodiy tizimni yaratish;

– tadbirkorlik va tashabbuskorlikni har tomonlama o'stirishning asosi bo'lgan xususiy mulkchilikni vujudga keltirish;

– korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinlik berish;

¹ O'sha manba. – 317-b.

² O'sha manba. – 304–305-b.

– iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish orqali uning samaradorligini oshirish, moddiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlash;

– jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borish;

– kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish.

Respublikada iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish obyektiv zarurat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti aholining tub maqsadlariga mos keladi, deyish mumkin.

Iqtisodiy islohotlar esa quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirib borildi:

– bozor iqtisodining huquqiy asoslarini – davlat boshqaruvi, mulkchilik, xo‘jalik yuritish tartibi, tashqi iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy kafolatlar bilan bog‘liq 100 dan ortiq qonunlar, farmonlar va boshqa hujjatlarni yaratish;

– davlat mulkini xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish;

– bozorning bir-biriga bog‘lovchi va rivojlanishini ta’minlaydigan tarkibiy qismlari – tovar birjalari, moliya va bank tizimi, sug‘urta va auditorlik tizimi, pul va qimmatbaho qog‘ozlar bozori, soliq tizimi, mehnat bozori hamda boshqa strukturalar, ya’ni bozor infrastrukturasi yaratish;

– avtomobil sanoati, televizorlar, shakar, qand lavlagi, neftni qayta ishlash, gazdan neft olish va xalq xo‘jaligining boshqa yangi sohalarini yaratish;

– qishloqda haqiqiy bozor munosabatlarini shakllantirish, yerga mulkchilik masalasini tubdan hal qilish, mulkchilikning turli shakllarini shakllantirish, qishloq xo‘jaligini boshqarishning yangi tizimini yaratish, paxta yakkahokimligi va uning oqibatlarini tugatish, dehqon (fermer) xo‘jaliklari, kichik korxonalar, pudrat va ijara jamoalarini tuzish, dehqonlarni yer bilan ta’minlash, qishloq infratuzilmasini o‘zgartirish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilish, ya’ni respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalarning yaratilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasalar tizimining yaratilishi, respublikaning xalqaro moliya tashkilotlariga a‘zo bo‘lishi, xorij investitsiyalarining mamlakatga kirib kelish mexanizmining yaratilishi;

– ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan qonunlar majmuining qabul qilinishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash choralarining ko‘rilishi, ichki iste’mol bozorining himoya qilinishi, kam ta’minlangan oilalar, yoshlar ijtimoiy himoyasining kuchaytirilishi, sog‘liqni saqlash, onalar va bolalar salomatligi, kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlarni ko‘rish.

Yuqorida aytilganidek, bozor munosabatlariga o‘tishning prinsiplaridan biri unga bosqichma-bosqich o‘tishdir. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi davrlar bo‘yicha bir necha bosqichda amalga oshirildi:

birinchi bosqich – 1991 yilning 1 sentabridan 1994 yilning o‘rtasigacha;

ikkinchi bosqich – 1994 yilning o‘rtalaridan boshlab, 1997 yil o‘rtalarigacha;

uchinchi bosqich – 1997 yil o‘rtalaridan keyingi davr.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yangi iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslarini yaratish bilan bog‘liq edi. «Iqtisodiyotni isloh qilish jarayonlari mustahkam huquqiy negizga asoslangandagina ular barqaror va sobitqadam bo‘ladi»¹, – degan edi O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun asos bo‘ldi. Unda jamiyatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga asoslanganligini belgilovchi mavjud turli mulk shakllari va ularning teng huquqliligi, xususiy mulk daxlsizligi va uning davlat tomonidan qo‘riqlanishi (53-modda), mulkka egalik qilish huquqi (36-modda) mustahkamlangan.

Respublikamizda o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida bozor munosabatlariga o‘tishning ikkita muhim masalasi hal qilindi: ma‘muriy buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini yengish va tanglikka barham berish. Iqtisodni barqarorlashtirish uchun respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishga qaratilgan choralar ko‘rildi.

Yangi iqtisodiy munosabatlar va ularning manbai, mohiyatini mulkning xilma-xil shakllari belgilashini hisobga olib, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, ularning huquqiy asosini yaratish asosiy vazifa bo‘lib qoldi. Tabiiyki, eski ma‘muriy buyruqbozlik tizimiga xizmat qilgan qonunlarning birontasi yangi sharoit uchun ishlay olmasdi. Shu sababli eng avval islohotlar uchun huquqiy negiz yaratildi. Yangi qabul qilinadigan qonunlar O‘zbekistonning xususiyatlarini va qonunchilik sohasidagi jahon tajribasini inobatga olishni taqozo etar edi.

«Isloh qilishning birinchi bosqichida biz huquqiy asoslarni yaratishda o‘zimizga xos yondashuvlarni, qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish bo‘yicha o‘z mexanizmimizni vujudga keltirdik»², – deb ta‘kidlaydi Prezident I. Karimov.

Birinchi bosqichda mulkchilik, xo‘jalik yuritish tartibi, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq 26 ta qonun qabul qilindi. Bular orasida mulkchilik, tadbirkorlik, xorijiy investitsiyalar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, banklar to‘g‘risidagi qonunlar asosiy o‘rin tutdi. Bu qonunlar bozor tizimiga asos soldi, unga o‘tish chora-tadbirlarini belgiladi. Bu davrda, qonunlardan tashqari, Prezidentning islohotlarga taalluqli 82 ta farmoni ham qabul qilindi. Qonunchilik bilan birga, iqtisodni boshqarish tizimi ham isloh qilindi. Ma‘muriy buyruqbozlik boshqaruvi o‘rniga demokratik bozor boshqaruv tizimi qaror topa boshladi. Jumladan Moliya vazirligi, respublika Ulgurji va birja savdosi aksionerlik uyushmasi, respublika Mol-mulk va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, respublika Markaziy banki, respublika Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tashkil qilindi. Iqtisodiy islohotlar tufayli korxonalar

¹ *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 171-б.

² *Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – 194-б.

ham mustaqillikka ega bo'ldi, ilgariydek vazirliklarga emas, tarmoq konsernlari, korporatsiyalari va uyushmalariga birlashdi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida mulkiy islohotlarga katta ahamiyat berildi. Chunki mustaqillik tufayli sobiq sovet davridagi monopollashgan davlat mulkidan xilma-xil mulkchilikka o'tish bozor iqtisodiyotining asosiy shartiga aylandi. Prezident I. A. Karimov e'tirof etganidek, «mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi»¹.

Mulkiy islohotlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunlarga binoan amalga oshirilib, u ko'p ukladli iqtisodiyotni yuzaga keltirishning asosiy sharti bo'lib qoldi. Bu islohotlar bosqichma-boqich amalga oshirildi.

Iqtisodiy islohotlarni bosqichma-boqich amalga oshirish prinsipiga asosan narxlarni erkinlashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Narxlar birdaniga erkin qo'yib yuborilmadi. Narx ustidan davlat nazorati saqlab qolinib, u bosqichma-bosqich erkinlashtirildi. Narxlarning birdaniga qo'yib yuborilishi aholini iqtisodiy qiyin ahvolga solishi muqarrar edi. Aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida dastlab eng muhim iste'mol tovarlariga dotatsiyali narxlar qo'llandi. 1992 yildan boshlab texnika vositalari va ayrim iste'mol mollarining narxlari erkinlashtirildi. 1994 yilning kuzida iste'mol mollarining narxi erkin qo'yib yuborildi, ammo ayrim tovarlar uchun dotatsiyalangan narxlar saqlab qolindi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi rejali davlat narxlaridan erkin narxlarga o'tish bilan yakunlandi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichining (1994 yilning o'rtalaridan 1997 yilning o'rtalarigacha) asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi: davlat mulkini xususiylashtirishni davom ettirish, iqtisodiy-moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, milliy pul – so'mning qadr-qiyamatini mustahkamlash, iqtisodiyot strukturasi tubdan qayta qurishga erishish.

Islohotlarning ikkinchi bosqichi o'zbek milliy puli – so'mning 1994 yil 1 iyulda muomalaga kiritilishidan boshlandi. 1994 yilning 1 yanvarida rubl muomaladan chiqarib yuborildi. So'm-kuponlar 1994 yilning 1 iyuligacha muomalada bo'lib, keyinchalik 1000:1 nisbatida yangi so'mlarga almashtirildi. Shu kundan boshlab, o'zbek so'mi milliy valuta vazifasini o'tay boshladi. O'rta va yirik korxonalarni xususiylashtirish miqyosi kengaydi. Davlat mulkini xususiylashtirish davom etib, ko'pgina korxonalar yopiq va ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlariga aylantirildi. Xususiylashtirish jarayoni oqibatida aholi o'rtasida mulkdorlar safi kengayib bordi. Investitsiya kompaniyalari (XIF) xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini aholiga sotish bilan shug'ullandilar. Davlat korxonalarini xususiylashtirishdan tushgan mablag'ning 50 % ularni rivojlantirish uchun sarflandi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida iqtisodning o'sishiga erishildi. Yalpi ichki mahsulot o'sib bordi. Davlatning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashi uning barqaror rivojlanishini ta'minladi. Katta miqdordagi investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflandi. Bu bosqichda iqtisodda chuqur

¹ O'sha manba. – 202-b.

tarkibiy siljishlar yuz berdi. Iqtisod milliy manfaatlarni ko‘zlab tubdan qayta qurila boshlandi. Bozor infrastrukturasi shakllandi. Iqtisodiyotda yangi sohalar (avtomobil sanoati va boshq.) paydo bo‘ldi.

Bu davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi o‘tdi. Aholini ish bilan ta‘minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ichki bozorni tovarlar bilan to‘ldirishda sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Iqtisodiy islohotlar uchinchi bosqichining (1997 yilning ikkinchi yarmidan keyingi davr) asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- mulkdorlar sinfini shakllantirishni davom ettirish;
- iqtisodda raqobat muhitini yaratish;
- barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini oshirib borish;
- bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish;
- mamlakatga chet el investitsiyalarini keng ko‘lamda jalb etish.

Prezident I. A. Karimovning birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi (1999 yil 14 aprel) «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma‘ruzasi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning I sessiyasida so‘zlagan nutqida ilgari surilgan g‘oyalar va takliflar islohotlarning uchinchi bosqichi uchun asos qilib olindi. Chunki ularda iqtisodni erkinlashtirish g‘oyasi ilgari surildi. Bu g‘oyaning asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil etdi:

- davlatning korxonalar va xususiy biznesni nazorat qilishini hamda boshqaruvchilik funksiyalarini qisqartirish;
- jamiyatda mulkdorlar sinfi ko‘pchilikni tashkil qilishiga erishish;
- xorij sarmoyalarini keng jalb qilish uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaratish;
- kichik, o‘rta va xususiy tadbirkorlikning hal qiluvchi mavqega ega bo‘lishiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash.

Islohotlarning uchinchi bosqichida mulkdorlar sinfini shakllantirishga katta e‘tibor berildi. Mulk egalari alohida ijtimoiy guruh – mulkdorlar sinfini tashkil etdi. Prezident I. Karimov ta‘kidlaganidek, «birinchi galdagi asosiy vazifa – mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish lozim. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, biz oldimizga qo‘ygan maqsadni – xususiy mulkchilik yetakchi o‘rinda turadigan ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish maqsadini amalga oshirishimiz kerak»¹. Demak, mulkdorlar jamiyatning iqtisodiy jihatdan eng faol qatlamini tashkil etib, bozor iqtisodiyoti ularga tayanadi.

Bu davrda kichik va o‘rta biznesni yanada rivojlantirish iqtisodni erkinlashtirishning asosiy mezoni deb belgilandi. Uchinchi bosqichda kichik va o‘rta biznesni xususiylashtirishni yana davom ettirib, yalpi milliy mahsulotda ularning ulushini kamida 25 % ga yetkazish vazifa qilib qo‘yildi. Bu davrda biznes o‘zini o‘zi moliyalashtirishi va ishlab chiqarishga jadal kirib borishi kerakligi rejalashtirildi.

¹ *Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. Т. 7. – 392-б.*

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni raqobat muhitini shakllantirish bilan bog'liq. I. A. Karimov aytganidek, «raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir»¹. Shuning uchun ham raqobat muhitini yaratish maqsadida mayda va o'rta korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarining soni ko'paytirildi. Respublikada antimonopol siyosat olib borildi. Monopol korxonalar hisobidan yangi korxonalar vujudga keldi.

Islohotlar natijasida bozor infratuzilmasi shakllandi. Islohotlarning uchinchi bosqichi bank tizimini erkinlashtirishni va ixtisoslashgan banklar o'rniga universallashtirilgan banklar salmog'ini ko'paytirishni vazifa qilib qo'ydi. Chunki bu sharoitda bank hammaga xizmat qiluvchi, bozor talabiga binoan ishlovchi moliyaviy muassasaga aylanishi kerak. Shuningdek, investitsiya siyosatini yanada erkinlashtirish, fond bozorini kengaytirish, aholiga aksiyalar sotish va aholidan chiqqan investorlar sonini ko'paytirish mo'ljallandi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini ham erkinlashtirish bu davrning asosiy vazifalaridan bo'lib qoldi. Ma'lumki, mustaqil O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari eksport va import, chetdan kapital kiritish va chetga kapital chiqarish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashish, boshqa mamlakatlar bilan ikkiyoqlama va ko'pyoqlama aloqalar o'rnatish kabi vazifalarni anglatadi. Bu bosqichda xorij kapitalining mamlakatga kirib kelishini ko'paytirish rag'batlantirildi.

O'zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida»gi hamda «Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlariga asosan, xorij kapitalining mulkiy daxlsizligi qonun bilan kafolatlandi. Xorij investorlarining O'zbekistondagi erkin faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Shunday qilib, islohotlarning uchinchi bosqichida amalga oshirilishi kerak bo'lgan barcha tadbirlar iqtisodni erkinlashtirish, bozor mexanizmini keng ko'lamda joriy qilish, iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, xalq farovonligini oshirish kabi sohalarga qaratildi.

O'zbekiston mustaqillik tufayli o'zining taraqqiyot yo'lini o'zi belgiladi, iqtisodni o'zining milliy manfaatlari yo'lida rivojlantirish imkoniga ega bo'ldi. O'tgan davrda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlar respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qilmoqda. Ular natijasida quyidagilarga erishildi:

- iqtisodda paxta yakkahokimligi cheklandi;
- iqtisodiy ahvol barqarorlashdi, ya'ni uzluksiz pasayishga barham berildi, aksincha, o'sishga erishildi;
- xomashyoni milliy sanoatning o'zida qayta ishlab, undan tayyor mahsulot olishga o'tildi;
- yoqilg'i-enegetika mustaqilligiga erishildi;
- don mustaqilligi qo'lga kiritildi;
- milliy ishlab chiqarishni o'stirish hisobiga mamlakatning eksport salohiyati ko'tarildi;

¹ O'sha manba. – 393-b.

– bir qancha yirik sanoat korxonalarining qurilishi (O‘zDEUavto, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va boshq.) tufayli O‘zbekiston zamonaviy sanoatga ega mamlakatga aylantirildi;

– mustaqillik yillarida shaharlarimizning ko‘rki oshdi va h.k.

Mustaqillik davrida davlat mulkini xususiylashtirish tufayli ko‘p ukladli iqtisodiyot yuzaga keldi. Natijada davlat mulkidan boshqa mulk turlari, jumladan individual xususiy mulk, korporativ xususiy mulk, aksiyadorlar mulki, paychilar mulki, jamoa mulki, aralash mulk va boshqa turli mulk shakllari vujudga keldi.

Bu yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun imkoniyat yaratdi. O‘zbekistonda yangi – mulkdorlar sinfi shakllandi. Shuningdek, bu yillarda davlatning faol investitsiya siyosati mamlakatdagi iqtisodiy o‘shish uchun zamin yaratdi. Iqtisodiyotning ustuvor sohalariga davlat investitsiyalari hamda xorij kapitali jalb qilindi.

O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ham faol ishtirok etmoqda, chunki barqaror iqtisodiy o‘shishni busiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Respublikamiz dunyoning ko‘pgina davlatlari, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar bilan keng iqtisodiy munosabatlar o‘rnatgan. Hozir O‘zbekiston xalqaro savdo-sotiq va kredit bozorlarida faol ishtirok etmoqda. U bir qancha xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning a’zosi.

Islohot yillarida aholining daromadi o‘shib bordi. Aholining muhtoj qatlamini ijtimoiy himoyalash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritildi. Bu siyosatni esa mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining yuzaga kelganligi tufayliga olib borish imkoniyati tug‘ildi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar xalq farovonligini ko‘tarishga qaratilgan. Unga erishishning yagona yo‘li – bozor munosabatlariga o‘tish, rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish va aholining o‘z mehnati bilan halol boylik orttirishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish.

O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI

1. Ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi va uning milliy mafkurani shakllantirishdagi o'rni

O'zbekistonda mustaqillik uzoq va mashaqqatli kurashlar natijasida amalga oshdi. Ma'lumki, tarixda Vatanimiz hududida bosqinchilarga qarshi kurashlar, erk va Vatan ozodligi uchun hayot-mamot janglari doimo bo'lib turgan. Xalqimiz Vatan istiqloli yo'lida jonini fido qilganlar – milliy qahramonlarimizni abadiy yuragida saqlab qoladi va ular bilan faxrlanadi.

Bosqinchilar Vatanimizni vayron qilish va boyliklarimizni talash bilan cheklanmay, minglab vatandoshlarimizni qirib, ko'pchilikni qul qilib, o'z yurtlariga haydab ketishdan ham tap tortmadilar. Hatto ilm yo'li bilan yaratilgan boylik – xalqimiz ma'naviyati durdonalarini, ya'ni mahalliy yozuvlar, kitoblar, tilimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, tariximizni yo'q qilishga harakat qildilar. Bugun endi ozod xalqimiz oldidagi eng sharaflı vazifa va burch bosqinchilar tomonidan yo'q qilish darajasiga yetkazilgan ma'naviy qadriyatlarimizni tiklashdir.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy arab istilochilarining xalqimizga o'tkazgan zulmini «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida shunday deb yozadi: «Qutayba Xorazm xatini yaxshi bilgan. Ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi»¹.

Istiqlol – xalqimiz orzu qilgan buyuk haqiqat. Vatan mustaqilligini saqlab qolishning yagona yo'li – ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va milliy mafkurani shakllantirish edi.

Mafkura bevosita ma'naviyat bilan bog'liq, chunki mafkura ana shu ma'naviy boyliklar, boy qadriyatlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Mafkura muayyan bir ijtimoiy guruh, davlat yoki jamiyatning tub manfaatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beruvchi, yo'naltirib turuvchi va himoya qiluvchi, siyosiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy va boshqa qarashlarining butun bir tizimi, umumlashmasi ma'nosini bildiradi. Har qanday vaziyatda inson va uning ongi birinchi o'rinda turadi. Uni tarbiyalash, qayta tarbiyalash, ongini o'stirish, o'zgartirish, to'g'ri yo'ldan boshqarib borish zarur. Chunki mafkurasiz odam, jamiyat va davlat o'z taraqqiyotini yo'qotishi aniq.

«Odamlarga shuni anglatish kerakki, – deb ta'kidlagan edi I. A. Karimov respublikamizning atoqli shoir va yozuvchilari bilan bo'lgan uchrashuvda – bizga berilgan imkoniyat yuz yilda bir marta kelishi mumkin. Asosiy masala shundan iboratki, mustaqillikni saqlab qolishimiz, uni kelajak avlodlarga omon yetkazishimiz, qadrini to'g'ri tushunishimiz lozim. Endi qaddimizni

¹ *Абу Райхон Беруний*. Танланган асарлар. Т. 1. – Т., 1968. – 72-б.

ko‘tarishimiz kerak»¹. Ilm-fan, adabiyot va san‘atning eng qadimiy markazlaridan biri sifatida shuhrat qozongan, dunyo xalqlari tan olgan Vatanimiz mustamlakachilikning og‘ir toshi ostidan chiqib oldi. O‘zbekiston mustaqillikka qadar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy qiyinchiliklar, azob-uqubatlar girdobida qolib ketgan edi.

Mustaqillik respublika ilmiy jamoatchiligi oldiga uning mohiyatini xalqimizga tushuntirib berishdek murakkab vazifani qo‘ydi. Mustaqillikning qadriga yetgan, uni o‘z e‘tiqodiga aylantira olgan xalqgina uning yo‘lida jonini fido qilishga tayyor turadi.

Bu vazifalarni bajarish uchun, eng avvalo, xalqimizni o‘z kuchiga ishonтира bilish kerak. Qolaversa, birinchidan, o‘zbek xalqining jahon xalqlari ichida o‘zining alohida salohiyati va o‘rniga egaligini; ikkinchidan, davlatchilik tarixi bizda boshqa hamma xalqlarnikidan qadimiyroq ekanligini; uchinchidan, o‘zbek xalqi jahon durdonalari xazinasiga bebaho hissasini qo‘sha oladigan ma‘naviy barkamol olimlarni yetkazib bergan xalq ekanligini; to‘rtinchidan, mustahkam mustaqil davlat vujudga keltirish ishiga xizmat qiladigan, qadimiy boy davlatchiligimiz, iqtisodiy rivojlanish yo‘limizni ta‘minlovchi iqtisodiy baza mavjudligini ko‘rsatib berish lozim. Bu sohada sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham milliy mafkurani vujudga keltirish hayot talabi bo‘lib qoldi. 1992 yil 2 iyulda bo‘lib o‘tgan Oliy Kengashning X sessiyasida I. A. Karimov: «Bugungi kunda xalqni yakdil qiladigan ishlar va g‘oyalar oz emas, ularning ichida eng ulug‘i, eng olijanobi – O‘zbekiston mustaqilligini ta‘minlash. Ana shu maqsad, ana shu g‘oya atrofida birlashsak, aslo xor bo‘lmaymiz»², – degan edi.

Prezident 1992 yilda nashr etilgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «Istiqlol va ma‘naviyat», «O‘zbekiston: milliy istiqlol, siyosat, iqtisod, mafkura», «Elni Vatan manfaati birlashtiradi» asarlarida va 1993 yil 23 aprelda bir guruh shoir va yozuvchilar bilan o‘tkazgan uchrashuvida milliy mafkurani yaratish zarurligini ta‘kidlab o‘tdi.

1993 yilning 7 dekabrda Konstitutsiyamizning bir yilligiga bag‘ishlangan yig‘ilishda Prezident I. Karimov nutq so‘zlab: «Mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalga tatbiq qilmasdan turib, Konstitutsiya belgilab bergan maqsadlarga erishish, oldimizga qo‘ygan talablarga javob berish mushkul bo‘ladi»³, – degan edi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i kerak:

1) xalqimizning azaliy an‘analari, urf-odatları, ruhiyati, tili va diniga mos, hamohang g‘oyalar asosida odamlar ongiga kelajakka qat‘iy ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma‘rifat kabi yuksak tuyg‘ularni singdirish;

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – 190-б.

² Каримов И. А. Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – 15-б.

³ Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т., 1996. – 110-б.

2) milliy istiqlol mafkurasi orqali xalqda uning o'zidagi qudrat va himoyaga suyanib, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatida hamda ilg'or davlatlar o'rtasida teng huquqli va munosib o'rin egallashga intilish hamda ishonch hissini tarbiyalash;

3) sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish;

4) milliy istiqlol mafkurasining negizini vatanparvarlik, milliy iftixor, insonparvarlik, baynalmilallik kabi yuksak umuminsoniy xususiyatlar bilan boyitgan holda rivojlantirish.

Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va maqsadi mustaqillikni mustahkamlashdir. Har qanday g'oya yoki mafkura xalq, jamiyat ma'naviyatining mahsulidir.

Aytish mumkinki, milliy ma'naviyat masalasi hech qachon shu bugungidek yuksak maqomda dasturiy vazifa qilib qo'yilmagan edi. Milliy ma'naviyatimizning ildizlari esa umuminsoniy qadriyatlar, islom ta'limoti, o'zbek milliy urf-odatlar bilan butunlay hamohang va chambarchas bog'liqdir. Ma'naviyat davlat tomonidan o'z xalqining ta'lim va tarbiyasini qo'llab, uni ongli rivojlantirishdir. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», degan mashhur o'giti doimo jamiyatimiz ma'naviy rivojining asosi bo'lib qolaveradi.

Barcha davrlarda jamiyat taraqqiyoti rivojining mohiyati, uning sur'atlari insonlarning ma'naviy kamoloti darajasi bilan bog'liq bo'lgan. Jamiyat ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, ma'naviyatning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilovchi ilmiy muammolarni yaxshi bilish talab qilinadi. Bu borada sobiq Ittifoq davridagidek quruq shiorlar va mavsumiy tadbirlar bilan amaliy natijalarga erishib bo'lmaydi. Afsuski, bizda ma'naviyatning mohiyati va tarixiy taraqqiyotning o'tish davridagi hal qiluvchi ahamiyati ilmiy adabiyotda chuqur, mukammal yoritib berilgan emas. Ma'naviyatning mohiyati va jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati masalasi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning asarlari, maqolalari va nutqlarida mukammal tarzda, hozirgi kunning dolzarb masalalari bilan bog'liq holda yoritib berilgan. Ularda ma'naviyat va ma'rifatning tub nazariy va amaliy muammolariga doir ellikdan ortiq muhim jihatlar ko'rsatib berilgan. Ilm-fan, amaliy faoliyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan bu muammolarning asosiy yo'nalishlari haqida qisqacha quyidagilarni qayd etish mumkin.

Birinchi, ma'naviyat faqat insonga xos bo'lgan xususiyatdir. Ma'naviyatli odam Inson degan buyuk va sharaflı nomga muyassar bo'ladi. Lekin ma'naviyat insondagi tug'ma xususiyat emas: u hayotiy tajriba natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Insonda ma'naviyatni egallashga imkon beruvchi, irsiyat qonunlari bilan belgilanuvchi tug'ma imkoniyatlar ham bor, albatta. Lekin bu tug'ma imkoniyatlar mehnat, hayot tajribasi, jamoatchilik bilan qilingan aloqalar tufayli sayqal topadi, e'tiqodga aylanadi. Shu sababli Yurtboshimiz ma'naviyatning ijtimoiy mohiyati haqida u «Insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi», degan chuqur falsafiy fikrni bildirgan edi.

Ikkinchidan, Prezident Islom Karimov o'z asarlarida ma'naviyat insonga xos bo'lgan ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, millat, shaxs taraqqiyoti va kamolotining asosiy omili ekanligini ham ishonarli dalillar bilan ko'rsatib o'tgan. Ma'naviyat insonga faqat mohiyatgina emas, balki muayyan maqsad hamda kelajakka qat'iy ishonch, katta umid va kuch-qudrat ham baxsh etadi. Inson aqli, qo'li bilan nimaiki yaratmasin, uning zamirida ma'naviyat yotadi. Ma'naviyat tajriba, amaliy malaka va tafakkurning in'ikosi shaklida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, shaxs ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining kurtagi, bir bo'lagidir. Shaxs ma'naviy kamoloti odamlarning ko'p qirrali o'zaro munosabatlari, jamiyat hayotidagi sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi. Ma'naviyat inson, xalq, davlat va jamiyatning tub omillarini nazariy-falsafiy tahlil etishning yuksak ifodasidir.

To'rtinchidan, ma'naviyat odamlarning yuksak axloq-odob me'yorlari, huquqiy mezonlar, adolatli mafkuraviy e'tiqodga asoslangan insonparvarlik va halollik bilan sug'orilgan munosabatlarning ham asosidir. Jamiyatda inson boshqa insonlarsiz yashay olmaydi. Odamlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, ahillik va samimiy muloqotga intilishning ehtiyoji ham ma'naviyatning ko'rinishidir. Hatto jamiyatning o'zi ham kishilar o'rtasidagi yuksak ma'naviyatga asoslangan o'zaro munosabatlar ifodasidir.

Beshinchidan, Prezident Islom Karimov asarlarida olg'a surilgan chuqur falsafiy-nazariy g'oyalardan yana biri ma'naviyatning cheksizligi masalasidir. Ma'naviyatning mohiyati, uning qirralari va rivojlanish imkoniyatlari shunchalik kattaki, uni o'lchab yoki poyoniga yetib bo'lmaydi.

Har bir tarixiy davr, sharoit, ehtiyoj va imkoniyatlar ma'naviyatning yangi mezonlarini yaratadi. Bu mezonlar tasodifiy bir hodisa bo'lmay, balki tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida inson kamolotining yangi yo'nalishlariga bo'lgan ehtiyojning ifodasidir. Jamiyat oldinga qarab taraqqiy qilgani singari, uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviy kamolot ham uzluksiz davom etaveradi.

Oltinchidan, Yurtboshimiz ko'rsatib o'tganidek, ma'naviy kamolotning negizi ma'naviy ehtiyoj bilan bog'liq. Ma'naviy kamolotga intilish insonga xos fazilatdir. Bilim, amaliyot taraqqiyotining har bir bosqichi rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo'la olmaydi. Ma'naviy kamolotning har bir bosqichi aniq davrlarning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Taraqqiyot har qanday ehtiyojni yuzaga keltiradi. Ehtiyojlarning ro'yobga chiqishi esa taraqqiyotning yanada ilgarilab borishiga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy taraqqiyotning tub mohiyati bilan belgilanuvchi har qanday ehtiyoj inson faoliyatining maqsad va yo'nalishlariga ham ta'sir etadi. Shuningdek, ma'naviyatning yangi cho'qqilariga yetishish ehtiyoji shaxs va jamiyat kamolotining hal qiluvchi omilidir. Shu sababli ma'naviyat insonga havo bilan suvdek zarur.

Hozirgi kunda mustaqil O'zbekiston fuqarolarida shakllanayotgan yangi ma'naviy ehtiyoj – Vatanga muhabbat, tanlagan yo'limiz va yurtimizning istiqboliga qat'iy ishonchdir. Istiqbol qo'lga kiritilganidan so'ng, biz o'z

kuchimiz, qudratimizga ko‘proq ishona boshladik, qadr-qimmatimizni teranroq angladik.

Ma‘naviyatga bo‘lgan ehtiyoj inson uchun moddiy ne‘matlarni o‘zlashtirish, yeyish-ichish, kiyinishga nisbatan muhimroq. Negaki, ma‘naviyat barqaror bo‘lmagan joyda moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish va iste‘mol qilish madaniyati ham yuksak bo‘lmaydi. Yuksak ma‘naviyat va aqliy salohiyat sohibi bo‘lgan kishilargina kelajakni oldindan ko‘ra olishga, har qanday og‘ir sharoitda ham yuksak maqsadlarga iymon va e‘tiqod bilan intilishga qodir.

Tarixda bunga misollar ko‘p. Bir vaqtlar yaponlar Ikkinchi jahon urushidan keyingi og‘ir sharoitlarda «oldin xalqning miyasini to‘ldirish kerak, shundan keyin uning qorni ham to‘yadi», degan umummilliy shiorga asoslanib ish ko‘rdilar. Ular mamlakat tarixidagi og‘ir va murakkab sharoitda milliy burch va mas‘uliyat, vatanparvarlik tuyg‘usi targ‘ibotini kuchaytirdilar. Natijada o‘z burchi va mas‘uliyatini anglash tez vaqt ichida mamlakatni dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylantirdi. Hozir O‘zbekistonda ham jamiyat taraqqiyotining ana shu muhim masalasiga katta e‘tibor berilayotgani istiqbolimizning rejalari chuqur ilmiy asos va jahondagi ilg‘or tajribaga tayanganidan dalolatdir.

Bugun yurtdoshlarimizda mamlakat, millat oldidagi burch va mas‘uliyat, vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy ruh, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishni davr talab etmoqda. Shuningdek, ona tilini rivojlantirish va uni hayotning barcha sohalarida kengroq, to‘laroq qo‘llash imkoniyatlarini izlash, Vatandan uzoqlashishni og‘ir judolik deb tushunish, tabiat muhofazasi, vijdon erkinligi mezonlariga rioya qilish, ijtimoiy adolatning milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan qoidalariga tayanib ish yuritish zarur. Ajdodlarimiz boshlagan ulug‘ ishlarni ochiq ko‘z va sog‘lom aql, davrning sharoitlari, imkoniyatlari va ehtiyojlari asosida rivojlantirish, har qanday sharoitda ham milliy manfaatlar ustuvorligini his qilish va ularni adolat, insonparvarlik, do‘stlik mezonlaridan chekinmay himoya eta bilish ham kerak.

Har qanday yangi jamiyat o‘z mafkurasini bilan vujudga keladi. Mafkurasiz jamiyat bo‘ladi, deyish jiddiy xatodir. O‘zbekiston siyosiy va iqtisodiy sohalarida bo‘lganidek, ma‘naviy sohada ham o‘zining aniq yo‘liga ega bo‘lmog‘i kerak. Bu borada Prezidentimiz I. A. Karimovning: «Xalqimizning ma‘naviy poydevori – bo‘lajak davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Buni hech kim inkor qila olmaydi»¹, – degan fikrlari e‘tiborga loyiqdir.

Demak, oldimizda turgan eng muhim masala milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir. Mafkura har bir jamiyatning o‘z ichidan xalq ma‘naviyatining mahsuli sifatida o‘sib chiqmog‘i kerak. Ma‘lumki, g‘oyalar majmuining muayyan tizimi mafkurani vujudga keltiradi. Mafkura jamiyatning turli sohalarida haqidagi yangi ilmiy, iqtisodiy,

¹ *Каримов И. А.* Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – 203-б.

siyosiy, falsafiy, huquqiy, diniy, badiiy, axloqiy qarashlarning yig'indisidan iborat. Mafkura – dunyoqarashni tashkil etuvchi fikrlar va g'oyalar majmui.

Jamiyat taraqqiyotini yuksak ma'naviyat va mafkurasiz tasavvur etish qiyin. Mafkura muvaqqat bo'la olmaydi. U millatning uzoq taraqqiyoti istiqbollari belgilab, hatto, uning pirovard maqsadlarini ham aniqlab berishi, qanday jamiyat quramiz, degan savolga ham to'la javob berishi kerak. Millat mafkurasining shakllanishida milliy g'urur katta ahamiyatga ega. Millatda o'ziga xos g'urur, faxrlanish hissi bo'lmasa, Vatan va millat ravnaqiga ishonch, muhabbat paydo bo'lmaydi. O'zbek xalqi g'ururi va faxrining hayotbaxsh ildizlari mavjud. Bular quyidagilar:

1) Vatanimizning buyuk, ko'p ming yillik tarixiy o'tmishida uning Sharq ma'rifatparvarligi, umuman jahon ma'naviyati tarixiga qo'shgan hissasi;

2) ulug' vatandoshlarimizning jahon miqyosida tan olinishi, din, adabiyot va san'at daholarining borligi;

3) yurtimizda bebaho madaniyat, san'at va me'morchilik yodgorliklarining ko'pligi;

4) o'zbek xalqida o'z ona tili, urf-odatlar va qadriyatlari bilan faxrlanish hissining paydo bo'lganligi;

5) o'zbek yerining serhosilligi, tabiat boyliklarining ko'pligi, iqtisodiyotning mamlakat kuch-qudratini rivojlantirish imkoniyatlari;

6) O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi¹.

Dunyoda sanoqli millatlarga insoniyat sivilizatsiyasiga o'zining munosib hissalarini qo'shgan. O'zbeklar ana shundaylar safidagi millatdir. Bu millat eski zamondan faxrlanib, yangi zamonga kurashlar orqali kirib keldi.

Yana bir jihat haqida to'xtalib o'tish zarur. Hech bir mafkura davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilmasligi lozim. U fikrlar, g'oyalar va qarashlar majmuini o'zida saqlab qolgan holda uyushmalar va partiyalarning o'z fikrlarini erkin ifoda qilishlariga yo'l ochib bermog'i kerak. Har qanday g'oya va ta'limot aniq maqsadga qaratilgani kabi har qanday mafkura ham ma'lum bir manfaatga bo'ysungan bo'ladi. Milliy mafkuramizning asosiy maqsadi insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurishdek yagona umummilliy g'oya atrofida fuqarolarni birlashtirishdan iborat.

Bizdagi milliy mafkuraning qudrati xalqimizning mo'g'ullarga qarshi mustaqillik uchun kurashgan Mahmud Torobiy va sarbadorlar harakatlarida yaqqol ko'ringan edi. Amir Temur ana shu mustaqillik orzusini o'zining harakatlarida mujassamlashtirdi. Xalq orzusini sun'iy yo'l bilan vujudga keltirib bo'lmaydi. Uni bo'rttirib ko'rsatish esa mafkuraga nisbatan xalq nafratini paydo qiladi. Rahbarning xalqdagi mustaqillik va vatanparvarlik g'oyasini boshqa tomonga burib yuborib, sun'iy mafkurani yaratishi ham davlat uchun katta xavfni vujudga keltiradi. Xalq mo'g'ullarga qarshi kurashda o'ziga jasur yo'l boshchi kerakligini his qildi. Ulamolar esa Amir Temurga fatvo berib, xalqni uning ketidan ergashish va to'planishga chaqirdi.

¹ Qarang Саидов А., Тожиқонов У. Муствақиллик ва ҳуқуқий мафкура. – Т., 1995. – 17-б.

Mo'g'ullar zulmidan ezilayotgan xalqlar Temurni bosqinchilardan ozod etuvchi haloskor sifatida kutib oldilar. Bu Amir Temur davlati barpo bo'lishining asosi edi. Xalq ma'naviyatini Amir Temur yanada yuksaklikka ko'tardi. Buyuk xalq esa markazlashgan va qudratli davlat atrofida birlashdi.

Bugun biz yangi davlat, yangi jamiyat qurayotgan ekanmiz, bu tizimdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkurida ham o'ziga xos o'zgarishlar mutlaqo yangicha ma'no kasb etayotganining guvohimiz. Avvalo, shaxs bilan davlat, inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar batamom yangicha mazmun va shakl topishi, yangi qoida va prinsiplarga asoslanishi kerak. Bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplarga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etayotgan adolatli jamiyat talablariga javob beradigan munosabatlar bo'lmog'i darkor. Bu jarayonning eng muhim jihati shundan iboratki, har qaysi fuqaro jamiyat taraqqiyoti, uni o'stirishga bo'lgan o'z munosabati va o'rini, kerak bo'lsa, o'z burchini ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Mamlakatda yashayotgan barcha xalqlarning manfaatlarini teng himoya qilish, milliy munosabatlarning barcha muammolarini qonunlar, sotsial adolat mezonlari asosida hal qilish respublika rahbariyati olib borayotgan ichki siyosatning eng muhim jihatlaridandir. Bu ham ma'naviyatning ko'rinishlaridan biri.

Bugungi kunda xalqimiz millatlararo ahillik, fuqarolar totuvligini avaylab-asrab, demokratik prinsiplar asosida milliy davlatchilikni komil ishonch bilan tiklamoqda. Ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar xilma-xilligi asosida rivojlanib bormoqda. Bu sharoitda, Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, hech qaysi mafkura davlat mafkurasiga darajasigacha ko'tarilmasligi kerak. Ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, e'tiqod, bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lgan xalq mafkurasiga umummilliy mafkura bo'lmog'i lozim. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasiga xalqimizning azaliy turmush tarziga, tili, dili va ruhiyatiga asoslanib kelajakka yuksak ishonch, mehr-oqibat, ma'rifatni ongimizga singdirishga xizmat qilishi, ulug' maqsad yo'lida hammamizni ruhan birlashtiruvchi vosita bo'lishi aniq.

Davlatning qudratini oshirishda iqlim sharoitlari va tabiiy boyliklarning ham ahamiyati bor. Lekin bu mas'uliyatli vazifani hal qilishdagi asosiy omil – yuksak ma'naviyatli insonlardir. Agar yetuk ma'naviy omil bo'lmasa, tabiiy boyliklari benihoya ko'p mamlakat ham rivojlangan ma'naviy kamolotning eng yuqori cho'qqisi – hozirgi zamon fani, texnikasi, texnologiyasi, madaniyati borasidagi yutuqlarni to'liq egallash, milliy meros va qadriyatlarni ular bilan bog'lagan holda yangi bosqichga ko'tarolmaydi. Buning uchun yoshlar chuqur zamonaviy bilimga, yetuk malakaga ega bo'lishlari zarur. Xalq ta'limini rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni yaxshilash borasidagi tadbirlar O'zbekiston davlati olib borayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanganligining sababi ham ana shunda. Yoshlarni bilim olishga da'vat etish ham hozirgi kunda amalga oshirilayotgan mafkuraviy ishlar tizimiga kiradi.

Binobarin, milliy g'oya va mafkura qoidalarini yoshlar ongiga muvaffaqiyatli singdirish barcha murabbiylarning o'z vazifalariga vijdonan, mas'uliyat bilan ijodiy yondashishlariga bog'liq.

2. Bozor munosabatlari sharoitida madaniyatni rivojlantirish muammolari

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixida boshlanayotgan yangi XXI asr madaniyat asri sifatida maydonga kelmoqda. U kelgusida mamlakatlar taraqqiyotini belgilashning bosh mezoni bo'lib xizmat qiladi, deyish mumkin. Buning sabablari ko'p bo'lib, quyida ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Birinchi, madaniyatsiz jamiyat rivojlana olmaydi. Madaniyatning tarkibiy qismlari bo'lmish ilm va ma'rifat taraqqiyotning negizidir. Zamonaviy yo'llar, binolar, zavod-fabrikalarni qurish uchun uni yaratuvchilariga, eng avvalo, madaniy saviya, aqliy salohiyat, tarixiy tajriba kerak bo'ladi. Savodsiz, chuqur bilimga ega bo'lmagan odam hech bir sohani rivojlantira olmaydi. Madaniy saviyasi sayoz me'mor hech qachon yaxshi loyiha yarata olmaydi. Iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish uchun ham bilim, tajriba, jahon ilm-fan yangiliklari va ishlab chiqarish texnologiyasi sirlaridan xabardor bo'lish lozim. Demak, moddiy taraqqiyot uchun ham, iqtisodiy taraqqiyot uchun ham yuksak ma'naviyat va madaniy rivojlanish zarur. Shu bois ham madaniyat jamiyat rivojining darajasini belgilovchi mezon.

Ikkinchi, madaniyat barcha sohalarida ravnaq topmasa, hayot farovon bo'lmaydi. Madaniyat – hayotning bir sohasigina emas. U ilmu fan, adabiyot va san'at bilan cheklanib qolmaydi, balki inson hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Ya'ni siyosiy sohada – siyosiy madaniyat, yuridik shaxslar va tartibni saqlash xodimlari uchun – huquqiy madaniyat, tabiatni saqlash uchun – ekologik madaniyat, ishlab chiqarishda – mehnat madaniyati, qishloq xo'jaligida – agrar madaniyat, aholining bo'sh vaqtini taqsimlashda – dam olish madaniyati, uy-ro'zg'orda – turmush madaniyati, kundalik turmushda – kiyinish va muomala madaniyati, muomalada – nutq madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi va h.k. Hattoki, madaniyati yetarli bo'lmagan ishchi yetishtirgan mahsulot ham xaridorga manzur bo'lmaydi.

Uchinchi, madaniyatsiz jamiyatda vahshiylik ildiz otadi. Shu sababli mamlakatlar taqdiri ma'naviyatli rahbarning boshqarishiga bog'liq bo'ladi. Demak, jamiyatdagi madaniy omillar – ilm, ma'rifat, adabiyot va san'at, din va mafkuraning taraqqiyoti mamlakat taraqqiyotini belgilaydi.

To'rtinchi, madaniyat zavol topgan joyda urush-janjallar boshlanadi. Tarixdan ma'lumki, yovuzlikka qarshi ezgulik, yomonlikka qarshi yaxshilik, zulmatga qarshi esa ziyokorlik doimo kurash olib borgan va adolat g'olib kelgan. YUNESKONing Toshkentda o'tgan sessiyasida Prezidentimiz: «Men madaniyat va ma'rifat dunyoni jaholat va vahshiylikdan, diniy va milliy ekstremizmdan, etnik qarama-qarshilik, mintaqaviy mojaro va urushlardan saqlay olishiga ishonaman»¹, – degan edi.

¹ *Каримов И. А.* Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. Т. 7. – 194-б.

Beshinchidan, ma'naviy madaniyatsiz insoniyat o'zligini yo'qotadi. Insoniyat qanchalik ilgarilab taraqqiy esa, unga shunchalik yuqori darajadagi madaniyat kerak bo'ladi.

Har qanday inson ma'naviy ravnaq topmasdan yuksak madaniyatli bo'lishi mumkin emas. Ma'naviyatsiz esa madaniyat bo'lmaydi. Mustaqilligimizning tobora mustahkamlanishi respublikaning har bir sohada o'z yo'lini tanlab olish imkonini beradi. Biz bugungi kunda iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda o'z yo'lini to'g'ri tanlab ola bilgan millatmiz. Yangi iqtisodiy taraqqiyot davrida har bir millat oldida o'zligini saqlab qolish uchun milliy madaniyatni rivojlantirish vazifasi turadi. Milliy madaniyatning rivojlanishida milliy mentalitet katta o'rin tutadi.

O'zbek milliy mentaliteti hech qachon milliy nigilizm botqog'iga botgan emas. Milliy madaniyatimizning o'ziga xosligini saqlash va tiklashga alohida e'tibor berishimiz kerak. Shuningdek, milliy o'zlikni anglash jarayonida milliy madaniyatimiz jahon madaniyati va umumbashariy qadriyatlar ideallaridan hamda ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas.

Demak, jamiyat madaniyatining shakllanishida milliy ma'naviyat, milliy g'oya, milliy mentalitet bilan birga, zukkolik, intellektual faollik, axloqiy yetuklik, shaxsning huquqiy bilimlarni egallashi va madaniy saviyasining yuksakligi asosiy o'rin tutadi. Mustaqillik bizga ana shunday imkoniyatlarni yaratib berdi.

Mustaqillik tufayli madaniy ne'matlar va ashyolar ishlab chiqarish, madaniyatni boshqarish, ma'naviy boyliklarni taqsimlash va iste'mol qilish, umumjahon madaniy boyliklaridan bahramand bo'lish, milliy fe'l-atvor, milliy madaniyat, milliy turmush tarzini shakllantirish, vatandoshlarimizda milliy g'urur, milliy ong, milliy g'oya, dunyoqarash, milliy o'zlikni anglash imkoniyatlari yaratildi. Ayni vaqtda, milliy madaniyatimiz o'ziga xos tarzda rivojlanib bormoqda.

Mustaqillik yillarida madaniyatga yondashuvda tub o'zgarishlar yuz berdi. Uning mazmunini umuminsoniy qadriyatlar, milliy manfaat, ma'naviylikning mafkuradan xoliligi, davlat siyosatida ma'naviyat va maorifning ustunligi tashkil etadi. Agar sovet davrida madaniyat sohasi davlat budjetidan ta'minlangan bo'lsa, mustaqillik sharoitida bu ishlar to'rtta manbadan, ya'ni davlat budjeti, homiylik mablag'lari, xorijiy investitsiyalar, madaniyat muassasalarining tijorat faoliyatidan ta'minlanmoqda.

Shunga qaramay, madaniyat sohasini mablag' bilan ta'minlashda davlat budjetining o'rnini ham tobora ortib bormoqda. Buni tushunsa bo'ladi, chunki O'zbekistonda madaniyat sohasiga kiruvchi muassasalar, madaniy yodgorliklar va inshootlar behisob. 1992 yilda respublikada 9310 ta madaniyat yodgorligi qayd qilingan bo'lsa, ulardan 6721 tasi davlat muhofazasida. 90-chi yillarning boshida 62 ta muzey ishlab turgan. 1992 yilning o'zida bu muzeylarni 2,2 million odam ziyorat qilgan.

Mustaqillik yillarida badiiy qimmatga ega bo'lgan madaniyat obidalarini ta'mirlash ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Qabul qilingan «Meros» dasturi orqali yangi madaniy inshootlar qurilishi va bor obidalarni qayta

ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu ishlar, birinchi navbatda, tarixiy shaharlar – Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Termiz, Qarshi, Toshkent va boshqa joylarda olib borilmoqda. Agar 1990 yilda tarixiy obidalarni tiklash ishlariga 12,4 mln. so'm sarflangan bo'lsa, bu raqam 1996 yilda 643,6 mln. so'mni tashkil qildi. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy mamlakatlar ham sarmoya ajratmoqdalar. Masalan, Samarqanddagi Qusam ibn Abbos madrasasini ta'mirlashga Iordaniya hukumati 100 ming AQSH dollari miqdorida mablag' ajratdi.

Ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda mahalliy budjetlarning ulushi ham ortib bormoqda. Masalan, 1994 yilda respublika budjetidan bu ishlarga 64 129,2 ming so'm ajratilgan bo'lsa, mahalliy budjetlardan 92 479 ming so'm ajratildi. Shu pullardan 30 573,9 ming so'mi teatr-konsert tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, 62 154 ming so'mi o'quv muassasalari tarmog'ini mustahkamlashga sarflandi¹.

Shuni nazarda tutish kerakki, 1998 yilda respublikada 9 538 ta madaniyat muassasasi bor edi. Ulardan 53 tasi teatr-konsert, 3 458 tasi madaniy-ma'rifiy, 27 tasi o'quv muassasasi edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni asbob-uskunalar va kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlash nihoyatda mushkul bo'ldi. Shunga qaramay, bu muassasalarni moddiy ta'minlovchi davlat va mahalliy organlar bevosita shu ish bilan shug'ullanib kelmoqda. Prezidentimiz I. Karimovning 1996 yil 31 dekabrda «Musiqqa tahsilni yaxshilash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, o'quv yurtlariga 6,5 ming dona musiqa anjomlari ajratildi.

Madaniy oqartuv muassasalarini ta'minlanishda sezilarli o'zgarishlarga qaramay, bu sohada ham yechilmagan muammolar mavjud. Ayniqsa, kutubxonalarni kitoblar bilan ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Agar 1991 yilda respublika kutubxonalari fondida 5 mln. 189 ming 100 nusxadan iborat kitob bo'lgan bo'lsa, 1998 yilda bu ko'rsatkich 1 mln. 802 ming 700 nusxani tashkil etdi. 1996 yilda har bir qishloq kutubxonasiga o'rta hisobda 1,5 ta kitob ajratilgan. 1997 yilda 1084 kutubxona ta'mirtalab holatda edi, shulardan 163 tasi avariya holatiga kelib qolgan edi².

Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga va ko'rsatishga alohida e'tibor berilishi kerak. Shuningdek, milliy o'zini o'zi anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlarini ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analariidan ajralib qolishi mumkin emas.

Milliy tiklanish g'oyasining asosiy vazifasi oldin o'tgan voqealar va tarixda alohida o'rin tutgan ayrim shaxslarni, eski tizimni tanqid qilishdan iborat emas. Maqsad – iqtisodiy va madaniy taraqqiyotimizga to'sqinlik qilayotgan barcha illatlardan tezroq qutulib, rivojlanish yo'liga chiqib olish. Milliy g'oyaning vujudga kelishida o'zbekona fe'l-atvor katta ahamiyatga ega. Xalqimiz ongida insof va diyonat tuyg'ularini yanada mustahkamlash

¹ Qarang *Сайфуллаев Н. Б.* Ўзбекистон маданиятининг hozirgi ahvoli va uni rivojlantirishning istiqbolлари (1991–1998 йй.): Тарих фанлари номзоди... дис. автореф. – Т., 2002. – 8-б.

² Маданий-маърифий муассасалар фаолиятининг 1997–1998 йилги асосий кўрсаткичлари. – Т., 1998. – 24-б.

zarur. O‘shanda turmushimizda uchrab turgan dilni siyoh qiluvchi voqealarning barham topishiga erishamiz.

Madaniyatning ma’naviy jihatlaridan biri – dunyoqarash. Insonning ilmiy dunyoqarashi madaniyatni ilmiy boshqarish jarayonidagina shakllanadi. Madaniyatning ijtimoiy turmushdagi ma’naviy omillari estetik did va estetik madaniyatdir. Estetik did voqelikdagi, ya’ni tabiat va insondagi go‘zallikni, nafosatni chuqur idrok etish, uni baholash, undan zavqlanish, o‘zida go‘zallikni chuqur his qila olishni shakllantirish ko‘nikmasining majmuidan iborat bo‘lsa, estetik madaniyat estetik did orqali his etilgan va baholangan g‘oyalarni amaliy hayot talablari bilan bog‘lashdir. Zero, milliy xususiyatlar estetik did va estetik madaniyatda yanada aniqroq ko‘rinadi. Inson ichki tuyg‘ulari, ehtiyojlari va hayotga munosabatini ifodalagani uchun millatga xos betakror belgilar odamlarning estetik didi va madaniyatida aks etib turadi.

Shu sohadagi ulug‘vor vazifalardan biri ta’lim va tarbiya tizimini isloh qilishdan iborat. U respublikada quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

birinchidan, ta’lim tizimini yangi, ya’ni bozor sharoiti talablariga moslashtirish;

ikkinchidan, mustaqillik tufayli milliy va tarixiy qadriyatlarning tiklanish imkoniyatlarini ta’lim tizimiga yoyish;

uchinchidan, tayyorlanayotgan kadrlarning malakasini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish.

Shu munosabat bilan ta’lim quyidagi bosqichlarda amalga oshirilmoqda:

1) maktabgacha ta’lim – uch yoshdan olti yoshgacha;

2) boshlang‘ich ta’lim 1–4-sinflarni o‘z ichiga oladi, o‘qish 6–7 yoshdan boshlanadi;

3) umumiy ta’lim – 5–9-sinflar doirasida bilim beriladi;

4) o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi – o‘qish muddati uch oydan kam bo‘lmagan akademik litseylar, kasb-hunar letseylari, kollejlar;

5) oliy mutaxassislik ta’limi – odatda, 18–19 yoshdan boshlanib, kamida 4 yil davom etadi.

Oliy mutaxassislik ta’limi bakalavrluk hamda magistraturaga bo‘linadi. Bakalavrluk muayyan yo‘nalish bo‘yicha bazaviy ta’lim berish demakdir. Unda o‘qish muddati kamida 4 yil davom etadi, u oliy ma’lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi. Magistratura – aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy kasbiy ta’lim bo‘lib, bakalavrluk negizida yana 2 yil davom etadi. Yakuniy kvalifikatsiya davlat attestatsiyasi va magistrlik diplomini himoya qilish bilan yakunlanadi;

6) aspirantura – nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi.

7) Doktorantura – doktor ilmiy darajasi uchun 3 yil davom etadi. Dissertatsiya himoyasidan keyin fan doktori ilmiy darajasi beriladi.

Qo‘shimcha kasbiy ta’limga qayta tayyorlash va malaka oshirish kiradi.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish uni bosqichma-bosqich o‘tkazish prinsipi asosida olib boriladi.

Birinchi bosqich – 1997–2001 yillar. U 4 yil mobaynida joriy etildi. Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajarildi: milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi; yangi talablarga javob beradigan pedagogik kadrlarni tayyorlash; o‘quv standartlarini yaratish va yangi o‘quv dasturlari ustida ishlash; umumta’lim maktablarini tuzilishi jihatdan qayta qurish; uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish; ijtimoiy himoyalash, kafolatlash.

Ikkinchi bosqich – 2001–2005 yillarni o‘z ichiga olib, bunda milliy dastur keng miqyosda to‘liq amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich – 2005 yildan keyingi yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, to‘plangan barcha tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimi umumlashtiriladi. Hozir davlatimiz jahon davlatlari bilan birgalikda ta’lim va tarbiya tizimini davr talablari darajasida takomillashtirish borasida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Respublikada «Kamolot», «Umid», «Ulug‘bek» yoshlar jamg‘armalari, «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi, «Jahon adabiyoti» jurnalining tashkil qilinishi, «Sharq taronalari» xalqaro festivalining Samarqandda o‘tkazilayotgani keng jamoatchilikning katta qiziqishini uyg‘otmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistondagi 59 ta oliy, 258 ta o‘rta maxsus, 75 ta kollejlarda jami 360 ming nafar talaba bilim olmoqda.

Mustaqillik sharoitida yashash va ishlash respublikamizdagi har bir inson qalbini g‘ururga to‘ldirish bilan birga, ularga ulkan mas’uliyat ham yuklaydi.

Respublika ilmiy jamoatchiligi oldida turgan asosiy vazifa ma’naviy hayotimiz, ilm-fan rivoji va barcha izlanishlarimizni eski mafkura qoldiqlaridan xalos etish, tozalashdir. Respublika ilmiy jamoatchiligi ustuvor soha – madaniyat va uning milliy manbalari, o‘zlikni anglash, estetik didni tarbiyalash, ta’lim va tarbiyani isloh qilish yo‘lidagi harakatlarda ongli, vijdonan ishtirok qilishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

17-ma'ruza

O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI MUNOSABATLARI

1. O'zbekiston tashqi siyosatining prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari

XX asrning oxirlariga kelib, yer yuzidagi siyosiy vaziyat tubdan o'zgardi. Bu, birinchi navbatda, qudratli davlat – AQSH bilan muvozanatni ushlab turishga uringan sobiq Sovet Ittifoqining parokandalikka uchrab, tarqalib ketishi bilan bog'liq. Sobiq SSSR hududida bir qancha mustaqil mamlakatlar, jumladan O'zbekiston davlati dunyoga keldi. Endilikda ushbu mustaqil davlatlar jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topish, xalqining oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashqi siyosat yuritmoqdalar.

Mustaqillikka erishgan har bir davlat o'z tashqi siyosatini amalga oshirar ekan, unga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni chuqur o'rganish, tahlil qilish, undan kelib chiqadigan maqsadlar va bajarilishi kerak bo'lgan vazifalardan davlatlarning o'zaro muloqoti qonun-qoidalari va yo'nalishlarini aniqlab olishi kerak. Xalqaro miqyosda o'z faoliyatini endigina boshlayotgan davlatlar uchun bu juda murakkab jarayon, albatta. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Prezident buni tan olgan va ta'kidlagan edi. «O'zining xalqaro obro'-e'tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli subyeksi sifatida o'zini qaror toptirish uchun ko'p ishlarni qilish, ba'zida esa umuman boshidan boshlashga ham to'g'ri keladi»¹.

Haqiqatan ham endigina mustaqillikka erishgan O'zbekiston uchun juda ko'p ishlarni boshidan boshlashga to'g'ri keldi. Chunki sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston tashqi siyosatning subyeksi bo'la olmas edi. Tashqi ishlar vazirligi xalqaro hamjamiyatning oldida ko'zbo'yamachilik, rasmiyatchilik yuzasidangina tuzilgan bo'lib, u hech bir tashqi muammoni mustaqil hal qilish huquqiga ega emas, bu borada tajribaga ham ega emas edi. Shu sababli O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatishi tashqi siyosat prinsiplari va asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan birga olib borildi.

Tashqi siyosatning prinsiplari va yo'nalishlarini aniqlashga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatdi.

Birinchidan, tashqi siyosat davlat ichki siyosatining mantiqiy davomi bo'lib, mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni samarali bajarish uchun qulay sharoit yaratish demakdir.

Shu maqsaddan kelib chiqib, tashqi siyosat oldida uchta muhim vazifa turadi. Bular quyidagilar:

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – 50-б.*

– o‘tish davrini boshidan kechirayotgan respublikada mavjud siyosiy barqarorlikka tashqaridan bo‘layotgan tahdidining oldini olish va shu orqali islohotlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish;

– uzoq vaqt davomida ma‘muriy buyruqbozlikning bir elementi sifatida iqtisodiy jihatdan «Markaz»ga qaram bo‘lib, inqirozga uchragan respublika ishlab chiqarishiga jahonning ilg‘or texnika va texnologiyasi yutuqlarining kirib kelishi uchun imkon yaratish;

– O‘zbekiston aholisining chet ellar bilan bog‘liq bo‘lgan milliy ehtiyojlarini qondirish uchun keng yo‘l ochib berish.

Ikkinchidan, respublikaning tashqi siyosatiga O‘zbekistonning dunyo xaritasidagi geostrategik joylashuvi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu qadim zamonlarda ham karvon yo‘llarining yerimizdan o‘tishiga imkon yaratgan, dunyo mamlakatlarning o‘zaro savdo va madaniy aloqalarida ko‘prik yo‘li vazifasini o‘tagan. Bugungi kunda ham O‘zbekiston bu sohada O‘rta Osiyoda yetakchi o‘rin tutadi. Shu bilan birga, hududimizning dengiz yo‘llaridan uzoqda joylashganligi savdo va madaniyat sohasida aloqalar o‘rnatish imkoniyatlarini cheklaydi va birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillarni hisobga olib, mustaqillikka erishilganiga bir yil to‘lmasdanoq Prezident I. A. Karimov boshchiligida O‘zbekiston tashqi siyosatining yo‘llarini aniq belgilashga qaratilgan prinsiplar ishlab chiqildi. Ular I. A. Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li»¹ asarida o‘z aksini topdi. Bu prinsiplar quyidagilar:

– o‘zining milliy davlat manfaatlarini ustun bo‘lgani holda, o‘zaro manfaatlarini har tomonlama hisobga olish;

– odamlar va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish uchun kurashish;

– inson huquqlari, hujum qilmaslik, nizoli masalalarni hal etishda kuch ishlatishdan va kuch ishlatib tahdid qilishdan voz kechish to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarni tan olish;

– respublikaning tashqi siyosatini teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida qurish;

– tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsiplarini ro‘yobga chiqarishga va mafkuraviy qarashlaridan qat‘i nazar, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalar o‘rnatishga intilish;

– O‘zbekiston ichki milliy qonunlarida xalqaro huquq normalarining ustunligini tan olish;

– O‘zbekistonning to‘la ishonch prinsiplari asosida ikki tomonlama tashqi aloqalarni o‘rnatishi va rivojlantirishi, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qilishi.

Prinsiplar haqida gap ketganda, bir narsaga e‘tiborni qaratish kerak. U ham bo‘lsa, bu prinsiplarning respublika uchun mutlaq yangilik emasligi. Ular uzoq yillar davomida xalqaro munosabatlarda sinovdan o‘tgan, amalda qo‘llanib kelayotgan prinsiplardir. O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatga doimiy

¹ O‘sha manba. – 51-b.

a'zo bo'lib kirmoqchi ekan, oldindan o'rnatilgan tartibni tan olishi va unga bo'ysunishi shart. Lekin bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan esa, O'zbekiston milliy davlat manfaatlarining ustunligini yodda tutadi va mustaqil davlat qiyofasini yo'qotmaslikka harakat qiladi. Buni I. A. Karimov alohida qat'iyat bilan ta'kidlagan: «Agar, – deydi u, – integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo'ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog'lansa, u holda chetdan olib kelinadigan har qanday integratsiya biz uchun nomaqbul»¹.

Yuqorida sanab o'tilgan prinsiplar u yoki bu shaklda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qayd qilingan. Uning 17-moddasida Respublikaning «tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga» asoslanganligi aytiladi. Bu qoidalar O'zbekiston tashqi siyosatining yo'nalishlarini aniqlashga asos bo'ladi. Yo'nalishlar esa manfaatlar, iqtisodiy, madaniy, tarixiy, milliy va diniy an'analar ta'sirida shakllanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari xususida so'z yuritganda, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlash haqida g'amxo'rlik qilish xususida to'xtalish lozim. Chunki har qanday islohot va taraqqiyotning negizida tinchlik va barqarorlik yotadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi o'zining mavjud imkoniyatlari va salohiyatidan foydalanib, bu omillarning qaror topishi uchun kurashyapti.

Tashqi siyosatning ikkinchi muhim yo'nalishi O'zbekiston iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, jahon standartlari darajasiga ko'tarish masalasi bilan bog'liq. Bunda tashqi siyosat O'zbekistonga jahonning eng ilg'or texnikasi va texnologiyalari, chet el investitsiyalarining kirib kelishiga va respublikaning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmog'i lozim. Bu borada O'zbekiston ulkan salohiyatga ega bo'lib, uni jahon hamjamiyatiga ko'rsata bilish kerak. Shuningdek, bozor munosabatlarini shakllantirayotgan O'zbekiston uchun bu sohada ulkan yutuqlarga erishgan va rivojlangan mamlakatlarning tajribasi alohida ahamiyatga ega. Uni o'rganish va amalda qo'llash iqtisodimizni yuksaltirishning muhim garovi bo'ladi.

Ma'lumki, milliy totuvlik har qanday mamlakat barqarorligining asosidir. Ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'pmillatli davlat uchun bu juda dolzarb masala. Buning ustiga mamlakatimizda istiqomat qilayotgan qozoq, turkman, qirg'iz, rus va boshqa millat vakillarining asosiy qismi boshqa davlatlarning tub aholisini tashkil qiladi. Ular o'rtasidagi qarindosh-urug'chilik, qon-qardoshlik munosabatlari doimo davom etib turishini ta'minlash lozim. Shuningdek, dunyoning turli mamlakatlarida yashayotgan o'zbeklarning milliy ehtiyojlarini qondirish O'zbekiston bilan bog'liq. Bundan tashqari, tili, urf-odatlari, ma'naviyati, milliy an'analari o'xshash bo'lgan turkiy xalqlar

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 241-б.*

borki, ular doimo bir-biriga yaqinlashishga, umumiy muammolarni birgalikda hal qilishga intiladilar. Bularning barchasi davlat tashqi siyosatining muhim muammolaridir.

Sharqda qadim-qadimdan madaniy aloqalarga juda keng o‘rin berilgan. Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston, Eron va Arab mamlakatlarning madaniyatlari o‘zaro uyg‘unlikda shakllangan, bugungi kunda ham ularning bir-biriga ta’siri katta ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Bu xalqlar madaniy va ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi har qanday taraqqiyotning negizini tashkil qiladi. Ushbu muammolarni hal qilishda tashqi siyosat katta ahamiyat kasb etadi.

Tashqi siyosatning yana bir yo‘nalishi diniy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq. O‘zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga e’tiqod qiladi. Shu sababli musulmon mamlakatlaridagi ba’zi muqaddas obidalarni ko‘rishni, xususan Makkaga haj safari qilishni har bir musulmon orzu qiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston hududida ham islom qadriyatlari bilan bog‘liq joylar mavjud, ularni ziyorat qilishni chet ellik musulmonlar o‘zlari uchun sharaf deb biladilar. Bularning barchasini xalqaro huquqning normalari asosida tashkil qilish ham tashqi siyosatning vazifalaridandir.

Respublika oldida ko‘ndalang turgan eng dolzarb muammolardan biri – Orol muammosi. Bu masala Orol dengizi atrofidagi davlatlargagina emas, balki jahon hamjamiyatiga ham taalluqlidir. O‘zbekiston jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning e’tiborini Orol fojiasiga qaratishni o‘zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi va shu yo‘nalishda barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning hal qilinishi aloqa-transport kommunikatsiyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Savdo-sotiq, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni mustahkamlashning eng yaqin va qulay yo‘llarini izlab topishning o‘zi siyosatning alohida muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Tashqi siyosatning bulardan boshqa yo‘nalishlari ham bo‘lishi mumkin. Ular obyektiv zarurat tufayli paydo bo‘ladi, rivojlanadi va ehtiyoj yo‘qolgach, o‘z-o‘zidan qolib ketadi.

Xullas, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati sinovdan o‘tgan xalqaro prinsip va normalarga rioya qilishi bilan birga, milliy manfaatlarining ustunligiga asoslanadi.

2. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi turlicha ko‘rinishga ega. Ulardan biri xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdir. Jahondagi eng nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan mustahkam aloqalarning o‘rnatilishi respublikamiz uchun alohida ahamiyatga ega.

1992 yilning 2 martida O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida ovozga qo‘yilmasdan, yakdil ma’qullash asosida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Bu bilan respublika

xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyektiga aylandi. Prezident I. A. Karimov ta’biricha, «Birlashgan Millatlar Tashkiloti – bu barcha davlatlarning, mintaqalarning va butun jahon hamjamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir»¹.

Bugungi kunda jahonning 185 ta mamlakati BMT a’zosi hisoblanadi. Ularning har biriga o‘zining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va to‘lov qobiliyatiga mos keladigan darajadagi badallar belgilangan. O‘zbekistonning to‘laydigan badali respublika milliy daromadining 0,13 foizini tashkil etadi. 1998 yilda O‘zbekistonning badali 840 ming AQSH dollarini tashkil etdi².

1993 yil 24 oktabrda Toshkentda BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi ochildi. Bu vakolatxona tarkibiga BMTning Taraqqiyot dasturi (PROON), Axborot va ijtimoiy aloqalar bo‘limi, Narkotik moddalarga qarshi kurash bo‘limi (YUNDKP), BMTning Fan, madaniyat va ta’lim masalalari bo‘limi (YUNESKO), Qochqinlar ishlari bo‘yicha oliy komissar boshqarmasi vakolatxonasi, BMT Bolalar jamg‘armasining vakolatxonasi (YUNISEF), Sanoat taraqqiyoti tashkiloti (YUNIDO), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, BMTning Ko‘ngillilar dasturi (DOON) va bir qancha tashkilotlar hamda vakolatxonalar kiradi. BMTning ana shunday keng imkoniyatlaridan O‘zbekiston ham foydalanishga intilib kelmoqda.

Prezident I. A. Karimovning e’tirof etishicha, «...biz o‘zimizning bunday obro‘li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimizni Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta’minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e’tiborini qaratish imkoniyati deb bilamiz, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta’minlashga xizmat qiladigan – oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib, to tinchlik o‘rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo‘lgan vositalarning hammasiga ega». Mazkur imkoniyatdan foydalanishni nazarda tutib, Prezident I. A. Karimov o‘zining BMT Bosh Assambleyasining 48-(1993 yil sentabr) va 50-(1995 yil oktabr) sessiyalarida so‘zlagan nutqlarida bir qancha aniq takliflarni aytdi. Ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin, ya’ni Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va hamkorlik masalalari yuzasidan BMTning seminarini chaqirish; Markaziy Osiyoni yadrosiz mintaqaga deb e’lon qilish; BMT Xavfsizlik kengashi huzurida vujudga kelib turgan xalqaro nizolarni tahlil qilish va buning uchun maxsus guruh tashkil etish; Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi birgalikda kurash olib borish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tashkil etish; Orol bo‘yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish va boshqalar.

Ana shu barcha takliflarning natijasi o‘laroq, O‘zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yilning sentabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag‘ishlangan seminar bo‘lib o‘tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va jahonning 30 dan ortiq mamlakatlari, shu jumladan AQSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya,

¹ *Каримов И. А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – 47-б.

² Qarang: *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 242–243-б.

Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya hamda hukumat vakillari ishtirok etdilar. Seminarda uchta muhim muammo – Markaziy Osiyoda mustahkam xavfsizlik tizimini yaratish; iqtisodiy hamkorlik va infratuzilmali kommunikatsiyalar; iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish muhokama qilindi va muayyan takliflar bildirildi.

O‘zbekiston Respublikasi rahbariyatining tashabbusi bilan Toshkentda «Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli mintaqa» mavzuida xalqaro konferensiya chaqirildi. Konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik, Islom konferensiyasi tashkiloti hamda boshqa 50 dan ortiq davlat va xalqaro tuzilmalarning vakillari qatnashdilar. Ushbu anjumanning siyosiy ahamiyatiga baho berib, Prezident I. A. Karimov shunday degan edi: «Mazkur konferensiya Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi xavf va tazyiqlarga qarshi turish borasidagi yakdillik bilan qilinayotgan sa’y-harakatlarining dastlabki natijasidir. Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zona deb e’lon qilish tashabbusi – Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik, barqarorlikni hamda bu mintaqada istiqomat qilayotgan kishilarning tinchligini ta’minlash, mintaqani barqaror rivojlantirish va gullab-yashnatish borasidagi manfaat va maqsadlari mushtarakligining yangi bir ko‘rinishidir»¹.

Respublikaning BMT bilan hamkorligi faqat bu masalalar bilan tugamaydi. Bu uzluksiz jarayon bo‘lib, unda iqtisodiy, inson huquqlari va boshqa bir qancha muammolarni hal qilish borasida hamkorlik qilinamoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, 90 dan ortiq xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga, shu jumladan inson huquqlari bo‘yicha 38 ta konvensiyaga qo‘shildi. BMT Kotibiyati ajratib bergan 22 ta asosiy bitim va konvensiyalardan 19 tasini O‘zbekiston ratifikatsiya qildi. Ular orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar, Iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro bitimlar, Bolalar huquqlari, Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyalar bor².

O‘zbekiston BMTning turli sohalar bo‘yicha ixtisoslashgan tashkilotlari bilan ham hamkorlikni rivojlantirmoqda. Bu borada YUNESKO bilan hamkorlikka alohida o‘rin berilgan.

YUNESKO – BMTning fan, madaniyat, ta’lim va axborot sohalariga ixtisoslashgan tashkiloti. U universal xalqaro institut bo‘lib, jahon bo‘yicha fan, madaniyat va ta’limning milliy tizimlarini birlashtirib turadigan chinakam ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Ayni vaqtda ularni jahon intellektual taraqqiyoti tajribasi bilan boyitmoqda, butun insoniyatning boy ma’naviy merosidan xalqlarni bahramand etmoqda. Bu tashkilotga 183 ta davlat a’zo bo‘lib, u har yili 200 ga yaqin turli tadbirlar o‘tkazadi.

¹ O‘sha manba. – 353-b.

² Qarang: Доклад о человеческом развитии. ПРООН, центр экономических исследований. – Т., 1998. – С. 87.

1993 yil 29 oktabrda YUNESKONing Parijdagi qarorgohida O‘zbekiston YUNESKONing a‘zolidigiga qabul qilindi. O‘tgan davr ichida O‘zbekiston YUNESKO rahnamoligida bir qancha ulkan tadbirlar o‘tkazdi. Jumladan:

– 1994 yil oktabrda Fransiyaning Parij shahrida Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi nishonlandi;

– Xiva va Buxoro jahon madaniy qadriyatlari ro‘yxatiga kiritildi. Ularda 411 ta madaniy obyekt bor;

– «Ipak yo‘li – muloqot yo‘li» deb nomlangan yirik ilmiy tadqiqot Markaziy Osiyoga alohida ahamiyat berib, amalga oshirilyapti;

– Amir Temur tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi;

– Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi Parijda keng miqyosda nishonlandi;

– «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi» nomli olti jildli asar tayyorlanib, nashr qilinyapti. Uning to‘rt jildi bosilib chiqdi;

– Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi;

– davlat ta‘limi siyosatidagi islohotlar borasida qiymati 215 ming AQSH dollar bo‘lgan ishlar bajarilyapti. Ularning natijalarini amaliyotga tatbiq qilishni «Osiyo taraqqiyoti» bankining 40 mln. AQSH dollari miqdorida kredit bilan ta‘minlashi rejalashtirilgan;

– Usmon Qur‘oni va O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti «Sharq qo‘lyozmalari kolleksiyasi»ni YUNESKONing «Jahon xotirasi» registriga kiritdi.

1998 yil 6 noyabrda YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisi Toshkentda o‘tkazildi. Uning yakunida O‘zbekiston Respublikasining taklifi bilan «Jahon madaniyati va a‘zo mamlakatlarda YUNESKO faoliyati» deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyada BMT Bosh Assambleyasi 2000 yilni xalqaro jahon madaniyati yili deb e‘lon qilganligi munosabati bilan turli tadbirlarni o‘tkazish taklif qilindi¹. O‘tkazilgan tadbirlar, birinchidan, O‘zbekistonning barcha sohalarda jahon taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi xalqaro miqyosda tan olinganidan dalolat bersa, ikkinchidan, O‘zbekistonning istiqboliga va tezkorlik bilan rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Respublikamiz jahon hamjamiyatiga kirib borishida turli mintaqalarda joylashgan davlatlar va birlashmalar bilan aloqalarni rivojlantirayotgani ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar – Yevropa Ittifoqi, YEXHT, NATO, EKO, OIK, Qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan hamkorlik qilmoqda. 1996 yil fevral oyida Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida bitim tuzish to‘g‘risida Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzokaralar boshlandi. Iyul oyida esa Florensiya shahrida ushbu bitim imzolandi. Rossiyadan keyin ikkinchi bo‘lib Yevropa Ittifoqi bilan O‘zbekiston o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi.

Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlikni O‘zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta‘minlashga qo‘shilgan yana bir hissa sifatida qarash lozim. Chunki imzolangan bitim sherikchilik, iqtisodiy, madaniy,

¹ Qarang: Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари: Даврий тўплам. № 3. – Т., 2000. – 194–198-б.

ilmiy sohalar bilan bir qatorda siyosiy sohani ham nazarda tutadi, u munosabatlarni tashkil qilish va rivojlantirishning huquqiy negizini tashkil qiladi.

Yevropada muhim va katta mavqega ega bo'lgan tashkilotlardan biri Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT)dir. Bu tashkilot bilan O'zbekistonning ham o'zaro hamkorligi kengayib bormoqda. Tashkilot rahbarlari O'zbekistonga muntazam tashrif buyurmoqdalar. 1996 yil Lissabon sammitida O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning ishtirok etishi O'zbekistonning YEXHT bilan muzokaralarini rivojlantirishda asosiy voqea bo'ldi¹.

Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik masalasida o'z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo'ldi. Respublikamiz delegatsiyasining YEXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirish to'g'risidagi da'vati yaxshi qabul qilindi va u Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi. Bu mintaqada tinchlikni saqlash, mojarolarning oldini olish niyatini ifoda etgan amaliy qadam bo'ldi. Lissabon uchrashuvlarida xavfsizlik modelining jahon bo'yicha bo'linmasligi va ta'sir doirasining tengligi to'g'risidagi asosiy qoidani O'zbekiston qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Bu uchrashuvlarda O'zbekistonning mojarolar bo'layotgan mintaqalarga qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

1996 yil sentabrda Toshkentda YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzuidagi xalqaro seminar-kengashi bo'lib o'tdi. Unda 21 ta mamlakat ekspertlarining 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlaridan vakillar qatnashdilar. Seminar-kengashda Markaziy va Sharqiy Yevropa Ombudsman instituti, Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimini takomillashtirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari bo'yicha masalalari ko'rib chiqildi va turli maslahatlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Yevropadagi boshqa nufuzli tashkilotlar, jumladan NATO bilan ham munosabatlarini rivojlantirmoqda. Prezident I. A. Karimovning ta'kidlashicha, «...o'z tarkibida demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Yevropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi hisobiga juda katta Yevroosiyo mintaqasida tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga 1995 yil iyul oyida qo'shilgan bo'lib, bu dasturdagi ishtirokimizga o'z mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlardan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz»².

NATO va O'zbekiston o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud. O'zbekiston 1995 yilda AQSHda, 1997 yilda Qozog'istonda o'tkazilgan

¹ Qarang: *Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot йўлида*. Т. 6. – 245–246-б.

² O'sha manba. – 247-b.

harbiy mashqlarda qatnashgani tufayli, o'z ofitserlari va askarlarining harbiy-texnik tayyorgarligi mavqeini yanada ko'tarishga erishdi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston turkiy tilli davlatlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu xalqlarning o'zaro tarixiy, etnik-madaniy va ma'naviy-ruhiy yaqinligi iqtisodiy va gumanitar sohalardagi muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Turkiy tilli davlatlarning sammitlari (eng yuqori darajadagi davlat rahbarlarining uchrashuvlari) an'anaga aylanib qoldi. Hozirgacha bunday uchrashuvlardan beshtasi bo'lib o'tdi. Uchrashuvlar chog'ida fan, madaniyat, ta'lim, iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari sohalarida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari belgilanyapti, ularni amalga oshirish yo'llari ishlab chiqilyapti.

O'zbekiston rahbariyati turkiy tilli davlatlarning har bir sammitida turli dolzarb muammolarni muhokamaga qo'yish borasida tashabbuslar bilan chiqmoqda. Masalan, 1998 yil 9 iyunda Qozog'istonda bo'lgan uchrashuvda Prezident I. A. Karimov hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlari uchun milliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'sib kelayotgan avlodni XXI asr talablari va muammolariga javob beradigan darajada har tomonlama tayyorlash eng dolzarb masala ekanligini ta'kidlab, bu muammolarni hal etish uchun xalqaro tuzilmalarning resurs, imkoniyat va investitsiyalarini jalb etishni taklif qildi¹.

Ayni kunda turkiy tilli davlatlar o'zaro hamkorlikda bir qancha muammolarni hal qilyaptilar. Jumladan:

- Transkavkaz yo'nalishi bo'yicha Yevropa qit'asiga yo'l ochilyapti;
- yirik xalqaro konsorsiumlar tuzish, qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish bo'yicha birmuncha ishlar qilindi;
- «Turkiston – umumiy uyimiz» g'oyasining amalga oshirilishi natijasi o'laroq Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi tashkil etildi;
- atoqli arboblarning, mashhur eposlarning yubileylari va boshqa tarixiy voqealar birgalikda nishonlanyapti va h.k.

Bularning barchasi turkiy tilli xalqlarning tobora yaqinlashuviga yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama aloqalardan tashqari, ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishga ham harakat qilyapti. Ayniqsa, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalarga alohida e'tibor bermoqda. Bu borada, birinchi navbatda, O'zbekistonga yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi uchun imkoniyatlar yaratish nazarda tutilmoqda. Bu davlatlar bilan aloqalarni tashkil qilishda I. A. Karimovning ta'kidlashicha, bir prinsipga amal qilinyapti, ya'ni «O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir

¹ Qarang: *Karimov I. A. Biz kela jagimizni ўz kўlimiz bilan quramiz. T. 7. – 81-б.*

subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz»¹.

O'zbekiston ana shu maqsaddan kelib chiqib va o'z manfaatlarini hisobga olib, barcha mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda 10 milliard AQSH dollaridan ortiq (ular doim ko'payib bormoqda) chet el sarmoyalari ishtirokida 200 dan ortiq investitsiya loyihalari ishlab chiqildi va amalga oshirilmogda. O'zbekiston chet el investitsiyalarini respublikamizga jalb qilishning eng samarali yo'li qo'shma korxonalarini tashkil qilish, deb hisoblaydi. Hozirgi kungacha dunyoning 80 ta mamlakati sarmoyalari ishtirokida tuzilgan 3200 dan ortiq qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan. Bu hamkorlik natijasi yuqori sifatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga olib kelmoqda. Respublikada ishlab chiqarilgan an'anaviy mahsulotlar – paxta, rangli metall bilan birga kalava, benzin, avtomobil sotish yo'lga qo'yildi².

Mazkur yutuqlarning asosi respublika rahbariyati tomonidan chet el investitsiyalari kirib kelishiga huquqiy kafolatlarning yaratilishidir. Ushbu masala birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida muhokama qilingan va qator qonunlar qabul qilingan edi. Jumladan «Chet el investitsiyalari» hamda «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi qonunlar investorlar uchun qo'l keldi. «DEU» avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash, «Zarafshon-Nyumont» va shu kabi ko'plab korxonalarining samarali faoliyati yuqorida yaratilgan kafolatlarning natijasidir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishidagi yana bir muhim yo'nalishi – MDH davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarning mustahkamlanayotgani bilan bog'liq. Bu yo'nalish muayyan xususiyatlarga ega. Chunki sobiq Ittifoq davrida bu mamlakatlarning iqtisodiyoti o'zaro chambarchas bog'liq edi. Ittifoqning tarqalib ketishi an'anaviy aloqalarning susayishiga, ba'zi soxalarda esa umuman uzilib qolishiga olib keldi.

MDHning ahamiyati to'g'risida so'z yuritishdan oldin uning dunyoga kelishi xususida to'xtalib o'tish lozim. 1991 yilning 8 dekabrda Rossiya, Ukraina, Belorussiya respublikalarining rahbarlari B. Yelsin, L. Kravchuk, S. Shushkevichlar Mustaqil davlatlar hamdo'stligini tuzish haqidagi shartnomani imzoladilar va bu hamdo'stlik ilgari Ittifoqqa kirgan davlatlar uchun ochiq deb e'lon qilindi. 1991 yil 31 dekabrda Ashxobodda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari rahbarlarining Minskda uchrashuvida MDHga sobiq SSSR respublikalarining teng huquqda kirishi kelishib olindi. Uning tarkibiga kirgan davlatlar MDHning ta'sischilari deb hisoblanishi haqidagi taklif ma'qullandi.

¹ Qarang: *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида*. Т. 6. – 241–242-б.

² Qarang: *Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз*. Т. 7. – 16, 329-б.

1991 yil 21 avgustda 11 ta davlat «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomidagi MDH shartnomasini imzoladi. Shu masala yuzasidan qabul qilingan Olmaota Deklaratsiyasida MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas, deb ko'rsatildi.

1993 yilgi Minsk uchrashuvida MDHning Nizomi tasdiqlandi va MDHni huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. MDHning 1993 yil 4 sentabrdagi Moskva yig'ilishida iqtisodiy ittifoq tuzish to'g'risida kelishib olindi. 1994 yil 21 oktabrda MDH davlat boshliqlarining kengashida iqtisodiy integratsiya rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilab olindi va iqtisodiy ittifoqning Davlatlararo iqtisodiy qo'mitasi tuzildi. Uning maqsadi iqtisodiy ittifoq faoliyatini shakllantirish va samaradorligini ta'minlashdan iboratdir.

1995 yil 26 maydagi Minsk uchrashuvida MDHning chegaralarini birgalashib qo'riqlash to'g'risidagi masala ko'rildi va 7 ta davlat ana shu shartnomaga qo'shildi. O'zbekiston esa bu shartnomaga qo'shilmadi, u har bir mustaqil davlat o'z chegaralarini o'zi qo'riqlamog'i kerak, degan fikrda turdi. MDH tashkil etilganidan boshlab 1300 dan ko'proq masalalar muhokama qilindi va hujjatlar qabul qilindi. Lekin bu hujjatlarning ko'pchiligi amalda bajarilmay kelmoqda.

MDH haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida o'zini namoyon qila olmayapti. Buning turli sabablari bor. Birinchidan, ba'zi bir davlatlar eski ittifoqni qandaydir o'zgacha bir shaklda tiklashga intilyaptilar. Prezident I. A. Karimov O'zbekistonning MDHga bo'lgan munosabatini quyidagicha ifoda etdi: «...qabul qilingan qarorlarning (MDH tomonidan. – E. A.) MDH doirasida bajarilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni chinakamiga, amalda izlash o'rniga, davlatlar o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni muayyan mazmun bilan boyitish o'rniga, ko'proq eski davrlarni qo'msash hissi paydo bo'lmoqda. Davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalarni – parlament, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi idoralar – Muvofiqlashtiruvchi yoki Yuqori Kengash, ko'plab amaldorlar ishlaydigan Ijroiya yoki Ma'muriy Qo'mita, birlashgan harbiy-siyosiy tuzilmalar va shu kabilarni tashkil etishga harakat qilinmoqda. ...Sobiq SSSR chegaralarida allaqanday Ittifoqlarga biqinib olish – bunday siyosat o'tmishning turli mafkuraviy andozalarini o'ylab, o'zimizni jahon iqtisodiyoti nazaridan chetda, qashshoq hayot kechirishga mahkum etishdan boshqa narsa emas»¹. Ana shu nuqtai nazardan O'zbekiston o'z mustaqilligiga har qanday zarar yetkazadigan uyushma yoki tashkilotni qo'llab-quvvatlamaydi.

Shuning uchun ham respublikamiz ko'proq ayni paytda MDHga a'zo bo'lgan, ilgari sobiq Ittifoqqa kirgan davlatlar bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatdor aloqalarni rivojlantirishga e'tibor bermoqda va bu borada muayyan natijalarga erishdi ham. Buni Rossiya bilan hamkorlik qilish misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda Rossiya sarmoyadorlari ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalar soni 260 taga

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 252, 253, 256-б.

yetdi. Shunday hamkorlik Ukraina, Belarus va boshqa davlatlar bilan ham rivojlantirilmoqda.

O‘zbekistonning O‘rta Osiyodagi mustaqil davlatlar bilan aloqalari tufayli jahon hamjamiyatiga kirib borishi muhim bir yo‘nalish bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos jihatlarga ham ega. Ma’lumki, qardosh Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston xalqlarining tarixi, madaniyati, tili, dini bir-biriga yaqin. Ular ming yillar davomida bitta iqtisodiy, ma’naviy-madaniy makonda yashab, qarindosh-urug‘chilik, oshna-og‘aynichilik, birodarlik ruhi bilan o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketgan. Shu sababli ham ular juda ko‘p masalalar va muammolarni birgalikda hal qilishga harakat qiladilar. Sobiq SSSRning tarqalib ketishi munosabati bilan bu qardosh davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi aloqalari yanada faollashdi. Mustaqillik yillarida mazkur davlatlar prezidentlarining 20 dan ortiq siyosiy uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvlar chog‘ida barcha uchun umumiy bo‘lgan quyidagi muammolar muhokama etilib, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilindi:

- Orol fojiasi oqibatlarini tugatish;
- yagona iqtisodiy makon tashkil etish;
- o‘zaro integratsiyani kuchaytirish;
- uch mamlakat o‘rtasida energetika, suv zaxiralaridan foydalanish;
- Afg‘oniston tomonidan keskinlik va beqarorlikning kuchayishi xavfining oldini olish va shu kabilar.

Amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar o‘z natijalarini bermoqda. O‘tgan davrda davlatlar o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy asoslari yaratildi, Davlatlararo Kengash tuzildi, Hamdo‘stlik dasturlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha Ijroiya Qo‘mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy integratsiyasining 2000 yilgacha mo‘ljallangan va 53 ta loyihani o‘z ichiga olgan dasturi ishlab chiqildi, yagona iqtisodiy makon vujudga keltirish uchun asos solindi, deyish mumkin¹.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida dunyoning barcha mintaqalarida joylashgan davlatlar bilan teng huquqli aloqalarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishini tezlashtiruvchi yana bir omil – mamlakatimizni dunyoga tanitish masalasi bilan bog‘liq. Bu borada respublikamiz Prezidentining sa’y-harakatlarini ta’kidlab o‘tish lozim. Masalan, I. A. Karimov 1993 yilda Shveysariyadagi «Forum fond» xalqaro iqtisodiy tashkilotining IV sessiyasida so‘zlagan nutqida O‘zbekistonning besh yo‘nalishdagi, ya’ni oltin ishlab chiqarish, gaz, neft, ko‘mir zaxiralari, paxta va meva-sabzavot yetishtirish, rivojlangan transport kommunikatsiyalari va turizmni tashkil qilishning keng imkoniyatlarini atroflicha ochib berdi. Davlatimiz rahbari qaysi bir mamlakatga tashrif buyurmasin, albatta, biznes vakillari, tadbirkorlar, bank xodimlari bilan uchrashib, O‘zbekistonning imkoniyatlari haqida batafsil so‘zlab beradi. Masalan, o‘zining Amerikaga tashrifi davomida Amerika–O‘zbekiston savdo palatasining O‘zbekiston Prezidenti sharafiga uyushtirgan qabul

¹ O‘sha manba. – 258-b.

marosimidagi nutqida u shunday degan edi: «Agar juda ulkan tabiiy va mineral xomashyo resurslari hisobga olinsa, bu – *birinchisi*.

Ikkinchisi, rivojlangan energetika bazasi, kommunikatsiya va infrastruktura;

uchinchisi, arzon ishchi kuchi va uning yetarli darajada yuqori malakaliligi;

to'rtinchisi, O'zbekistonning to'lovga qodirligi, muddati o'tkazib yuborilgan to'lovlarning yo'qligi, oltin, valuta resurslari hisobga olinsa, O'zbekistonda biznesni birgalikda amalga oshirish uchun ochilayotgan juda katta istiqbollari aniq ko'rinmoqda»¹.

Bundan tashqari, chet el biznesining qonun bilan kafolatlanganligi investorlarning e'tiborini jalb qilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatini amalga oshirar ekan, birinchi navbatda, o'z manfaatlarining ustunligi prinsipidan kelib chiqadi. Tashqi siyosat mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, O'zbekistonga chet el investitsiyalari, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Bu siyosat aholining tinch va farovon hayotini ta'minlashga, mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mavqeini jahon standartlari darajasiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

¹ Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – 17–18-б.

XULOSA

Buyuk davlat qurishni oliy maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekistonning ayni kunda barcha siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma‘naviy imkoniyatlari yetarli. Mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar buning dalilidir. Mavjud juda ko‘plab omillar bilan bir qatorda, kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan boy tajribamiz ham bor. 2700 yillik buyuk davlatchilik o‘tmishimiz bor.

Faxr bilan aytish lozimki, ming yillar davomida O‘zbekiston hududidagi tub o‘troq aholining boy madaniy merosi shakllandi. Uning asosini o‘ziga xos ishlab chiqarish usuli, yuksak dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, betakror murakkab me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati tashkil qiladi.

Bu qadimiy yurtdan buyuk allomalar, siyosatchilar va sarkardalar yetishib chiqqan. Ular qoldirgan ilmiy, madaniy va ma‘naviy meros jahon taraqqiyotiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Mamlakatimiz dunyoning chekkasida qolgan ovloq hudud emas, balki jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biridir. Ming yillar davomida islom ta‘limotining insonparvarlik g‘oyalari asosida shakllangan xalq ma‘naviyati tobora sayqallashib, bir qancha tarixiy bosqichlarning tazyiqidan sog‘-omon o‘tib va bugungi kunda Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlab, uning taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. I. A. Karimovning ta‘biri bilan aytganda, «ulug‘ maqsad yo‘lida turgan muammolar va tahdidlarni aniq tushunish jamiyatni birlashtiradi, jipslashtiradi, har bir kishiga o‘zining mas‘uliyatini, o‘z o‘lkasi, jonajon Vatanning tarixi va hayotdagi murakkab voqealarga daxldorligini puxta o‘ylash, yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Ana shularning hammasini tushunishgina o‘tish bosqichida yangilanish va jamiyatni isloh qilish yo‘lida boshdan kechirishga to‘g‘ri kelayotgan juda katta qiyinchiliklar va mashaqqatlarni yengishda odamga kuch va qat‘iyat bag‘ishlashi mumkin»¹.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalarda qo‘lga kiritgan yutuqlari shundan dalolat beradiki, davlatimiz o‘z kelajagini aniq va to‘g‘ri belgilab olgan, xalqning ozodligi va farovonligini ta‘minlash yo‘lidagi buyuk maqsadlari hamda intilishlaridan uni hech qanday g‘arazli kuch qaytara olmaydi.

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – 261-б.*

ADABIYOT

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., 2003.

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллигини эълон қилиш тўғрисида»ги 1991 йил 31 август қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1991. № 11. 245-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг асослари тўғрисида»ги 1991 йил 31 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1991. № 11. 246-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 1997. № 2. 36-м.

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг «Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллиги тўғрисида»ги баёноти // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. №3. Т., 1992. 121–124-б.

Олий Мажлиснинг инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1997. № 4–5. 102-м.

Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. Т., 1996.

Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. Т., 1996.

Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. Т., 1996.

Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. Т., 1996.

Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. Т., 1997.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. Т., 1998.

Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т. 7. Т., 1999.

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. Т., 2000.

Каримов И. А. Ватан манфаати учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. Т., 2001.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун қурашмоқ керак. Т. 10. Т., 2002.

Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий Дунё ҳамкорлик йўли. Т. 11. Т., 2003.

Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Т. 12. Т., 2004.

И. А. Каримов миллий давлатчилик, истиқлол мафкураси ва ҳуқуқий маданият тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президенти асарларини ўрганувчиларга ёрдам) / Тузувчилар: У. Таджиханов, А. Саидов. Т., 1999.

Абдунабиев А. Вклад в мировую цивилизацию. Т., 1998.

Абу Тоҳирхожа. Самария. *Наршахий.* Бухоро тарихи. *Баёний.* Шажараи Хоразмшоҳий. *Ибрат.* Фарғона тарихи. Т., 1991.

Абулғозий. Шажараи турк. Т., 1992.

Азамат Зиё. Сўғдиёна, Кўхна Хоразм, Бактрия, Парфия, Тохаристон (мил. ав. биринчи минг йиллик) // Ўзбекистон овози. 1993. 11 сент, 12, 30 окт, 29 дек.

Азим Малик. Хунну давлати // Мулоқот. 1994. №1–2.

Алимов Ш. Қ. XVII–XVIII асрларда Мовароуннаҳр халқларининг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий аҳволи. Т., 1998.

Амир Темур Кўрагон. Т., 1992.

Арифджанов Э. Қ. XX аср бошларида Бухоро маданияти: ҳақиқат ва афсоналар. Т., 1998.

Асқаров А. Ўзбекистон мустақиллик шароитида: тарих фанининг вазифалари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. Т., 1992. №7–8.

Асқаров А. Ўзбекистон тарихи (энг қадимги даврлардан милоднинг V асригача). Т., 1994.

Аҳмедов Б. Амир Темур (тарихий роман). Т., 1995.

- Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т., 1994.
 Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. Т., 1992.
 Баёний М. Ю. Шажараи Хоразмшоҳий. Т., 1994.
 Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., 1997.
 Березиков Е. Легенды и тайны Узбекистана. Т., 1991.
 Беруний А. Р. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. 1. Т., 1968.
 Бобобеков Ҳ. А. Қўқон тарихи. Т., 1986.
 Боймирза Ҳ. Басмаческое движение // Звезда Востока. 1992. № 1.
 Босмачилик: ҳақиқат ва уйдирма: Давра суҳбати // Шарқ юлдузи. 1991. № 3.
 Буюк сиймолар, алломалар (1-китоб). Т., 1995.
 Буюк сиймолар, алломалар (2-китоб). Т., 1996.
 Валидий З. Ўзбек уруғлари. Т., 1992.
 Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Т., 1990.
 Голованов А. А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917–1937 гг. Т., 1992.
 Гумилёв Н. Древние тюрки. М., 1967.
 Жабборов И. Ўзбек халқининг этнографияси. Т., 1994.
 Жалолов А. Сиёсий партиялар ва демократия: ўзаро алоқа ва боғлиқлик // Мулоқот. 1999. № 3.
 Жўраев Н. Президент – Ватан ва миллат тимсоли // Мулоқот. 2000. № 1.
 Жўраев У, Саиджонов Й. Дунё динлари тарихи. Т., 1998.
 Зиёев Х. Истиклол – маънавият негизи. Т., 1999.
 Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т., 1998.
 Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Т. 1–2. Т., 1992.
 Ибрат И. Фарғона тарихи // Мерос. Т., 1991.
 Иброҳим К. Мадаминбек. Т., 1993.
 Иброҳимов А. ва бошқ. Ватан туйғуси. Т., 1996.
 Икрамов А. Избранные произведения. В 3-х т. Т. 1–3. Т., 1972, 1973, 1974.
 Илюхин В. Қабоҳат ёхуд... («Ўзбеклар иши» деган уйдирма хусусида). Т., 1993.
 Ипак йўли афсоналари. Т., 1993.
 Исоқов И. Қирғинни ким қилган-у, жадига қолган ким эди? // Шарқ юлдузи. 1992. № 5.
 Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Т., 1990.
 Қайғисиз Отабоевнинг қайғулари // Ўзбегим. Т., 1992.
 Кўкал З. Туркчилик асослари. Т., 1994.
 Левитин Л., Карлайл Д.С. Ислом Каримов – янги Ўзбекистон Президенти. Т., 1996.
 Маҳмудов Қ. Туркий хоқонликлар // Турон тарихи. 1992, №1.
 Маҳмудов М. Барҳаёт сиймолар. Т., 1991.
 Миллий мафкура келажак пойдевори // Халқ сўзи. 2000. 7 апр.
 Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. Даврий тўплам. № 3. Т., 2000.
 Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Т., 1990.
 Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар даври. Т., 1995.
 Муҳаммаджонов А. Темурийлар салтанати. Т., 1995.
 Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., 1993.
 Наршахий А. Б. Бухоро тарихи // Мерос. Т., 1991.
 Низомулмулк. Сиёсатнома. Т., 1997.
 Олламов Я. Маҳаллий ҳокимият тизимининг вазифалари // Ҳаёт ва қонун. 2000. № 2.

- Орифжонов Э. Қ.* Туркистон Советлар даврида: ушалмаган орзулар. Т., 1994.
- Орифжонов Э. Қ.* Чор Россиясининг Ўрта Осиёдаги мустамлакачилик сиёсати ва унинг оқибатлари. Т., 1995.
- Пардаев М.* Сирли Кушон салтанати. Т., 1990
- Радкевич В. А.* Великий шелковый путь. М., 1990.
- Раҳмонов Н.* Турк ҳоконлиги. Т., 1993.
- Раҳмонов Н.* Турк ҳоконлиги. Т., 1993.
- Ризаев К.* Шароф Рашидов. Т., 1992.
- Ртвеладзе Э. В.* Ўрта Осиёнинг қадимги тангалари. Т., 1987.
- Сагдуллаев А. С.* Усадьбы Древней Бактрии. Т., 1987.
- Сагдуллаев А.* Қадимги ўзбек илк ёзма манбалари. Т., 1996.
- Семенюта В.* Голод в Туркестане в 1917–1920 гг. // Человек и политика. 1991. № 12.
- Сулаймонова Ф.* Шарқ ва Фарб. Т., 1997.
- Темур ва Улуғбек даври тарихи.* Т., 1996.
- Темур тузуклари.* Т., 1992.
- Тожихонов У.* Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий-маънавий муаммолари. Т., 1996.
- Тожихонов У.* Ҳуқуқий ислоҳотлар: муаммолар ва истикболлар // Ҳуқуқ–Право–Law. 2000. № 1.
- Толстов С. П.* Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т., 1964.
- Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан.* Т., 1996.
- Турон У.* Туркий халқлар мафқураси. Т., 1995.
- Тўхлиев Н.* Ўзбекистон иқтисодиёти (саволлар ва жавоблар). Т., 1991.
- Узоқова Д.* Фуқаролик жамияти ва инсон ҳуқуқи // Ҳаёт ва қонун. 1999. № 2.
- Уразаев Ш. З.* Конституция независимого Узбекистана. Т., 1993.
- Фозилбеков О.* Дукчи эшон воқеаси. Т., 1992.
- Форобий А. Н.* Фозил одамлар шахри. Т., 1993.
- Ҳасанов Б. В.* Политика советской власти по отношению к национальной интеллигенции Туркестана // Наука и новые технологии. Бишкек. 1998. № 4.
- Хўжаев Ф.* Танланган асарлар. Т. 1. Т., 1976.
- Шамсутдинов Р.* Эрка чорлаган эркисизлик // Шарқ юлдузи. 1992. № 3.
- Шарафиддин Али Яздий.* Зафарнома. Т., 1997.
- Шишкин В. А.* Афрасиаб – сокровищница древней культуры. Т., 1966.
- Шониёзов К. Ш.* Қанғ давлати ва қанғлилар. Т., 1990.
- Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ.* Т., 1998.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи.* Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т., 2000.
- Ўлмас обидалар.* Т., 1989.
- Ғойибназаров Ш.* Ижтимоий ривожланиш сабоқлари (20-йиллар таҳлили). Т., 1994.
- Ғофуров З.* Ҳуқуқий давлат мезони // Ҳаёт ва қонун. 1999. № 7.
- Ҳасан Ато Абдуший.* Туркий қавмлар тарихи. Т., 1994.
- Ҳасаний М.* Туркистон босқини. Т., 1992.
- Ҳасанов Б. В.* Зиёлилар аҳволи: тарих ва тақдир // Фан ва турмуш. 1999. № 3.
- Ҳасанов Б. В.* Зиёлилар ва тарихий тараққиёт // Мулоқот. 1999. № 1.
- Ҳасанов Б. В.* Қадимги Марказий Осиё халқлари тарихий ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари. Т., 1996.
- Ҳасанов Б. В.* Кўчманчи ўзбеклар давлати ва Ўрта Осиёнинг босиб олиниши. Т., 1995.
- Ҳасанов Б. В.* Миллий ўқитувчи кадрлар: янги ва эски мактаблар // Халқ таълими. 1998. № 6.

Ҳасанов Б. В. Сиёсий қатағон ва маданий инқилоб // Ҳаёт ва қонун. 1998. № 8.

Ҳасанов Б. В. Ўзбек халқининг келиб чиқиши ва шаклланиши. Т., 1993.

Ҳасанов Б. В. Ўзбекистонда халқ таълими ҳамда фан соҳасида совет сиёсати ва миллий зиёлилар (20-йиллар иккинчи ярми – 50-йиллар бошлари) // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. № 2. Т., 1999.

Ҳасанов Б. В. Эркин тафаккур мевалари // Гулистон. 1998. № 4.

Ҳасанов Б. В. Жади́дчилик ва миллий мустақиллик // Фан ва турмуш. 1998. № 6.

Ҳомидов Ҳ. Шохноманинг шухрати. Т., 1991.

Ҳуқуқий давлатчиликнинг миллий модели // Тафаккур. 2000. № 3.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<i>1-ma'ruza.</i> O'ZBEKISTON TARIXI FANINING MAZMUNI, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI O'RGANISHNING AHAMIYATI.....	5
1. O'zbekiston tarixini o'rganish – muhim siyosiy vazifa	5
2. O'zbekiston tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari.....	7
3. O'zbekiston tarixining asosiy manbalari.....	12
<i>2-ma'ruza.</i> O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI.....	14
1. O'zbek xalqining etnogenezi: tarixiy xususiyati va mohiyati.....	14
2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida etnosiyosat masalalarining dolzarbligi	28
<i>3-ma'ruza.</i> MARKAZIY OSIYODAGI DASTLABKI DAVLAT TUZILMALARI, ULARDAGI IJTIMOY HAYOTNING O'ZIGA XOSLIGI	32
1. «Osiyocha ishlab chiqarish» usulining o'ziga xos xususiyatlari	32
2. Miloddan avvalgi VIII–VII asrlardan to milodiy VII asrlargacha o'lkamizda davlatchilik taraqqiyotining xususiyatlari	38
<i>4-ma'ruza.</i> BUYUK IPAK YO'LI: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	43
1. Buyuk Ipak yo'li: vujudga kelishi va rivojlanishi.....	43
2. Insonparvarlikning qaror topishi va turli xalqlar madaniyatining uyg'unlashuvida Buyuk Ipak yo'lining tarixiy ahamiyati	53
<i>5-ma'ruza.</i> MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDAGI UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSALARI (IX–XII, XIV–XV asrlar).....	56
1. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi buyuk Uyg'onish davrining zaruriyati	56
2. IX–XII, XIV–XV asrlardagi fan, madaniyat va tasavvuf ilmining yuqori darajaga erishganligi va uning jahonshumul ahamiyati.....	65
<i>6-ma'ruza.</i> AMIR TEMUR DAVLATI. TEMUR TUZUKLARI VA HOZIRGI ZAMON.....	71
1. Temur davlatining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar	71
2. Amir Temur – tarixiy shaxs.....	78
<i>7-ma'ruza.</i> TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI	92
1. Shayboniy va Ashtarxoniyalar davrida O'rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar.....	92
2. O'zbek davlatchiligi birlashmalarining shakllanishi va uning xususiyatlari	98
3. “Yagona xalq”, “Umumiy Vatan” tushunchalari qadrining ketishi va yo'qolib borishi sabablari	102
<i>8-ma'ruza.</i> CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI.....	107
1. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi	107
2. Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining mohiyati va maqsadi	113
<i>9-ma'ruza.</i> TURKISTON XALQLARINING CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI MILLIY OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK HARAKATI	119
1. Turkiston xalqlarining chorizm istibdodiga qarshi milliy ozodlik harakatlari va ularning bosqichlari	119
2. O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va taraqqiyoti (1917 yilgacha)	125

<i>10-ma'ruza. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA ISTIQLOLCHILIK HARAKATI</i>	134
1. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining zo'rlik bilan o'rnatilishi.....	134
2. Sovetlarning shovinistik siyosatiga ommaviy qarshilikning vujudga kelishi va uning oqibatlari	142
<i>11-ma'ruza. SOVET DAVLATINING QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI OG'IR OQIBATLARI</i>	151
1. SSSRda ma'muriy buyruqbozlik tizimining shakllanishi	151
2. Sovet davlati qatag'onlik siyosatining O'zbekistondagi og'ir oqibatlari	156
<i>12-ma'ruza. SOVETLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIGI HAMDA BUNING OQIBATLARI</i>	166
1. Sovetlar davrida O'zbekiston xalq xo'jaligini qayta tashkil qilish natijalari va muammolari.....	166
2. Kommunistik mafkura hukmronligining o'rnatilishi hamda uning milliy madaniyat va ma'naviyatga salbiy ta'siri	173
<i>13-ma'ruza. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI</i>	182
1. 90-yillar boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.....	182
2. O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi va buning tarixiy ahamiyati	187
<i>14-ma'ruza. O'ZBEKISTON HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH YO'LIDA. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI</i>	191
1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning xususiyatlari	191
2. O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, ularning mohiyati va asosiy yo'nalishlari	194
<i>15-ma'ruza. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOTI</i>	205
1. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllantirilishi va uning asosiy prinsiplari.....	205
2. Bozor iqtisodiyotiga evolyutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich o'tilishi	209
<i>16-ma'ruza. O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI</i>	216
1. Ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi va uning milliy mafkurani shakllantirishdagi o'rni.....	216
2. Bozor munosabatlari sharoitida madaniyatni rivojlantirish muammolari.....	223
<i>17-ma'ruza. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI MUNOSABATLARI</i>	228
1. O'zbekiston tashqi siyosatining prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari.....	228
2. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi	231
XULOSA	241
A d a b i y o t	242

Hasanov Baxtiyor Vaxapovich,
tarix fanlari doktori;

Arifdjanov Erkin Qosimovich,
tarix fanlari nomzodi, dotsent;

Alimov Sherzod Qo‘rqmasovich,
tarix fanlari nomzodi;

Irmuhamedov Baxtiyor Abduvosiqovich

O‘ZBEKISTON TARIXI

Ma‘ruzalar kursi

Muharrir **M. S. Rahmonova**
Kompyuterda teruvchi va sahifalovchi **E. S. Jiyanbayeva**

Bosishga ruxsat etildi 15.05.2005. Nashriyot hisob tabag‘i 19,5.
Adadi 400. Buyurtma № . Bahosi shartnoma asosida

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
700197, Toshkent sh., Intizor, 68.